

O'B. BITO'RAYEV

# SIYOSATSHUNOSLIKKA KIRISH

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
INSTITUTI**

**SIYOSATSHUNOSLIKKA  
KIRISH**

*O'zhekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent–2017**

**УО‘К 32(075)**

**KBK 66ya7**

**B'73**

**ISBN 978-9943-5142-1-8**

**Biturayev O‘. B. Siyosatshunoslikka kirish (o‘quv qo‘llanma)**

**Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017, 344 b.**

Mazkur o‘quv qo‘llanmada bevosita siyosatshunoslikning asosiy kategoriyalar yoritilgan bo‘lib, unda zamonaviy siyosiy qarashlar, ta’limotlar o‘z aksini topgan. Xususan, siyosiy hokimiyat, davlat, siyosiy partiyalar, siyosiy jarayon va madaniyat, siyosiy mafkura, siyosiy elita va siyosiy yetakchilik kabi siyosatshunoslikning muhim kategoriyalarning zamonaviy siyosiy tadqiqotlar asosidagi mohiyati oolib berilgan.

Bu esa o‘z navbatida talabalarda siyosiy bilimlarni nazariy jihatdan o‘rganib, ularni mohiyatan anglash bilan cheklanib qolmasdan, olgan siyosiy bilimlarini amaliyotga to‘g‘ri joriy eta olish, mehnat faoliyati davomida ularni qo‘llay olish malakasini shakllantirish imkonini beradi.

В данном учебном пособии, непосредственно, освещены основные категории политологии, в нём отражены современные политические взгляды и учения. В частности, на основе современных политических исследований была раскрыта суть политических категорий, таких как политическая власть, государство, политические партии, политический процесс и культура, политическая идеология, политическая элита и политическое водительство.


В свою очередь, это даёт возможность теоретически изучить политические знания студентов, не ограничивая их осмысливанием сути, полученные политические знания правильно применить на практике, в течении трудовой деятельности формирует квалификацию умения применять их.

### ***Taqribchilar:***

**Djumayev R.Z.–ToshDShI “Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar” kafedrasini professori, s.f.d.**

**Baxadirov M.M.–jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti “Xalqaro munosabatlar” fakulteti dekani, s.f.n., dotsent.**

**ISBN 978-9943-5142-1-8**



© «Barkamol fayz media» 2017.

## **KIRISH**

Siyosat – o‘z mohiyatiga ko‘ra doimo yangilanib boruvchi, jamiyat va davlat rivojlanishining so‘nggi yangiliklarini o‘zida aks ettiruvchi mohiyatga ega. Shu bois siyosiy atamalarning yagona universal modelini shakllantirish murakkab. Siyosatshunoslik o‘z predmeti doirasida jamiyat siyosiy hayotidagi o‘zgarishlarni ilmiy asoslashga intiladi. Bu esa siyosatshunoslik fani va uning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotida siyosiy bilimlar o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, bu asosda davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruvini to‘g‘ri tashkil etish mumkin. Bugungi kunda siyosiy bilimlarning keng rivojlanishi, siyosiy jarayonlar va siyosiy institutlar borasida yangicha qarashlarni shakllantirmoqda. Natijada davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish ehtiyoji tug‘ilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab, suveren demokratik davlat barpo etish yo‘lidan bormoqda. Dastlab, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”, mam-lakatimizda amalga oshirilgan demokratik islohotlarning asosini tashkil etdi. Bugungi kunda ham O‘zbekistondagi modernizatsiya jarayoni davom etmoqda. 2017-yil 7-fevralda O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirishga qaratilgan besh ustuvor yo‘nalishdan iborat “Harakatlar strategiyasi” e’lon qilindi. Mazkur ustuvor yo‘nalishlar bevosita davlat va jamiyat boshqaruvini isloh etish, sud-huquq tizi-mini rivojlantirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohadagi faoliyatni kuchaytirish, xavfsizlik va tashqi siyosatni samarali yuritishga oid masalalarни qamrab olgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 8-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islo-

hotla konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi va unda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilab berildi. Bu esa mamlakatimizda siyosiy bilimlarning rivoji uchun ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirda jahondagi ilmiy markazlarda kundan-kunga yangi siyosiy konsepsiyalar, nazariyalar ilgari surilmoqda va siyosatshunoslikning zamonaviy masalalarni qamrab olgan mavzular bilan boyib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda ham mazkur sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada asosiy siyosiy kategoriyalar yoritilgan bo‘lib, imkon qadar talabalarga terminologiya jihatdan murakkab bo‘lmagan holda to‘liqroq ma’lumot yetkazib berish nazarda tutilgan. Mazkur o‘quv qo‘llanmani shakllantirishda davlatimiz taraqqiyotiga asos bo‘luvchi O‘zbekiston Prezidentining nutqlari, ma’ruzalari hamda davlat dasturlari, huquqiy me’yorlarga tayanildi.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston chop etilgan siyosatshunoslikka oid ilmiy manbalar o‘qo‘v qo‘llanmaning asosini tashkil etadi. Xu-susan, U.Yu. Idirov (Politologiya: o‘quv qo‘llanma.–T.: ToshDShI, 2013., Politologiya. Mavzularini interfaol o‘rganish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma.–T.: ToshDShI, 2010.), M.Qirg‘izboyev (Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.–T.: Yangi asr avlodni, 2013.), B. Aliyev, I.Ergashev, T.Hoshimov, O. Yuldashev (Politologiya. (Darslik), –T.: TDIU, 2010.), X.T. Odilqoriyev, D.X. Razzoqov (Siyosatshunoslik.–T.: O‘qituvchi, 2008), R.F.Farmanov, N.O‘. To‘laganova, M.T.Turdiyev, Q.A. Jo‘rayev, U.N.Muhammadiyev (Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyat. O‘quv qo‘llanma.–T., 2006.), S.Otamurodov, I.Ergashev, Sh.Akromov, A.Qodirov (Politologiya: o‘quv qo‘llanma.–T., 2002.), mualliflar guruhi. (Politologiya. O‘quv qo‘llanma. T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyot. “O‘AJBNT” markazi, 2002.), S.M.G‘ofurov, A.A.Xaydarov, N.O‘.To‘laganova (Siyosatshunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma–T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasingin nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.), F.Sh. Sharopov (Siyosatshunoslik: Oliy o‘quv yurt talabalari uchun

o‘quv qo‘llanma.–T.O‘zbekiston, 1992.) asarlaridan keng foydalaniidi va ulardan olingen havolalarni umumlashtirish (xavolalar nisbatan kamroq foydalaniilgan ilmiy manbalardan keltirilgan) maqsadida mazkur asarlar har bir mavzuning asosiy adabiyotlari ro‘yxatiga kiritildi. Gender muammosiga bag‘ishlangan mavzuni yoritishda gender masalasi bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan TDSHI “Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar” kafedrasi o‘qituvchisi N.M.Niyazovaning bevosita yordamidan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar va jahon davlatlari bilan aloqalarini yoritishda ni-Tashqi ishlar vazirligining rasmiy saytidagi ma’lumotlarga tayanildi.

Shuningdek, bugungi kunda ingliz tilidagi xorijiy adabiyotlarni tahlil qilib, ulardagi yanglilik va ilmiy mulohazalardan foydalanish dolzarbligini hisobga olib AQSHda chop etigan zamонавији siyosatshunoslikka oid Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S.ning “Political Science: An Introduction” ( New Jersey: Pearson, 2013) asaridagi muhim ilmiy ma’lumotlar ham kiritildi.

Biroq mazkur o‘quv qo‘llanma siyosatshunoslikning barcha masalalarni to‘liq qamrab olmagan va nisbatan nazariy masalalarga bag‘ishlangan hamda ayrim kamchilik, xatolar bo‘lishi tabiiy. Asosiy maqsad esa talabalarning bilimini milliy va xorijiy tajriba uyg‘unligi asosida yuksaltirish va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon qadar hissa qo‘shishdir.

# **1-mavzu. SIYOSATSHUNOSLIKKA KIRISH. SIYOSAT VA SIYOSATSHUNOSLIK**

## **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosatshunslik fani va uning fanlar tizimida tutgan o'rni haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

## **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Siyosat, siyosatshunoslik, siyosat funksiyalari, siyosatshunoslik funksiyalari, siyosat obyekti, siyosat subyekti, siyosat va axloq, siyosatshunoslik kategoriyalari, siyosatshunoslik qonuniyatlari.*

## **Asosiy savollar:**

1. «Siyosat» tushunchasi, mohiyati, siyosat obyekti va subyekti.
2. Siyosatshunoslikning obyekti, predmeti, qonuniyatlari, tadqiqot uslublari va kategoriyalari.
3. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqalari.

## **1. «Siyosat» tushunchasi, mohiyati, siyosat obyekti va subyekti**

“Siyosat” tushunchasining bugungi kunda ko‘plab ijtimoiy atamalar kabi yagona universal ta’rifi mavjud emas. Siyosat doimo o‘zgaruvchan va tarixiy rivojlanish bosqichida kengayib boruvchi ijtimoiy fenemon yoki hodisa hisoblanadi. Siyosatning vujudga kelishi bevosita kishilik jamiyatida davlat institutining paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Demak, “siyosat” tushunchasi kundalik hayotimizning ajralmas qismi sanaladi. Siyosatshunoslik fani “otasi” sifatida e’tirof etilgan Arastu (miloddan avvalgi 384–322 ) fikri bilan aytganda, atrofimizda yuz

berayotgan deyarli barcha jarayonlar siyosat bilan bog‘liqdir<sup>1</sup>. Shu bois odamlar siyosatni kundalik amaliy kuzatuvalar va tadqiqotlar natijasida olingen ilmiy bilimlar asosida idrok etadilar. Siyosat to‘g‘risidagi kundalik, tartibga solinmagan tasavvurlar ko‘p ming yillardan buyon mavjuddir. U yoki bu shaklda ular har bir insonda mavjud ommaviy ongning ajralmas qismini tashkil etadi. Bunday tasavvurlarga ko‘ra kundalik hayotda aniq maqsadga yo‘naltirilgan har qanday faoliyatni siyosat deb atash mumkin.

«Siyosat» tushunchasi – qadimiyligi tushunchalardan biri. Hozirgi tillarga va madaniyatga «siyosat» atamasi qadimgi yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘z (politika) sifatida kirgan. U davlat bilan hukmronlik munosabatlari, odamlar va jamiyat ustidan rahbarlik qilish ilmi bilan bog‘liq qadimgi yunon tushunchalariga asoslanadi: «polis» (shahar-davlat), «politikos» (davlat arbobi), «politeyya» (konstitutsiya).

Siyosat (yunoncha politika) davlat va ijtimoiy ishlar, odamlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, partiyalar, millatlar va davlatlar o‘rtasidagi hukumatli munosabatlari bilan bog‘langan faoliyat sohasidir.

“Siyosat”–yunoncha “politeia” (yoki “politeyya”) so‘zining tarjimasidir. Bu so‘z yunon tilida polis (shahar-davlat) rejimi deb atalib, u butun bir hamjamiyatni uyushtirishning ajralib turadigan belgisi, rahbarlikning tashkil etish yo‘li mazmunini anglatadigan tushuncha.

Ba’zi manbalarda boshqacha fikrlar keltirilgan, «siyosat»–yunoncha «polis», «politicos» so‘zlarining tarjimasi bo‘lib, u davlatni boshqarish san’ati, «davlat ishlari» degan ma’nolarni anglatadi. «Siyosat» iborasi amaliyotda Arastuning «Siyosat» risolasi chop etilgandan keyin keng foydalanishga kiritilgan. Arastu aytadiki: «Siyosat har bir fuqaroga eng yaxshi hayot tarzini ta’minlab beradigan boshqaruv uslubidir». Qadimgi yunon faylasufi Demokratning fikricha, «siyosat davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir». Aflatun siyosatni hukm-dorlarning san’ati sifatida, ya’ni shohning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta’riflaydi. «Siyosat san’atining mohiyati,— deydi u,— davlatning umumiy hayo-

---

<sup>1</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.2–19.

tin oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy «matoni» to‘qish qobiliyatida namoyon bo‘ladi».

“Siyosat” tushunchasini aniqlashtirish, uni mazmun-mohiyatini ochib berish va tadqiq etish uzoq davrlar mobaynida monarxiya, respublika va davlatning boshqa shakllarini tadqiq etish, jamiyat va davlatni bir-biridan ajratish (N.Makiavelli), cherkov institutlari (xristianlik an’analari) va fuqarolik jamiyatni (J.Lokk), davlatni iqtisodiy va ijtimoiy tuzum bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlashga doir (A.Smit) ilmiy izlanishlar jarayonida o‘z takomiliga yetdi.

«Siyosat» tom ma’noda odamlarning ijtimoiy hayotini tashkil etishga doir ehtiyojlarini aks ettiradi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining in’ikosi, hosilasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ijtimoiy hayotning turli sohalarini yo‘naltirish, turli kuch manfaatlarini muvozanatini topish va ta’minalash orqali jamiyat yaxlitligini, jipsligini ta’minalash, taraqqiyotning ilg‘or strategiyasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdir.

Siyosat bevosita hokimiyat, boshqaruva sohasiga daxldor bo‘lib, davlat va jamoat ishlarini, odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq faoliyat sohasini anglatadi. U siyosiy institutlar va tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishini, siyosiy me’yorlar va an’analarni, odamlarning hokimiyat-boshqaruva va tashkilotchilik faoliyatini, ijtimoiy-siyosiy manfaatlari va ehtiyojlarini, siyosiy g‘oyalari va qarashlarini o‘z ichiga oladi.

Siyosat san’at sifatida odamlarni faollashtirish vositalarini voqelikka mos tarzda tanlay olishda namoyon bo‘ladi. Mohir siyosatchi odamlarni murakkab vazifalarni hal etishga qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan paytni to‘g‘ri belgilay oladi. Uning muvaffaqiyati, faollikka faqat birgina ma’muriyatçilik bilan emas, balki odamlar uchun qulay sharoitlar yaratish, doimiy va oqilona talabchanlik bilan erishishga ham bog‘liq. Rahbarning mahorati inson xulq-atvorining barcha murakkab jihatlarini farqlay olishdan iboratdir.

Ilmiy manbalarda “siyosat” deganda, quyidagi ta’rifni uchratish mumkin. Siyosat – sinflar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hokimiyat va jamiyatni boshqarishga oid munosabatlar, faoliyat, xatti-harakat

va kommunikatsion aloqalarning ko‘p qirrali olami. Siyosatning asosiy omillarini, eng avvalo, katta ijtimoiy guruhlar (sinflar, millatlar, xalqlar, sivilizatsiyalar), ularning manfaatlarini ifoda etuvchi siyosiy tashkilotlar, institutlar, harakatlar va siyosiy liderlar tashkil etadi.

Ingliz tilida “siyosat” atamasi ikki “policy” va “politics” atamalari orqali izohlanadi va mohiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi:

“Policy” (siyosat mazmuni) – hokimiyatning, hukumatni faoliyat mazmunini (boshqaruvga oid konsepsiya, harakat dasturi sifatida), ularning siyosiy qarorlar qabul qilish texnologiyalari mohiyatini aks ettiradi.

“Politics” (siyosiy jarayon) – bu siyosiy faoliyat jarayonlarida siyosiy ixtiyoqlarni yuz berishi va ularni oldini olish, bartaraf etish nuqtayi nazardan kelib chiqib amalga oshiriladigan siyosat ma’nosini anglatadi.

Professor U.Yu.Idirov e’tirof etganidek, siyosat omili jamiyatda kamida to‘rtta o‘zaro bog‘lq jarayonlarni qamrab oladi:

1. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, aynqsqa ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarish.

2. Jamiyat faoliyatini amalga oshirishning tartib-qoidalarini ishlab chiqish.

3. Ijtimoiy munosabatlarni amalga oshirish bilan bog‘lq bo‘lgan jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish.

4. Siyosat subyektlarining faoliyati orqali siyosiy hokimiyatni amalga oshirish.

Ta’kidlash joizki, “siyosat” tushunchasiga nisbatan salbiy yondashuvlar ham mavjud. Siyosat ko‘pchilik qiziqish sohasiga kirmaydi. Ko‘pgina insonlar siyosatni be’mani narsa deb hisoblashadi, ehtimol ular haqdirlar. Siyosato z mohiyatiga ko‘ra axloq me’yorlariga zid sanaladi, boshqacha qaraganda axloqsizlikdir, deb hisoblashadi. Hokimiyatdan to‘g‘ri foydalana olmaslikni, korrupsiyani – siyosatning eng asosiy xususiyati deb bilishadi<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.2–19.

Biroq bugungi kunda demokratik boshqaruv tobora keng yoyilib borayotgan sharoitda “siyosat” tushunchasining asosiy negizlarini quyidagilar tashkil etishini ko’rsatib o’tish mumkin:

- demokratiya;
- insonga yo’naltirilganlik, jinoyatchilikka barham berish;
- ma’naviyat;
- o’z vataniga fuqarolik muhabbati;
- siyosatning muayyan tarixiy sharcitlardan kelib chiqishi, boshqa fanlardan ham foydalanilgan holda belgilanishi;
- siyosat millatlar, ijtimoiy guruhlar, davlatlar o’rtasidagi ularning ehtiyojlari va manfaatlarini amalga oshirishga oid munosabatlar sifatida qaralishi;
- siyosatning davlat ishlariда ishtirok etish, davlat faoliyatining shakllari, vazifalari va mazmunini belgilashi;
- siyosat—millionlab kishilarning taqdiri, uning inson manfaatlariga yo’naltirilishi demakdir.

Siyosatning asosiy «harakat qiluvchi shaxslari» uning subyektlari bo‘lib, ular siyosiy faollik manbai sifatida maydonga chiqadilar. «Subyekt» va «obyekt» tushunchalari (lotincha subjectum—ega, objectum—predmet) gumanitar bilimning muhim kategoriylaridandir.

Siyosat subyekti—amaliy siyosiy faoliyat sohibidir.

Siyosat subyektlariga—individlar (oddiy shaxslar yoki siyosiy liderlar); ijtimoiy guruhlar—jamoalar, etnik guruhlar, diniy jamoalar, siyosiy elita, sinflar, omma, fuqarolik jamiyati, xalqlar, millatlar, tamaddunlar; siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar) kiradi.

Siyosat obyekti— subyektning bilish va boshqa faoliyati nimaga qaratilgan bo‘lsa, ana shuni anglatadi.

Siyosat o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlariga quydagilar kiradi:

1) Siyosiy munosabatlar. U jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va hokimiyat institutlari o’rtasidagi o‘zaro aloqalarning barqarorligi xarakterini ifodalaydi.

2) Siyosiy ong. U kishilarning hokimiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan manfaatlarini anglab yetgan holatidagi munosabatlarini siyosiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini ifodalaydi.

3) Siyosiy tashkilot. U hokimiyat institutlarining ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish markazlari sifatida xarakterlanadigan rolidir.

Shuningdek quydagi larni ham siyosatning tarkibiy qismi sifatida keltirish mumkin: siyosiy qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, dasturlar, qadriyatli yo'naliishlar, ko'rsatmalar, andozalar va boshqalar, odatlar va qadriyatlar, xulq-atvor namunalari, jamoatchilik fikri, o'ziga xos siyosiy til, odamlar psixologiyasi, davlat, partiya, guruhlар manfaatlari va harakatlar, qonunlar, inson huquqlari va boshqa huquqiy normalar, siyosiy yetakchilik munosabatlari, elita, guruhlар va hokazolar hisoblanadi.

Siyosatning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda uni turli darajalari ham mavjuddir. Mutaxassislar siyosatning uchta asosiy darajasi haqida xulosalarni bildirib o'tganlar.

1. Makro daraja. Mazkur daraja davlat hokimiyati, uni tuzilishi, mamlakat markazida va joylarda amal qilishini anglatadi.

2. Siyosatning mikro darajasi. Mazkur darajada siyosiy faoliyatni siyosiy partiyalar, harakatlar, ayrim tashkilotlar doirasida amalgamoshirilishi nazarda tutiladi.

3. Siyosatning mega darajasi. Ushbu darajaga xalqaro tashkilotlarning—BMT, ShXT, NATO va boshqalarning faoliyatini kiritish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda siyosatning jamiyatda quyidagi funksiyalarini bajarishini ta'kidlash mumkin:

- jamiyatning barcha guruhlari, qatlamlarining hokimiyat nuqtayi nazaridan muhim manfaatlarni ifoda etish, odamlarga o'z ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy maqomini o'zgartirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar berish;

- yuzaga keladigan ziddiyatlarni oqilona hal etish, ularni fuqarolar va davlat o'rtaсидаги madaniylashgan muloqot o'zaniga yo'naltirish;

- siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va ularga rahbarlik qilish;

- aholining turli qatlamlarini birlashtirish;

- shaxsni ijtimoiylashtirish yoki insonni shakllantirish. Uning

mohiyati shundan iboratki, siyosat ko‘p hollarda insonni o‘zgartiradi;  
—ijtimoiy taraqqiyotning innovatsionligini ta’minlash yoki hayotni  
ijtimoiy tashkil etishning yangi shakllarini yaratish.

Demak, siyosat keng ma’noda jamiyatlarning siyosiy tizimi,  
siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati,  
siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati,  
uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor  
yo‘nalishlarini o‘zida ifoda etadi.

## TAYANCH TUSHUNCHALAR: SIYOSATCHI VA SIYOSATSHUNOS

Amaliyotchi siyosatchi bo‘lish uchun maxsus shug‘ullanish zarur emas. Siyosiy ilm ishlayotgan siyosatchilarga yordam berishi ham bermasligi ham mumkin bo‘lgan siyosatshunoslikning sokin va obyektiv tahlilida shug‘ullanadigan ilmdir.

### Siyosatchi

Kuch—qudratni juda yaxshi ko‘radi  
Mashhurlikka intilishadi  
Amaliy o‘ylashadi  
Fikrida qat’iy turib oladi  
Yagona sababni taqdim qiladi  
Yaqin foydani ko‘radi  
Keyingi saylov uchun reja tuzadi  
Guruhlarga javob beradi  
Nomining tanilishiga intiladi

### Siyosatshunos

kuchga shubha bilan qaraydi  
aniqlikni izlashadi  
mavhum o‘ylashadi  
mavhum xulosalarni izlashadi  
ko‘plab sababni taqdim etadi  
uzoq foydani ko‘radi  
keyingi maqola uchun reja tuzadi  
butun uchun yaxshi narsa qidiradi  
professional nufuzga intiladi

*Manba : Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—R.2–19.*

## **2. Siyosatshunoslikning obyekti, predmeti, qonuniyatları, tadqiqot uslublari va kategoriyalari**

“Siyosatshunoslik” jamiyat siyosiy hayotini o‘rganuvchi fan bo‘lib, boshqa fanlar kabi o‘zining tadqiqot obyekti, predmeti, funksiyalari, kategoriyalar apparati, tadqiqot uslublari va qonuniyatlariga ega.

Siyosatshunoslik fani boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ravishda jamiyatning siyosiy jarayonlari to‘g‘risida fikr yuritadi. Jamiyat hayotida siyosiy hokimiyat muhim o‘rin tutadi. Siyosatshunoslik fani siyosiy hokimiyat, uni amalgalashish, o‘rnatalgan siyosiy rejim faoliyati doirasida, shuningdek, muayyan guruhlar mavqeyi va munosabati, hokimiyat boshqaruv qamrovi va uni boshqarish usullarini aniqlab beradi.

Boshqacha aytganda “siyosatshunoslik”—siyosat haqidagi fandir. Siyosatshunoslik ikki yunoncha so‘zning birikmasidan iborat bo‘lib, “politike”—“davlat yoki jamoat ishlari” va “logos”—“ta’limot” degan ma’nolarni anglatadi. Bu haqda birincha atamani Aristotel (m.avv. 384–322) va ikkinchi atamani esa Geraklit (m.avv. 530–470) ilmiy muomalaga olib kirgan.

Siyosat fanining rivojiga qadimgi Gretsidiagi allomalar hissasi katta bo‘lgan. Aristotel fan asoschisi sifatida siyosatshunoslikni “fanlar otasi” deb atagan. U siyosiy kontekstda polis (Grek shahar-davlatlari) qarorlari sodir bo‘layotgan barcha hodisalarni, ko‘p narsalarni boshqarishini nazarda tutgan. Siyosatshunoslik, Yel universiteti professori Garold Lassuel (1902–1978) so‘zлари bilan aytganda, “kim nimaga erishadi” degan tamoyilni o‘qitishdir. «Siyosat sohasidagi fan haqida gapiradigan bo‘lsak,—deb ta’kidlaydi G.Lassuel,—biz hokimiyat haqidagi fanni nazarda tutamiz» Chunki deyarli hamma narsa siyosatdir, siyosatshunoslikni o‘qishning ma’nosini hamma narsani o‘qish demakdir.

O‘zbek tilida siyosat haqidagi sanni ifodalashda ikki tushuncha ilmiy manbalarda qo‘llaniladi “siyosatshunoslik” va “politologiya”. Ushbu tushunchalar borasida hozirgi o‘zbek siyosatshunosligi məktabida ikki xil qarashlarni uchratish mumkin:

Birinchi qarashga ko‘ra (S.G‘ofurov, A.Haydarov, N.To‘laganova), “siyosatshunoslik” tushunchasi “politologiya” tushunchasining o‘zbek tilidagi tarjimasi hisoblanadi.

Ikkinci qarashga ko‘ra (S.Otamurotov, I.Ergashev, Sh.Akromov, A.Qodirov), «politologiya»ni o‘zbek tiliga «siyosatshunoslik» deb tarjima qilish, u o‘rganadigan mavzular va ularning mohiyatini siyosatni o‘rganish bilan cheklab qo‘yishga olib keladi. Aslida «politologiya»ning mavzular doirasi siyosatshunoslikka qaraganda keng bo‘lib, u siyosat, davlat, siyosiy partiyalar va guruhlarning hokimiyatni tashkil qilish va boshqarishdagi amaliy siyosiy faoliyatlari bilan bir qatorda siyosiy jarayonlar, siyosiy hokimiyat, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, harakatlar bilan o‘zaro munosabatlarini, jahon mamlakatlarining siyosiy hayoti hamda umumbashariy muammolarining siyosiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni ham o‘rganadi. Shuning uchun ham uni «politologiya» fani deb atash uning mohiyatiga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, bu fan jahonning ko‘pchilik mamlakatlarida ham «politologiya» nomi bilan qabul qilingan. Bizning mamlakatimizda ham bu fanni «politologiya» nomi bilan qabul qilish va unga kiruvchi masalalarni politologik yo‘nalishda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Politologiya fani o‘rganadigan mavzular doirasi keng bo‘lib, u o‘z ichiga hokimiyat bilan bog‘liq aniq mavzularni mujassamlashtirgan.

Bizningcha jamiyat hayotida biror-bir siyosiy o‘zgarish, siyosiy voqeа-hodisalar siyosatning ta’siridan chetda qolmaydi. Shu bois siyosatshunoslik fan sifatida jamiyat hayotining turli sohalaridagi o‘zgarishlarda siyosatning o‘rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi. Bu hol, shubhasiz, uning boshqa siyosiy fanlar bilan bog‘liqligini, o‘zaro aloqalarini ifodalaydi. Bunday aloqadorlik siyosiy fanlarda jamiyatning siyosiy hayoti va munosabatlariga daxldor masalalarni o‘rganish bilan ham belgilanadi.

Siyosatshunoslik-siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlar, jamiyatning siyosiy hayotini tashkil etish haqidagi bilimlar (fanlar) tizimi.

Siyosatshunoslik fani o‘zining mustaqil predmetiga ega. Fanning predmeti haqida fikr yuritilganda, avvalambor, obyekt va predmet tushunchalari o‘rtasidagi nisbatni aniqlab olish lozim bo‘ladi. Obyekt bu-fan o‘rganayotgan soha, voqeа-hodisalar, umumiylar jarayonlar mazmunidir. Predmet esa-o‘rganilayotgan obyektning alohida bo‘lagi, uning faoliyatini amalga oshishi va taraqqiyotiga doir qonuniyatlarni qamrab oladi.

Siyosatshunoslik fani obyektini-jamiyat hayotining siyosiy sohasi tashkil etadi. Siyosatshunoslik fani predmetini-jamiyat siyosiy sohasining faoliyati va taraqqiyoti bilan bog‘liq qonuniyatlar tashkil qiladi. Bular siyosat, siyosiy munosabatlar va siyosiy hokimiyat qonuniyatlaridir.

Fan predmetidan kelib chiqadigan bo‘lsak, siyosatshunoslik faniga nisbatan siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi va amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy qonuniyatlarni o‘rganuvchi fan sifatida baho berish mumkin.

Siyosatshunoslik fani boshqa ijtimoiy fanlar singari bir qator vazifalarni bajaradi:

- nazariy bilish funksiyasi-siyosatshunoslik siyosat to‘g‘risida, uning jamiyatdagi roli to‘g‘risida bilimlar hosil qiladi. Ushbu funksiya tufayli siyosatshunoslik ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning obyektiv tamoyillarini, jamiyat hayotidagi ziddiyatlar va qiyinchiliklarni ochib beradi, siyosiy vaziyatlarni baholaydi;

- akseologik (baholash) funksiya – siyosatshunoslik siyosiy institutlar, tuzum, siyosiy jarayonlar va hodisalarga baho berishga imkon tug‘diradi;

- qiyoslash funksiyasi–unda turli tendensiyalar va ularni rivojlanishi, tasniflashlar, qonunuiyatlar kabilarga oid xulosalar va baholashlarni shakllantirishdan oldin turli siyosiy hodisalarni o‘zaro qiyoslash;

- metodologik funksiya–siyosatshunoslikning asosiy xulosalari alohida olingan ijtimoiy hodisalarni o‘rganuvchi xususiy siyosiy nazariyalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;

- dunyoqarash hosil qilish funksiyasi-siyosiy voqelik to‘g‘risida aniq tasavvurlarning shakllanishiga ko‘maklashadi;
- tartibga solish (regulyativ) funksiyasi-odamlar va tashkilot-larning siyosiy jarayonlarga ta’siri hamda ularning siyosiy voqealarda ishtirokini ta’minlashga yordam beradi;
- istiqbolni belgilash funksiyasi-siyosiy jarayonlarning rivoj-lanish tendensiyalarini ochib berar ekan, siyosatshunoslik obyektiv ravishda bashorat yoki istiqbolni belgilash funksiyasini ham bajaradi.
- ijtimoiylashtirish funksiyasi-hokimiyat munosabatlarda ishtirok etadigan kishilarning siyosiy onggini shakllantirishga qaratilgan.
- pragmatik funksiya-mazkur funksiya belgilangan siyosiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan eng maqbul siyosiy yo‘llarni izlab topish va uni zudlik bilan amaliyatga qo‘llashga xizmat qiladi.

Siyosatshunoslik fani boshqa siyosiy fanlar kabi ma’lum bir qonuniyatlarni o‘rganadi. Ular, odatda, ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

Birinchi guruhga davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonunlar bo‘lib, u o‘z ichiga:

- 1) jamiyat siyosiy jarayonlarida siyosiy hokimiyat mexanizmlaridan samarali foydalanish;
- 2) jamiyat siyosiy hayotining demokratiyalashishi;
- 3) siyosiy boshqaruv jarayonlari;
- 4) siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy hayot munosabatlari;
- 5) shaxs, jamiyat va davlat tizimida inson manfaatining ustuvorligi va boshqalar.

Ikkinci guruh qonunlari xalqaro munosabatlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular:

- 1) xalqaro xavfsizlik va o‘zaro ishonchni rivojlantirish;
- 2) xalqaro va davlatlararo ixtiloflari bartaraf etishning siyosiy vositalari;
- 3) umumbashariy muammolarni bartaraf etishning siyosiy yo‘llari;

4) turli siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar va harakatlar bilan siyosiy hamkorlikni yo'lga qo'yish;

5) jamiyat siyosiy hayotida siyosiy yetakchining o'tni va rolini tahlil etish va h.k.

Fanda siyosatni tadqiq etishning o'ziga xos maqbul metodlari mavjudki, ular yordamida siyosiy jarayonlar tahlilida obyektiv xulosalar chiqarish imkoniyati yaratiladi. Siyosatshunoslikda umumiy mantiqiy metodlar—kuzatish, tahlil, sintez, modellashtirish; nazariy metodlar—tizimli, qiyosiy, tarixiy, bixevoiristik va boshqalar qo'llaniladi. Universal metodlar bo'lmish tahlil va sintez alohida ahamiyatga ega.

Tahlil (yunon. *analysiz*—bo'lib tashlash, ajratish so'zidan olingan) predmet, hodisa, jarayonni fikran qismlarga (belgilar, xususiyatlar, shakllar, munosabatlarga) bo'lish amalidir.

Sintez (yunon. *synthesiz*, birlashtirish, qo'shish so'zidan olingan) predmetning turli jihatlari va qismlarini yagona bir butunlikka (tizimga) birlashtirish bo'lib, u amaliy faoliyatda ham, bilish jarayonida ham amalga oshiriladi.


Tarixiy uslub—o'tmishdagi siyosatni, siyosiy g'oyalarni o'rganish, tahlil qilish—uning bugungi kun bilan aloqalarini anglashni talab qiladi, siyosiy kelajakni modellashtirish uchun siyosiy tarixni tadqiq etishni taqozo qiladi.

Tizimili funksional uslubi—unga ko'ra siyosatga funksional tizim sifatida yondashiladi. Uning doirasida har qanday siyosiy institut va tashkilot tadqiq qilinadi.

Qiyosiy (qiyoslash) uslubi—bir xil turdag'i siyosiy hodisalarni, masalan: davlat tuzumini, siyosiy partiyalar va h.k.ni qiyosiy ravishda o'rganishni tavsiya qiladi.

Ratsional—tanqidiy uslub—unga ko'ra siyosiy jarayonlarni tadqiq qilish chog'ida uning ichidagi eng muhim asosini ajratib ola bilish kerak.

Bixevoiristik uslublar—siyosiy hodisalarni individlar va guruhlarning muayyan siyosiy rollarni bajarayotgan paytdagi xulq-atvorini o'rganish orqali tahlilning muayyan usullarini taqozo



etadi. Siyosatshunoslikda bixevioristik metodlardan quyidagi shart-sharoitlarga asosan foydalaniлади:

- siyosat ijtimoiy hodisa sifatida, eng avvalo, individual xususiyatga ega ekanligi, siyosiy faoliyatning barcha guruhiy aloqalar bilan birlashtirilgan individlarning siyosiy xulq-atvorlari tahiliga;
- siyosatdagi hukmron motivlar o‘zlarining kelib chiqishiga ko‘ra, ruhiy yo‘nalishdagi motivlariga;
- individlar o‘zlarining ruhiy holatlari va his-tuyg‘ularini ular uchun muhim bo‘lgan siyosiy hodisa va jarayonlarda turlicha namoyon etishi;

Institutsional uslub-jamiyatda siyosiy faoliyatning olib borilishida ishtirok qiluvchi siyosiy institutlar: davlat, siyosiy partiyalari, tashkilotlar va harakatlar faoliyatini bevosita tadqiq qilish va boshq.

Siyosatshunoslik ham boshqa fanlar kabi o‘z kategoriyalariga yoki o‘ziga xos tushunchalariga ega. Ular jamiyatda yuz beradigan siyosiy voqeа-hodisalarni, siyosiy jarayonlarni, siyosiy hayotni, siyosiy munosabatlarni, davlatlarning ichki, tashqi, xalqaro jabhadagi siyosatini xilma-xil muammolarini ifodalashga xizmat qiladi. Siyosatshunoslik kategoriyalari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin: siyosat, siyosiy hokimiyat, jamiyat siyosiy tizimi, davlat va nohukumat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, siyosiy munosabatlar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, demokratiya, xalqaro siyosiy muammolar, xalqaro munosabatlar, siyosatning subyekti, obyekti, siyosiy mafkura, saylovlar va boshqa tushunchalar.

### **3. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqalari**

Siyosat va siyosiy faoliyatning vujudga kelishi eng qadimgi zamonlardan boshlanar ekan, tabiiyki, siyosat haqidagi dastlabki risolalar va siyosiy qarashlar ham uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Siyosatni anglashning tarixan dastlabki shakli uning diniy-afsonaviy talqini bo‘lib, miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda barcha qadimgi

xalqlarda hokimiyatning va ijtimoiy tuzumning ilohiy kelib chiqishi to‘g‘risida tasavvurlar hukmronlik qilgan hamda bu tasavvurlar odatta, afsonalar tarzida ifodalangan.

Siyosatshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqish jarayoni XIX asr o‘rtalaridan XX asr boshlariga qadar davom etdi. Xuddi shu davrda u mustaqil fan sifatida to‘liq shakllandi. Bu jarayonda siyosiy tadqiqotlar bilan shug‘ullangan ilmiy markazlar muhim rol uynadi.

1857-yil AQSHning Kolumbiya universitetida birinchi marta ochilgan siyosiy fanlar kafedrasiga nemis muxojiri F.Liber rahbar bo‘lgan. Shunday bo‘lsada, 1830-yillardan boshlab siyosatshunoslik fani AQSH oliv ta’lim jarayonlariga kiritila boshlangan. Keyinchalik siyosatshunoslik fani AQSH va Yevropa jadal rivojlana boshglandi. 1871-yilda Fransiyada «Siyosiy fanlarning ozod (erkin) maktabi» ish boshladi (hozir bu maktab Parij universitetining siyosiy tadqiqotlar markaziga aylangan). AQSHning Kolumbiya universitetida 1880-yildan siyosiy fanlar maktabi, Angliyada 1895-yildan iqtisodiy va siyosiy fanlarning London maktabi, 1903-yildan boshlab esa siyosiy fanlarning Amerika assotsiatsiyasi faoliyat yurita boshladi. Bugun bu assotsiatsiya 16 mingdan ortiq a’zoga ega.

1948-yili Parijda BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti—YuNESKO tashabbusi bilan siyosatshunoslarning xalqaro konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiyada siyosatshunoslik fanining tarkibi tizimlashtirildi va u to‘rtta blokka bo‘lindi:

1. Siyosiy nazariya: a) siyosiy nazariya; b) g‘oyalari tarixi.
2. Siyosiy institutlar: a) konstitutsiya; b) markaziy hokimiyat; d) mintaqaviy va mahalliy boshqaruv; e) davlat muassasalari; e) hokimiyatning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari.
3. Partiyalar, guruhlar va ijtimoiy fikr: a) siyosiy partiyalar; b) guruhlar va birlashmalar; d) fuqarolarning hukumatda va ma’muriyatda qatnashishi; e) jamoatchilik fikri.
4. Xalqaro munosabatlar: a) xalqaro siyosat; b) xalqaro tashkilotlar; d) xalqaro huquq.

Konferensiyada YuNESKO a’zolari bo‘lgan mamlakatlar oliv

ta’lim tizimida siyosatshunoslikni fan sifatida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish taklif etildi. Siyosiy tadqiqotlarning, shuningdek, bevosita siyosatshunoslik fanining rivojlanishida 1949-yilda BMTning YuNESKO tashkiloti homiyligida Siyosiy Fanlar Xalqaro Assotsiatsiyasining tuzilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1956-yilda Fransiyada siyosiy fanlar doktori ilmiy darajasi joriy etildi.

Siyosatshunoslik fanining institutsionallashuvida XX asrning 70-yillarida mazkur fanning jahon miqyosida tan olingan o‘quv standartining qabul qilinishi hal qiluvchi rol o‘ynadi. Unga ko‘ra siyosatshunoslik fanining strukturasiga quyidagi 8 ta yo‘nalish kiritildi:

1. Siyosat haqidagi fan: tadqiqot sohasi va nazariya.
2. Mikro siyosatshunoslik nazariyasi.
3. Makro siyosatshunoslik nazariyasi.
4. Nohukumat siyosat.
5. Davlat hokimiyatining institutlari va jarayonlari.
6. Siyosat va siyosatni amalga oshirish.
7. Tadqiqot strategiyasi.
8. Xalqaro siyosat.

Shu jihatdan, jahon davlatlarida bugungi kunda o‘zga xos siyosatshunoslik maktablari shakllandi. Masalan:

➤ AQSH-Buyuk Britaniya siyosatshunoslik maktabi (S.Lipset, K.Rayt, S.Xantington, G.Morgentau, J.Sartari va boshq.). Tadqiqot sohasi – siyosiy modernizatsiya, barqarorlik, siyosiy mojarolar, tashqi siyosiy masalalarning ishlab chiqilishi.

➤ Fransuz siyosatshunoslik maktabi (M.Dyuverje, J.Burdo, M.Kroze, R.Aron va boshq.). Tadqiqot sohasi – siyosiy rejimlar tipologiyasi, legitimlik, partiyaviy-siyosiy infratuzilma masalalarning o‘rganilishi. Fransiya siyosatshunosligening o‘ziga xos jihatasi – siyosiy fanning asta-sekin Konstitutsiyaviy huquqdan ajralishi va, asosan, siyosiy institutlar va munosabatlar, saylov tizimlari va saylovlari, ijtimoiy boshqaruvi bilan bog‘liq masalalarning o‘rganilishidir.

➤ Nemis siyosatshunoslik maktabi (P.Mayer, K.Fon Beyme, I.Fetcher, Xanna Arendt). tadqiqot sohasi – hozirgi zamon siyosat na-

zariyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida—siyosiy tizim-larning qiyosiy tahlili, fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatning amal qilishi muammolari, siyosiy ta’limotlar tarixini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bunda nemis siyosatshunosligining doimiy rivojlanib borayotgan tamoyili bu boradagi siyosiy tadqiqotlar doira-sining kengayishidir.

Biroq sobiq Ittifoq va unga mafkuraviy tobe davlatlarda siyosatshunoslik fani o‘qitilmadi, fanga doir biror jurnal yoki gazeta nashr etilmadi. Chunki mustabid tuzum fuqarolarning siyosat ilmidan xabardor bo‘lishlari ularda kommunistik partiya va sovet davlati siyosatiga nisbatan tanqidiy, hech bo‘lmasa tahliliy yondashuvni shakllantirishidan xavfsirar edi. Faqat sobiq Ittifoqning parchalanishi tezlashgach, ya’ni 1989-yildan boshlab Rossiyada bu fan plyuralistik asosda mustaqil fan sifatida rivojana boshladi. Sovetlardan keyingi makonda tashkil topgan mustaqil davlatlarda siyosiy ta’lim va siyosiy madaniyat masalalariga qiziqish ommaviy tarzda keskin kuchayib ketdi.

Jumladan, O‘zbekistonda ham davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi siyosiy fanlarni o‘rganish va o‘qitishga nisbatan eskicha yondashuvlarni batamom o‘zgartirib yubordi. Mustaqillik sharoitida oliy ta’lim tizimini takomillashtirishning dastlabki choralaridan biri mamlakatimizda siyosatshunoslik fanini o‘rganish va o‘qitishga kirishishdan iborat bo‘ldi. Mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida 1992-yildan boshlab siyosatshunoslik fanini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. 1992-yil 23-sentabrda O‘zbekiston Prezidentining farmoni bilan Politologiya va boshqaruv instituti tugatilib, uning bazasida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Ana shu davrdan boshlab Respublikamiz ta’lim tizimlarida, asosan Oliy ta’lim tizimida siyosatshunoslik fanini o‘qitishning normativ, uslubiy asoslari shakllantirila boshlandi. Mamlakatimiz mutaxassislari sa’y-harakatlari bilan bevosita dasturlar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratila boshlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti kabi yurtimizning oliy ta’lim maskanlarida siyosatshunos kadrlar

tayyorlash ishlari boshlangan edi. Ayni paytda ilmiy siyosatshunos kadrlar tayyorlash ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston siyosatshunoslik maktabi tadqiqot sohasi sifatida—qiyosiy siyosiy tizimlar, xorijiy mamlakatlarning demokratlashtirish tajribasi, siyosiy institatlarning shakllanishi va rivojlanishi, siyosiy modernizatsiya muammolarini keltirish mumkin. O‘zbekistonda siyosatshunoslik fani rivojlanishida Z.Munavarov, R.Jumayev, S. Jurayev, B.Iminov, I.Ergashev, A.Qodirov, Sh.G‘oyibnazarov, R.Farmonov, X.Odilqoriyev, S.Otamurodov, U.Idirov, D.Razzoqov, F.Sharopov, N.To‘laganova, N.Jo‘rayev, B.Aliyev, T.Hoshimov, A.Xaydarov, M.Qirg‘izboyev, Q.Jo‘rayev, Sh.Akromov, G.Yusupova, X.Jabborov, S.G‘ofurov kabi olimlarning hissalari katta. Bugun mammalakatimiz oliv o‘quv yurtlarida siyosatshunoslik fani nufuzini yanada yuksaltirish borasida ko‘plab yosh iqtidorli olimlar samarali mehnat qilmoqdalar

Siyosatshunoslik fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqalari borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, u tarix, falsafa, sotsiologiya, huquqshunoslik, geografiya, iqtisodiyot va boshqa fanlarning konseptual xulosalari, uslublari, paradigmalaridan keng foydalanadi.

Hozirgi vaqtida qaysi nuqtada tarix, inson geografiyasi, antropologiya va psixologiya tugab, undan keyin siyosat boshlanishini aytish mushkul. Bu yerda siyosatshunoslik boshqa ijtimoiy fanlar bilan qanday bog‘liqligi bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar keltirilgan<sup>3</sup>.

Siyosatning boshqa fanlar bilan aloqadorligi:

*Tarix*—siyosatshunoslardan urchun asosiy sanalarni aniqlaydigan manba sanaladi. Qachonki biz uchinchi fransuz Respublikasining (1871–1940 yy.) siyosatini, Franklin Ruzvelt (1933–1945) davrida prezidentlik hokimiyatining yuksalishini va “Sovuq urush” singari yaqin o‘tmishdagi voqealarni muhokama etganimizda, biz tarixni o‘rganamiz. Ammo tarixchilar va siyosatshunoslardan turli narsalarni qidirishadi va sanalarga turlicha yondashishadi. Ingliz tarixchisi ta’kidlaganidek, “Tarix—bu o‘tmishdagi siyosat, siyosat esa—bu hozirgi tarixdir”.

---

<sup>3</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.2–19.

Odatda, tarixchilar biror voqelikni tafsilotlarigacha o'rganishadi, mavzu yuzasidan hujjatlarni, arxiv va memuarlarni kovlashadi. Ular sanalarga alohida e'tibor qaratishadi, ammo ularni umumiylashtirishmaydi. Siyosatshunoslar esa umumiylashtirishga katta e'tibor qaratishdan boshlashadi. Ular tarixchilar topilmalaridan foydalanishlari, ularni qiyoslashlari va ularga qarshilik qilishlari mumkin. Tarixchilar Veymar Germaniyasi (1919–1933)ni butun tafsilotlari bilan o'rganishlari mumkin. Siyosatshunoslar esa o'sha vaqtagi Fransiya, Italiya va Rossiya holatini ham birgalikda o'rganishlari, ularning o'xhash va farqli jihatlariga e'tibor qaratishlari mumkin. Ayrim tarixchilar qiyosiy o'rganishga intilishadi va ular de facto siyosatshunos hisoblanishadi. Siyosatshunoslilikning muhim funksiyasi borki, uni tarixdan to'liq ajratish imkonini beradi—bu kelajaknidagi siyosiy voqeliklarlar rivojini bashorat qilish (prognoz) ni o'rgatish funksiyasidir.

*Inson geografiyasiga.* Inson geografiyasiga (fizik geografiyadan farq qiladi) yaqin yillarga qadar siyosatshunoslar tomonidan, garchi u siyosatga ko'proq ta'sir o'tkazishiga qaramay, e'tibor qaratilmay kelindi. Inson tabiatining hududiy komponentlari—cheagaralar, dinlar, etnik hududlar, savdo oqimlari va hokimiyatning markazlashuvikatta siyosiy oqibatlarga ega. Afg'oniston, Iroq, Hindiston va Turkiyadagi nizolar bu bevosita geografik muammolar sanaladi. Fransuz siyosatshunos olimi Andre Zigfrid (1875–1959) xaritalardan mintaqaviy siyosiy holatni o'rganishda foydalanishni ilgari surgan. Hozirda bu texnologiyalardan saylovlarni o'rganishda foydalaniлади. AQSHdagi prezidentlik saylovlaridagi “qizil” va “moviy” shtatlar siyosiy geografiya holatini namoyon etadi.

*Iqtisodiyot.* Iqtisodiyot, bir qator iqtisodchilar e'tiroficha, siyosatning asosiy masalasi hisoblanadi. To'g'ri, ko'pgina siyosiy nizolar iqtisodiy omillarga borib taqaladi: barqaror iqtisodiy taraqqiyot demokratiya uchun asos hisoblanishi mumkin; nisbatan kambag'alroq davlatlar orasida demokratik davlatlar soni ko'p emas. Veymar Germaniyasi va yaqin o'tmishdagi Rossiya bunga misol bo'la oladi. Qanday siyosat iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiladi?

Bunda hukumatni o'rni qanchalik katta ahamiyatga ega? Yevro pul siyosati Yevropani yanada birlashtiradimi yoki ajratib yuborish uchun asos bo'ladimi? Qachonki iqtisodchilar siyosiy masalalar bilan shug'ullanishsa, ular "siyosiy iqtisodchilar"ga aylanishadi. Siyosatshunoslikning nisbatan yangi maktabi—"ratsional—tanlov nazariyasi" maktabi vakillari iqtisodiy istiqbolni insonlarning o'z shaxsiy manfaatlari ketidan quvishda namoyon bo'ladi deb, hisoblashishadi.

*Sotsiologiya* va siyosatshunoslik bir-biriga o'xshash fanlardir. Sotsiolog Martin Lipset (1922–2006)ni haqli ravishda siyosatshunos sifatida e'tirof etish mumkin. U birinchilardan bo'lib, demokratiya va farovonlik darajasi o'rtasidagi yaqin aloqalarni ko'rsatib berdi. Siyosiy qarashlar qanday qilib ijtimoiy sinflar, dinlar, mintaqalar, jinslar va yosh guruhlar o'rtasida turlicha ko'rinishga ega bo'lishini siyosatshunoslik o'rgansa, sotsiologiya esa siyosiy-madaniyat, jamoat fikri va saylov sohasidagi bilimlar uchun emperik asos bo'lib xizmat qiladi.

*Antropologiya*. Odatda yozuv paydo bo'lgan davrgacha bo'lgan jamiyatlarga e'tibor qaratuvchi antropologiya siyosatshunoslikka nisbatan kamroq aloqasi borga o'xshaydi. Ammo antropologiyaning tasvirlovchi va ma'lumot beruvchi texnikasi siyosatshunoslар tomonidan keng qabul qilingan. Siyosiy madaniyat sohasi antropologiyaning tarmoqlaridan biri sifatida ko'riliishi mumkin. Yaponlarning bugungi turmush tarzi million yillar ilgari shakllanganligini kuzatishimiz mumkin va o'zgarishlar boshqa millatlarga nisbatan kamdir. Bir qator hozirgi siyosiy tizimlar an'anaviy ta'sirga ega bo'lgan oilalar va sulolalar tomonidan yuritilmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda amirlar oilasi Fors imperiyasi davrida, Chor Rossiya davrida davlatlarni boshqargan. Afrikadagi ayrim hududlarda ovoz berish va kuch ishlatishlar qabilaviy tizimlar asosida amalga oshiriladi.

*Psixologiya.* Psixologiya, xususan ijtimoiy psixologiya, siyosatshunoslikka katta hissa qo'shgan bo'lib, insonlarning qanday xarakterlari siyosatchilar e'tiborini tortishi, nega va qanday sharoitlarda insonlar hokimiyatga bo'ysunishi, insonlarning qaysi millat va guruhdan kelib chiqqanligi va ovoz berishdagi moyilligini tushunishda yordam beradi. Hitler, Stalin, Mao Szedunlarni o'rganish odatda psixologik nazariyalarga asoslanadi. Psixologlar ayniqsa metodologiya bilan yaxshi ishlashadi. Ular narsalarni obyektiv tarzda o'rganish yo'llarini ishlab chiqishadi va ular bizga muammozi bor turli da'volarni ko'rib chiqishda shubha bilan yondashishni o'rgatishadi. "Ko'r" uslubda savol so'rash va muayyan omillarni "nazorat qilish" psixologiyadan olingan uslublar hisoblanadi.

### ***Nazorat savol va topshiriqlari***

1. Siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosatshunoslik fanining vujudga kelishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Siyosat va siyosatshunoslikning funksiyalarini izohlay olasizmi?
4. Siyosatshunoslik fani tadqiqot uslublari deganda nimani tushunasiz?
5. Siyosatshunoslik fanining asosiy qonuniyatlarini izohlab bering.

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining rivojlanishi bo'yicha to'liqroq ma'lumotlarni o'rganib kelish.
2. Siyosat borasidagi zamonaviy ta'riflar to'g'risida ma'lumot to'plab keling.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўкув юрт талабалари учун ўкув кўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik),–Т.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўкув-услубий кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўкув кўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўкув кўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар груҳи. Политология. Ўкув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўкув кўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўкув юрти талабалари учун ўкув кўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.
11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағищланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 b.
5. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi –Т.: Universitet, 2003.
6. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma–Т.: Soliq akademiyasi, 2008.
7. Гаджиев К.С. Политология.–М., 2003.
8. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
9. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов.–М., 2000.
10. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства–Т.: ТГЮИ, 2007.
11. Хейвуд Э.Политология: Учебник для студентов вузов/Пер.с англ.под.ред.Г.Г.Водолазова, В.Ю.Бельского.–М.: Юнитидана, 2005.
12. Жумаев Р.З. ва бошқ. Сиёсий ислоҳотлар стратегияси.–Т.: Академия, 2010.
13. Алексеева Т.А. Современные политические теории.–М.,2000.

14. Политология: Учебное пособие/Под ред.А.С.Тургаева,  
А.Е.Хренова.–СПб.:Питер, 2005, 60 с.

### **3. Internet saytlari:**

1. www.gov.uz/
2. www.uz-info.com/
3. www.press-service.uz/
4. www.uzreport.com/
5. www.xs.uz/
6. www.elections.uz/

## **2-mavzu. SIYOSIY NAZARIYALAR VA QARASHLAR**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy fikrning manbalari va shakllanishi haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Arastu, Platon, M.T.Siseron, M.Avreliy, F.Akvenskiy, J.Lokk, Sh.L.Monteskyo, T.Gobbs, N.Makiavelli, diniy mutaassiblik, reformatsiya, politiya, demokratiya, aristokratiya, timokratiya, tiraniya, oxlokratiya, respublika, monarxiya, suveren. Avesto, buddizm, moniylik, mazdakiylik, islom, shariat, alloma, jadidchilik, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Amir Temur, madinat-al-foziliya, madinat-al-joxiliya, kuch adolatda.*

### **Asosiy savollar:**

1. Qadimgi Sharqda va G'arbda siyosiy qarashlarning shakllanishi.
2. O'rta asrlar va yangi davrda Yevropadagi siyosiy-huquqiy qarashlar.
3. Zamonaviy davrda G'arbdagi siyosiy ta'limotlar.
4. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar rivoji.

### **1. Qadimgi Sharqda va G'arbda siyosiy qarashlarning shakllanishi**

Siyosiy ta'limotlar rivojlanishini uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta'sirida rivojlanib kelgan. Siyosat haqidagi eng qadimgi fikrlar dastavval shakllanishi va rivojlanishida Qadimgi Rim va Gretsianing ulug' donishmandlari bebahoxizmat ko'rsatganlar. Shu jiatdan olib qaraganda Sharq va G'arbning

buyuk allomalari tomonidan yaratilgan siyosat aqidagi dastlabki il-miy-falsafiy qarashlar butun insoniyatning boyligi isoblanadi.

Siyosiy ta'limotlar tarixi–ulkan tajriba. Zamonaviy siyosiy hayotning biron-bir muhim masalasini usiz hal etish mumkin emas. Bu tajriba hozirgi davr uchun dolzarb bo‘lgan ko‘plab asl yechimlarni o‘z ichiga olgani holda, olimlar va amaliyotchilarga o‘z izlanishlarini o‘tmish tajribasi, oldingi davrning o‘ziga xos xususiyatlari bilan qiyoslashdan iborat noyob imkoniyatni ham yaratib beradi.

Siyosiy ta'limotlar keng ma’noda jamiyatdagi sinflar, tabaqa va toifalar, millatlar va elatlar, shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifoda etuvchi g‘oyalar, qarashlar va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Bu qarashlarning o‘zagini hokimiyat masalasi, davlat tuzish va boshqarish uslublari masalalari tashkil qiladi.

«Ta’limotlar» deganda turli shakllardagi nazariy qarashlarning moiysi, tegishli bilimlarning tarixan maydonga kelishi va rivojlanshi, siyosiy-huquqiy ko‘rinishlarni bilish chuqurlashib borgan nazariy konsepsiylar, g‘oyalar va qoidalar nazarda tutiladi.

Siyosiy fikr insoniyat tamaddunining vujudga kelishi bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan. Tamaddunning ilk o‘choqlari Sharqda–Misr, Mesopotamiya, Hindiston va Xitoyda taxminan milodgacha bo‘lgan 4 ming yillikda yuzaga keldi. Shaharlar, davlatlar, yozuv, tevarak-atrofni o‘rab turgan dunyo haqidagi bilimlar aynan shu yerda paydo bo‘lgan. Savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlangan, kishilar va kishilar guruhlari o‘rtasidagi mulkiy tengsizlik ularning ijtimoiy mavqeい bilan asoratga solinishi natijasida vujudga kelgan. Sivilizatsiya insonning faqat oila, urug‘ jamoasi doiralaridagina emas, balki davlat doirasida, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy va sinfiy tengsizlik hukmronlik qilish va bo‘ysunish sharoitlarida ham birgalikda yashay olish qobiliyatini taqozo etadi. Bularning hammasi insonlarning ilk siyosiy tasavvurlarida o‘z aksini topadi.

Qadimgi Misrda xudoga nisbatan hukmdor hokimiyatning ilk manbai sifatida qaralgan. Yerda ham uning ta’siri xuddi shunday saqlanib qolgan. Bu «o‘ziga xos piramidaga qiyos etilgan, uning uchi xudo va saylab qo‘yan fir’avnları, asosi esa oddiy xalq deb qaralgan.

Ular o'rtasida ruhoniylar va zodagonlar turgan. Jamiyat va davlatning xulq-atvori insonning ko'proq qaysi toifaga tegishligi bilan belgilangan.

Eng qadimgi siyosiy-diniy hujjatlardan biri—«Ptaxotep nasihatlari» (milodgacha bo'lgan XXVIII asr)da barcha misrliklarning fir'avnga so'zsiz va mutlaq bo'ysunishlari, ijtimoiy tengsizlikning zaruriyati va maqsadga muvofiqligi, xo'jayinlarning «quyi» tabaqaga mansub odamlarga yaxshi munosabatda bo'lishlari lozimligi haqida so'z yuritilgan.

Adolat va qonunlar aqidagi fikr-mulohazalar Qadimgi Misr jamiyatidagi hukmron sinflarning ko'p hollarda ideallahgan qarashlarini aks ettirardi. Ularda hukmdorlarning mavjud tartiblar ilohiy va adolatli ekanligi, bu tartiblarning mangu sobit va o'zgarmas ekanligini uqtirishga bo'lgan intilishlari yaqqol sezilib turadi. Aslida esa voqelik bundan ideallahgan tasavvurlardan ancha yiroq edi. Jamiyatdagi quyi tabaqalarning aslzodalarga qarshi chiqishlari ham shundan guvolik beradi. Masalan, «Ipuserning mulohazalari»da eramizdan avvalgi 1750-yillarda ro'y bergen mana shunday kurashlardan biri haqida hikoya qilinadi. Saroy a'yonlaridan bo'lgan Ipuser bu voqeani «qonunsizlar» tomonidan uyuştirilgan «dahshatli o'zgarish» deb ataydi. U sud palatalari vayron qilingani, ularda saqlanayotgan qonunlar to'plami ko'chalarga uloqtirilgani va oyoq-osti qilingani haqida afsuslanib yozadi.

Mesopotamiyada Bobil, Ossuriya va Xett podsholigining qonunlari eng muhim yodgorliklardir. Ular podsholarni o'z a'yonlari yordamida hukmronlik qiluvchi, xudolarga o'xshash mavjudotlar sifatida tasavvur qilganlar. Miloddan avvalgi XVIII asrdagi mashur Qadimgi Bobil hukmdori Xammurapi (m.avv. 792–750) kuchli davlatining asosi bo'lgan Xammurapi qonunlarini ishlab chiqqan. U Marduk xudosi ibodatxonasi devorlariga o'yib yozilgan. Xammurapi qonunlarida hukmdor qattiqqo'l, ammo «kuchlining kuchsizni xafa qilishiga yo'l qo'ymaydigan, yetimlar va boylarga nisbatanadolat ko'rsatilishi» haqida g'amxo'rlik qiluvchi, o'z fuqarolariningadolatli otasi sifatida tasvirlangan.

Qadimgi Hindistonda muqaddas matnlar va Veda bitiklari siyosiy g'oyalarning asosiy manbai bo'lib xizmat qilgan. Insonning to'g'ri, imonli hayot kechirishini belgilab beruvchi diniy-falsafiy, siyosiy, axloqiy va huquqiy qoidalarning yig'indisidan iborat bo'lgan «Manu qonunlari» (insonlarning afsonaviy ajdodi) da ham muqaddas kitoblarning ta'siri sezilib turadi.

Qadimgi Hindistonda yaratilgan eng mashhur va mazmundor siyosiy risola «Artxashastra yoki siyosat iljni» bo'lib (milodgacha bo'lgan IV–III asrlar), uning muallifi braxman Kautilya hisoblanadi. Risolada eng muhim davlat, siyosat va xo'jalik masalalarining butun majmuasi tahlil etilgan, amaliy maslahatlar berilgan.

Ushbu kitobning davlat asoslariga bag'ishlangan bo'limida shunday deyiladi: «Davlatning asosiy unsurlari quyidagilar: podsho, vazir, mustahkamlangan shahrlar, qishloq joylari, xazina, qo'shin va ittifoqchilar». Asarda «ideal podshoh», ayniqsa juda mu-fassal tavsiflangan. Odamlarni uning tomoniga jalb qiluvchi sifatlar nuqtayi nazaridan u yuqori nasabli, baxtli va omadli,adolatli, so'zidan qaytmaydigan, o'z atrofiga yomon odamlarni yo'latmaydigan kishi bo'lishi lozim. Asarning shu bo'limida quyidagicha ogohlantirish ham mavjud: «ijobiy fazilatlarga ega bo'limgan shoh o'z fuqarolari yoki dushmanlari qo'lida halok bo'ladi». «Artxashastra»da ichki va tashqi siyosat masalalari ham qalamga olinib, hokimiyat va boylikni saqlab qolish hamda kuchaytirish uchun har qanday vositalardan foydalanish ma'qulligi g'oyasi ilgari suriladi (Oradan 2 ming yillar o'tgach, bu g'oyani N. Makiavelli «hukmdor» asarida takrorlagan edi).

Asarning «O'z mamlakatida sodiq kishilarning va sotqinlik kayfiyatidagi odamlar toifasi orqasidan kuzatish» deb atalgan bo'limi alohida diqqatga sazovor. Bu o'rinda joususlik va provokatsiyalar texnikasi tasvirlab berilgan. Asosiy mansabdor shaxslar—oddiy shaharliklar, qishloq aholisi—barchaning ortidan doimiy kuzatuv olib borishi lozim. Jousulsarga odamlar to'planadigan joylarga—majlislar zallariga va hatto, ibodat uchun tahorat olinadigan joylarga kirib olish tavsiya etilgan.

«Artxashastra»da ta’kidlanishiga ko‘ra, davlat tashqi siyosatida oltita usuldan foydalanishi lozim:

- dushman tomonlarini o‘ziga bog‘lab qo‘yuvchi shartnoma tuzilishini taqozo etuvchi sulh;
- raqibga ziyon yetkazish maqsadida urushish;
- befarqlik holatida kutish vaziyati;
- hujum, ya’ni dushmanaga hujum qilish chora-tadbirlarini ko‘rish;
- chetdagi boshqa birov bilan, boshqa davlatlar bilan ittifoq tuzish yo‘lini izlash;
- goh urush, goh sulhdan foydalanishdan iborat ikki yoqlama siyosatdan foydalanish.

Qadimgi Xitoy afsonasida ham yerdagi hokimiyatning kelib chiqishi ilohiyligi, ilohiy xususiyatlarga ega ekanligi to‘g‘risida gap boradi. Unda aytilishicha, Osmonesti oliv hukmdorining (ya’ni Xitoy imperatorining) shaxsi, shaxsiy salohiyati va ichki quvvati ko‘kdagi oliv kuchlar bilan aloqaning yagona vositasidir. Qolgan barcha mansabdarlar va davlat ma’muriyati bor-yo‘g‘i imperatorning shaxsiy hokimiyatni ko‘makchilari deb hisoblangan.

Bizga hozirgacha bir oz ma’lum bo‘lgan va mavhum ko‘rinishda bo‘lsa-da, bizgacha yetib kelgan dastlabki siyosiy g‘oyalari ijodkori qadimgi Xitoy faylasufi Kun-Fu-Szi, ya’ni Konfutsiydir. U eramizdan avvalgi 552 yoki 551-yilda tug‘ilib, 479-yilda vafot etgan. Konfutsiyning asosiy asari «Lun-yuy» (Bahs va tahlil) hisoblanadi. Uning ta’limoti konfutsiylik deb atalib, Xitoy tarixida dinning o‘ziga xos ekvivalenti vazifasini bajargan.

Konfutsiyning siyosiy g‘oyalari va siyosiy qarashlari o‘zi yashagan davrda hukm surgan an’anaviy tasavvurlardan tashqariga chiqmagan. Masalan, u osmonni dunyoni boshqaradigan eng oliv kuch sifatida e’tirof etadi va jamiyatni ma’muriy-huquqiy yoki foydali-moddiy vositalar bilan emas, balki faqat axloqiy qoidalar yordamida boshqarish zarurligini ilgari suradi. Shuning uchun Konfutsiy ta’limotiga xos bo‘lgan aqida shundan iboratki, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda odamlar, shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari

hal qiluvchi ahamiyatga molik bo‘lgan omil tarzida birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Konfutsiy siyosiy g‘oyalari insonparvarlik, ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat aqidalari bilan sug‘orilganligi uchun ham uni bar-cha xitoyliklar hamma vaqt avliyo, donishmand, “tojsiz hukmdor”, millatning ma’naviy-axloqiy dohiysi hamda madaniyat-ma’naviyat qahramoni sifatida e’zozlab kelganlar. Xitoy Xalq Respublikasida 1984-yilda Xitoy Konfutsiy fond, 1985-yilda Konfutsiy merosini o‘rganish ilmiy tadqiqot ilmgohi ta’sis etilgan bo‘lib, 1986-yildan boshlab har uch oyda chiqadigan “Konfutsiy to‘g‘risida tadqiqotlar” to‘plami muntazam nashr qilinadi. Konfutsiy siyosiy g‘oyalariiga ix-los, ayniqsa, sunggi yillarda yer yuzi bo‘ylab keng tarqalmoqda.

Konfutsiy qadimgi davr me’yorlarini chuqur o‘ylagan, o‘zi yashagan voqelikni hisobga olgan holda ijodiy talqin qilgan. Hokimiyat kelib chiqishining ilohiy va tabiiy jihatlarini tan olar ekan, u odamlarning hayotini qay tarzda tashkil etish, davlatda adolatli va oqilona tartibni ta’minalashni o‘zining asosiy maqsadi deb bilgan. Bu tartib beshta turli xil o‘zaro teng bo‘lmagan munosabatlarni taqozo etadi: hukmdor va tobellar, er va xotin, ota va o‘g‘il, aka va uka, ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar. Ularda bir tomondan farmoyish, amr-farmon, ikkinchi tomondan, so‘zsiz bo‘ysunish bo‘lishi lozim. Hukmdorlikni adolat va marhamat bilan olib borish, bo‘ysunganda esa sadoqat va samimiylilik ko‘rsatish kerak. Shu bilan birga, Konfutsiyda do‘sstar o‘rtasidagi munosabatlar ham alohida o‘ringa ega bo‘lib, do‘slikda har ikki tomon ezgulik qoidasiga amal qiladilar.

Konfutsiy davlatning patriarxal-paternalistik konsepsiyasini rivoj-lantirgan. Uning ta’kidlashicha, davlat-katta oiladir. Imperator hokimiyati go‘yo oila boshlig‘i - otaning hokimiyatidek adolatli va qo‘l ostidagilarga mehr-shafqatga asoslangan. Hukmdor va fuqarolar munosabati - oila azolarining munosabatini eslatadi: kichiklar kattalar qaramog‘ida va ularga itoat qiladi.

Konfutsiy ta’limoti tanqidchilari “bu oljanob ta’limot, biroq realistik emas, undan Sharq mustabidligini mafkuraviy jihatdan oqlash maqsadlarida foydalansa bo‘ladi”, degan fikrni bildiradilar.

Qadimgi Gretsianing siyosiy falsafasi haqli ravishda Qadimgi dunyo siyosiy fikrining cho'qqisi hisoblanadi. U avval-boshdanoq ozod kishilar mafkurasi sifatida rivojlandi, shu sababli, uning asosiy qadriyati ozodlikdir.

Boshqacha aytganda, qadimgi yunonistonliklar «siyosat» deganda davlatchilikning faqat fuqarolari ozod bo'lgan ellinlarga xos va ancha rivojlangan alohida shaklini tushunishgan.

O'z-o'zidan ravshanki, «siyosat» va “davlat” tushunchalari bir-birlaridan o'zaro farq qiladi. Ularning o'zaro muvofiqligi darajasi haqidagi tasavvur turli davrlarda va turli mualliflarda turlicha bo'lgan. Masalan, siyosiy ko'rinishlarni polis tajribasi asosida ishlab chiqishni boshlagan qadimgi Yunon mutafakkirlari «davlat» atamasini qo'llashgan emas. Bu atama oradan bir necha asrlar o'tgach, N.Makiavelli zamonasidagina ilmda qo'llana boshlangan.

Dastlab yunonlarda ham siyosat haqida afsonaviy tasavvurlar (Gomer, Gesiod va boshqalar) mavjud edi. Biroq milodgacha bo'lgan VI-V asrlarga kelib, ular bilishning falsafiy usullari, ratsionalistik yondashuvlar tomonidan siqib chiqarildiki, bularning cho'qqisi mantiqiy-tushunchaviy tahlil (Suqrot, Platon), empirik (Aristotel) va tarixiy (Polibiy) tadqiqotlar bo'ldi.

Qadimgi yunon faylasuflaridan biri Suqrot (m.avv. 469–399) fikricha, qonunlarsiz polis (shahar-davlat) hayotini axloqiy tashkil etish mumkin emas. Shuningdek, polisdan tashqarida qonunlar bo'lmaydi. Qonunlarning o'zi polis poydevori. Suqrot o'z tabiatiga ko'ra adolatli bo'lgan qonunlar va hukmron bo'lgan davlat-polisning ashaddiy tarafdori sifatida tanildi.

Siyosiy fikrlar rivojiga Platon katta hissa qo'shgan. Miloddan avvalgi 427–397-yillarda yashab ijod qilgan Platonning “Davlat”, “Qonunlar”, “Sofist”, “Siyosatchi” kabi asarlarida siyosat sohasi alohida olingen holda tadqiq qilingan.

Platon o'z g'oyalari amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'lishga intilgan edi. Siyosat nima, degan savolga Platon, «haqiqiy siyosat - to'g'ri tarbiyalash yo'li bilan fuqarolarni adolatli va komil qilib yetishtirishdir», deb javob bergen edi. Platonning fikriga ko'ra,

davlat odamlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishlari uchun birlgilikda yashashlari, o‘zaro yordam berishlari talablaridan kelib chiqadi.

O‘zining «Qonunlar» asarida ideal davlatning sof ratsional andozasini nazariy jihatdan asoslashga intilgan Platonning fikricha, inson tabiatini uch asosiy elementdan tarkib topgan: aqliy, jangarilik va yaratuvchilik. Shunga muvofiq ideal davlat ijtimoiy tuzilish jihatidan uch asosiy toifani o‘z ichiga oladi. Donolikka salohiyati bo‘lgan faylasuflar hukmdorlik qilib, davlatni boshqaradilar, jangarilikka moyil bo‘lgan jangchilar mudofaa bilan, yaratuvchilik egalari - dehqon va hunarmandlar esa moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish bilan band bo‘ladilar. Faylasuflar va jangchilar Platon orzu qilgan davlatda xususiy mulkka ega bo‘lmasliklari lozim, chunki bu hol ularning o‘z vazifalarini, burchlarini suiiste’mol qilishlari xavfini tug‘diradi.

Platon davlat shakllarining uch turini: timokratiya (harbiylar hokimiyyati), oligarxiya (oz sonli kulsorlar hokimiyyati), demokratiya (xalq hokimiyyati)ni buzilgan, noto‘g‘ri shakllar deb, monarxiya va aristokratiyaning boshqaruvini esa ma’qul boshqaruv deb hisoblaydi. Qullar mehnatini aristokratik yoki monarxiyaga asoslangan davlatning zarur sharti deb biladi. Demokratiyaning mohiyatini to‘liq tushunmagan va unga nisbatan butunlay salbiy munosabatda bo‘lgan Platon faqat bilimdon odamlargina davlatni boshqarishlari mumkin, deb hisoblaydi. Uning fikricha, demokratiya ommanning hukmronligi bo‘lib, u oxir-oqibatda ko‘philikni ezishga olib keladi. Barcha odamlar tabiatan bir-birlariga teng emaslar, demokratiya ham bunday tenglikni ta’minlay olmaydi, shuning uchun davlatni dono va aqlli faylasuf olimlar boshqarishi zarur, degan g‘oyani ilgari suradi.

Platonning siyosiy g‘oyalari uning «Davlat» asarida to‘liq bayon qilingan. Dialog ishtirokchilari chinakamadolat hukmron bo‘lgan ideal davlat qiyofasini yaratishga intilganlar. Platonning fikriga ko‘ra, davlatdagi barqarorlikning garovi mehnatni ko‘ngil moyilligiga qarab taqsimlashdir. Davlatni mazkur vazifa uchun maxsus tayyorlangan faylasuflar tabaqasi boshqarishi lozim. Davlatni himoya etish-alohida soqchilar tabaqasining ishi. Uchinchi tabaqa-dehqonlar

va hunarmandlar—davlatning farovonligi uchun vijdonan mehnat qilishlari lozim.

Platon aristokratlar, faylasuflar boshqaruviiga asoslangan davlatni ideal davlat formasi deb hisoblaydi. Uning fikricha, mukammal davlat shunday davlatki, unda har bir fuqaro boshqalarning ishiga aralashmagan holda, o‘zining sevgan kasbi bilan shug‘ullanadi. Davlat aql bilan faylasuflar tomonidan boshqarilmas ekan, unda zolimliklardan qutulib bo‘lmaydi. Bunday davlat quyoshning yorug‘ nurlarini hech qachon ko‘ra olmaydi.

Antik dunyoning yana bir mutafakkiri Aristotel(m.avv. 384–322) Platondan farqli o‘laroq, o‘zining “Siyosat” nomli yirik asarida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan real davlat formalarini tahlil qilgan. Uning fikricha, inson siyosiy mavjudotdir. Shu bois ham, u o‘zida birgalikda yashash instinktlarini olib yuradi. Bundan tashqari Aristotel o‘zining “Afina politiyasi”, “Etika”, “Ritorika” asarlarida jamiyatni yanada takomillashtirish g‘oyalarini ilgari suradi.

Aristotel davlat ko‘rinishining unga ma’lum bo‘lgan 158 turini tahlil qilgan va mana shunday katta faktik asosga suyangan holda, davlat ko‘rinishi shakllarining tipologiyasini ishlab chiqqan. Davlat ko‘rinishining barcha shakllari, Aristotelning fikriga ko‘ra, uchta «to‘g‘ri» va uchta «noto‘g‘ri» shaklga borib taqaladi. Bitta eng yaxshi odam hukmronlik qiladigan davlatning to‘g‘ri shakli podshoh hokimiyati deb ataladi; eng yaxshi odamlar boshqaradigan to‘g‘ri shakli aristokratiya, ko‘pchilikni to‘g‘ri boshqarish esa politiya deb ataladi.

Davlat ishlari bir nafar tasodifiy shaxs qo‘lida bo‘lgan noto‘g‘ri shakl tiraniya, ozchilikni tashkil etuvchi boylar hokimiyat tepasida turgan noto‘g‘ri shakl oligarxiya, jipslashmagan ko‘pchilik boshqaruvidagi noto‘g‘ri shakl demokratiya hisoblanadi. Mohiyatiga ko‘ra, Aristotel ko‘pchilikning uyushgan hokimiyati—mo‘tadil demokratiyani (politiya) ko‘pchilikning uyushmagan nomo‘tadil hokimiyati - olomon hokimiyati (oxlokratiya)dan alohida ajratadi. U tiraniyani boshqaruvning eng yomon shakli, demokratiyani esa barcha nomaqbul boshqaruv shakllarining eng beozori, deb hisoblagan.

Aristotel davlat tuzilishining asosini uch qismga bo‘ladi: birinchisi, qonun muhokama etuvchi organ - hokimiyat ishlarini ko‘rib chiqadi; ikkinchisi, lavozimlar; uchinchisi, sud organlari.

Qadimgi Rim siyosiy va huquqiy ta’limotlari tarixi ming yillliklar bilan o‘lchanadigan davrni qamrab oladi hamda o‘zining rivojlanish bosqichida Qadimgi Rim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy hayotidagi muhim o‘zgarishlarni aks ettiradi. Qadimgi Rim tarixini uch davrga bo‘lib ko‘rib chiqish taomilga aylangan: podshoxlik davri (m.avv. 754–510-yillar), respublika davri (m.avv. 509–28-yillar), imperatorlik davri (m.avv. 27-yildan milodiy 476-yiligacha).

Qadimgi Rimdagи siyosiy-huquqiy institutlar va g‘oyalar aholining turli tabaqalari - patrisiylar va pleybeylar, nobilitetlar (patriseylar va boy pleybeylar) va kambag‘allar, optimatlar (yuqori tabaqa tarafдорлари) va populyarlar (quyi tabaqaлар erkinligi tarafдорлари), ozod kishilar va qullar o‘rtasidagi uzoq davom etgan kurashlar davomida shakllanib, rivojlanib bordi.

Qadimgi Rimda siyosiy-huquqiy ta’limotlar, eng avvalo, mashhur notiq va davlat arbobi M.T.Siseron (milodgacha bo‘lgan 143–103-yillar) nomi bilan bog‘liq. Uning siyosiy va huquqiy qarashlari uchta asarda bayon etilgan bo‘lib, ular «Davlat haqida», «Qonunlar haqida», «Burchlar haqida» deb ataladi. U birinchi bo‘lib huquq va davlatning hamda huquqiy muomalaning subyekti sifatida «fuqaro» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi.

M.T. Siseron davlatni xalq mulki sifatida ta’riflaydi va bunda «rim xalqi» va «olomon» tushunchalarini qat’iyan farqlaydi. Uning fikriga ko‘ra, xalq kishilar huquqining umumiyligi va umumiyl manfaatiga asoslangan birlashmasidir. «Olomon»ga esa uning befarqliji, isyonlarga va davlatga zarar yetkazuvchi boshqa noqonuniy xattiharakatlarga moyilligi uchun ta’na qiladi va hurmat qilmaydi. Boshqaruvning uchta oddiy shaklini - podshoh hokimiyati, aristokratlar hokimiyati va xalq hokimiyati (demokratiya)ni bir-biridan farqlagan va ularning har biridagi afzallikkarni e’tiborga olgan holda Siseron davlatning eng oqilona shakli sifatida ana shu afzallikkarning barchasi faoliyat ko‘rsatadigan qorishiq shaklning tarafдори bo‘lib chiqdi.

Siseron o‘z ijodida va amaliy siyosiy faoliyatida (kvestor, senator, konsul sifatida) izchil ravishda senatorlik respublikasini yoqlab chiqdi hamda alohida shaxslar va harbiy diktatura rejimiga qarshi kurashdi. U respublika an’analarini himoya qilarkan - Rim fuqarolari barcha tabaqalarining «umumiyl tartib» doirasida «umumxalq kelishuvi» shiorini ko’tarib chiqdi. Sezarning shaxsiy yakkahokimligining o’rnatalishini u «respublika tuni», «davlatda erkinlikning barham topishi» va tiraniya, deb baholaydi. Siseron hayotining so‘nggi yillari harbiy diktatura va yangi triumvirlarning (Antoni, Oktavian, Lepidlarning) paydo bo‘lgan xavfiga qarshi kurash bilan o’tdi. Triumvirlar g‘alabasidan so‘ng, ya’ni eramizdan avvalgi 43-yil 7-dekabrda Siseron triumvirlar tarafдорлари tomonidan qatl qilindi<sup>4</sup>.

Rim imperiyasida siyosiy fikrning rivojlanishi uchun Seneka, Epikur, Mark Avreliy ko‘p ishlar qildilar. Svetoni o‘zining «O’n ikki Sezarning hayoti» kitobi bilan siyosiy portretlar yaratish an’anasiga asos soldi.

## **2. O‘rta asrlar va yangi davrda Yevropadagi siyosiy-huquqiy qarashlar**

O‘rta asrlar (V-XV asrlar)da diniy-siyosiy qarashlarning turli ko‘rinishlari shakllandi. Siyosiy fikr tarixida diniy an’analarning eng klassik ko‘rinishi Avreliy Avgustin (345–430) ning siyosiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Xristian cherkoviga xos belgilar uning davlatdan ustun turishiga asoslangan. «Cherkovga bo‘ysunmagan davlat qasoskorlar to‘dasidan farq qilmaydi», degan g‘oya ilgari suriladi. Insonlarni esa «ilohiy odam», «yerdagi odam»ga bo‘ladi. Avgustin qarashlariga Platonning ikki dunyo, zardushtiyarning bir-biriga qarma-qarshi ikki asos (yaxshilik va yomonlik) to‘g‘risidagi qarashlarining ta’siri borligi ko‘rinib turadi.

O‘rta asrlarda islom olamida esa «xalifa», «amir», «imom» kabi tushunchalar hokimiyyat subyektlari, davlat hokimiyyatini yurituvchi

---

<sup>4</sup> Muhiddinova F.A. Siyosiy va huquqiy ta;lilotlar tarifi. Darslik. –T.TDYUI, 2011, 72 b.

shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Payg‘ambarimizdan keyingi to‘rt xalifa - Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali ham hokimiyatning diniy va dunyoviy asoslarini o‘zaro yaxlit holda birlashtirganlar. Alidan so‘ng taxtga kelgan xalifa dunyoviy davlat tamoyillariga alohida e‘tibor bera boshlaydi. «Amir» dinning himoyachisi unvoniga sazovor bo‘lgan, dunyoviy va davlatga xos ishlarni ham o‘zaro bog‘liq tarzda amalga oshirgan.

XIII asrda Yevropada din omilining o‘rnii juda ortdi. Foma Akvinskiy (1225–1274-yillar)ning siyosiy qarashlari o‘rta asrda diniy an‘analardagi siyosiy qarashlarning eng cho‘qqisi deb baholangan. U hayotlik davridayoq, Rim katolik cherkovining «doktori» faxriy unvoniga muyassar bo‘lgan. Uning qarashlari XIX asrda Rim papasi Lev XIII tomonidan «katolisizmning yagona haqiqiy falsafasi», deb e‘lon qilingan.

O‘zining siyosiy qarashlarida Foma Akvinskiy ijtimoiy tenglikni rad etdi va tabaqalarga bo‘linishni xudo tomonidan o‘rnatilgan tartib, deb tasdiqladi. Yerdagи hokimiyatning barcha turlari - xudodan. «Davlat, - deb yozgan edi u,- hamjamiyatga, oliv hamjamiyatga - xudo davlatiga tayyorgarlikdir. Shunday qilib, davlat maqsad vositasi sifatida cherkovga bo‘ysunadi».

Bunda hokimiyatning mohiyati, shakli va undan foydalanishni farqlash lozim bo‘ladi. Xudo tomonidan o‘rnatilgan hokimiyat odamlarga e兹gulik keltiradi, shuning uchun unga so‘zsiz bo‘ysunish zarur. Davlat hokimiyatining asosiy vazifasi—umumiy baxt-saodatga xizmat qilish, ijtimoiy ishlardaadolat bo‘lishi haqida g‘amxo‘rlik qilish va fuqarolarning tinchligini ta’minalash. Ammo hokimiyatdan yomon maqsadlarda foydalanish ham mumkin.

XIV asrda cherkov hokimiyatini zaiflashib, dunyoviy hokimiyat kuchayib bordi. Yevropada markazlashgan milliy davlatlarning yaratilish jarayoni boshlandi. Bunday sharoitlarda Papa hokimiyatining ustunligini rad etuvchi ta’limotlar paydo bo‘ldi. Dunyoviy hokimiyat shaytondan, deb tasdiqlovchi Avgustinga qarama-qarshi o‘larоq, ular ilohiy bo‘lmagan hokimiyatni yoqlab chiqdilar.

Dunyoviy hokimiyat mustaqilligi tarafdori sifatida ingliz faylasufi Uilyam Okkam (1300–1350) maydonga chiqdi. U dunyoviy ishlarda

hokimiyat davlat qo‘lida, diniy ishlarda esa cherkov qo‘lida bo‘lishi kerak, deb hisoblardi. Papalikni U.Okkam “vaqtinchalik muassasa”, deb qarar va oliy diniy hokimiyat dindorlar jamoasi bo‘lishi kerak, deb hisoblar edi. Uning siyosiy qarashlari ko‘p jihatdan Reformatsiya g‘oyalarini va uch-to‘rt asrdan so‘ng siyosiy fikrda hukmronlik qiladigan g‘oyalarni oldindan aks ettirgan edi. Masalan, U.Okkam tabiiy holatda odamlar mol-mulksiz va hokimiyatsiz yashaganlar va ularning tengligi ta’minlangan deb yozgan. Davlat ijtimoiy shartnoma bilan ta’sis etilishi lozim. Davlatning maqsadi qonunlar tomonidan himoya qilinuvchi umumiy baxt-saodatdir.

Uyg‘onish davrida G‘arbiy Yevropada siyosiy fikrlar taraqqiyotida italiyalik olim, davlat arbobi Nikkolo Makiavelli(1469–1527) alohida o‘rin tutadi. Uning “Hukmdor” nomli asarida davlat va davalatchilikni amalga oshirishga doir o‘ziga xos xulosalar ilgari surilan. N.Makiavellining fikricha, davlat jamiyatning siyosiy holatidir, unda hukmronlik qiluvchilar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar muassasalar va qonunlar asosida amalga oshadi. N. Makiavelli siyosatni o‘tmishni tushuntirib beruvchi, hozirgi davrga rahbarlik qiluvchi va kelajakni bashorat qilib beruvchi “tajriba fani”, deb hisoblaydi.

Makiavelli ta’biricha, davlat hokimiyati samarali amalga oshirilishi uchun fuqaro hukmdorga to‘lig‘icha bo‘ysunishi lozim. Bo‘ysunishga erishishning ikki usuli mavjud biri –hukmdorga muhabbat uyg‘otish; ikkinchisi–undan qo‘rqish hissini avj oldirish. Insonlar o‘z tabiatlariga ko‘ra yaxshilikni bilmaydigan, ikkiyuzlamachi, beqaror va yolg‘onga moyildirlar<sup>5</sup>. Hukmdor ularni o‘z irodasiga bo‘ysundirish uchun eng shafqatsiz choralarни ham qo‘llashi mumkin. U javobgarlikdan qo‘rqlasligi kerak, chunki hukmdor sud yurisdiksiyasiidan tashqaridadir. Fuqarolarni davlat hokimiyatiga hech qanday e’tirozsiz bo‘ysundirishga erishish muhim vazifa sanaladi. Ushbu holat davlat hokimiyatiga oliy iroda - bir butun, hech kimga bog‘liq bo‘lmasan, barchadan ustun, chegarasiz va so‘zsiz hukmronlik qilshi vakolatini

---

<sup>5</sup> Qarang. Makiavelli N. Hukmdor / Zohir A’lam tarjimasi // Jahon adabiyoti. -2002. - № 9. – B.105–148

beradi. Faqat shu irodagina davlat mavjudligini tasdiqlay oladi, uning qudratini ta'minlay oladi va mamlakatda tartib o'rnatadi. Makiavelli "davlat suvereniteti" to'g'risida so'z yuritmagan bo'lsada, uning davlat tabiatini to'g'risida bergen ta'rifi davlat suvereniteti tushunchasiga ancha yaqin.

N.Makiavelli g'oyasiga ko'ra, siyosiy faoliyatning va xulq-atvorning zaminida manfaat va kuch yotadi. Siyosatda axloqqa emas, kuchga tayanmoq kerak. Yuksak maqsadlar yo'lida axloq omilini bir chekkaga surib qo'ysa ham bo'laveradi. N.Makiavellining ushbu g'oyasidan siyosatda "maqsad vositani oqlaydi", degan salbiy xulosa kelib chiqqan edi. Shunday qilib, N.Makiavelli siyosatni axloq normalaridan ajralgan holda ko'rish mumkinligini asoslashga harakat qilgan. Shu bois ham hozirgi davrda "makiavellizm" termini aynan siyosatda kuch ishlatalish, axloq normalarini inkor qilish holatlariga nisbatan ishlatalidi.

Fransuz mutafakkiri Jan Boden (1630–1596)ning qarashlari ham muayyan qiziqish uyg'otadi. «Davlat to'g'risida olti kitob» asarida u birinchi bo'lib davlat suvereniteti g'oyasini ilgari surdi, davlat ilohiy tarzda kelib chiqmaganligini ta'kidlab, uning manfaatlari din manfaatlaridan ustun bo'lishi lozimligini va vijdon erkinligi o'rnatilishini targ'ib etdi.

J.Boden tushunchasidagi davlat hokimiyatining suvereniteti oliy, cheklanmagan, hech kim bilan bo'lishilmaydigan hokimiyatni anglatar edi. Fransiyani xonavayron qilayotgan o'zaro nizolar va diniy urushlar davrida J.Boden jamiyatning ilg'or doiralari qarashlarining ifodachisi, mutlaq monarxiya, milliy davlat tarafidori bo'lib chiqdi. Podshoh hokimiyati faqat ilohiy va tabiiy qonunlar bilan cheklangan. Suveren hokimiyatning tarkibiy qismlari quyidagilardir: qonun chiqarish huquqi, urush e'lon qilish va sulh tuzish huquqi, oliy mansabdorlarni tayinlash huquqi, oliy sud idorasini huquqi, avf etish huquqi va tanga zarb etish huquqi.

XVII-XIX asrlar tarixiy nuqtayi nazardan yangi davr hisoblanib, bu davrda G'arbiy Yevropada siyosiy g'oyalarning rivojlanishida bevosita T. Gobbs, Dj. Lokk, B. Spinoza, Sh. Monteske, J-J.Russo

kabi o‘z davrining atoqli faylasuf-siyosatshunos olimlarning ilmiy faoliyati muhim rol o‘ynadi.

2006-yilda chop etilgan “Siyosatshunoslik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmada keltirilishicha<sup>6</sup>, yangi davrda tabiiy huquq va ijtimoiy shartnoma nazariyasi shakllandi va uning uchta maktabi rivojlandi:

Birinchi maktab. Angliyalik faylasuf Tomas Gobbs (1588–1679) kishilar jamiyatda tartibni saqlash evaziga o‘zlarining barcha tabiiy huquqlarini monarxga topshirganlar, deb hisoblagan. T.Gobbs monarxiyani–hokimiyatning eng qulay shakli, deb hisoblaydi. Shu bilan birga uning xulosasiga ko‘ra, davlatning uch xil formasi: monarxiya, demokratiya va aristokratiya mavjud bo‘lishi mumkin. Buni o‘zining «Leviafan» asarida insonlarning davlat paydo bo‘lganligacha bo‘lgan davrdagi hayotini tasvirlab, unda «xaos» va «ixtilof»lar hukmron bo‘lganligini ta’kidlaydi yoki bu hukmronlikni «hammaning hammaga qarshi urush» holati sifatida qayd etadi. «Ijtimoiy kelishuv»ga «xaos»dan chiqishdagi muhim yo‘l sifatida qaraladi. T.Gobbs monarchning asosiy vazifasi qonunni saqlay bilish, deb tushunadi.

Davlat va hukmron shaxsning quyidagi ikki muqaddas burchi mavjud: xalq farovonligini ta’minalash va mamlakat tinchligini muhofaza qilish.

Ikkinci maktab. «Hukmronlik haqida ikki risola» nomli kitob muallifi, angliyalik faylasuf Jon Lokk (1632–1704) T.Gobbsdan farqli o‘laroq, odamlar ijtimoiy shartnoma tuzar ekan, o‘zlarining deyarli barcha huquq va erkinliklarini saqlab qoladilar va davlatdan ana shu ajralmas huquqlarini, erkinliklarini himoya qilishda ma’lum bir me’yorni saqlagan holda foydalanadilar, deb hisoblagan.

J.Lokkning fikricha, davlat odamlardan siyosiy hamjamiyatni ta’minalash uchun qancha kerak bo‘lsa, shuncha hokimiyat oladi. Davlatda hech kim va hech narsa qonun va qonunchilikdan tashqarida bo‘lishi mumkin emas. Lokkning siyosiy qarashlarida huquqiy davlat

<sup>6</sup> Гофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув кўлланма—Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.—Б.38.

elementlari mavjud bo‘lgan. Uning fikriga ko‘ra, aynan qonun shaxs erkinligini ta’minlash va kengaytirishning yetakchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Lokk hokimiyatning tarmoqlarga bo‘linishi zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyalarni ham ilgari surgan. Shuningdek, uning xulosalariga ko‘ra, har qanday davlat formasi ijtimoiy shartnomaga, ya’ni odamlarning ixtiyoriy kelishuviga asoslangan holda shakllanishi lozim. Davlat odamlarning tabiiy huquq va erkinliklarini himoya qilishi zarur. Lokkning buyuk xizmati shundan iboratki, u davlat va jamiyat bir-biridan mustaqil ikki institut ekanligini birinchilardan bo‘lib asoslab berdi.

Uchinchi mакtab. Fransuz faylasufi Jan-Jak Russo (1712–1778), o‘z navbatida xalq bevosita hukmronlik qilishi kerak, umumning xohish-irodasi uchun hech qanday cheklashlar bo‘lmасligi lozim, degan fikrni bayon etdi. O‘zining «Ijtimoiy shartnoma haqida» nomli risolasida (1762) u boylar tomonidan aldangan kishilar o‘z erkinliklarini qurban qildilar va ijtimoiy shartnoma asosida keyinchalik ularning o‘zlarini eza boshlagan davlat va huquqni yaratdilar, deb yozadi.

J.J.Russo birinchilardan bo‘lib, davlat bilan fuqarolik jamiyatni o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib berdi. U G.Grosiy va T.Gobbsning buyruq beruvchilar va bo‘ysunuvchilar har doim zarur, degan fikrlarini tanqid qildi; uning fikricha, tabiiy holatda qullar ham, xo‘jayinlar ham bo‘lmaydi; odamlar o‘z huquqlarini hokimiyatga shartnoma asosida topshirganliklari sababli, hokimiyat suvereniteti xalqqa tegishlidir.

Demokratiya g‘oyasi J.J.Russoning xalq suvereniteti haqidagi ta’limotiga singdirilgan. Qonunlar – kishilarning umumiyligi xohish-irodasi aktlari, podsho qonunlaridan yuqori turishi mumkin emas. Demokratiya va erkinlik qonunlari xalqning o‘zi yaratib tasdiqlagan zamindagina mavjud bo‘ladi. Odamlar tengligining ashaddiy tarafdori bo‘lgan, J.J.Russo, ayni paytda, huquqiy va jismoniy tenglik o‘rtasidagi farqni anglab yetdi.

Fransiya ma’rifatparvari Sharl Lui Monteskyo (1689–1755) uzining «Qonunlar ruhi haqida» asarida «idora etish tarzi»ga yoki «qonunlar ruhi»ga ta’sir etuvchi omillarni ko‘rsatib beradi. «Ko‘pgina narsalar – iqlim, din, qonunlar, idora etish shakllari, o‘tmish saboqlari,

axloq, odatlar xalqning umumiy ruhining natijasi sifatida insonlarni boshqaradi», - deb yozadi Monteskyo.

Sh.L.Monteskyo talqiniga muvofiq, davlat insonlar ehtiyojlarining mahsulidir. Jamiyat hukumatsiz mavjud bo'la olmaydi. Alovida kuchlarning birlashishi natijasida fuqarolik holati vujudga keladi. Fuqarolik holati esa siyosiy holatning, ya'ni davlatning paydo bo'lishi va fuqarolar uchun umumiy qonunlarning qabul qilinishida asos bo'lib xizmat qiladi.

U boshqaruv shakllari haqida fikr yuritar ekan, ularni uchg'a bo'ladi: respublika, monarxiya va despotiya. Respublika oliv hokimiyat butun xalq (demokratiya) yoki uning ma'lum bir qismi (aristokratiya) qo'lida yig'ilgan bo'ladi. Monarxiya, Sh.L.Monteskyo e'tiroficha, birkishining belgilangan qonunlar doirasida boshqaruvidir. Despotiyada, ya'ni istibdod tuzumi sharoitida har qanday qonunlar inkor etiladi va shaxs o'z zo'ravonligi va irodasiga asoslanib davlatni boshqaradi. Har bir boshqaruv shakli o'ziga xos bo'lib, jamiyatda insonlar his-tuyg'ulari mexanizmini harakatga keltiradi. Ushbu tamoyil respublikada—ezgu ish (saxovat), monarxiyada—or-nomus, despotiyada—qo'rquv sanaladi<sup>7</sup>.

Sh.L.Monteskyo hokimiyatning bo'linish nazariyasini «aralash idora etish» g'oyasining davomi hisoblab, qonun ustuvorligini qayd etadi. Shu asosda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari bir-birlarini to'ldirgan holda hokimiyatni saqlab turishlari mumkin degan xulosaga keladi.

Gerbert Spenser(1820–1903) “Sotsiologiya asoslari” nomli asarida hokimiyatning kelib chiqishining ijtimoiy omil bilan bog'liqligi nazariyasiga asoslandi. Uning fikriga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarning asosida odamlar o'rtasidagi o'zaro dushmanlik emas, balki kooperatsiya—hamkorlik yotadi. G.Spenser siyosatda pozitivistik yondashuvning maqbulligini isbotlagan eng dastlabki olimlardan biri hisoblanadi.

Tomas Jeferson (1743–1826) – Amerika xalqining demokratiya uchun olib borgan ozodlik kurashi tarixidagi eng yorqin shaxslardan

<sup>7</sup> Muhiddinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi.–T., 2007.–B.116–17.

biri. U o'sha davrning buyuk inqilobiy hujjati - Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik Deklaratsiyasi (1776-yil 4-iyulda qabul qilingan) muallifidir. Deklaratsiyaning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: barcha odamlar tug'ilishdan teng yashash, erkin, mulkdor, baxtli bo'lish va xavfsizlik huquqlariga egadirlar; hokimiyat xalq manfaatlari yo'lida faoliyat ko'rsatishi kerak, agar u bu manfaatlarga zarar yetkazsa, xalq o'ziga yoqmagan bunday hukumatni ag'darishga haqli; hokimiyatlar bo'linishi tamoyiliga amal qiiishi lozim. Mohiyatiga ko'ra, bu hujjat tarixda birinchi Inson huquqlari deklaratsiyasi edi.

Angliyalik konservator E.Berk (1729–1797) ta'limotida tabiiy huquqlarni tan olmaslik g'oyasi muhim o'rinni tutadi. Uningcha, davlat va jamiyat insonlarning ixtirosi emas, balki tabiiy rivojlanishning natijasisi. Davlatning asosiy vazifasi tartib va qonunni saqlashdan iborat. Hokimiyatning vakillik shaklini qo'llab chiqadi. E.Berk parlamentga Angliyadagi hokimiyatning haqiqiy shakli sifatida qaraydi va uning faoliyati xalq tomonidan nazorat etilishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

Fransuz mutafakkirlaridan biri Aleksis de Tokvil (1805–1859) «Amerikadagi demokratiya» nomli asarida o'ziga xos liberal siyosiy nazariyani yaratadi. Uni siyosiy tenglik bilan siyosiy erkinlik o'rtasidagi munosabat ko'proq o'ylatadi. Siyosiy apatiya – siyosiy markazlashuv va ijtimoiy bo'ysundirishning boshlanishidir, deydi. Demokratiyaning ijobiy va salbiy jihatlari bo'lishi mumkinligi to'g'risida fikr yuritadi.

A.Tokvilning asosiy siyosiy g'oyalari quyidagilardan iborat: birinchidan, Tokvil fikricha, butun dunyoda aristokratiyaning to'xtatib bo'lmaydigan darajada zaiflashuvi va demoktariyaning mustahkamlash jarayoni kuzatilmoqda;

ikkinchidan, demokratiya aristokratiyaga qaraganda qisqa rivojlanish tarixiga ega bo'lsa ham, u foydalanadigan vositalar yetarlicha mukammal bo'lmasa ham, shunga qaramay uning afzalliklari ravshan ko'rinish turibdi. Kamchiliklarining mavjudligiga qaramay demokratiya yordamida boshqarish jamiyatning rivojlanishiga ko'proq ta'sir o'tkazadi;

Uchinchidan, demokratiya o‘zining eng yorqin aksini AQSH siyosiy hayotida, Amerika konstitutsiyasida, davlat organlarining tuzilishida aks ettiradi;

To‘rtinchidan, Amerika demokratiyasi to‘g‘risida gapirar ekan, Tokvil uning kamchiliklarini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi. AQSH konstitutsiyasi faqatgina o‘zining yaratuvchilari uchun shuhrat va boylik keltirishga mo‘ljallangan, boshqalar qo‘lida esa u mevasiz daraxtdir.

Aleksandr Hamilton (1757–1804) qarashlari butunlay boshqacha siyosiy dunyoqarashga asoslangan. Uning siyosiy nazariyasi negizida odamlarni «yuqori» va «quyi» (boy va kambag‘al) tabaqalarga bo‘lish yotadi. A.Hamiltonning fikricha, davlatning asosiy vazifasi xususiy mulkni xalqdan himoya qilishdir. Shu sababli, u odamlarning huquqlari ularning mol-mulkiga mos ravishda taqsimlanishi lozim, deb hisoblaydi. A.Hamilton demokratiyaga qarshi edi, u konstitutsiyaviy monarxiya uchun kurashdi, talablari inobatga olinmagandan so‘ng cheklanmagan vakolatga ega bo‘lgan, umrbod saylanadigan prezidentlik hokimiyyati o‘rnatish g‘oyasini qattiq turib himoya qildi. Uning taklifi asosida 1787-yilgi Konstitutsiyada ikki palatali qonun chiqaruvchi organ mustahkamlab qo‘yildi.

XIX asrning birinchi yarmi - Yevropaning lider mamlakatlarida industrial sivilizatsiyaning uzil-kesil shakllanish davri. Ushbu davr asosiy siyosiy mafkuralarning uzil-kesil shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy hodisalarni o‘rganishga yangi metodologik yondashuvlarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi.

### **3. Zamonaviy davrda G‘arbdagi siyosiy ta’limotlar siyosiy ta’limotlar**

XX asrda siyosiy fanning rivojlanishi boshqa asrlarga qaraganda boy bo‘ldi. Bu asr g‘oyaviy kurashlar keskinlashgan va ayni paytda, siyosiy mafkuralarning o‘zaro yaqinlashuvi, bir-birini to‘ldirishi boshlangan asr edi. Shu bilan bir vaqtda, u yangi uslubiy yondashuvlarning paydo bo‘lishi, bir qator an‘anaviy metodologiyalarning

qayta tiklanishi va yangilanishi davri bo‘ldi. Bu asr yangi siyosiy g‘oyalarning tug‘ilishi va o‘tmish merosining qaytishi hamda qayta idrok etilishi asri edi.

XX asrda siyosiy fikr uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha rivojlandi:

➤ akademik yo‘nalish;

➤ ijtimoiy-falsafiy nazariyalar;

➤ yaqqol ifodalangan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan mafkuraviy konsepsiylar.

Akademik yo‘nalish XX asr boshida AQSHda universitet muhitida paydo bo‘ldi va siyosiy fanning mustaqil aqademik fan sifatida tan olinishi bilan bog‘liq. Yevropada ushbu yo‘nalishning boshlang‘ich asoslari M.Veber, V.Pareto tomonidan bayon etildi. Akademik fikrning ko‘philik vakillari uchun siyosatning dolzarb masalalari bo‘yicha mafkuraviy bahslardan chetda turish va butun diqqat-e’tiborni siyosiy xulq-atvorning qonuniyatlarini hamda siyosiy institutlarning faoliyat ko‘rsatishini o‘rganish, shuningdek, siyosiy tizimlarning modellarini va ziddiyatlarning umumiy nazariyalarini yaratish xosdir.

Ijtimoiy-falsafiy nazariyalar industrial, postindustrial, axborot jamiyatlari nazariyalar, neomarksistlarning «tanqidiy nazariyas» va boshqalardan iborat. Mazkur nazariyalarda akademik fikrning «pozitiv» bilimdan farqli o‘laroq, hozirgi zamon «rivojlangan jamiyatlari»ning asosiy xususiyatlari tadqiq etildi.

Siyosiy fikrning sof mafkuraviy yo‘nalishi oldingi ikki yo‘nalishdan farqli o‘laroq, faqat yuz berayotgan voqealarning markazida bo‘lishgagina intilib qolmay, balki avvalgi ikki yo‘nalishning nazariy ishlanmalaridan foydalaniib, ijtimoiy o‘zgarishlarning strategiyasi va taktikasini o‘z vaqtida ishlab chiqishga ham harakat qiladi.

Sotsiologik yo‘nalishlar ichida o‘ziga xos o‘rinni nemis sotsiolog Marks Veber (1864–1920) egallaydi. Boshqa klassiklar kabi Veber siyosatni hokimiyat haqidagi ijtimoiy munosabatlar sohasi yoki u davlatlar o‘rtasida, hokimiyat ichida, guruqlar, odamlar o‘rtasida bo‘lmasin hokimiyatni taqsimlishga ta’sir ko‘rsatish vositasi deb hisoblaydi.

M.Veberning “Protestantlik axloqi va kapitalizmning ruhi”, “Xo‘jalik va jamiyat” asarlarida siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi subyektlar, siyosiy elita omili to‘g‘risida ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Gaetano Moska, Vilfredo Pareto, Robert Mixelslar siyosiy elitalar nazariyasiga asos soldilar. Siyosiy hokimiyat mavzuini rivojlan-tiruvchi elitalar konsepsiysi hozirgi zamon siyosiy faniga uning tarkibiy qismi sifatida kiradi. Italiya maktabi vakillari V.Pareto (1848–1923), G. Moska (1858–1941) va Germaniyadan Italiyaga kelgan nemis olimi R.Mixels (1876–1936) ushbu nazariyaning asoschilari hisoblanadi. Ularning qarashlarini «makiavellistik» maktabga kiritish mumkin, chunki elita jamiyatda hukmronlik qiluvchi guruh sifatida birinchi marta ularning vatandoshi Makiavellining tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, deb hisoblanadi.

Siyosatshunoslikning XX asrda yuzaga kelgan yana bir muhim yo‘nalishi siyosiy partiyalarni tahlil qilishdir. Ushbu yo‘nalishning asoschilaridan biri Robert Mixels hisoblanadi. «Demokratiya sharoitida siyosiy partiyalarning sotsiologiyasi» nomli asar uning qalamiga mansubdir. Robert Mixels barcha ijtimoiy tashkilotlarni boshqarib turuvchi qonunni kashf qildi va uni «oligarxiyaning temir qonuni» deb atadi. Ushbu qonunga ko‘ra, tashkilot, korxona va jamoalarda, ular qaysi sohada tuzilgan bo‘lmasin, muqarrar ravishda ko‘pchilikni boshqaradigan ozchilik vujudga keladi.

Davlat tashkilotida, partiyalarda, kasaba uyushmalarida, boshqa jamoat tashkilotlarida, cherkovda hokimiyat boshqarishga mohir bo‘lgan, yuqori tuzilmalar tarkibiga kirgan kishilar qo‘lida jamlanadi va bu yuqori tuzilmalar oddiy a’zolar nazoratidan chiqib ketadi. Hatto partiyalarda ham boshqaruvga noqobil bo‘lgan oddiy omma dohiylarni ilgari suradiki, ular vaqt o‘tishi bilan oddiy a’zolardan ajralib qoladilar va partiya elitasiga aylanadilar. «Tarixiy evolutsiya oligarxiyaning oldini olish uchun qo‘llaniladigan barcha profilaktik choralar ustidan kuladi. Agar dohiylarning hukmronligini nazorat qilish uchun qonunlar qabul qilinsa, bundan dohiylar emas, qonunlar zaiflashadi» .

Partiyani demokratik jamiyatning ideal miniaturasi sifatida qarar ekan, R.Mixels partiya oligarxiyalashuvining qonuniyligini umuman demokratiya taraqqiyotiga tatbiq etadi va davlatni boshqarishda barcha fuqarolarning ishtirok etishlari mumkin emasligi haqidagi xulosaga keladi.

Makiavellistlar maktabi nazariyalarini Birinchi jahon urushlari o'rtasidagi davrda Italiyada, Germaniyada, Fransiyada keng tarqaldi. Ammo ularning keng tarqalishi va mashhur bo'lishi Amerika qit'asida yuz berdi. 30-yillarda Garvard universitetida V.Paretoni o'rganishga oid seminarlar o'tkazildi. G.Moskaning siyosiy hodisalarini o'rganishga empirik yondashuv haqidagi, tadqiqot obyekti jonli voqelik ekanligi to'g'risidaga g'oyalari siyosiy fanning, xususan, Chikago maktabining shakllanishiga xizmat qildi. Siyosatshunoslarning umumjahon kongressida (Myunxen, 1970 y.) siyosiy elitalar borasidagi ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan Italiya maktabining alohida rol o'ynaganligi qayd etildi.

Garold Lassuell(1902–1978), Robert Dal(1915-yilda tug'ilgan), Olvin Toffler(1928-yilda tug'ilgan), Norberto Bobbio(1909-yilda tug'ilgan) kabi politolog olimlar tomonidan yaratilgan konsepsiylar klassik siyosatshunoslik fanidan hozirgi zamon siyosatshunoslik faniga o'tish jarayonlariga asos bo'lib xizmat qildi.

Garold Lassuell o'zining "Siyosiy xulq-atvor tahlili. Empirik yondashuv" nomli asarida odamlar va axloq, din, fan va siyosat o'rta-sidagi munosabatlar, siyosiy hodisalarini anglash uslublari politologlar tomonidan qo'llanilayotgan terminlarning izohlari to'g'risida xulosalarini bayon etgan.

Robert Dal o'zining butun ijodiy faoliyati davomida siyosiy elita, liberal demokratiya nazariyalarining taraqqiyoti bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilib kelmoqda. Uning "Demokratiya nazariyasiga kirish", "Kim boshqaradi?", "Amerika Qo'shma Shtatlaridagi plyuralistik demokratiya", "Demokratiya haqida" kabi asarlarida zamonaviy demokratiya, demokratiyaga o'tish bosqichlari, demokratiyaning turlari, barqaror demokratiya masalalari o'zining talqinini topgan.

#### **4. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar rivoji**

Markaziy Osiyo mintaqasida siyosiy ta'limotlar tarixi rivojlanishi o'ziga xos jihatlarga ega. Markaziy Osiyo xalqlari diniy-dunyoviy va siyosiy qarashlari shakllanish jarayonini quyidagi tarzda davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqligi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan:

- a) qadimgi davr;
- b) o'rta asr;
- d) yangi davr;
- e) XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi siyosiy qarashlar;
- f) XX asrning ikkinchi yarmidan mustaqillikkacha bo'lgan davr;
- j) mustaqillik davri.

Qadimgi diniy qarashlarning oddiy anemistik ko'rinishidan ko'p xudolilik (politeistik) darajasiga yetishi va ular asta-sekinlik bilan yakka xudolikka (monoteistik) intilishi jamiyat taraqqiyotida ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Xususan, uch ming yillik tarixga ega bo'lgan «Avesto» kitobining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati benihoyadir. Jumladan, zardushtiylik diniy ta'limotida tuproq, suv, havo va olovning asos sifatida olinishi hamda Axuramazda va Axuraman o'rtasidagi kurash tom ma'noda zoroastrizm diniy ta'limotining asosiy mohiyatini ham, xarakterli xususiyatlarini ham ochib beradi.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ushbu hududlarda siyosiy ta'limotlarning keyingi rivojiga turki bo'lgan. IX asrda Bag'dodda "Bayt ul-hikma" ("Donishmandlar uyi") – islom Sharqining o'z davridagi Fanlar akademiyasini tashkil etgan edi. Movarounnahrda esa yangi mustaqil Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lib, Buxoro, Samarcand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlarda ilmiy, madaniy aloqalar rivojlangan<sup>8</sup>. Shu jihatdan, IX-XII asrlarni Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri ham deb aytishadi.

---

<sup>8</sup> Muhiddinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi.–T., 2007.–B.116–17.

Abu Nasr Forobiy (873 - 950) Arastu asarlarini chuqur o'rganib, hatto uning xatolarini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ldi. U faqat o'rta asr Sharqiga emas, balki Yevropa ilm ahliga ham katta ta'sir ko'rsata oldi. Forobiy buyuk alloma, ya'ni olim sifatida 160dan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Uning asarlari fanning turli sohalariga bag'ishlangan bo'lib, hanuzgacha o'z amaliy ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu bois Sharq mamlakatlarida uning nomi «Al-muallim as-Soniyy» – «Ikkinci muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» deb ulug'langan. Forobiy ilmiy merosida ijtimoiy-siyosiy masalalar, xususan davlat tuzilishi va uni idora etish, yetuk va mukammal ja-moaga erishish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Forobiy o'rta asr Sharq mutafakkirlari orasida birinchi bo'lib, jamiyat va davlat muammolari haqida fikr yuritdi. Olim shahar-davlat birlashmasining hayoti va o'ziga xosligi, davlatning funksiyalari va uni boshqarish shakllari; davlat birlashmasining vazifalari va pirovard maqsadi, yalpi birlashuvga erishishning yo'llari va usullari kabi masalani ko'rib chiqди.

Davlatning paydo bo'lishi va faoliyat ko'rsatishiga Forobiy odamlarning birlashishga bo'lgan tabiiy intilishlarining natijasi sifatida qaradi. U har bir insonning pirovard maqsadi – baxtga erishish deb hisobladi. Ammo inson unga yakka o'zi erisholmaydi. Buning uchun ko'p odamlarning birgalikdagi kuch-g'ayratlari va faoliyati hamda ana shu faoliyat uchun sharoit yaratuvchi va uni yo'naltiruvchi muayyan ijtimoiy tashkilot zarur. Umuman, Forobiy ta'limotida shahar-davlatlar ikkiga: - “Al-madina al-Foziliya” (Fozil odamlar shahri) va “Al-Madina al-Johiliya” (Johil odamlar shahri)ga bo'linadi.

Bundan tashqari Forobiy hokimlarga nisbatan o'z qarashlarini bayon etadi. “Fozil odamlar shahri” asarida hokim nisbatan shunday fikrlarni: “Bunday shaharga (Fozil odamlar shahriga) hokim bo'ladigan odam Allohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur”<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> Абӯ Наср Форобиј. Фозил одамлар шахри.—Т.: Янги аср авлоди, 2016.—Б.244

Bular: 1)Sog‘liq; 2)Fahm-farosatlilik; 3) Kuchli xotiraga ega bo‘lish; 4) Zukkolik; 5)Notiqlik; 6) Ma’rifatlilik; 7 Qanoatlilik; 8) Haqiqatgo‘ylik; 9) Olijanoblik; 10)Molparast bo‘lmaslik; 11) Adolatparvarlik; 12) Mardlik.

Forobiy dono hukmdor boshchilik qiladigan mutlaq monarxiya tarafdori edi. U hukmdor atrofida intellektual elita turishi kerak deb hisoblar, shu bilan birga, agar hukmdor unga zarur bo‘lgan barcha sifatlarga ega bo‘lmasa, davlatni jamoaviy tarzda boshqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin, deb bilardi.

Siyosat falsafasining takomilida ulug‘ mutafakkir, davlat arbobi Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy- Nizomulmulk(1018–1092) ning ilmiy faoliyati ham alohida o‘rin tutadi. Uning «Siyosatnoma” nomli buyuk asarida davlat va siyosat ularning subyektlari hamda davlat boshqaruvi xususiyatlari haqidagi ilmiy xulosalar bayon qilingan. Bu o‘rinda asarda ifodalangan davlat funksiyalari, davlatni samarali idora etish yo‘llari va buning ahamiyati haqidagi fikrlarni siyosat falsafasi xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa, deb hisoblash mumkin.

“Siyosatnoma” (“Siyar ul-muluk”) asari 50 fasldan iborat bo‘lib, unda davlat boshqaruviga oid o‘z davrining barcha masalalari qamrab olingan: odil podshoh masalasidan to joususlikkacha, xazina, lashkar va qurol-yaroq masalasidan to elchilik munosabatlari.

Xususan, asarda podshohning mazlumlar qabuliga oid quyidagi fikrlar uchraydi: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo‘lgan arizalarini qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda “podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi”, degan xabar mamlakatga tarqalsa, undan zolimlar qilmishlarining oqibatini o‘ylab, qo‘rqib bedodlik qilmaydilar”<sup>10</sup>. Bu hikmatli so‘zlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

---

<sup>10</sup> Nizomulkmulk. Siyosatnoma (Siyar ul-mulk). –T.: Yangi asr avlodи, 2015. –B.24

O'rta asrlarda ko'pchilik mutafakkirlar o'z ijodlarida jamiyatda hukmron bo'lgan yovuzliklardan ozod qila olishi mumkin bo'lgan qandaydir odil va dono hukmdorlarga iltijo qilganlar. Ana shundaylardan biri 360-hijriy (973–1048-milodiy) yilida Xorazmda tug'ilgan Abu Rayhon Beruniydir.

Somoniylar hukmronligi kuchaygan davrining oxirgi yillarida tug'ilib, ikki boshlang'ich feodal imperiya – qoraxoniylar va g'aznaviylarning kuchayishi va yiqlishi davrini boshidan kechirdi. Shu vaqtarda Sirdaryoga yaqin dashtlarda yashovchi og'uz saljuqiylarning Yangi kuchli imperiyasining tashkil etilishiga shohid bo'ldi. O'z vatani Xorazmda Afrig' xonadonining halokati va qisqa vaqt ichida tiklanib gullagan, lekin Mahmud G'aznaviyning dahshatli hujumi bilan tor-mor keltirilgan. Shundan kegin Beruniy Mahmud G'aznaviy bilan uning saroyiga ketgan. U yerda o'zining faol ijodi bilan shug'ullangan.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib, dunyo tarixi va madaniyatini u yoki bu mamlakatning geografik joylashuvi nuqtayi nazaridan yoritib berdi. Muayyan darajada uni geosiyosatning otasi deb atash ham mumkin. O'z vaqtida Abu Rayhon Beruniy «Xristofor Kolumbdan qariyb besh asr oldin okean ortida quruqlik, ya'ni keyinchalik Amerika deb nom olgan qit'a borligini bashorat qilib, ilmiy asoslab bergen»<sup>11</sup>.

Beruniy har uch oyda almashinib turadigan va fuqarolar tomonidan galma-galdan boshqariladigan davlatni ideal deb hisobladi, lekin uning fikricha, boshqaruvchi fuqarolar faqat zodagonlardan va yirik yer egalaridan bo'lishi zarur edi. Shuningdek, davlatning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun o'zaro yordam, tinch-totuv yashash va umumjahon farovonligi singari qoidalarga riosa qilinishi lozim. U, ayniqsa, davlatlarning tinch-totuv yashashini ko'ptarg'ib qildi, chunki uni xalqning baxt-saodati va farovonligining garovi deb bilardi. Boshqaruv shakli haqidagi masalada u monarxiya shaklini qo'llab-quvvatladi va uni boshqaruvning ideal shakli,

<sup>11</sup> Karimov I.A. Amir temur Temur faxrimiz, g'ururimiz // Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi T.5. T., 1997. -Б.183.

deb hisobladi. Beruniyning fikriga ko'ra, davlat va qonunlar inson baxt-saodati uchun xizmat qilishi, davlatni esa ma'rifatli podsho boshqarishi lozim edi.

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980–1037) ham qomusiy olim bo'lib, umumiy asarlari soni 450 dan ortiq, lekin bizgacha faqat 160 taga yaqini yetib kelgan. Jahonda «Shayx ur-rais», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» nomlari bilan ulug'langan bu olimning «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari») asari XII asrdan boshlab Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan va 30 martadan ortiq nashr qilingan.

Abu Ali ibn Sino davlatga birlashuvning tabiiy zarurati sifatida qaradi. O'zining «Kitob al-ishorat vat-tanbidat» (Ko'rsatmalar va tanbehlar kitobi) nomli asarida u shunday deb yozgan edi: «Agar bir odam hamma ishni o'zi qiladigan bo'lsa, uning zimmasiga juda og'ir yuk tushgan bo'lur edi, binobarin, ular o'rtasida kelishuv bo'lmog'i lozim».

Ibn Sino jamiyatning har bir a'zosi foydali mehnat bilan shug'ullanadigan, bekorchilik qoralanadigan davlatni ideal deb hisoblagan. U ideal ijtimoiy tartibni va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan dono hukmdorga katta umid bog'lagan. Abu Ali ibn Sino jamiyatda tengsizlik tarafdoi edi, chunki, uning fikricha, faqat boylardan yoki, aksincha, faqat kambag'allardan iborat bo'lgan jamiyat faoliyat ko'rsata olmaydi. Agar jamiyatning barcha a'zolari boy bo'lib ketsalar, odamlarda hamdardlik, o'zaro yordam hissi yo'qoladi. Agar jamiyatning hamma a'zolari kambag'al bo'lsa, bunday xalq qirilib ketadi.

Ibn Sino fikricha, ideal jamiyat aholisi uch tabaqaga, ya'ni ma'muriy ishlar bilan shug'ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va harbiylarga bo'linadi. Ularning barchasi o'z sohasida foydali mehnat bilan shug'ullanishlari lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari va davlat arboblarining siyosiy-huquqiy merosini o'rganishda sohibqiron Amir Temur (1336- 1405) ning hokimiyat va uni boshqarish to'g'risidagi qarashlarini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, Amir Temurning

siyosiy qarashlari o‘z davri ma’naviyati va davlat boshqaruvi bilan bevosita bog‘liq, ikkinchidan, bu masalaning holisona va haqqoniy baholanishi davlat tepasida turgan birinchi rahbarning shaxsiy sifatlarini mukammalroq bilish, uning insoniyat tarixida tutgan o‘rnini obyektiv baholash imkonini beradi.

Amir Temur ana shunday dohiy, butun bir jasoratlar davrini yaratgan shaxs sifatida siyosat maydoniga chiqdi. Amir Temur o‘zaro urushlarga barham berib, tarqoq yerlarni birlashtirish, o‘z davrining eng qudratli, markazlashgan davlatlaridan birini yaratishga muvaffaq bo‘ldi, u boshqaruv mexanizmini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Butun dunyoda olti asr davomida bu ulug‘ shaxsga bo‘lgan qiziqish susaygani yo‘q. O‘tgan olti yuz yil davomida Amir Temurga bag‘ishlab yaratilgan katta asarlarning soni Yevropa tillarida 500 tani, Sharq tillarida esa 900 tani tashkil etadi.

Amir Temur davlatni boshqarishga katta e’tibor berib, yangi davlat tizimi bo‘yicha Devonı buzrugdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig‘ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo‘llar, sug‘orish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o‘zbek va forstojik tillarida olib borilgan<sup>12</sup>.

Nemis olimi F. Shlosser o‘zining «Jahon tarixi» (III-tom) asarida: «Baxtiyor jangchi, jahongir, Uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lish bilan birga o‘zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi», deb yozsa, atoqli nemis olimi M. Veber: «Temur o‘z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi», deb ta’riflaydi.

Shuningdek, «Tuzuki Timur»—«Temur tuzuklari»da ham Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli davlatning siyosiy va axloqiy qoidalari haqida gap boradi.

---

<sup>12</sup> Amir Temur (1336–1405) // <http://e-tarix.uz/shaxslar/446-amir-temur.html>

«Temur tuzuklari»da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarining vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo‘lgan qoidalar, qo‘sinchilarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta’minalash, rag‘batlantirish, qo‘sinchilarning tutgan o‘rni va o‘zaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor ta’kidlanadi. «Sultanatim martabasini, - deb ta’kidlaydi Amir Temur, - qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, sultanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo‘linishi, sultanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, sultanat 4 qat’iy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan<sup>13</sup>.

Amir Temur sultanatni boshqarishda 4 ta narsaga amal qilgan:

- 1.qo‘sinch;
2. maslahat;
3. qat’iy qaror va xushyorlik;
4. ehtiyotkorlik.

Mamlakatni 12 qoidaga tayanib boshqargani quyidagilarda o‘z aksini topgan:

Birinchisi, har yerda va har vaqtida islom dinini qo’lllab-quvvatladim;

Ikkinchisi, kengash, mashvarat, maslahat va sabr-toqat bilan murosayu-madora qilish orqali boshqarish;

Uchinchisi, sultanat ishlarini to‘la tuzukka asoslanib, ya’ni qonun-qoidaga, o‘rnatilgan tartibga ko‘ra yurgizish;

To‘rtinchisi, davlat ishlarini qat’iyatlik bilan boshqarish;

Beshinchi,adolat va insof tamoyiliga asoslanib, «gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat bilan hukm chiqarish;

Oltinchisi, sultanatni boshqarishda tejamkorlik, zukkolikka tayanimish;

---

<sup>13</sup> Temur tuzuklari / Tahrir hay’ati: B.Abduhalimov va bosh., Forscha matndan A.Sog‘oniy va H.Karomatov tarj. –T.: O‘zbekiston, 2011. –B,73–79.

Yettinchisi, sayidlar, tarixichilar, oqilu donolar, muxaddislarni izzatu-hurmatini joyiga qo'yish;

Sakkizinchisi, azmu-jazm bilan ish tutish;

To'qqinzinchisi, raiyat holidan xabardor bo'lib, ulug'larni ota o'rnida ko'rish, kichiklarni farzand o'rnida ko'rish;

O'ninchisi, barcha xalq va millatni hurmat qilish;

O'n birinchichi, do'st, dushman bilan kelishib yashash;

O'n ikkinchisi, do'st, dushmanligiga qaramay sipohiyarlarni hurmat qilish<sup>14</sup>.

Amir Temur davlat asosini o'k ikki toifa tashkil etgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Sayyidlar, fozil kishilar.
2. Ishbilarmonlar.
3. Xudojo'y, tarki dunyo qilganlar.
4. Harbiylar.
5. Sipoh va raiyat.
6. Maxsus ishonchli kishilar.
7. Vazirlar.
8. Haqim, munajjim, tabib va muhaddislar.
9. Hadis olimlari.
10. Ahli hunar va san'atkorlar.
11. So'fiylar.
12. Savdogar va sayyohlar.

Shaharlar va shahar atrofi aholisidan na jon solig'i va na boj olinardi. Birorta ham askarning doimiy turish uchun shaxsiy kishilar uyini egallashga yoki fuqarolarning molini va boyligini o'zlashtirib olishga haqqi yo'q edi. «Barcha ishlarda,—degan edi Amir Temur,—bu ishlar qaysi o'lka xalqiga taalluqli bo'lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. Qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildimki, kambag'allar

<sup>14</sup> Temur tuzuklari / Tahrir hay'ati: B.Abduhalimov va bosh., Forscha matndan A.Sog'oniy va H.Karomatov tarj. —T.: O'zbekiston, 2011. B,73–79

ulardan nafaqa olib turardilar». Bundan tashqari, Amir Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi: «Soliqdar yig‘ishda xalqni og‘ir ahvolga solishdan yoki o‘lkani qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan ehtiyyot bo‘lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o‘z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo‘ladi...»<sup>15</sup>.

Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o‘z zamonasining eng qudratli hukmdori bo‘lishi bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san’ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi o‘z davrining nodir mo‘jizasi edi. Uning harbiy mahorati turli yo‘nalishlarda—askariy qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum qilihda turli-tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o‘rganib chiqishda, ham lashkarboshi—qo‘mondonlikda namoyon bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Amir Temur davlat, jamiyat hayotida bo‘lib o‘tadigan har bir muhim reja oldidan kengash o‘tkazar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temurzodalarini, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan arboblarini ham taklif etgan va o‘zining har bir yurishi oldidan bunday kengashlarni o‘tkazib turishni odat tusiga kiritgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movarounnahrda mo‘g‘ullarning qariyb 140-yillik hukmronlik davrida biron ta ham ko‘zga ko‘rinarli qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan. Amir Temurning tashabbusi bilan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarcand, 1380-yilda esa Keshning atrofi qaytdan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Shuningdek, xalq farovonligiyu, mamlakat obodonchiligi yo‘lida suv omborlari, to‘g‘onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor berilgan.

<sup>15</sup> Amir Temur (1336–1405) // <http://e-tarix.uz/shaxslar/446-amir-temur.html>

Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko'tarilsa savdoning ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar va timlar, turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirgan<sup>16</sup>.

Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko'rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, «Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzatu ikromini unga izhor qilardi».

Amir Temur saroyida ko'plab ilm-ma'rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo'lib, uning xizmatida bo'ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me'morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Amir Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi».

Amir Temur o'zini mohir diplomat sifatida ham namoyon qilaolgan. Uning Vizantiya, Venesiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, boshqacha aytganda, o'sha vaqtda ko'proq ma'lum va mashhur bo'lgan Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni

---

<sup>16</sup> Amir Temur (1336–1405) // <http://e-tarix.uz/shaxslar/446-Amir-Temur.html>

mustahkamlash sohasidagi faoliyatini fransuz va ingliz qirollaring unga yozgan maktublari bilan dalillash mumkin.

Manbalarda sohibqiron Amir Temur–yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o’tkir, shijoatli va qatiyatli, birso‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta’riflanadi.

Amir Temurning Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o‘rni haqida xulosa qilib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni mo‘g‘ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyshtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo‘naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro‘yobga chiqishiga ulkan hissa qo‘shtgan sarkardadir; Amir Temur ko‘p yillar davomida mustamlaka bo‘lib, chet ellik hukmdorlarga bo‘ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o‘z yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo etaoldi; Amir Temur ham o‘z davriga xos bo‘lgan turli sabablarga binoan boshqa mamlakatlarga yurishlar qildi va Yevropa mamlakatlarining rivojlanishini tezlashishiga o‘z hissasini qo‘shti. Rossiyani Oltin O‘rda zulmidan, Yevropani Turkiya tajovvuzidan saqlab qoldi; Amir Temur o‘z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homisi bo‘lib taniddi. O‘z siyosati bilan madaniy yuksalishga va turkiy tilning rivojiga keng yo‘l ochib, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy-ma’naviy olamida, balki butun musulmon olami tarixida o‘chmas iz qoldirdi va so‘nggi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi; Amir Temur qator Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, ular bilan turli savdo-sotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo‘l ochib berdi<sup>17</sup>.

Umuman, olganda Markaziy Osiyoda siyosiy ta’limotlar rivoji keyingi davrlarda ham davom etib, milliy davlatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, o‘ziga xos xususiyatlar kasb eta borgan.

---

<sup>17</sup> Amir Temur (1336–1405) // <http://e-tarix.uz/shaxslar/446-amir-temur.html>

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Qadimga Sharqda siyosiy qarashlar rivojining o‘ziga xos jihatlarini sanab o‘ting?
2. Ploton siyosiy qarashlarining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Arastu siyosiy qarashlarining asosiy mohiyatini izohlab bering.
4. Yevropada O‘rta asrlarda siyosiy qarashlar rivoji xususida nimalarni bilasiz?
5. N.Makiavellining siyosiy ta’limtolar taraqqiyotidagi o‘rnini qanday baholaysiz?
6. “Ijtimoiy shartnoma” nazariyasi deganda nimani tushunchasiz?
7. “Ijtimoiy shartnoma” nazariyasining uch maktabi vakillarini sanab bering?
8. Yangi davrda AQSHdagi siyosiy-huquqiy qarashlarning asosiy jihatlarini izohlab bering?
9. XX asrda siyosiy ta’limotlar rivojlanishi qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan?
10. Markaziy Osiyoda qadimgi siyosiy qarashlar nimalarda aks etgan?
11. Markaziy Osiyoda islom dini yoyilish davridagi siyosiy-huquqiy qarashlar holatini tushuntirib bering?
12. Sharq uyg‘onish davridagi siyosiy ta’limotlarni izohlab bering?
13. A.Temurning o‘zbek milliy davlatchiligi rivojlanishidagi o‘mi qanday bo‘lgan?

### *Mustaqil ish topshiriqlari*

1. A.Temurning “Temur tuzuklari” asarini o‘qib, shu asosda esse tayyorlab kelish.
2. XVII-XX asrlarda O‘rta Osiyoda siyosiy ta’limotlar rivoji bo‘yicha taqdimot tayyorlab kelish.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юргталабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Мухиддинова Ф.А. Сиёсий ва хукуқий таълимотлар тарихи. Дарслик.–Т.ТДЮИ, 2011.
4. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –Т.: TDIU, 2010.
5. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
6. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
7. Muhibbinova F. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma.–Т., 2007
8. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев К.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.
9. Муаллифлар гурухи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЗБНТ” маркази, 2002.
10. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
11. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўқув юргталабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Ўзбекистон, 1992.

### **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг

кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига багишлиланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.—Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш—юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.—Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.—Т.: Ўзбекистон, 2017.—48 б.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch.—Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 б.

6. Бобоев Ҳ. Ғафуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти.—Т., 2001.

7. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.

8. Желтов В. В. Политология.— Ростов-на-Дону, 2004.

9. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.

10. Макиавелли Н. Ҳукмдор / Зохир Аълам таржимаси // Жаҳон адабиёти. -2002. -№9.-Б.105–148

11. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк).—Т.: Янги аср авлоди, 2015, 312 б.

12. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри.—Т.: Янги аср авлоди, 2016, 320 б.

13. Платон. Государство /пер.с др.В.Н.Карпова.—СПб.:Азбука, 2017, 352 с.

14. Платон. Государства и политика / пер.введ и коммент. В.Н.Карпова.—М.:ACT, 2017, 469 с.

15. Аристотель. Политика / пер. с древнегреч. С.А.Жебелева.—М.АСТ, 2017, 384 с.

16. Макиавелли Н. Государь.–М.: Издательство «Э», 2016, 640 с.
17. Амир Темур (1336–1405) // <http://e-tarix.uz/shaxslar/446-imir-temur.html>.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)
7. [e-tarix.uz/](http://e-tarix.uz/)

### **3-mavzu. SIYOSIY JARAYONLAR VA SIYOSIY ISHTIROK**

#### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy jarayonlar haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

#### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Siyosat, siyosiy jarayon, siyosiy munosabat, siyosiy ishtirok, siyosiy faoliyat, siyosiyo qaror, siyosiy barqarorlik, ochiq siyosiy tizim, yopiq siyosiy tizim, anolik shaxslar.*

#### **Asosiy savollar:**

1. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati.
2. Siyosiy jarayon tasnifi va bosqichlari.
3. Siyosiy ishtirok tushunchasi.
4. Siyosiy qaror va uning mohiyati.

#### **1. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati**

Siyosiy fanlarda siyosatni tushuntirish va o'rghanishning turli xil usullaridan tashqari uni yo'nalishlar va qismlarga bo'lib o'rghanish imkoniyatiga ham egadirlar, ulardan biri "siyosiy jarayon" tushunchasidir. "Jarayon" tushunchasining lug'aviy ma'nosи (lot.proces-sus—prosess) "oldinga harakat"ni anglatib, siyosiy fanlarda "qandaydir holat yoki hodisani izchil qonuniyatli tarzda o'zgaritirish" deb tushuniladi.

Jarayon—terminini siyosatshunoslik fani aslida kibernetika fanidan o'zlashtirgan, degan fikrlar ham mavjud. Kibernetikada bir-biridan ketma-ket keluvchi va ma'lum natijaga olib keluvchi har qanday izchillik jarayon sifatida qabul qilingan. Siyosatshunoslikda, umumiy

holatda olinganda, bir siyosiy voqelikdan boshqasiga ma'lum bir vaqt oralig'ida o'tish hodisasining ro'y berishi siyosiy jarayon tushunchasi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, siyosatning turli subyeklarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar natijasida, murakkab ichki bog'lanish asosida ketma-ket ro'y beruvchi siyosiy voqelik va hodisalar-siyosiy jarayonni tashkil qiladi.

Siyosiy jarayonda ishtirok etuvchi turli elementlar hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali siyosiy jarayonning xarakteri aniqlanadi. O'z navbatida, buning natijasida u yoki bu jamiyat siyosiy hayotining xususiyatlari to'g'risida aniq tasavvurga va bilimlarga ega bo'ladi.

Siyosiy jarayonlar kishilik jamiyatni rivojlanishining barcha davrlarida mavjud bo'lgan, ammo uning faollik darajasi turli davrlarda turlicha namoyon bo'lib, o'ziga xos xarakter kasb etgan.

Jamiyatda turli ijtimoiy va siyosiy hodisalar, murakkab siyosiy voqealar ro'y berib turadi. Ammo ularning mohiyati, maqsadlari, shuningdek, ularni keltirib chiqaradigan sabablarni anglab olish ancha mushkul. Siyosiy jarayonlarning bugungi kunda dolzarbliji ham aynan ana shunda namoyon bo'lmoqda.

«Siyosiy jarayon» tushunchasini siyosiy munosabatlar va hodisalarning ichki bog'liqlikka ega zanjiri, siyosat subyektlarining hokimiyatga qaratilgan faoliyatining o'zaro munosabati birligidir.

Siyosiy jarayonlar va uning xususiyatlari, ta'riflari to'g'risida turli xil fikr-mulohazalar mavjud:

Merriam-Vebrster lug'atida siyosiy jarayonga nisbatan quyidagi-cha ta'rif beriladi:

Siyosiy jarayon bu-odatda ijtimoiy guruuhlar va siyosiy institutlar yoki siyosiy yetakchilik va ijtimoiy fikr o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali davlat siyosatining shakllanishi va boshqarilishi jarayonidir<sup>18</sup>.

Siyosiy jarayonlar-jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalarida ro'y beradigan voqealari-hodisalar va o'zgarishlar birligidan iborat. Dav-

---

<sup>18</sup> Definition of political process // <https://www.merriam-webster.com/dictionary/political%20process>

latlarning ichki hayoti va xalqaro siyosiy munosabatlari bilan bog‘liq voqeа-hodisalar ham siyosiy jarayonlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlar deb jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqeа-hodisalarning ro‘y berib turishi, ularning obyektiv qonuniyatlар harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytildi.

Shu bilan birga “siyosiy jarayonlar” tushunchasi “siyoyosiy munosabatlar” tushunchasi bilan birgalikda qo‘llanadi. Biroq ular o‘rtasida ma’lum ma’noda farq bor.

Siyosiy jarayon tushunchasi siyosiy munosabatlar tushunchasiga qaraganda mazmunan keng ma’noga ega. Agar siyosiy munosabatlar tushunchasi turli subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalansa, siyosiy jarayonlar esa, ham subyekt, ham obyekt o‘rtasidagi munosabatlar va ularning har birida ro‘y beradigan o‘zgarishlar tushuniladi. Ammo, bunda siyosiy jarayonlar tushunchasining ta’sir kuchini cheklab qo‘yish mumkin emas, u jamiyatning iqtisodiy, madaniy va sotsial hayot sohalari bilan bog‘liq ravishda rivojlanib boradi.

Siyosiy jarayonlarda bo‘ladigan o‘zgarishlar jamiyat hayotining boshqa sohalarida ro‘y beradigan o‘zgarishlarga u yoki bu darajada sabab bo‘ladi. Masalan, siyosiy tizimning isloh qilinishi jamiyat hayotining boshqa sohalarida biron -bir darajadagi o‘zgarishlarning ro‘y berishiga sabab bo‘ladi. Biron-bir mamlakatda siyosiy hokimiyatning almashinishi shu mamlakatning ijtimoiy hayotida amalda bo‘lgan tarablarning o‘zgarishiga olib keladi. Yangi hokimiyat mamlakatning siyosiy yo‘lini o‘zgartirish, mayjud muammolarning yangicha usullar yordamida hal etishiga harakat qiladi.

Siyosiy munosabatlar – bu jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonlarida uzluksiz harakatda bo‘lgan siyosat subyektlari va ularning obyektiga qiladigan ta’sirini ifoda qiluvchi harakatlarning umumiyligi yoki ularning birligidir.

Siyosiy jarayon hokimiyat subyektlarining o‘ziga xos rollari va funksiyalarini bajarishni ta’minlab, butun bir siyosiy hayotning funktsional tavsifi sifatida namoyon bo‘ladi. U hokimiyat subyektlari, so-

hiblari va institutlarining o‘z huquqlari va alohida vakolatlarini siyosiy sohada amalga oshirishlariga doir xatti-harakatlar yig‘indisidir. Siyosiy jarayonda turli-tuman siyosat subyektlari va omillari o‘zaro xatti-harakatlarida bo‘ladi, natijada jamiyat siyosiy islohotlar va o‘zgarishlar amalga oshadi.

Taniqli ingliz olimi E.Xeyvud fikricha, “siyosiy jarayon” tushunchasi ijtimoiy (davlat, hukumat) siyosati “yaratiladigan” mexanizmiga taalluqlidir. Uningcha, siyosat ishlab chiqarishni jarayon sifatida ikki xil ma’noda tushunish mumkin. Birinchidan, u tadbir yoki xatti-harakatning ketma-ket izchilligi haqida bo‘lishi mumkin. Bu zanjir u yoki bu g‘oya tug‘ilishidan boshlanib, uning dastlabki rasmiylashuvi, muhokama, tahlil va baholash sifatida davom etishi, rasmiy qarorlar qabul qilish, oldindan o‘ylangan muayyan xatti-harakatlar vositasida ularni amalga oshirilishi bilan tugallanadi. Ikkinchidan, jarayon ishlab chiqarish vositasi hamdir.

Siyosiy jarayonlar qanchalik xilma-xil bo‘lmashin, ularning umumiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- har qanday davlatda ham siyosiy jarayonlarning bosh manbai va lider kuchi xalq ommasining ongli faoliyatidir;
- agar kishilar jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok yetmasalar, siyosiy jarayonlarning kechishi sustlashadi va bunday sharoitda har qanday siyosiy institutlarning faol harakati ham o‘zining samarali natijasini bermaydi.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyati shundaki, u «siyosiy faollik» tushunchasi bilan ham uzviy bog‘liq, ya’ni kishilarning ongli siyosiy faoliyati siyosiy jarayonlarning borishini belgilar ekan, unda jamiyatning har bir a’zosining davlatda amalga oshirilayotgan siyosiy ishlarda faollik bilan ishtirok etishi taqozo etiladi. Binobarin, jamiyatdagi siyosiy faollik insonlarning erkinliklari, demokratik tamoyillarning ta’minlanishi bilan uzviy bog‘liq. Jamiyatda fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy huquqlari ta’minlansa, demokratik tamoyillarga amal qilinsa, siyosiy jarayonlar ham, siyosiy faollik ham yuqori darajada bo‘ladi. Yoki aksincha, totalitar yoki demokratik tamoyillar ta’qib qilingan davlatlarda, siyosiy jarayonlar ancha sust darajada namoyon bo‘ladi.

Jamiyat hayotida hal qiluvchi o‘zgarishlar, yangilanishlarning yuz berishiga sabab bo‘layotgan jarayonlar siyosatshunoslik fanida tub siyosiy jarayonlar, deb ataladi. Masalan, bunga jamiyat demokratlashuvi, siyo-siy modernizatsiya, liberallahuv kabi jarayonlarni kiritish mumkin. Demak, siyosiy jarayon siyosat dinamikasining institutionallashgan ifodasıdir. Bunda uning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. Individual va guruh manfaatlarining shakllanishi.
2. Siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlarning faoliyatidan kelib chiqib manfaatlarning ifodalanishi.
3. Hokimiyat vakillik organlari tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy harakat yo‘nalishining ishlab chiqilishi.
4. Birinchi navbatda, ijro etuvchi hokimiyat faoliyat orqali avval qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi.
5. Siyosatda Sud va Konstitutson nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat va arbitraj.

Siyosiy jarayon quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

➤ Siyosiy munosabatlar. Subyektlarning hokimiyat doirasidagi siyosiy manfaatlarini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi aloqalar. Siyosiy munosabatlarning amalga oshishi natijasida siyosiy jarayonning yangilanishi, siyosiy g‘oyalar, bilimlar, tajriba, qadriyatlar, axborot va h.k., shuningdek, siyosiy faoliyat shakllari va usullarining to‘planishi va uzatilishi ro‘y beradi.

➤ Siyosiy jarayon subyektlari. Siyosiy jarayon ishtirokchilari. Ularga shaxslar, qatlamlar, etnoslar, konfessional va demografik guruhlar (ijtimoiy) va siyosiy institutlar kiradi. Ikkita muhim jihatni birlashtiradi: onglik; faollik.

➤ Siyosiy xulq-atvor. Shaxs ijtimoiy guruhlarning siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda, o‘z siyosiy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish shakli. Siyosiy ishtirok. Siyosat subyektlarining siyosiy munosabatlarga jalb qilinganligi.

Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash kerakki, siyosiy jarayon o‘z doirasida davlat siyosatini ishlab chiqish jarayoni(**the policymaking process**) ni ham qamrab oladi. Davlat siyosatini amalga oshirish bevosita siyo-

siy qarorlar qabul qilish orqali namoyon bo‘ladi. Biroq jarayon sifatida (**decision-making process**dan farqli ravishda) quyidagi bosqichlarni qamrab oladi<sup>19</sup>:

- *Siyosiy muammolarni aniqlash.* Jamoatchilik hukumatdan asosiy muammolarni aniqlashtirib olishni talab qiladi.
- *Siyosiy takliflar shakllantirish.* Siyosiy takliflar turli siyosiy-rejalashtirish tashkilotlari, manfaatdor guruhlar, hukumat organlari, qonunchilik hokimiyati, prezident singari kanallar orqali aniqlashtirib olinadi.
- *Davlat siyosati legitimlash.* Davlat siyosati hukumat bayonotlari, hukumat faoliyati, hamma darajadagi tayinlanadigan va saylanadigan organlar faoliyati orqali legitimlashtiriladi. Bu o‘z ichiga ijro buyruqlari, qonunlar, qoidalar, nizomlar va boshqalarni qamrab oladi.
- *Davlat siyosatini amalga oshirish.* Siyosat davlat byurokratik organlari va davlat jamg‘armalari xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.
- *Davlat siyosatini baholash.* Siyosat hukumat idorlari, tashqi konsultantlar, manfaatdor guruhlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tomonidan rasmiy va norasmiy tartibda baholanadi.

## 2. Siyosiy jarayon tasnifi va bosqichlari

Siyosiy jarayon klassifikatsiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, siyosatning tashqi, xalqaro hamda ichki siyosat kabi turlarga bo‘lmishi holatidan kelib chiqib, siyosiy jarayonning quyidagi ikki ko‘rinishini ajratish mumkin: birinchidan, global, mintaqaviy darajadagi siyosiy jarayon; ikkinchidan, mamlakat doirasidagi siyosiy jarayon.

Siyosiy jarayonlarning mazkur ko‘rinishlari o‘rtasidagi muvozanatning ta’minlanishi ayni paytda siyosiy barqarorlikning mustahkamlanishi uchun yetakchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki siyosiy

---

<sup>19</sup> Politics and the Policymaking Process // [https://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/us/hip\\_us\\_pearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf](https://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/us/hip_us_pearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf)

jarayon-mamlakatlar, xalqlar siyosiy-ijtimoiy hayotining davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimining barcha jahbalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Siyosiy hokimiyat tashkilotining tizimlilik sifati nuqtayi nazaridan siyosiy jarayonlar ikkita katta turlarga bo'linadi:

- demokratik;
- nodemokratik.

Elita va elektorat tomonidan o'z fnuksiyalarini amalga oshirishning oshkoraliqi, davlatning o'z vakolatlari va funksiyalarini ochiqligi va berkligiga nisbatan siyosiy jarayonlar: ochiq va yopiq bo'lishi mumkin.

Siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyati shundaki, ularni yaxlit bir tizim holida o'rganib bo'lmaydi. Binobarin, siyosiy jarayonlar o'z xarakteriga ko'ra ikki guruhga bo'linadi (Qarang: R.Farmonov va boshq. 4-mavzu):

1. Umumiy siyosiy jarayonlar.
2. Xususiy siyosiy jarayonlar.

Siyosiy jarayonlarning bu ikki guruhi nafaqat o'zining ta'sir doirasasi va unda qatnashuvchilar ko'lami bilan, balki shakllanish mohiyati, maqsad va vazifalari hamda natijalari bilan farqlanadi. Ammo shu bilan birga, siyosiy jarayonlarning bu ikki guruhi o'rtasida ularni bog'lab turuvchi jihatlar ham mavjud. Masalan, xususiy siyosiy jarayonlar umumiy siyosiy jarayonlarning mohiyati, shakli va amalga oshirilishiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Umumiy siyosiy jarayonlar butun jamiyatni qamrab oladi va jamiyatda mavjud siyosiy tizimning o'zgarishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, umumiy siyosiy jarayonlar xususiy siyosiy jarayonlarning yig'indisi emas.

U xususiy siyosiy jarayonlardan nafaqat ta'sir doirasi va ko'lami bilan, balki jarayonlar o'z mazmun-mohiyati va shakliga ko'ra ham farq qiladi.

- Umumiy siyosiy jarayonlar quyidagi uch shaklda amalga oshiriladi:
- evolutsion (tadrijiy);
  - revolutsion (inqilobiy);
  - krizis (inqiroz).

Xususiy siyosiy jarayonlarning tarkibiy elementlari quyidagilardir: sabab va uning paydo bo‘lishi, obyekt va subyekt hamda maqsad.

Xususiy siyosiy jarayonlar jamiyatda muammo va qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi va ularning o‘z yechimlarini talab qilishlari natijasida paydo bo‘ladi.

Masalan, biron-bir davlatning soliq tizimidagi norozilik qonunchilik faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday muammolar kichik bir guruh yoki keng jamoatchilikning fikrini, manfaatlarini ifoda etishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning obyektlari deganda siyosiy jarayonlarni rivojlantiradigan muammolar nazarda tutiladi. Ular turli sohadagi muammolar bo‘lishi mumkin:

- biror-bir siyosiy (maqsadlarning) manfaatlarning paydo bo‘lishi va ularni amalga oshirishning zarurligi;
- yangi siyosiy institutlar, partiyalar, tashkilotlar, harakatlar, bloklar tashkil etish;
- hokimiyat tarkibini qayta tashkil etish, hokimiyat tizimidagi siyosiy o‘zgarishlar, Vazirlar Mahkamasi tarkibining qayta tuzilishi;
- mavjud siyosiy hokimiyatni qo‘llab-quvvatlash, qayta tashkil etish va boshqalar.

Yuqoridaq muammolarning mohiyatini tushunish uchun siyosiy jarayonlarda qatnashadigan subyektlarning maqsad va vazifalarini bilish lozim. Aytish joizki, xususiy siyosiy jarayonlar faqatgina siyosiy sohaga tegishli emas. U jamiyatning har qanday: iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va madaniy sohalarida ham paydo bo‘lishi va rivojlanishi mumkin (masalan, iqtisodiy yoki ijtimoiy muammoning siyosiy muammoga aylanib ketishi).

Xususiy siyosiy jarayonlarning maqsadlari. Ushbu element siyosiy jarayonlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki siyosiy jarayonlarning maqsadlari uning nimaga yo‘naltirilganligi, uni keltirib chiqargan sabablar va siyosiy harakating mohiyatini anglatadi. Siyosiy jarayonlarning aniq maqsadlarini bilish va to‘g‘ri tushunish ushbu harakatlarga to‘g‘ri baho berish im-

konini ham yaratadi. Siyosiy jarayonlarning maqsadlari bir guruh yoki butun jamoatchilik maqsadlari yig‘indisidan iborat bo‘lishi mumkin.

Xususiy siyosiy jarayonlarning yana bir xususiyatlardan biri—jarayon qatnashchilarining tarkibiy miqdori turli xil bo‘lishidadir. Masalan, xususiy siyosiy jarayonlar turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, tashkilotlar va hatto davlat ishtirokida ham bo‘lishi mumkin. Siyosiy jarayonlarda butun bir siyosiy partiya yoki alohida biror bir shaxs ham ishtirok etishi mumkin.

Siyosiy jarayonlarni jamiyat bilan hokimiyat o‘rtasidagi munosabatiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin. Ushbu xarakterga (xususiyatlarga) binoan xususiy siyosiy jarayonlar ikkiga bo‘linadi:

- 1) Barqaror siyosiy jarayonlar.
- 2) Beqaror siyosiy jarayonlar.

Hozirda siyosatshunoslar tomonidan xususiy siyosiy jarayonlarning barqaror turi ancha mukammal o‘rganilgan. Ular mustahkam siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy, yuqori darajadagi huquqiy me’yorlar, siyosiy madaniyat bilan bog‘liq. Barqaror siyosiy jarayonlar qonuniy hokimiyat va jamiyatda mojarolarning keskinlashmagan davrida ro‘y beradi.

Beqaror siyosiy jarayonlar esa siyosiy tizimdagи yoki siyosiy hokimiyatdagi inqirozli vaziyatlarda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Mavjud siyosiy hokimiyat keskin vaziyatni hal eta olmagan taqdirda siyosiy jarayonlarda barqarorlikning buzilishi holati vujudga keladi. Bunday vaziyatarda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi muxolifating shakllanishini ham kuzatish mumkin.

Siyosiy jarayon hokimiyatni harakatda o‘rganadi. Shu tufayli, siyosiy jarayon mavjudligining 3 ta tartibi ajratiladi: turg‘unlik, rivojlanish, inqiroz tartiblari.

1) Turg‘unlik tartibida shakllanib bo‘lgan siyosiy munosabatlar odatdagи chegaralarda tutib turiladi. Bu tartibda siyosat subyektlari faoliyatida konservativizm va an’analarga sodiqlik yetakchi bo‘ladi.

2) Rivojlanish tartibida jamiyat ichidagi va xalqaro munosabatlardagi o‘zgarishlarga muvofiq ravishda siyosiy tizimning boshqaruv va amal qilish uslublari o‘zgara boshlaydi.

3) Inqiroz tartibi-siyosiy yaxlitlikning yo‘qolishi, markazdan qochma kuchlarning ortib borishi, hokimiyat qabul qilayotgan qarolarning bajarilmasligi, siyosiy hokimiyat legitimligi yo‘qolib borishini anglatadi.

Mazkur dinamika siyosiy jarayon bosqichlari sifatida ham e’tirof etiladi va unga nisbatan tadqiqotchi D.Iston biroz boshqacharoq yondoshgan. D.Iston fikriga ko‘ra, siyosiy jarayon natijasida jamiyatning institutsional tizimi yangi holatlarga moslashib, o‘zini-o‘zi yanada qayta tashkil qilib, o‘zarib boradi. Shy bois siyosiy jarayon bir-biri bilan bog‘lq bo‘lgan to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydi.

Bular quyidagilar:

1. Siyosiy tizimni shakllanishi.
2. Mavjud siyosiy tizimning faoliyat yuritishi.
3. Siyosiy tizimning rivojlanishi.
4. Siyosiy tizim rivojining pasayishi.

### **3. Siyosiy ishtirok tushunchasi**

Siyosiy jarayonlar bevosita siyosiy ishtirok ko‘lami asosida shakllanadi. Shu jihatdan, siyosiy jarayonning mazmuni fuqarolarning siyosiy xohish-istikclarini bildirishlarining ikkita shaklini o‘z ichiga oladi:

birinchidan, bu-siyosiy jarayon oddiy ishtirokchilarining turli-tuman ko‘rinishdagi siyosiy faoliyatida o‘z manfaatlarini ifodalashlarining turli usullaridir: saylovlar, referendumlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kabilardagi ishtiroki;

ikkinchidan, siyosiy yetakchilar va elita tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va ularni amalga oshirishda ishtirok etish.

Siyosiy ishtirokning ilmiy adabiyotlarda bir qator ta’riflari mavjud bo‘lib, ular qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

Siyosiy ishtirok-ixtiyoriy faoliyat bo‘lib, uning vositasida jamiyat a’zolari hukmdorlarni saylashda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita davlat siyosatini shakllantirishda ishtirok etadilar. U doimiy yoki

vaqtincha, uyushgan yoki uyushmagan bo‘lishi, hokimiyatning qonuniy yoki noqonuniy usullardan foydalanishi mumkin.

Siyosiy ishtirok – siyosiy hokimiyatning har qanday – mahalliy yoki umummilliy darajalarida xususiy kishilarning davlat siyosatiga ta’sir etish, davlat ishlarini boshqarish yoki siyosiy yetakchilarni saylash maqsadlaridagi xatti-harakatlaridir.

Siyosiy ishtirok – ijtimoiy-siyosiy jamoa a’zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligidir.

Siyosiy ishtirok demokratiyaning asosiy tavsiflaridan biri, siyosiy ijtimoiylashuv va siyosiy tarbiyaning, nizolarni hal etishning, byurokratiya va fuqarolarning siyosiy chetlashuviga qarshi kurashishning vositasi sifatida baholanadi.

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha:

- 1) Axborot qilish va uzatish.
- 2) Siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot.
- 3) Saylov va boshqa siyosiy kompaniyalarda ishtirok.
- 4) Namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlari va inqiloblarida ishtirok.
- 5) Boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruvda ishtirok.
- 6) Qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda ishtirok.
- 7) Siyosiy partiylar va ijtimoiy siyosiy harakatlar faoliyatida ishtirok etish kiradi.

Siyosiy ishtirok quyidagi vazifalarni bajaradi:

- siyosiy ijtimoiylashuv;
- ixtiloflarni hal etish va ulardan ogohlantirish;
- byurokratiya bilan kurashish, fuqarolarning siyosat va boshqaruvdan begonalashuviga qarshi kurash;
- turli manfaatlar, talablar va istaklarni kelishtirish va ularni qondirish.

Siyosiy ishtirokning quyidagi asosiy turlarini sanab o‘tish mumkin:

- 1) to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) va bilvosita siyosiy ishtirok;
- 2) umumiylar cheklangan siyosiy ishtirok;
- 3) ixtiyoriy va majburiy siyosiy ishtirok;

- 4) an'anaviy, faol va passiv siyosiy ishtirok;
- 5) legitim va nolegitim siyosiy ishtirok;
- 6) qonuniy va noqonuniy siyosiy ishtirok.

Ta'kidlash joizki, siyosatga bo'lgan qiziqishning so'nishiga sabab bo'lgan omillardan biri fuqarolarning hokimiyatga ishonchsizlik bilan qarashidir. Siyosiy hayotda ishtirok etishdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan kishilarning bir necha guruhlari mavjud.

Loqayd odamlar o'zlarining xususiy muammolari, o'z kasblarida yuqori pog'onaga ko'tarilish talablari bilan butunlay band bo'lib qolganliklari, yengil g'ayot kechirishga yoki submadaniyatga bo'lgan rag'batlari tufayli siyosat bilan qiziqmaydigan fuqarolar. Ularning ayrimlari siyosatni tushunib bo'lmaydigan, zerikarli va ma'nosiz bir narsa deb hisoblaydilar.

Siyosatdan chetlashgan kishilar-siyosat ulardan voz kechgan deb hisoblovchilar. Ular, biz ovoz berish-bermasligimizdan qat'i nazar, siyosiy qarorlar ozchilik tomonidan chiqariladi, deb ishondilar.

Anolik kishilar-o'z imkoniyatlariga, maqsadlarining ro'yobga chiqishiga ishonchini, qandaydir ijtimoiy guruhga mansubligini yo'qotgan, ijtimoiy ildizlaridan uzilib qolgan odamlar. Ular o'zlarining hech qanday maqsadga intilmasliklarini, ojizliklarini sezadilar, chunki hayot ular uchun o'z ma'nosini yo'qotgan.

#### **4. Siyosiy qaror va uning mohiyati**

Siyosiy ishtirokning muhim jihatlaridan biri bevosita siyosiy qarorlarining qabul qilinishida ishtirok etish yokiunga ta'sir ko'rsatishdan iboratdi. Siyosiy qarorlar bevosita siyosiy jarayonlar dinamikasini ham belgilab beradi. AQSH siyosatshunosi R.Makridis fikricha, qarorlar qabul qilish - "siyosatning eng muhim ijtimoiy funksiyasidir".

Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari ham faol qatnashadilar. Jamiyat siyosiy hayotida bu tashkilotlar u yoki bu darajada faollik ko'rsatadi.

Siyosiy qaror – hokimiyat amal qilishi bilan bog‘liq vazifalar, bosqichlar, vositalarni belgilab beruvchi jarayon.

Siyosiy qaror – siyosiy xatti-harakatlarning maqsadlari, bosqichlari, ularga erishish usullari belgilanishining jamoaviy va individual shaklda amalgga oshiriluvchi jarayoni, hokimiyatni amalgga oshirish bilan aloqadorlik.

“Siyosiy qaror” tushunchasini R.Dal quyidagicha ta’riflaydi: “qaror–birinchi navbatda, turli muqobililiklar ichidan eng yaxshisini tanlab olishdir”.

Qarorlar qabul qilishning ikki asosiy usuli mavjud: ratsional-universal usul va izchil cheklashlar usuli. Ularning birinchisi muammoni oqilona tarzda bo‘lib tashlash va hal etishning ideal rejasidir va shu tufayli ushbu usul muxolifatdagi kuchlarning vakillari orasida eng ko‘p tarqalgan.

Siyosiy qarorlarni qabul qilishning 3 bosqichi mavjud:

- 1) Tayyorgarlik bosqichi (xalq ommasi faol ishtirok etadi).
- 2) Qarorlarni qabul qilish bosqichi (davlat, uning organlari, partiyalar).
- 3) Qabul qilingan qarorlarni amalgga oshirish bosqichi.

Ikkinchi bosqichdagi siyosiy qarorlarni qabul qilishning bir necha usullari mavjud:

- 1) Kompromiss – o‘zaro yonbosishlar natijasida erishilgan bitim.
- 2) Konsensus (kelishuv) – qaror ovoz berish yo‘li bilan emas, keli-shuv yo‘li orqali qabul qilinadi.
- 3) Ustunlik – siyosatda biror siyosiy kuch yoki davlatning boshqa kuch yoki davlatlarga nisbatan mavqeini egallashi.

Uchinchi bosqichda hokimiyat qabul qilgan qarorlarni hayotga ttabiq etadi. Bu qarorlar siyosatning barcha subyektlarini qoniqtirmaydi, lekin ularning amal qila boshlashini ta’minalash zarur.

Biroq bu siyosiy qaror qabul qilish bosqichlarining yagona vari-anti emas. Bu borada bir qancha qarashlar shakllangan. Ulardan biri tadqiqotchi G.Lassuel e’tiroficha siyosiy qaror qabul qilish jarayoni 6 bosqichdan iborat:

- 1) muammoni qo'yish va unga doir axborotlarni izlash
- 2) tavsiyalar ishlab chiqish – muammolarni hal etishning muqobilarni izlash;
- 3) muqobillar ichida eng maqbulini tanlab olish;
- 4) qaror kimga qaratilgani nuqtayi nazaridan uning to'g'rilingiga oldindan ishonch hosil qilish uchun qaytadan ko'rib chiqish;
- 5) qarorning samarali ekanligini baholash;
- 6) yangidan qayta ko'rib chiqish yoki qarorni bekor qilish.

Boshqaruvga oid qarirlarni amalga oshirish bosqichida siyosiy jarayonning mazmuniga, eng avvalo, hokimiyatning qabul qilingan qarorlar va bayon etilgan maqsadlarni adekvat tarzda amalga oshirilishi ga erishuvi, fuqarolarning ommaviy xulq-atvorini ana shu maqsadga bo'ysundira olishi ta'sir ko'rsatadi. Odatta, qarirlarni amalga oshirishning bir nechta asosiy turlari ajratib ko'rsatiladi. Bu populizm, elitizm, konservativizm, demokratizm va radikalizmdir. Siyosiy yo'lni amalga oshirish mazkur turlarining har biri hokimiyat tomonidan boshqarib turishning muayyan usullari qo'llanishiga, hokimiyat bilan aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiatiga, hokimiyat va boshqaruvni amalga oshirishning axborot rejimining tegishli tipiga ko'ra farqlanadi.

Populizm siyosiy boshqaruvning bir turi bo'lib, hokimiyatga erishishning asosiy vositasi sifatida to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilik fikriga, omma kayfiyatiga suyanish usulidan foydalanadi. Shunga ko'ra populizm muqarrar ravishda siyosiy vaziyatni soddalashtirishga yo'naltirilgandir. Siyosiy vazifalarni hal etishning bunday usullaridan foydalanuvchi siyosiy elitalar, ko'pincha, amalga oshirilishi ularning nazarida ziddiyatlar va kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan qandaydir shior, aholiga qaratilgan chaqiriqlar ishlab chiqishga urinadilar.

Elitizm, fuqarolarning siyosiy yo'lni ishlab chiqishda emas, balki unga tuzatishlar, o'zgartishlar kiritishda ham biron-bir sezilarli ishtirokiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bunday rejimlar elektorat bilan o'zaro faoliyatning turli bilvosita shakllarini rag'batlantiradilar, siyosiy jarayonda vakolatli organlar va tuzilmalarning rivojlanishiga

urg‘u beradilar. Bunda hokimiyatning pinhoniy, apparat mexanizmlari keng o‘rin tutadi. Shu bilan bir paytda jamiyatga, hokimiyat faoliyatiga har tomonlama baho berishga, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning tabiatini tushunib yetishga xizmat qilmaydigan muxtasar axborot taqdim etiladi. Umuman olganda, bunday siyosat fuqarolarning asosiy ommasini qarorlar qabul qilishdan uzoqda tutish va siyosiy jarayon doirasidan siqib chiqarishga qaratilgan.

Konservativizm siyosatni amalgalashishning shakli sifatida hokimiyatning har qanday ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida, eng avvalo, hokimiyatning u yoki bu institutlarini, tuzilmalarini yoki munosabatlarini saqlab qolishga intilishi bilan ajralib turadi. O‘zaro munosabatlarda fuqarololar siyosiy xulq-atvorining, davlat institutlari faoliyat ko‘rsatishining an‘anaviy shakllari va usullariga ustunlik beriladi. Barcha o‘zgarishlar muayyan me’yorlar, institutlar va munosabatlarning saqlanish shakli bo‘lgani uchun tan olinadi.

Siyosiy hukmronlikning shakli sifatida radikalizm, odatda, yuqoridagilarga butunlay qarama-qarshi bo‘lgan natijalarga olib keladi. Radikalizm-asosiy ijtimoiy institutlarni yoki siyosiy tizimni qatiy ravishda o‘zgartirishga qaratilgan siyosiy hukmronlik shakli. Hozirgi zamon radikalizmi uchun nazariy va amaliy, ijtimoiy muammolarni hal etishda, ko‘pincha, qo‘yilgan maqsadlarga mos kelmaydigan, bir yoqlama, kuch ishlatishga asoslangan usullar va vositalarni tanlash, himoya qilish va qo‘llash xosdir. Radikal usullar kamdan-kam holdardagina jamiyatda fuqarolar tinchligini, tartibni ta’minlaydi, aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

Siyosiy qarorlar siyosiy jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, bugungi kunda siyosiy qarorlar mohiyati, uning bosqichlari va hayotga tatbiq etish masalalari borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

## Siyosiy qaror qabul qilish jarayoni: bosqichlari, ishtirokchilari va siyosiy faoliyat shakli

Bosqichlari	Siyosiy faoliyat	Siyosiy faoliyat darajasi	Jarayon ishtirokchilari (subyekti)
M a n f a a t - larni artikulatsiyalash va fuqarolar fikrlarini e'tiborga olish	Bu holat ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan turli arznomalarda, bayonotlarda, talab xatlarida o'z aksini topadi. Fuqarolar turli chiqishlar, namoyishlar uyuştirishadi va boshq.	Ommaviy darajada	Individlar, ijtimoiy guruhlar, manfaatdor guruhlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy birlashmalar va boshqalar.
M u a m m o tahlil etiladi va qaror loyihasi tayyorlanadi.	Ekspert baholash, muqobil variantlarni ishlab chiqish va siyosiy bahs	Ekspertlar va davlat darajasida	Maslahatchilar guruhi, olimlar, vakillik organlarining ixtisoslashtirilgan komissiyalari
Qaror qabul qilish	Muammoni shakllantirish, siyosiy bahs, ovoz berish va konsensusa, buyruq, qaror chiqarish	Ijtimoiy-siyosiy va davlat darajasida	Ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, partiyalar, davlat hokimiyyati organlari (ijro va qonunchilik)
Qarorni ijro etish	Ta'sir ko'rsatish, ishontirish, manipulatsiya, ixtiyoriy rozilik, majburlash	D a v l a t , siyosiy va ijtimoiy darajada	Davlat ma'muriyati, davlat majburlov organlari, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, fuqarolar.

Manba: [https://uchebnikionline.com/menedgment/upravlinnya\\_lyudskimi-resursami\\_-voronkova\\_vg/politichni\\_rishennya\\_sutnist\\_tehnologiyi\\_priynyattyavprovadzhennya.htm](https://uchebnikionline.com/menedgment/upravlinnya_lyudskimi-resursami_-voronkova_vg/politichni_rishennya_sutnist_tehnologiyi_priynyattyavprovadzhennya.htm)

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy jarayon mohiyatini izohlab bering
2. Siyosiy jarayonning qanday turlari, shakllarini bilasiz?
3. Umumiy va xususiy siyosiy jarayonning o‘ziga xos belgilarini sanab o‘ting
4. Siyosiy ishtirok va siyosiy munosabat tushunchalari mohiyatini qanday izohlay olasiz?
5. Siyosiy ishtirok funksiyalari to‘g‘risida ma’lumot bering?
6. Siyosiy ishtirok shakllari deganda nimani tushunasiz?
7. Siyosiy ishtirokning qanday turlarini farqlay olasiz?
8. Siyosiy qaror qabul qilish tartibini tushuntirib bering.

### *Mustaqil ish topshiriqlari*

1. O‘zbekistonda siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatini tahlil qilib, qisqa bayonda esse tayyorlab kelish.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиев У.Ю. Политология: ўқув кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув кўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –Т.: TDIU, 2010.
4. Идиев У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилқориев Х.Т., Рассоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Ҳ.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув кўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув кўлланма.–Т., 2002.

8. Муаллифлар гурӯҳи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.

9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.

10. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик–ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрга тараққиёти ва ҳалқ фаровонлигининг гарови.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017.–48 б.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.–Т.: Ma’naviyat, 2008, 176 b.

6. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, T.: Universitet, 2003.

7. Oblomuradov N., Ko‘chimov N. Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti: O‘quv qo‘llanma –T.: Soliq akademiyasi, 2008.

8. Ожиганов Э.Н., Слизовский Д.Е. Теория и практика политического и стратегического анализа: Учеб. пособие.–М.: РУДН, 2008.–148 с.

9. Симонов К.В. Политический анализ: Учебное пособие. - М.: Логос, 2002. -152 с.
10. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
11. Желтов В. В. Политология. –Ростов-на-Дону, 2004.
12. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.
13. Nosirxujayev S. va boshqalar. Politologiya. –Т.: «Fan». 2009,66–83-b.
14. Barbara Vis. Prospect Theory and Political Decision // Political Studies Review: 2011 Vol 9, -P.334–343
15. Fatas E., Neugebauer T., Tamborero P. How Politicians Make Decisions: A Political Choice Experiment // Journal of Economics. Printed in The Netherlands? 2007 - [https://www.uv.es/~fatas/papers/Fatas\\_Politicians\\_JOE\\_2007.pdf](https://www.uv.es/~fatas/papers/Fatas_Politicians_JOE_2007.pdf)
16. Politics and the Policymaking Process // [https://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/us/hip\\_us\\_pearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf](https://catalogue.pearsoned.ca/assets/hip/us/hip_us_pearsonhighered/samplechapter/0205011616.pdf)

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **4-mavzu. SIYOSIY TIZIM**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- jamiyatning siyosiy tizimi haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Jamiyat, tizim, tizimli yondashuv, siyosiy tizim, siyosiy tizim funksiyalari, siyosiy tizim modellari, siyosiy tizim tipologiyasi, sisiodinamika.*

### **Asosiy savol:**

1. Siyosiy tizim mohiyati va funksiyalari.
2. Siyosiy tizimlarning faoliyat ko'rsatish modellari va siyosiy tizim tipologiyasi.
3. Siyosiy rejim va uning turlari.

### **1. Siyosiy tizim mohiyati va funksiyalari**

“Siyosiy tizim” siyosatshunoslik fanining muhim maşalalaridan biri bo'lib, u bevosita jamiyat siyosiy hayotidagi turli elementlarni yaxlit va mujassamlashgan holda faoliyat yuritishini tushuntirib bera oladi.

Avvalo tizim deganda, bu muyyan o'zaro bir-biriga yaqin, bog'liq bo'lgan elementlar yig'indisi tushuniladi. Biz yashab turgan jamiyatda turli tizim shakllarini kuzatishimiz mumkin: siyosiy tizim, iqtisodiy tizim, harbiy tizim, huquqiy tizim va boshqalar. Xususan, AQSHlik olim T.Parsons g'oyasiga ko'ra, jamiyat bir-biriga ta'sir qiluvchi va hamkorlik qiluvchi to'rt tizimdan iborat. Bular iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy tizimlardir. Ularning har biri alohida vazifani bajaradi va o'ziga mos talablardan kelib chiqqan holda faoli-

yatinin namoyon qiladi. Masalan, iqtisodiy tizim odamlarning moddiy talablari farovonligi uchun javob beradi, ijtimoiy tizim esa, jamiyatda shakllangan va qaror topgan turmush tarzi, ijtimoiy aloqalar, normalar, qadriyatlarni qo'llab-quvvatlab turishga xizmat qiladi. Ma'naviy tizim ma'naviy va madaniy qadriyatlarni shakllantirish, jamiyatning intigratsiyalashuviga daxldor bo'lgan vazifalarni bajaradi. Siyosiy tizimning bosh vazifasi jamoaviy manfaatlarni aniqlash hamda ularni amalga oshirish uchun mamlakat resurslarini safarbar qilishdan iborat.

Bular ichida nisbatan mustaqil va ta'sirga ega bo'lgan tizim bu-siyosiy tizimdir. Siyosiy tizim deganda jamiyat siyosiy hayotini tashkil qiluvchi barcha elementlar (siyosiy me'yor, siyosiy institutlar, siyosiy munosabat, siyosiy ishtirok, siyosiy ong, siyosiy madaniyat va boshq.) majmuasi nazarda tutiladi. Siyosiy tizim mustaqil faoliyat yurita olsada, ular bir-birlari bilan uzviy bog'langan, shu bois yagona va yaxlit tizimni tashkil etadi.

Jamiyat siyosiy tizimining muassasalar tizimiga siyosiy hokimiyat idoralari, siyosiy firmalar, ommaviy jamoat tashkilotlari kiradi. Demak, jamiyatning siyosiy tizimi – ma'muriy muassasalar, siyosiy va ommaviy-jamoat tashkilotlar majmuidan iborat ekan, ya'ni yaxlit bir tizimning alohida-alohida amal qiladigan, lekin dialektik tarzda bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketgan va bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazib turadigan bo'laklaridan tashkil topar ekan.

Jamiyat siyosiy tizimi xilma-xil ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etib, ular bevosita yoki o'zlarining tashkilotlari orqali siyosiy hokimiyatga ta'sir ko'rsatadi. Bu manfaatlar e'tirof etilsa, siyosiy-boshqaruvi tuzilmasi yordamida siyosiy jarayonlar orqali, siyosiy qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish ro'yobga chiqariladi.

Siyosiy tizimning ahamiyati, uni o'rganishning maqsadga muvofiqligi shundan iboratki, bu erda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining tomiri joylashgan bo'lib, aynan shu yerda turli ijtimoiy kuchlarning to'qnashuvi va o'zaro kelishuvi orqali jamiyat hayotining hamma sohalariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan qarorlar qabul qilinadi.

Shu bois jamiyatning siyosiy tizim tarkibiy tuzilishi o‘ta murakkab va bir-biri bilan chirmashib ketgan bo‘lib, ichki mustaqillik hamda tarkibiy aloqadorlik aqidalariga rioya qiladigan barcha bo‘lak va qismlar mutanosib harakat faoliyatini anglatadi. Jamiyatni siyosiy boqarish va unga siyosiy rahbarlik qilish vazifalarini og‘ishmay, izchil amalga oshirish – jamiyat siyosiy tizimining asosiy faoliyat yo‘nalishini tashkil etadi.

Professor M.Qirg‘izboyevning “Siyosatshunoslik” o‘quv qo‘llanmasida keltirilishicha, “siyosiy tizim” tushunchasiga ilk bor o‘z ahamiyatini qaratgan mutafakkirlardan biri – bu Fransuz olimi Etenn Bonno de Kondilyakdir. U 1749-yilda “Tizimlar haqida traktat” asarini yozadi. Unda Kondilyak “tizim” tushunchasiga nisbatan quyidagi ta’rifni ilgari suradi: “Har qanday tizim qandaydir amaliy faoliyat yoki fanning barchasi bir-birlarini o‘zaro qo‘llab-quvvatlaydigan, oxirgisi birinchisini dalillaydigan turli qismlarning ma’lum bir tartibda joylashuvidan boshqa narsa emas. Uning boshqa qismlarini dalillaydigan qismlari esa prinsiplar deb ataladi.”

XX asrning 20-yillarida bu soha rivojlanishiga turtki bo‘ladigan hodisa yuz berdi: biologiya fani sohasida tizimlar nazariyasini yaratildi. “Tizim” tushunchasini ilmiy muomalaga birinchi bo‘lib, nemis biolog olimi L.Fon Bertalanfi (1901–1972yy.) kiritdi. L.Fon Bertalanfi ishlab chiqqan tizimlarning umumiyligi nazariyasiga tayangan holda AQSH olimi T.Parsons jamiyatda murakkab boshqaruvdan iborat nisbatan avtonom tizimlar mavjud ekanligiga e’tibor qaratdi. Uning fikricha, siyosiy tizim – umumiyligi maqsadlarni ishlab chiqish, integratsiyalash va amalga oshirishni ta’minlab beradi.

Siyosiy tizim nazariyasini AQSH siyosatshunosi D.Iston har tomonlama keng rivojlantirdi. U tarixda siyosiy tizim asoschisi degan nomga ega bo‘ldi. D.Iston “Siyosiy tizim” (1953), “Siyosiy tahlil me’yori” (1965) asarlarida siyosiy tizimni “tashqaridan keladigan impuls larga – buyruqlarga faol aks-sado beradigan, rivojlanuvchan va o‘zini-o‘zi muvofiqlashtiruvchi organizm” sifatida ta’rifladi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda siyosiy tizimga doir quyidagi ta’riflarni uchratish mumkin:

Siyosiy tizim – bu qoidalar, qadriyatlar, institutlar, tashkilotlarning amal qilishi va siyosiy hokimiyatni qo'llash bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. (Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O.).

Siyosiy tizim bu – avvalambor, jamiyatni universal ravishda boshqaruvchi tizim bo'lib, uning ichiga kiruvchi komponentlar bir-birlari bilan o'zaro siyosiy munosabatlar orqali bog'langan holda oxir-oqibatda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosatlarni yo'lga solish hamda jamiyatda barqarorlikni va davlat hokimiyati orqali ijtimoiy tartibotni ta'minlashga xizmat qiladi (Idirov U.).

Jamiyatning siyosiy tizimi – siyosiy, ijtimoiy, yuridik, mafkuraviy, madaniy me'yorlarga, tarixiy an'analar va muayyan jamiyat siyosiy rejimining ko'rsatmalariga bo'ysunadigan siyosiy institutlar, xizmatlar, munosabatlar, jarayonlar, jamiyat siyosiy tashkiloti prinsiplarining yaxlit, tartibga solingan majmui (G'ofurov S.M., Haydarov A.A., To'laganova N.O.).

Siyosiy tizim jamiyatda siyosat, hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish hamda amalga ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar yig'indisidan iborat (Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X.).

Siyosiy tizim – jamiyatning universal boshqaruv tizimi bo'lib, o'z ichiga jamiyatning turli elementlarini qamrab oladi. Siyosiy tizimdaagi turli xil elementlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va hokazo) jamiyatdagagi barqarorlikdan manfaatdor bo'ladi, ularning maqomi qonun bilan belgilanadi, faoliyati ham qonun bilan tartibga solinadi.

Siyosiy tizimning faoliyati huquqiy tizim orqali tartibga solinib, davlat hokimiyatidan foydalangan holda jamiyat a'zolariga va turli xil ijtimoiy guruhlarga ta'sir o'tkazadi. Jamiyatdagagi turli xil guruhlar va jamiyat a'zolari faoliyatida ishtirok etib, hokimiyatga daxldor bo'ladilar<sup>20</sup>.

Bu ta'riflarda siyosiy tizim umumiy ma'noda muayyan siyosiy element va hodisalar "majmui, yig'indisi" sifatida tavsiflangan. Uning

---

<sup>20</sup> Tadjixanov B. Siyosiy va huquqiy tizimlar va ularning o'zaro aloqadorligi // <http://huquqburch.uz/uz/view/98>

markazida hokimiyat va boshqaruv bilan bog‘liq masalalar joy olgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiyat siyosiy tizimining deyarli barcha tarkibiy bo‘laklari va qismlari quyidan yuqoriga qarab tashkil etilganligini, zinapoyalilik tavsifini belgilaydi. Siyosiy hokimiyatning barcha qismlari, masalan, boshlang‘ich mahalla instituti (birinchi zinapoya) dan tortib, tuman, shahar, viloyat, markaziy hokimiyat muassasalariga quyidan yuqoriga qarab tarkib topgan, hokimiyat muassasalarini faoliyati ham shunga qarab amaliy faoliyat olib boradi.

Siyosiy tizim jamiyatning sinflarga bo‘linishi va davlatning paydo bo‘lishi jarayonida vujudga keladi. Davlat asosida birlashgan jamiyatning taraqqiyoti davomida siyosiy tizim yanada murakkab va ko‘p tarmoqli ko‘rinish oladi. Shuning uchun uning tuzilishi, ishslash tartibi hamisha jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-axloqiy rivojlanish darajasi, shuningdek, bir qator xalqaro, geografik va boshqa omillar bilan belgilanadigan aniq tarixiy xususiyatga ega bo‘ladi.

O‘z navbatи siyosiy tizim jamiyatning boshqa tizimlari (iqtisodiy, madaniy, huquqiy, harbiy tizimlari)dan farq qiladi:

Birinchidan, siyosiy tizim doirasida qabul qilinadigan qarorlar butun jamiyat uchun majburiydir.

Ikkinchidan, siyosiy tizim ijtimoiy muhit va, avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan bog‘lanib ketganligidir.

Uchinchidan, siyosiy tizim jamiyatning boshqa tizimlariga qaranganda mustaqildir.

Siyosiy tizim tuzilmasi (strukturasi)ni quyidagi to‘rtta kichik tizimlar (ayrim manbalarda ostki tizimlar ham deyiladi) tashkil etadi:

1. Tashkiliy tizim (davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar).

2. Madaniy-mafkuraviy tizim (siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri).

3. Me’yoriy (normativ) tizim (siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy, siyosiy va boshqa me’yorlar).

4. Axborot-kommunikatsiya tizimi (OAV va ularning kommunikatsiyalari, ilmiy infratuzilmalar).

Boshqa manbalarda siyosiy tizim strukturasi uchta ostki tizimlardan iboartligi borasidagi qarashlar ham uchraydi: 1. institutsional ostki tizim; 2. axborot-kommunikativ tizim; 3. me'yoriy-regulyativ tizim.

Fikrimizcha, mazkur ostki tizimlarni yuqoridagi kabi to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq, boisi madaniy-mafkuraiy jihatlarni me'yoriy-regulyativ tizim to'liq ochib bera olmaydi.

Shuningdek, boshqa manbalarda siyosiy tizim strukturasi tushunchasiga – siyosiy tizim, siyosiy tashkilotlar, institutlar, muassasalar va siyosiy munosabatlarning umumlashgan ko'rinishi sifatidagi ta'riflar ham uchraydi. Biroq bu siyosiy tizim strukturasini tor doirada, ya'ni siyosat subyektlari va ular o'rtaSIDAGI munosabatlar yig'indisi sifatida cheklab qo'yadi.

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar o'zaro munosabatlarida siyosiy me'yorlarga tayanib ish ko'radi. Siyosiy me'yor – bu davlat va siyosiy tuzilmalar darajasida tan olingan siyosiy normalar hisoblanadi. Uning asosiy hujjati konstitutsiya bo'lib, jamiyat va davlat hayotining huquqiy asoslarini o'zida aks ettiradi.

Shu bois siyosiy tizim va huquqiy tizim o'zaro bog'liqdir. Huquqiy tizim siyosiy faoliyatning barqarorligi va samarali amalga oshishini ta'minlar ekan, siyosiy tizimning demokratik xarakterini belgilab beradi. "Huquqiy tizim" tushunchasi yuridik fanda 80-yillarning o'rtalarida paydo bo'lib, hozir iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy tizimlar kabi kundalik hayotimizda mustahkam o'rin egallaydi. U huquqiy voqelikning barcha belgilarini o'zida mujassamlashtirib, ular orasidagi aloqadorlikni hamda huquqni ijod qiluvchi, tatbiq etuvchi va muhofaza qiluvchi fanlarga amaliy masalalarni hal etishda yordam beradi.

Huquqiy tizimning asosiy qismlariga quyidagilar kiradi:

huquqiy tushunchalar; huquq prinsiplari; huquqiy madaniyat; huquqiy siyosat; huquq va uni ifoda etuvchi qonunchilik; huquqiy munosabatlar; yuridik amaliyot; yuridik texnika; yuridik fan.

Huquqiy normalar siyosiy tizimning subyektlari bo'lgan tashkilotlar faoliyatini tartibga solish bilan birga, siyosiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida bevosita fuqarolarning ham xulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazadi. Huquqiy normalar fuqarolarning siyosiy huquqla-

rini belgilab beradi, shaxsning siyosiy manfaatlarini amalga oshirishning turli shakllarini tartibga soladi, siyosiy huquq va erkinliklarning kafolati sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jamiyat a'zolaridan yuksak siyosiy madaniyatni, siyosiy faollikni va huquqiy bilimdonlikni talab etadi<sup>21</sup>.

Ta'kidlash lozimki, davlat -- tashkiliy jihatga ega bo'lgani uchun siyosiy institut hisoblanadi va uni mamlakat tushunchasidan farqlay olish lozim. Siyosiy institut – bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, tashkiliy va ijro tuzilmasi hamda apparatiga ega siyosiy tashkilot sanaladi<sup>22</sup>.

Siyosiy tizimning asosiy mohiyati va funksiyasi jamiyatda barqarorlikni saqlab qolgan holda o'zgarishlarni amalga oshirib borishdan iborat.

Bundan tashqari, jamiyat siyosiy tizimining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

1. Integratsiya funksiyasi. Uning doirasida jamiyat sotsial strukturasining barcha elementlarini, jamiyatning yetakchi qadriyatlari, siyosiy mo'ljallari asosida birlashtirishga harakat qilinadi.

2. Maqsadga yo'naltirish funksiyasi. Ushbu funksiyani amalga oshirilishi natijasida jamiyat taraqqiyotining yetakchi maqsadlari va yo'nalishlari belgilab olinadi.

3. Tashkilotchilik funksiyasi. Uning doirasida jamiyat manfaatlari, maqsad-muddaosini ro'yogga chiqarish uchun mamlakat moddiy, ma'naviy ijtimoiy resurslari safarbar etiladi.

4. Regulyativ funksiya asosan siyosiy hokimiyat va jamiyatda amalga oshiriladigan siyosiy jarayonlarning legitimligini ta'minlanishi va mustahkamlashdan iboratdir.

5. Nazorat qilish funksiyasi. Uning doirasida siyosiy tizim ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar holatini, jamiyat sotsial tinchligi, barqarorligi holatini nazorat qiladi. Jamiyatda ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishini oldini olish va boshqa shu kabi vazifalar amalga oshiriladi.

<sup>21</sup> Tadjixanov B. Siyosiy va huquqiy tizimlar va ularning o'zaro aloqadorligi // <http://huquqburch.uz/uz/view/98>

<sup>22</sup> Словарь терминов и понятий по обществознанию. Автор-составитель А.М. Лопухов. 7-е изд. переб. и доп. -М., 2013. -С. 290-291.

## **2. Siyosiy tizimlarning faoliyat ko‘rsatish modellari va siyosiy tizim tipologiyasi**

Siyosiy tizim jamiyatda qanday foliyat ko‘rsatishi bo‘yicha turli nazariy modellar mavjud bo‘lib, ularda harakatlanish mexanizmi tasvirlangan.


D.Iston modeli (bu model teskari aloqa prinsipi modeli deb ham e'tibor etiladi). D.Iston siyosiy tizimni uning vositasida jamiyatda qadriyatlar (moddiy va ma'naviy) qat'iyat bilan taqsimlanadigan o'zaro munosabatlar sifatida belgiladi va shu asosda, uning a'zolari o'rtaсидаги зиддиятлар бартароф qilinishini ta'kidladi.

Birinchidan, siyosiy tizim jamiyatda qadriyatlarni taqsimlashi kerak.

Ikkinchidan, siyosiy tizim bu taqsimotning majburiy ekanligiga fuqarolarni ishontira olishi lozim.

D.Iston talqinidagi siyosiy tizimning modeliga ko‘ra, siyosiy tizim - 1. «kirish» signali; 2. konversiya (o‘zgartirish, biror nimaga aylan-tirish jarayoni); 3. «chiqish» signaliga ega bo‘ladi. D.Iston kirishning ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi: talab va qo‘llab-quvvatlash.

#### **D.Istonning teskari aloqa prinsipi modeli**



*Manba: Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.-P.30-31.*

D.Iston “kirish”ning ikki shaklini ajratib ko‘rsatadi: talab va qo‘llab-quvvatlash.

Talab – jamiyatda qadriyatlarni istalgan tarzda taqsimlash munosabati bilan hokimiyat organlariga yo‘naltirilgan fikr. Talab siyosiy tizimni zaiflashtirish tamoyiliga ega.

Qo‘llab-quvvatlash – aksincha, siyosiy tizimni kuchaytirishga olib boradi. U siyosiy tizimga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha fiqrilar va axloqning barcha variantlarini qamrab oladi. Soliqlarni o‘z vaqtida to‘lash, harbiy burchni bajarish, rahbariyatga sodiqlik, rejimi ni qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘tkaziladigan namoyishlar va shu kabilar qo‘llab-quvvatlashning namoyon bo‘lish shakllari deb hisoblanishi mumkin.

Qo‘llab-quvvatlash muhit talabini tegishli qarorlarga aylantiradigan hokimiyat organlarining nisbiy barqarorligini ta’minkaydi, shuningdek, islohotlarni amalga oshirish maqsadida amaliy choralarни qo‘llash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Qo‘llab-quvvatlash siyosiy hamjamiyat a’zolari o‘rtasida kelishuvni ta’minalashda alohida ahamiyatga ega.

«Kirish» natijasida atrof-muhitning tizimga ta’sir ko‘rsatish jarayoni (konversiya) sodir bo‘ladi, buning oqibatida unda reaksiya – qadriyatlarni taqsimlash bo‘yicha **nufuzli qarorlar** ko‘rinishida «chiqish» yuz beradi.

“Chiqish” signali mantiqan ham ikki xil ko‘rinishni qamrab oladi:

1. qarorlar.

2. xatti-harakatlar.

Tashqaridan olingan ichki turkilarga tizimning javobi qarorlar va harakatlar shaklida amalga oshiriladi, yangi qonunlar, bayonotlar ham ular qatoridan o‘rin olishi mumkin. Qarolarning bajarilishi qonun kuchi bilan ta’milanadi.

“Kirish” natijasida olingan ma’lumotlar tahlil etilib (konversiya), “chiqish” - qaror yoki xatti-harakat shaklida yana iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitga chiqaradi. Fuqarolar tomonidan ushbu qaror yoki xatti-harakat maqlul ko‘riladi yoki ko‘rilmaydi. Natijada fuqarolar yana o‘zlarining yangi talabalarini “qarama-qarshi aloqalar

halqasi” singari qaytadan yana hukumat oldiga qo‘ya boshlaydi va bu jarayon to‘xtovsiz davom etaveradi.

Shunday qilib, siyosiy tizim tashqi muhit bilan har tomonlama o‘zaro bog‘liq munosabatda bo‘ladi. U tushayotgan talab va qo‘llab-quvvatlashlarni o‘zini-o‘zi boshqarishga ega ekanligi sharti bilan tegishli qarorlar va harakatlarga aylantirishi kerak. Unda kechayotgan siyosiy jarayonlar axborotlarning almashish, «kirish»dan «chiqishga» aylanish jarayonlaridir.

Siyosiy tizim atrof-muhitning signallariga javob qaytarar ekan, bir vaqtning o‘zida jamiyatda o‘zgarishlarni amalga oshiradi va barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, agarda o‘zgaruvchanlik tizim faoliyatida uning o‘ziga xos xususiyati sifatida maydonga chiqsa, yashash va o‘zini saqlab qolish, aslini olganda, uning muhim belgilari hisoblanadi.

Bu o‘rinda ta’kidlash joizki, ko‘pchilik siyosatshunos olimlar e’tirof qilganlaridek, D.Iston nazariyasi qanchalik pishiq va keng qamrovli bo‘lgani bilan unda siyosiy tizimning ichki strukturasi, unga kiruvchi elementlarning xususiyatlari to‘liq ochib berilmagan. D.Istondan farqli o‘laroq yana bir amerikalik politolog G.Almond siyosiy tizim subyektlarini yanada kengroq asoslashga harakat qilgan G.Almond fikricha, siyosiy tizim davlat va nodavlat institutlarning birgalikdagi hamkorligi, faoliyatining ifodasidir.

G.Almond siyosiy tizimning chiqish elementi aholining siyosiy ijtimoiylashuvi, safarbar bo‘lishi bilan bog‘liq ekanligi haqidagi xulosaga keladi. Shunday qilib, G.Almondning fikricha, siyosiy roller va funksiyalarni umumlashtirish va taqsimlash orqali nafaqat siyosiy tizimning o‘zi, balki butun jamiyatning barqarorligi va uning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi ta’milanadi.

Zamonaviy siyosatshunoslik fanida D.Iston, G.Almond modellaridan tashqari siyosiy tizim haqida ko‘pgina yangi konsepsiylar shakllangan.

Hozirgi dunyoda mavjud bo‘lgan siyosiy tizimlarning xilma-xilli-gi ularning shakllanish va amal qilish jarayonlariga tarixiy an’analar, madaniyat, iqtisodiy rivojlanish, fuqarolik jamiyatining yetukligi,

siyosiy shart-sharoitlar va shu kabi ko‘plab omillar ta’sir o‘tkazadi. Shu bois, u yoki bu omillarning ustunligi ularning o‘ziga xosligi va betakrorligini taqozo etadi. Lekin ularni yaqinlashtiradigan, ularning universal mexanizmlari (roli va amal qilish qonuniyatları)ni namoyon etishga imkon beradigan nimaiki bo‘lsa, nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Siyosiy tizimlarni tasniflashning amaliy ahamiyati shundaki, ular shart-sharoitlarning yetarli yoki yetarli emasligi, ularning siyosiy institutlarning o‘z siyosiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish darajasida samarali ishslashini ta’minlay olish-olmasligini aniqlashga yordam beradi. Siyosiy tizimlar tipologiyasi turli-tuman belgilarni hisobga olish asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, siyosiy tizimni turlarga bo‘lishning quyidagi uslublari mavjud:

1. Hokimiyatni amalga oshirish usuliga ko‘ra (demokratik yoki avtokratik).
2. Real siyosiy, ijtimoiy hayotga munosabat usuliga ko‘ra (bular konservativ, islohotchilik, progressiv turlarga bo‘linishi mumkin).
3. Siyosiy jarayonning xarakteri va yo‘nalishiga ko‘ra.
4. Siyosiy madaniyatning holatiga ko‘ra (Angliya-Amerika, kontinental Yevropa an’anaviy, totalitar turlarga bo‘linishi mumkin).
5. Ijtimoiy muhit bilan aloqadorligiga ko‘ra (yopiq va ochiq turlarga bo‘linishi mumkin).
6. Siyosiy jarayondagi ishtirok xarakteriga ko‘ra (liberal demokratik yoki rivojlanayotgan turlarga bo‘linishi mumkin).

### **3. Siyosiy rejim va uning turlari**

Siyosiy tizim va siyosiy rejim masalasi siyosatshunoslikning muhim masalalari bo‘lib, siyosiy tizim elementlarining shakllanishi va faoliyati bevosita siyosiy rejim xususiyatlari asosida aniqlanadi. Siyosiy rejim (tartibot) – bu jamiyatda siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usullari, shakllari, yo‘llari tizimidir.

Siyosiy rejim—davlatning alohida shakli uchun xos bo‘lgan siyosiy munosabatlar, hokimiyat organlari tomonidan qo‘llanadigan usul va vositalar, davlat hokimiysi va jamiyatning qaror topgan munosabatlari, mafkuraning hukmron shakllari, ijtimoiy va sinfiy o‘zaro munosabatlar, siyosiy madaniyat va tafakkur turlarining majmui. Siyosats-hunoslik fani siyosiy rejimning uch asosiy shaklini ajratib ko‘rsatadi: demokratik, avtoritar, totalitar.

Siyosiy rejimlarning eng ko‘p tarqalgan ko‘rinishlari—totalitar, avtoritar hamda demokratik rejimlardir.

ASOSIY SIYOSIY REJIM TURLARI				
	<i>Demokratik AQSH.G‘arbiy Yevropa</i>	<i>O‘zgaruvchan Rossiya. Nigeriya</i>	<i>Avtoritar Eron.Xitoy</i>	<i>Totalitar Shim.Koreya. Kuba</i>
<b>OAV</b>	Ozod	Hukumat nazoratida	Bo‘ysunuvchan	Chegara-langangan
<b>Partiyalar</b>	Bir nechta	Bittasi asosiy	Bitta yoki bironta	Bitta
<b>Saylovlari</b>	Raqobatdor	Yaroqsiz	Ramziy	Yolg‘on
<b>Hokimiyat</b>	Partiyalar orasida	Notinch o‘zgaruvchan	Kichik guruh qo‘lida	Yagona lider qo‘lida
<b>G‘oya</b>	Ko‘p	Chegaralangan	Yo‘q yoki soxta	Bitta asosiy
<b>Konstitut-siya</b>	Hokimiyatni chegaralaydi	Mos qilib tuzilgan	Fuqaroni chegaralaydi	Hukumatga sig‘intirish
<b>Fuqaro muhofazasi</b>	Himoyalangan	Himoyasiz	Qisman	Umuman yo‘q
<b>Iqtisod</b>	Bozor iqtisodiyoti	Qisman bozor iqtisodi	Qisman hukumat qo‘lida	Hukumat qo‘lida
<b>Armiya</b>	Ikkinci darajali	Siyosiy rol o‘ynaydi	Boshqaru bilan qorishgan	Partiya qo‘lida
<b>Korrupsiya</b>	Kam miqdorda	Keng yoyilgan	Tarqalgan	Katta miqdorda

Manba: Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. –P. 98

**Totalitar rejimda** elitalar javobgarlikdan deyarli butunlay holi bo‘lishadi; ular hokimiyatga yaxshi o‘rnashib oladilar, 1989-yilgi janubiy Yevropa va 1991-yilgi Sovet ittifoqida kuzatilganidek, bu tizimning qulashi tezroq sodir bo‘ladi. Hozirda juda kam totalitar davlat qolgan. Bu tizim to‘liq nazorat va davlatga bo‘ysunishni targ‘ib qiladi va uning rahbarlari faoliyatining samarasizligi hamda unumsizligi fosh etilgan. Hozirda o‘ta kam kishi bunday siyosiy mo-delga ishtiyoqmand. Faqat-gina Shimoliy Koreya bunga misol bo‘la oladi. Xitoy va Vietnam bo‘lsa siyosiy jihatdan bo‘lmasada, iqtisodiy jihatdan ochiq davlatga aylandi. XX asrning boshlarida Stalin, Gitler va Mussolini rejimlari bilan totalitarizm o‘zining cho‘qqisiga erishgandi. Ba’zilar bu tizimni kelajakning asosi deb tushunardi, lekin bu XX asrning vabosi edi. Bizdagi barcha misollar tarixiy, bugungi emas<sup>23</sup>.

Totalitarizm nima? XX asrdagi totalitarizm fenomeni uzoq o‘tmishdagi yakka hokimiyatchilikdan farq qiladi. Buyuk Peter va Louis XIV lar qudratli bo‘lishgan, lekin o‘sha davrdagi qoloq aloqa vositalari ularning ta’sirini cheklab turgan. Ular hukumatni to‘la qonli boshqara olishmagan. Hatto Louis XIV Fransiyadagi barcha narsani boshqarishga urinmagan. Aholi o‘z hayotini o‘zi boshqargan. XX asr totalitarizmini o‘tmishdagi totalitarizm bilan qiyoslaganda, XX asrda totalitarizm insон hayotini har bir jihatini nazorat qilishga uringan. G‘arb manbalarida ta’kidlanishicha, totalitarizm 1917-yili Leninning rossiyada hokimiyatni egallashi bilan boshlandi. Keyinchalik 1922-yili Mussolini Italiyada va Gitler 1933-yili Germaniyada shunday qildi. I Jahon urushi tufayli bu uchchala davlat tartibsizlik ichida qolgan edi. 1930-yillarda totalitarizm tashqi analistiklar tomonidan ishlatilgan bo‘lib, u mutlaq kuchga egalik qiladigan bir partiya va shu partiya o‘z manfaatlari yuzasidan jamiyatni boshqaradigan tizim hisoblanadi. Bunda ozodlik bo‘lmaydi. Oldingi yakka hokimiyatchilik o‘z ishini jimjithlikda qilgan bo‘lsa, totalitar davlatlar keng ommaviy qollab-quvvatlanishini talab qilgan. Carl.J.Friedrix va Zbigniv Bjezinskiy totalitar davlatlarning 6 xususiyatini aniqlashgan. Ularning to‘ttasini sanoatlashmagan davlatlarda qo‘llashni imkon yo‘q.

---

<sup>23</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. *Political Science: An Introduction*. New Jersey: Pearson, 2013. –P. 107

*Yagona g'oya.* Totalitaristlar tarix, iqtisodiyot va siyosiy va ijtimoiy rivojlanish nazariyasini ilgari surishgan. Bu g'oya dunyoni oq va qorada tasvirlagan va baxtli, mukammal jamiyat qurish tarafidori bo'lgan, kimki unga qarshi chiqsa "xalq dushmani" hisoblangan. Barcha yagona g'oyaga ishonishi va o'rganishi lozim bo'lgan. Barcha kommunist davlatlarda Marksist-Leninist g'oyalar kurslari o'qitilgan.

*Yagona partiya.* Faqat yagona qonuniy partiya mavjuddir va yakka shaxs tomonidan boshqarilgan hamda shaxsga sig'inish targ'ib etilgan. Mussolini, Gitler, Stalin va Mao Tsedunlar odamlarni o'zlariga sig'intirishgan. Partiyaga a'zo bo'lish faqat aholining 10% ga to'g'ri kelgan va bu sharaf hisoblangan. A'zolikning o'z imtiyozlari bo'lgan va evaziga a'zolar partiyani kuchli qo'llab-quvvatlashgan. Ierarxik tarzda tashkil etilgan partiya yo davlatdan ustun bo'lgan yoki hukumatning qonuniy institutlari bilan mahkam bog'langan. Partiya barcha muhim o'rnlarni egallagan va fuqarolar uchun tashqi tomonidan eng past darajada qulayliklar yaratilgan.

*Tashkillashtirilgan terror.* Xavfsizlik politsiyasi fuqarolarni qo'rquvda saqlash uchun ham jismoniy ham ruhiy usullardan foydalangan. Natsistlar GESTAPOsi, Stalining NKVDsi va Mussolinining OVRA tashkilotlari uchun qonuniy chegara bo'lman. Maxfiy qamoqqa olish va azob berishga qarshi konstitutsiyaviy kafolat mavjud bo'lman yoki e'tibor qilinmagan. Yahudiylar, zodagonlar, sotsialistlar, kapitalistlar va ruhoniylar kabi umumiy sinflarga qarshi yo'naltirilgan "xavfsizlik kuchlari"- yoki "Maxfiy politsiya" mavjud bo'lgan. "Eshikning taqqillashi" ko'pgina aholini qo'rqitgan. Ommaviy hibsga olish va qatl qilish hukumatning kuchini oddiy xalq kuchsizligini namoyon etgan. Urushdag'i qurbanlarni hisobga olmagan holda, Sovet ittifoqida 62mln, kommunistik Xitoyda 35mln. va Natsistlar Germaniyasida 21mln. aholi qurban bo'lgan. Ammo bunday terror uzoq davom etmagan. Sovet Ittifoqida Stalining shafqatsiz usullari o'rniga yumshoqroq jazolar va ishdan mahrum etish yoki uzoq joylarga surgun qilish bilan qo'rqitilgan<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P. 109.

*Axborot monopoliyasi.* Totalitar davlatlarda axborot vositalari partiya mafkurasini tarqatgan va dono rahbar qo‘l ostida tizim yaxshi ishlayotganini ko‘rsatgan. Faqat yaxshi xabarlar e’lon qilingan. Tashqi yovuz kuchlar bu tizimga xavf solayotgan deb ko‘rsatilgan va ular to‘xtatilishi shart deb hisoblangan.

*Qurol-yarog‘ monopoliyasi.* Qurolli qarshiliklardan qutulish uchun, totalitar davlatlar qurol-yarog‘ ustidan to‘liq monopoliyaga ega bo‘lganlar.

*Nazoratdagi iqtisodiyot.* Totalitar tizimda iqtisodiyot nazoratga olinadi. Stalin buni davlatning yakka hokimi bo‘lish orqali va Gitler esa shaxsiy sanoatning “Muvofiqlishtirish” tizimi orqali amalga oshiradi. Har ikkala yo‘l hukumatni kuchli qiladi, chunki turli resurslar, qurol-aslaha ishlab chiqish yoki partiya nimani istasa og‘ir sanoat korxonalariga tayinlashi mumkin. Ishchilar qayerda kerak bo‘lsa o‘sha yerga tashilar va iste’molchilar xohishi hamda ehtiyoji muhim bo‘lmas. To‘g‘ri Sovet davlati fazoga odam jo‘natishda birinchi bo‘lgan, lekin kommunist bo‘lmas davlatlarda har doim ko‘proq va yaxshiroq iste’molchilar mahsulotiga ega bo‘lgan. Iqtisodiy orqada qolish Sovet Ittifoqining eng katta nozik tomoni edi<sup>25</sup>.

**Avtoritarizm** (hokimyatga mutlaq bo‘y sinish). Odatda avtoritarizm va totaliatrizm birikmalari alishтирilib yuboriladi, lekin ular turlicha ma’nolarga ega. Avtoritar rejim kichkina guruh tomonidan boshqariladi. Bu guruhlarga biron partiya, armiya yoki yakka hokim kiradi. Ular har narsani nazorat qilishga urinishmaydi. Ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va oilviy muammolar individlarning o‘zlariga havola etiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan totalitarizmning oltita tamoyillari bu tizimda yo‘q.

Avtoritar rejim individual erkinliklarini cheklaydi va iyerarxik tashkil topgan guruh, bo‘ysunish hamda tartibni ustun qo‘yadi. Aholi yaratilishida hech qanday ishtiroki bo‘lmas va ovoz bermagan qonunlarga bo‘ysunadi va soliqlar to‘laydi. Shunga qaramay, demokratiyaning bazi javhalarini kuzatish mumkin. Saylovlar hukmron partiya

---

<sup>25</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P. 110.

qonunlarini tasdiqlaydi. Qarshi partiya yoki norizolar hech qanday imkoniyatga ega emas va ba'zilar qamoqqa olinadi. Qonun chiqaruvchilar yakka hukmdorlarning aytganini bajaradi va qo'g'irchoq hukumat uni amalga oshiradi. Fransiyalik Luis XIV o'zining mashhur frazasi “ Davlat – bu men” iborasi bilan avtoritarizmning dastlabki turini ko'rsatgan<sup>26</sup>.

Demokratik rejim esa, aksincha, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlangan, siyosiy erkinliklardan bemalol foydalana oladigan rejimdir. Demokratik rejimning asosiy mohiyatini qisqacha shunday ta'riflash mumkin: jamiyat a'zolari qonunlar bilan taqiqlanmagan barcha ishlarni qilishlari mumkin.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy tizim deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Siyosiy tizim funksiyalarini izohlab bering.
4. Siyosiy tizim tuzulmasi borasida ma'lumotlar bering.
5. Ochiq va yopiq siyosiy tizimlar o'rtaсидagi farqlarni tushuntirib bering.
6. D.Iston modeli haqida ma'lumot bering.
7. Siyosiy rejim deganda nimani tushunasiz?
8. Demokratik siyosiy rejimning asosiy xususiyatlarini sanab o'ting.
9. Avtoritar va totalitar rejimlar bir-biridan qanday farq qiladi?

### *Mustaqil ish topshiriqlari*

1. O'zbekistonda siyosiy tizimning o'ziga xos xususiyatlari borasida ma'lumotlar to'plab kelish.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув кўлланма.–Т.:ТошДШИ, 2013.

<sup>26</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013

2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўкув юрти талабалари учун ўкув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –Т.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўкув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўкув қўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўкув қўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар грухси. Политология. Ўкув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “УАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўкув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўкув юрт талабалари учун ўкув қўлланма.–Т.:Ўзбекистон, 1992.
11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик–хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишиланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016.–56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017.–48 б.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 b.
6. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, T.: Universitet, 2003.
7. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma –T.: Soliq akademiyasi, 2008.
8. Бобоев X. Faфуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти.–Т., 2001.
9. Таджиханов Б. Сиёсий ва ҳуқуқий тизимлар ва уларнинг ўзаро алоқадорлиги // <http://huquqburch.uz/uz/view/998>
10. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
11. Желтов В. В. Политология.– Ростов-на-Дону, 2004.
12. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов.–М., 2000.
13. Tadjixanov B. Siyosiy va huquqiy tizimlar va ularning o'zaro aloqadorligi // <http://huquqburch.uz/uz/view/98>

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **5-mavzu. SIYOSIY HOKIMIYAT**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy hokimiyat haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Hokimiyat, siyosiy hokimiyat, davlat hokimiyati, partiyaviy hokimiyat, siyosiy rejim, respublika, monarxiya, M.Veber, siyosiy hokimiyat ko'rinishlari, fuqarolik jamiyat.*

### **Asosiy savollar:**

1. Hokimiyat tushunchasi va unga doir yondashuvlar.
2. Siyosiy hokimiyat va uning tuzilishi.
3. Siyosiy hokimiyat shakllari va legitimligi.

### **1. Hokimiyat tushunchasi va unga doir yondashuvlar**

Siyosatshunoslik tez-tez boshqa ijtimoiy fanlardagi ilmiy yangiliklardan foydalanib turadi, ammo bir xususiyat uni boshqa fanlardan ajratib turadi – bu hokimiyatga bo'lgan e'tibordir. Hokimiyat bir subyektining xohishi boshqa subyekt tomonidan bajarilishidir. Uyg'onish davrining Florensiyalik tadqiqotchisi Nikollo Makiavelli siyosatda hokimiyatning rolini alohida ta'kidlab o'tgan. Shuning uchun ham u G'arb manbalarida Aristoteldan keyin siyosatning ikkinchi otasi sifatida e'tirof etiladi. Agar o'rganuvchi siyosiy hokimiyatni o'rganmasa, unda siyosatshunoslik fanini o'qimagan hisoblanadi<sup>27</sup>.

Odatda, "hokimiyat" borasida so'z ketganda bevosita "siyosiy hokimiyat" nazarda tutiladi. Biroq tarixdan ma'lumki, hokimiyatning

---

<sup>27</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.— P.2–19.

turli *shakllari* mavjud bo‘lgan: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, harbiy, diniy, ma’naviy, oila (sulolaviy) hokimiyat. Tarixda siyosiy hokimiyat hukmdor qo‘lida bo‘lsa, diniy va harbiy hokimiyat egalari katta ta’sirga ega hisoblanishgan.

Shu bilan birga hokimiyatni faqatgina kuchga assoslangan emas, uni amalga oshirishning turli *vositalari* ham mavjud: huquq, an’analar, ishontirish, majburlash, manipulatsiya, obro‘-e’tibor.

Dastlab, hokimiyatni namoyon qilish, o‘zining kuch-qudratini namoyon qilish hukmdorlik orqali namoyon bo‘lgan. Tarixan monarxiyalarda hamma sulola vakillari hukmronlikka intilishgan. Bugungi kunda jamiyat siyosiy institutlari keng rivojlandiki, natijada hokimiyatning *namoyon bo‘lishining* turli shakllari ham vujudga kelidi: hukmronlik, rahbarlik, boshqarish, muvofiqlashtirish, tashkil etish, nazorat.

Siyosiy hokimiyat mavzusini o‘rganish natijasida, talabalarda kishilik jamiyatida nima uchun hokimiyat munosabatlari zarur bo‘lishligi to‘g‘risida hamda siyosiy hokimiyat strukturasining asosiy elementlari, siyosiy hokimiyat resurslari, turlari va umuman, siyosiy hokimiyatning asosiy mohiyati to‘g‘risida kerakli bilim ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Siyosiy hokimiyat siyosatshunoslikning asosiy kategoriysi sifatida ko‘plab tadqiqotchilarning asosiy tadqiqot obyektiga aylangan va turli ta’riflar shakllangan.

N.Makiavelli (1469–1527) siyosiy hokimiyatning davlat hokimiyati sifatidagi mohiyati va tabiatini asoslab berdi. Uning fikriga ko‘ra, davlat siyosatining asosiy maqsadi har qanday vositalar bilan o‘z hokimiyatini kuchaytirishdan iborat. Uning fikricha, hokimiyatning asosi – «yaxshi qonunlar» va «qudratli qo‘sish». Hokimiyatodamlarning ehtiroslarini jilovlashga va ularda fuqarolik fazilatlarini tarbiyalashga qodir bo‘lgan kuch.

Hokimiyat tabiatini va mohiyatini ochib berishda ingliz mutafakkiri Jon Lokk(1632–1704)ning xizmatlari benihoya kattadir. U birinchiladan bo‘lib hokimiyatni insonparvarlashtirish va ma’naviyatga bo‘ysundirish g‘oyasini ilgari suradi.

Nemis faylasufi M.Veber(1864–1920)ning izohlashiga ko‘ra, hokimiyat odamlarning odamlar ustidan ichki oqlangan zo‘ravonlikka asoslangan hukmronligidir. Hokimiyatning asosiy vositasi–zo‘ravonlik. Siyosat esa hokimiyatda ishtirok etishga intilishni anglatadi.

M.Veber birinchi bo‘lib hokimiyatning o‘z xohish-irodasini o‘tkazish imkoniyati sifatidagi mohiyatini ochib berdi. Falsafiy yondashuv nuqtayi nazaridan, hokimiyat kimgadir amr-farmon berish, nimanidir tasarruf etish qobiliyati, huquqi yoki imkoniyati, odamlarning huquqlar, obro‘-e’tibor, iroda, majburlash singari vositalar yordamida amalga oshiriladigan faoliyati yoki xulq-atvoridir.

Ingliz faylasufi T.Gobbs (1588–1679) siyosiy hokimiyatning jamiyatdagi yetakchi roli haqidagi tasavvurni rivojlantirdi. U hokimiyat deb “boshqalar uning xohish-irodasiga bo‘ysunadigan shaxs yoki jamiyat”ni atagan. Hokimiyat fuqarolarning istak-irodasini yagona xohish-irodaga birlashtirishidir.

AQSHlik Olim R.Dal(1915–2014)ning xulosasiga ko‘ra, hokimiyat bu – odamlar xulq-atvorini nazorat qilishdir. T.Parsons (1902–1979) esa hokimiyatni umumiylashtirishga yordam beruvchi resurslar tizimidir, deb qaraydi.

Bir qancha insonlar siyosiy hokimiyat haqidagi konsepsiyalarni yoqtirishmaydi. Unda majburlash, notenglik va ba’zan shafqatsizlik ifori ufurib turadi degan fikrlar bildiriladi. Ayrim notiqlar kuch ishlatishsiz boshqaruvni taklif etish orqali “siyosatda kuch ishlatish”ni inkor etishi, ular fikricha hayotdan xursand aka-ukalar va opasingillar uyushmasi o‘zlarini sevgi va hissiyotlarni o‘zaro bo‘lishish orqali boshqarishadi. Bunday holatga asoslangan hamjamiyatlar hamjihatligi uzoq davom etmaydi, yoki agarda ular o‘z holatlarini yetakchi va izdoshlar singari tuzilmaga o‘zgartirishmasa. Siyosiy hokimiyat inson holati va vaziyati orqali vujudga keladigandek tuyuladi. Lekin nima uchun ayrim odamlar boshqalar ustidan siyosiy hokimiyatni amalga oshirishadi? Hozircha siyosiy hokimiyatni to‘liqligicha tushuntirib beradigan ta’rif mavjud emas. Bu o‘rinda

biologik, psixologik, madaniy, ratsional, irratsional yondashuvlarni ilgari surish mumkin.

➤ Biologik yondashuv. Aristotel uni birinchi marta va ehtimol eng yaxshi uslubda aytgandir: “Inson o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiy mavjudotdir”. (Aristotelning “Zoon Politikon” so‘zini “siyosiy mavjudot” yoki “ijtimoiy mavjudot” sifatida tarjima qilish mumkin. Greklar polis deb nomlangan jamiyatlarga ega shahar-davlatlarda istiqomat qilishgan).

Aristotel insonlar tabiatan fillar yoki kiyiklar singari to‘dalarga birlashib yashashlarini nazarda tutgan. Biologik jihatdan, mavjud bo‘lishi va yashab qolishi uchun insonlar bir-birlariga muhtojdirlar. Barcha to‘da bo‘lib yashovchi hayvonlar singari insonlarning o‘zlarini yetakchilar va ergashuvchilar singari sinflarga ajratishi ham tabiiy holat sanaladi. Aristoteldan o‘rnak olgan holda, zamonaviy biologik ta’rifda shunday deyiladi: siyosiy tizimni shakllantirish va o‘z yetakchilariga bo‘ysunish insonning tug‘ma xulq-atvoridir, genlar orqali kelajak avlodga o‘tib boradi. Ayrim olimlar inson siyosati boshqa sut emzuvchilarniki singari aynan “iyerarxik ustunlik”ni namoyish etadi deb hisoblashadi. Siyosatchilar “alfa norlar”(hayvonlarda to‘dagi oldinga yetaklovchi erkak to‘daboshilar) bo‘lishga intiladilar yoki o‘zlarini shunday hisoblashadilar<sup>28</sup>.

Demak, hokimiyat faqat inson uchun xos emas, balki inson va hayvon uchun umumiyligi bo‘lgan biologik shart-sharoitlar va ildizlarga ega, ya’ni hokimiyatning asosi insonning biologik mavjudot sifatidagi mohiyatida mavjuddir.

➤ Antropologik yondashuv muayyan darajada biologik yondashuv bilan o‘xshash, shu bilan bir paytda o‘ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Masalan, agar biologik yondashuv tarafdarlari «siyosiy hokimiyat» tushunchasining har qanday tirik tuzilmalarda amal qilishni uqtirsalar, antropologik yondashuv tarafdarlari «siyosiy hokimiyat» tushunchasini barcha ijtimoiy, shu jumladan, sinflar paydo bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan tuzilmalarga ham nisbat beradilar.

---

<sup>28</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.2–19.

➤ Hokimiyatning bixevoiristik talqini. Unga ko'ra hokimiyat faoliyatning xulq-atvorning alohida turi hisoblanadi, ya'ni unda ba'zi odamlar boshqaradilar, ba'zilari esa unga bo'ysunadilar, shunga moyil bo'ladilar.

➤ Hokimiyatning psixologik talqini ( Z. Freyd, K.Gustav Yung, K. Xorni). Bu talqin hokimiyatni real individlarning xulq-atvori sifatidagi bixevoiristik tushunishdan kelib chiqib, ushbu xulq-atvorning subyektiv tomonini, kishilar ongi va ruhiyatida ildiz otgan hokimiyat manbaini ochib tashlashga harakat qiladi. Bu tipdag'i eng ko'zga ko'ringan yo'naliшlardan biri – psixoanalizdir. U hokimiyatga intilishni va, ayniqsa, uni egallashni jismoniy yoki ma'naviy zaiflikni subyektiv kompensatsiya qilish vazifasini bajaradigan psixik energiya sifatida talqin etadi. Hokimiyat irodalarning o'zaro harakati – birovlarни bo'ysunishga, boshqa birovlarning "ixtiyoriy qo'shilishga" tayyorgarligi sifatida vujudga keladi. Z.Freydning e'tirof etishicha, inson psixikasida shunday tuzilmalar borki, ular shaxsiy himoyalanganligi va tinchligi uchun qullik erkinligini afzal ko'rishga moyillik tug'diradi.

Umuman psixologik yondashuv hokimiyat mexanizmlari motivlarini buyruq berish–itoat etish munosabati sifatida tadqiq etishga yordam beradi.

➤ Hokimiyatning tizimli yondashuv konsepsiysi. Ushbu yondashuvga ko'ra, hokimiyat ijtimoiy hayotning elementlari tomonidan qabul qilingan umumjamoaviy maqsadlarning bajarilishini ta'minlay olinish layoqtadir.

➤ Hokimiyatning eng ko'p tarqalgan ta'riflaridan biri – pozitiv-sotsiologik talqindir (nemis faylasufi va sotsiologi M. Veber). Bu talqinda hokimiyat biror individning muayyan ijtimoiy sharoitda boshqa individga o'zining irodasini o'tkazish qobiliyati sifatida tushuniladi. Hokimiyat munosabatlarning asosini o'zaro ta'sir doirasiga kiritish munosabatlari tashkil etadi. Bunday munosabatlar hokimiyat subyekti va obyekti o'rtasida qaror topadi.

➤ Hokimiyatning tuzilmaviy-funksional talqini (Amerika sotsiologi T. Parsons). Bu talqin hokimiyatni teng bo'lmagan subyektlarning o'zaro munosabati, sotsial tashkilotning xususiyati sifatida,

insonlar birligining o‘zini-o‘zi tashkil etish, uyuştirish, safarbar qilish uslublari sifatida olib qaraydi. Insonning jamoa bo‘lib yashashini, ko‘p kishilarning birgalikdagi hayotini hokimiyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jamiyat turli elementlardan iborat bo‘lgan yaxlitlikdir. Uning o‘zi quyidan yuqoriga qarab tuziladi, boshqaradigan va ijro etuvchi sotsial rollarni tabaqlashtiradi. Hokimiyat – bu resurslarni, ta’sir ko‘rsatish vositalarini safarbar qilishga imkon beruvchi sotsial maqomlar, rollarning xususiyatidan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, hokimiyat rahbar lavozimlarni egallash va muayyan funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq faoliyatdir. Rahbar lavozimlar esa oqilona va nooqilona chora-tadbirlar, rag‘batlantirish va jazolash yordamida kishilarga ta’sir qilish imkonini beradi.


➤ Ratsional yondashuv. Yana bir g‘oyaviy oqim maktabi mavjudki, ular siyosatga nisbatan ratsional (oqilona) narsa sifatida qarashadi. Chunki nimani ko‘proq xohlashlarini o‘zлari yaxshi bilishadi va nimani qilishni xohlashsa, uni asoslash uchun yetarlicha sabalarni qidirib topishadi. T.Gobbs, J.Lokk singari mumtoz siyosiy nazaryotchilar insonlar “fuqarolik jamiyat”ni shakllantirishadi degan qarashni ilgari surishgan, boisi ularni kuchlari, hokimiyat boshboshdoqligiga nisbatan ancha yaxshi sanaladi. Jonlarini va mollarini asrash uchun insonlar boshqaruv tizimini shakllantirishadi. Agar mazkur boshqaruv tizimi o‘zini oqlamasa, insonlarda ularni tarqatib yuborish va yangisini shakllantirish huquqi mavjud.

Biologik, psixologik va madaniy maktablar siyosiy hokimiyat shakllanishida insonlarning hohish va istaklarini chetda e’tiborsiz qoldirishgan, ularning da’vo qilishicha, muayyan xulq-atvor tug‘ma yoki muayyan vaziyatda shakllanadi, individlar juda kam holatlarda oqilona fikr yurita oladilar.

Umuman olganda, hokimiyat tushunchasining quyidagi umumiy jihatlariga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi:

1. Hokimiyat bu – odamlar o‘rtasidagi munosabatdir; hokimiyat munosabatlari bo‘lishi uchun kamida ikkita hamkorning faoliyati zarur bo‘ladi.

2. Hokimiyat munosabatlari oxir-oqibatda va har doim hukmronlik qilish va bo‘ysunish munosabatlardan iborat bo‘ladi;
3. Hokimiyat munosabatlarida, albatta, hayotiy muhim masalalariga e’tibor qaratiladi.
4. Hokimiyat munosabatlari o‘ziga xos asimmetrik mohiyatga egadir.



## 2. Siyosiy hokimiyat va uning tuzilishi

Siyosiy hokimiyat hokimiyatning asosiy shakli sanalib, ilmiy ada-biyotlarga unga nisbatan quyidagi ta’riflarni uchratish mumkin:

Siyosiy hokimiyat u yoki bu vosita: obro’, huquq, zo‘rlik yordamida o‘z irodasini amalga oshirish, jamiyat xulq-atvoriga belgilovchi ta’sir ko‘rsatishning usul va imkoniyatlaridir.

Siyosiy hokimiyat bu – uni egallab turgan, butun jamiyat (davlat)ga rahbarlik qilib boshqarayotganlarning davlat ixtiyoridagi vositalar yordamida xalq ommasining xatti-harakatiga belgilovchi ta’sir o’tkazish, odamlarning ko‘pchiligini qo‘yligan maqsad va dasturlarni amalga oshirishga safarbar etish, barqarorlik va ijtimoiy kelishuv maqsadiga alohida guruhlar munosabatlarini tartibga solish qobiliyati va imkoniyatidir.

Siyosiy hokimiyatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:  
birinchidan, hukmronlik munosabatlarining subyekti va obyekti-  
ning mavjudligi;

ikkinchidan, hokimiyatni amalga oshiruvchining faoliyati;

uchinchidan, bo‘ysundirishning amalga oshiruvchi mexanizmi;

to‘rtinchidan, hokimiyat subyekti salohiyatlarini mustahkamlab  
qo‘yadigan normalar.

Ta’kidlash joizki, siyosiy hokimiyat hokimiyyatning boshqa turlari-  
dan quyidagi asosiy xususiyatlari bilan farq qiladi.

1 . Suverenitet – hokimiyatning mustaqilligi va bo‘linmasligidir.  
Masalan, mamlakatda koalitsion hukumat va ko‘p partiyalı parlament  
bo‘lgan taqdirda ham siyosiy hokimiyat turli siyosiy kuchlarning ke-  
lishilgan siyosati orqali amalga oshiriladi.

2. Iroda – muayyan siyosiy maqsad va dasturning mavjudligi va  
uni amalga oshirishga qaratilgan tayyorgarlik.

3. Avtoritet – siyosiy hokimiyat subyektining ijtimoiy hayotning  
barcha jabhalaridagi ta’sirining mamlakat va uning tashqarisidagi  
umum e’tirofi.

4. Majburlash – o‘z irodasini jismoniy kuch ishlatib bo‘lsada amalga  
oshirish. (Bu xususiyatni diktatura bilan aynanlashtirmaslik kerak.).

Siyosiy hokimiyat tuzilishi (strukturasi) – bu uning ularsiz mavjud  
bo‘la olmaydigan tarkibiy qismlaridir. Siyosiy hokimitning tarkibi-  
ga subyekt, obyekt va resurslar kiradi. Ular hokimiyatning bevosita  
tashuvchisidir.

Hokimiyat faqat hokimiyat subyekti va obyekti o‘zaro xatti-ha-  
rakati natijasidagina amalga oshadi. Subyekt o‘z irodasini obyekta-  
ga nisbatan amalga oshirolmay qolishini sanksiyalar berish xavfiga  
duchor bo‘ladigan buyruqlar, topshiriqlar, farmoyishlar berish vosi-  
tasida ifodalaydi.

Subyekt – hokimiyatning faol, yo‘naltiruvchi qismidir. U alohida  
inson, ijtimoiy guruh, kishilarning birligi, misol uchun xalq yoki jahon  
hamjamiyati, davlat institutlari, siyosiy partiyalar bo‘lishi mumkin.  
Biroq har qanday inson hokimiyatning subyekti bo‘lavermaydi. U ho-  
kimiyat subyekti bo‘lishi uchun qator sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Av-

valambor, bu hokimlikka xohish-istak, ko'rsatmalar yoki buyruqlarda ko'rinadigan hokimlik qilish irodasidir. Ko'pchilik kishilar hokimiyatga egalik qilishdan qoniqish his etmaydilar. Ular uchun hokimiyat o'z-o'zidan boylik hisoblanmaydi. Ko'plar, agar hokimiyat turli imtiyozlarni olish uchun imkoniyatlar ochib bermaganda, umuman, rahbarlik lavozimlaridan va ular bilan bog'liq bo'lgan mas'uliyatdan o'zlarini olib qochgan bo'lardilar. Ular uchun hokimiyatga intilish instrumental xarakterga ega, ya'ni boshqa bir maqsadga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hokimiyat subyektlari murakkab, ko'p qirrali xarakterga egadir. Uning boshlang'ich aktorlari – individlar va ijtimoiy guruhlar, ikkinchilari – siyosiy tashkilotlar, eng yuqori darajadagi subyektlari esa siyosiy elitalar va liderlardir. Ushbu darajalar o'rtasidagi aloqalar doimo bir tekisda va silliq ketavermaydi. Bu aloqalar buzilishi ham mumkin. Masalan, liderlarning ommadan, hatto o'z partiyasidan uilib qolish hollari ham goh-goh uchrab turadi.

Obyekt – hokimiyatning ikkinchi muhim elementidir. U hokimiyat subyekti qarorlarining bevosita boshqaruvchisidir. Obyekt ham, xuddi subyekt kabi hokimiyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Bu elementsiz hokimiyatni tasavvur etib bo'lmaydi. Hokimiyatning obyektini individ, ijtimoiy guruh, sinf, jamiyat tashkil etadi.

Hokimiyat obyektning siyosiy hokimiyat subyektiga bo'y sunish omillari<sup>29</sup>:

- qo'rquv;
- odat (bo'y sunishga odatlanib qolganligi);
- manfaat;
- avtoritet va boshq.

Siyosiy hokimiyat resurslari bevosita hokimiyatning mustahkamlik asoslarini belgilab beradi. Hokimiyat resurslari keng ma'noda "individ yoki guruhning boshqalarga ta'sir qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan hamma narsadir".

---

<sup>29</sup> Политическая власть и ее структура // [http://politologiya-uchebnik.blogspot.com/2010/07/blog-post\\_8937.html](http://politologiya-uchebnik.blogspot.com/2010/07/blog-post_8937.html)

Hokimiyat resurslarining bir necha tasniflari shakllangan. Amerikalik sotsiolog A.Etsioni (1929-h.) resursslarni utilitar, majbur qiluvchi va me'yoriy (normativ) turlarga bo'lgan.

Hokimiyat resurslari xilma-xildir. Ular ilmiy adabiyotlarda bir necha turlarga, avvalambor, utilitar, majburlovchi va me'yoriy resurslarga bo'linadi.

Utilitar resurslar – bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun ham foydalaniladi.

Majburlovchi resurslar – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan, odatda, utilitar resurs ish bermay qolganda foydalaniladi.

Me'yoriy resurslarga insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi. Ular bo'ysunuvchilarga rahbar va ijob etuvchilarning manfaatlarini tushuntirishga, hokimiyat subyekti harakatlarining ma'qullanishini, uning talablari qabul qilinishini ta'minlashga chaqirilgandir.

Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatning resursslarni inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari – siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgan.

Siyosiy-huquqiy resurslar – bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinch-osoyishtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta'minlovchi vositalardir. Bu vositalarga das-turiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar kiradi.

Iqtisodiy resurslarga ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarish va iste'mol qilish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, ularning umumiyligi ekvivalenti sifatida pullar, texnika, unumdon yerlar, yer osti qazilma boyliklari va hokazolar kiradi.

Sotsial resurslar – sotsial stratifikasiyadagi sotsial maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayishi qobiliyatidir. Bu resursslarni iqtisodiy resurslarga mos keladi. Masalan, daromad

va boylik iqtisodiy resurslar bo‘lishi bilan birga sotsial maqomni ham tavsiflaydi. Biroq sotsial resurslarga lavozim, obro‘, ma’lumot, medisina xizmati, ijtimoiy ta’minot kabi ko‘rsatkichlar ham kiradi.

Madaniy-axborot resurslarini – bilim va axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tashkil etadi. Taniqli amerikalik olim O. Toffleming e’tirof etishicha, XX asr oxiri–XXI asrning boshlarida bilim va axborot hokimiyatning muhim resursiga aylanadi. Hozirgi kunda postindustrial mamlakatlarda bilim va axborot hokimiyat amal qilishining hal qiluvchi omiliga aylandi. An’naviy kuch va boylik o‘zining ilgarigi ta’sirini yo‘qotmoqda. Kim bilim va axborotga ega bo‘lsa, o‘sha chinakamiga hukmronlik qiladi.

Kuch ishlatish resurslari–bu quroq-yarog‘, jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir. Ularning o‘zagini armiya, politsiya, xavfsizlik kengashi tashkil etadi. Resurslarning mazkur ko‘rinishi hokimiyatning azaldan eng samarali manbai hisoblangan. Sababi, uning foydalanishi insonni oliv qadriyatlar–hayotdan, erkinlik va mol-mulkdan mahrum qilishga qodirliigidir. Hokimiyatning turli resurslari, odatda, uning subyektlari, avvalo, davlat idoralari tomonidan kompleks ravishda qo‘llaniladi.

### **3. Siyosiy hokimiyat shakllari va legitimligi**

Siyosiy hokimiyat turli ko‘rinishlarda mavjud bo‘ladi va faoliyat ko‘rsatadi: davlat hokimiyati, partiya hokimiyati, mintaqaviy hokimiyat va hokazo. Ularning eng rivojlangani davlat hokimiyatidir.

Davlat hokimiyati–hokimiyatning ko‘proq sinfiy tabiatga ega bo‘lgan, maxsus majburlash apparatiga suyanadigan va hamma uchun majburiy qonunlar chiqarishda hamda boshqa normativ hujjalarni tasdiqlashda monopoliyaga ega bo‘lgan shakli.

Siyosiy hokimiyatning maqsadi jamiyat va davlat hayotini tartibga solish hamda boshqarishdir. Biroq siyosiy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish va boshqarish fuqarolar erkinligini, qonun ustuvorligini ham ta’minlashi zarur. Hokimiyatlar

bo‘linishi tamoyilini nazariy jihatdan asoslab bergen mutafakkirlar Djon Lokk va Sharl Lui Monteskyolar qayd etganidek, buning uchun davlat hokimiyati – 1. qonun chiqaruvchi; 2. ijro etuvchi; 3. sud hokimiyatiga bo‘linishi kerak.

Ilmiy manbalarda bu hokimiyatlar quyidagicha tavsiflanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat asosan jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan qonun ijodkorligi bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, qonunlarni qabul qiladi va zarur bo‘lganda ayrim qonunlarni bekor qilish jarayonlarini amalga oshiradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy instituti bu-parlamentdir. Parlament turli mamlakatlarda har xil nom bilan yuritiladi. Masalan, Rossiyada–Federal Majlis, O‘zbekistonda–Oliy Majlis, AQSHda–Kongress, Germaniyada–Bundestag, Polshada–Seym deb ataladi. Parlament instituti, odatda, bir palatali va ikki palatali bo‘ladi.

Ijro etuvchi hokimiyat mamlakat qonunlarini hayotga tatbiq qilish, jamiyatda ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarni boshqarish vazifalarini amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyatning funksiyalari niho-yatda xilma-xil bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy nazorat qilish, koordinatsiya qilish, madaniy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, ichki tartibot va barqarorlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta’minlash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Ijro etuvchi hokimiyatning asosiy instituti – bu hukumatdir. Turli mamlakatlarda hukumat turlicha shakllantiriladi. Masalan, prezidentlik boshqaruviga asoslangan davlatlarda hukumat davlat boshlig‘i tomonidan tashkil qilinadi, parlamentar boshqaruviga asoslangan davlatlarda esa hukumat saylov natajalaridan kelib chiqib qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan shakllantiriladi.

Sud hokimiyati jamiyatda mamlakat miqyosida qabul qilingan qonunlarning yuridik va jismoniy shaxslar, davlat organlari va muassasalar, alohida fuqarolar tomonidan to‘g‘ri bajarilishini nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, siyosiy hokimiyatning legitimligi masalasi XIX asrda Fransiyada vujudga kelgan. Siyosiy hokimiyatning hukmronligi fuqarolar tomonidan turlicha baholanishi mumkin. Aholining hokimiyatga ijobiy baho berishi, uning qonun-

ga muvofiqligini, boshqarish huquqini tan olishi va ixtiyoriy tarzda bo'y sunishga roziligi hokimiyatning legitimligini bildiradi.

«Legitimlik» atamasi (lot. leg, legitimus - «qonun») «qonuniylik», «qonunlashtirilganlik» ko'rinishida tarjima qilingan. Bunday tarjima unchalik aniq emas. Chunki bunday tarjima ko'proq «legallik» atamasi mazmuniga mos keladi. Shuning uchun legitimlik va legallik aynan bir xil tushunchalar emas. Legallik hokimiyatning huquqiy asoslanishi ni, uning huquqiy me'yorlarga mos kelishini, qonunga mos ravishda faoliyat ko'rsatishini anglatadi. Shu ma'noda legallik nolegitim hokimiyatlarga ham xosdir. Legitimlik esa – bu ishonch, hokimiyatni oqlash va qo'llab-quvvatlashdir. Fuqarolar tomonidan bunday tan olinishga hamma siyosiy hokimiyatlar ham erisha olmaydi.

Hokimiyatning legitimligi o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra xilmal-xil turlarga bo'linadi.

Hokimiyat legitimligining uchta mumtoz turini (M.Veber) ajratib ko'rsatish mumkin. Bu turlar quyidagilardan iborat:

1) An'anaviy legitimlik. U azaldan o'rnatilgan tartiblarning buzilmasligi va muqaddasligiga bo'lgan ishonchga, hokimiyatga bo'y sunish urf-odatlariga binoan qaror topadi. Uning negizini siyosiy an'analarga, urf-odatlarga ishonch tashkil etadi. Boshqacha aytganda, hukmronlikning oila darajasidagi ko'rinishi bo'lib jamiyat miyosida amal qiladi. U urf-odatlar, qadriyatlar, qoidalarning muqaddasligiga ishonishga, asrlar davomida hayotni, odamlarning xatti-harakatini tartibga solib turgan, hokimiyatning amal qilishi patriarchal asoslar va diniy odatlar orqali muqaddaslashtirilganligiga asoslanadi. Misol sifatida an'anaviy hokimiyatga Qadimgi Sharq jamiyatlarini (Misr, Eron, Xitoy) o'rta asr Yevropasi, hozirga davrda Saudiya Arabistonni, Baxreyn, Quvayt, Omon va boshqalarni keltirish mumkin.

2). Xarizmatik legitimlik (yunoncha «xarizma»–xudo tomonidan in'om etilgan ilohiy qobiliyat). Bu legitimlik rahbarning haddan tashqari ilohiy qobiliyatiga, favqulodda iste'dodiga, ya'ni xarizmasiga ishonishga asoslanadi. Uning negizini tarixiy an'analar emas, balki shaxsga xalqning cheksiz ishonchi tashkil etadi. Omma yetakchni dohiy deb biladi. Omma va yetakchi o'rtasidagi intensiv his tuyg'uga

asoslangan aloqa o‘rnataladi. Xarizmatik yetakchi hokimiyati kundalik holatdagi urf-odatlar bilan aloqani uzadi. Yetakchi o‘zining «tarixiy vazifasi» borligini, shuning uchun unga shartsiz bo‘ysunishi lozimligini uqtiradi. Xarizmatik yetakchi mo’jizaviy jasoratlar ko‘rsatib, o‘zining buyukligini doimo isbotlab borishi kerak. Muvaffaqiyatsizlik, uning takrorlanishi xarizmatik yetakchiga ishonchni yo‘qotadi. Shuning uchun xarazmatik hokimiyat nisbatan beqarordir.

3). Ratsional-oshkora legitimlik – legitimlikning mustaqil turidir. U legitimlikning an’naviy, xarizmatik turlaridan farq qiladi. Ratsional-oshkora legitimlik fuqarolarning alohida shaxslarga emas, balki davlat tuzilmalariga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi. Uning manbaini oqilona anglangan manfaat tashkil etadi. Bu manfaat kishilardan umumjahon tomonidan e’tirof etilgan qoidalar bo‘yicha shakllangan hukumat qarorlariga ixtiyoriy buysunish hissini uyg‘otadi.

Bundan tashqari, ingliz tadqiqotchisi D.Xeld yuqoridagi uch xil letimliklar qatorida “kuch ishlatish xavfi ostidagi rozilik”ka asoslangan hokimiyatni qo‘llab-quvvatlash hodisasi mavjud ekanligiga ham e’tibor qaratadi. Bunda aholi o‘z atrofida o‘zining xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan, lekin hali bu kabi tahdid sodir bo‘lmagan holatda hokimiyatga xayrixoh bo‘lmasa ham, unga amal qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Hokimiyatni pragmatik (vositaviy) qo‘llab-quvvatlash legitimligi-ham mavjud bo‘lib, unda aholi hokimiyatni turli ijtimoiy boyliklarni olishga doir va’dalar berishi natijasida qo‘llab-quvvatlashga rozilik bildiradi.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Hokimiyat deganda nimani tushunchasiz?
2. Hokimiyatning namoyon bo‘lish shakllarini sanab bering?
3. Hokimiyatning qanday turlari mavjud?
4. Siyosiy hokimiyat deganda nimani tushunasiz?
5. Siyosiy hokimiyatning boshqa hokimiyatlardan farqli jihatlarini sanab bering?
6. Siyosiy hokimiyat ko‘rinishlari borasida qanday fikr bildira olasiz?

7. Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi borasidagi qanday nazariy qarashlarni bilasiz?
8. Siyosiy hokimiyat tuzilmasini izohlab bering.
9. Legitimlik va legallik tushunchalari o‘rtasida qanday farq mavjud?
10. Siyosiy hokimiyat legitimligining qanday shakllarini bilasiz?

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O‘zbekiston davlat hokimiyati bo‘linish prinsiplari va ularning vakolat hamda funksiyalari to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘rganib keliш.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –Т.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар гурухи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма–Т.: Алишер Навоий

номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.

10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўкув юрт талабалари учун ўкув қўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.

11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик–ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрт тараққиёти ва халқ фаровошлигининг гарови.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017.–48 б.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 b.

6. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, Т.: Universitet, 2003.

7. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik.O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O'quv qo'llanma –Т.: Soliq akademiyasi, 2008.

8. Бобоев Ҳ. Ғафуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти.–Т., 2001.

9. Власов В. И. и др. История политических и правовых учений. Ростов-на-Дону, 2004.

10. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.

11. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
12. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.
13. Отамуротов С. Ҳокимият ва демократия мутаносиблиги.//  
Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. 2003, №1–2.
14. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории./ История и современность, 2006, № 1: 3–45.
15. Морозова Л. А. Теория государства и права. Учебник. 2002. - 414 с.
16. Гайворонская Я. В., Самусенко Т. М. Теория государства и права. Издательство ДВГУ 2000.
17. Мелехин А. В. Теория государства и права: учеб. / А. В. Мелехин. - М. : Маркет DC, 2007.–С. 154.
18. Морозова, Л. А. Теория государства и права – М.: Изд. Эксмо, - 2009.
19. Blum, William. Rogue state: a guide to the world's only superpower. Zed Books.–NY, 2006.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)

## **6-mavzu. DAVLAT–SIYOSIY INSTITUT SIFATIDA**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- davlat – siyosiy tizimning asosiy instituti sifatida haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Jamiyat, davlat, mahalla, shartnoma nazariyasi, psixologik nazariya, patrialxal nazariya, Stato, teologik konsepsiya, patriarchal nazariya, patriarchal-paternalistik konsepsiyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, ijtimoiy-iqtisodiy nazariya, marksistik nazariya, davlatning umumiyl belgilari, davlatning ichki funksiyalari, davlatning tashqi funksiyalari*

### **Asosiy savol:**

1. Davlatning vujudga kelishi va turli nazariyalar.
2. Davlatning belgilari va funksiyalari.
3. Davlat shakli va uning mohiyati.

### **1. Davlatning vujudga kelishi va turli nazariyalar**

Davlat – bu asosiy siyosiy institut. Siyosiy institut nima, ta'riflar ko'p: siyosiy institut – jamiyatda o'rnatilgan va mustahkamlangan hokimiyat tuzilmasidir<sup>30</sup>. Siyosiy institut – bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, tashkiliy va ijro tuzilmasi hamda apparatiga ega siyosiy tashkilot<sup>31</sup>.

---

<sup>30</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.58–96

<sup>31</sup> Словарь терминов и понятий по обществознанию. Автор-составитель А.М. Лопухов. 7-е изд. переб. и доп. -М., 2013. -С. 290–291.

Bugungi kunda ular soni BMT a'zolari sonidan kelib chiqib 193 tani tashkil qiladi degan qarashlar ham mavjud. Ayrim manbalar ular soni 230 ta atrofida qayd etiladi. Davlat ko'p holatlarda "millat", "jamiyat" so'zlari bilan birgalikda qo'llaniladi. Lekin ular o'rtasida ma'lum farqlar bor.

Qaysi biri oldinroq paydo bo'lgan: davlat yoki millatlar? Ko'pchilik millatlar davlatni vujudga keltirgan deb hisoblasada, ayrim hollarda davlatlar o'z millatni tashkil qilgan.

Millat bu – birdamlik, umumiylar tarix va madaniyat, ba'zan (har doim ham emas) umumiylar tilga ega bo'lgan xalq.

Jamiyat – bu umumiylar maqsad, qadriyat va manfaatlarga ega insonlarning birlashmasidir. Jamiyat – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatları majmuidir.

Bugungi kunda davlatga oid ko'plab ta'riflar shakllangan:

Davlat – mustaqil va o'z xohishini majburlay olish kuchiga ega boshqaruv tuzilmasidir. Boshqacha aytganda, davlat bu – millatning boshqaruv tuzilmasidir<sup>32</sup>.

Davlat bu – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiysi, jamoat tartibini muhofaza qilish va davlat xavfsizligi, qurolli kuchlar, qisman ommaviy axborot vositalaridan iborat ko'p pag'onali murakkab tizim. Bunday deyilishiga sabab, davlat bir tomonidan jamiyatning "qonuniy kuch ishlatalish vakolatiga ega bo'lgan" yagona va asosiy instituti, ikkinchi tomonidan davlat turli institutlar – ijro, qonunchilik, sud, boshqa organlarni birlashtirshgan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat – avvalambor, jamiyatni siyosiy tarzda tashkil qilish usulidir. Davlat o'z doirasida hokimiyatga egalik qiladi va uni to'liq amalga oshiradi, jamiyatdagagi barcha resurslarni tasarruf qiladi, jamiyatni boshqarish bo'yicha asosiy yuklamani bajaradi, xalqaro huquq va munosabatlarning subyekti vazifasini bajaradi.

Davlat bu – ma'lum hududda o'rnashgan milliy yoki ko'p millatli umumiylikni tashkil qiluvchi siyosiy birlashma bo'lib, unda institutsionallashgan hokimiyatni boshqaruvchi siyosiy elita tomonidan huquqiy tartibot saqlanib turadi.

<sup>32</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.58–96

“Davlat” va “Mamlakat” tushunchalari o‘rtasida farqlanish mavjud:

Davlat	Mamlakat
Siyosiy mohiyatga ega	Geografik va madaniy mohiyatga ega
Hokimiyat tizimi mavjud bo‘ladi	Hokimiyat tizimi mavjud bo‘lmaydi
Doim mustaqil va suveren	Boshqa davlat qaram va uning ta’sir doirasida bo‘lishi mumkin

Davlatning qanday paydo bo‘lganligi o‘rganish bo‘yicha turli qarashlar shakllangan. Aristotel fikricha, har qanday davlat—dastlabki aloqalar sifatida tabiiy kelib chiqish mahsulidir. U davlat boshqaruvni to‘g‘ri va noto‘g‘ri shakllarini sanab o‘tadi.

Davlatning paydo bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishiga nisbatan Abu Nasr Forobiy odamlarning birlashishga bo‘lgan tabiiy intilishlarining natijasi sifatida qaradi. Abu Ali ibn Sino esa davlatga insonlar birlashuvning tabiiy zarurati sifatida qaradi. O‘zining «Kitob alishorat vat-tanbidat» (Ko‘rsatmalar va tanbehlar kitobi) nomli asarida u shunday deb yozgan edi: «Agar bir odam hamma ishni o‘zi qiladigan bo‘lsa, uning zimmasiga juda og‘ir yuk tushgan bo‘lur edi, binobarin, ular o‘rtasida kelishuv bo‘lmog‘i lozim».

Zamonaviy siyosatshunoslik fanida, davlatga ta’rif berishda, bugungi kunda institutsional yondashuv ko‘p hollarda ustuvorlik qilmoqda. Unga ko‘ra davlat bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan muassasa va tashkilotlarning yig‘indisidir.

N. Makiavelli birinchi bo‘lib davlat va jamiyat tushunchalarini bir-biridan ajratib tushuntirishga harakat qilgan edi. Uning fikricha, “Davlat jamiyatning alohida siyosiy tashkilotidir”. U davlatni belgilash uchun maxsus *Stato terminini* joriy etdi. Fuqarolik jamiyati va davlatni jiddiy nazariy farqlash birinchi bo‘lib Gegel tomonidan amalga oshirildi. Bunda u, albatta, davlatni birinchi o‘ringa qo‘ydi. Davlat va jamiyatni aynan bir narsa deb qarash

an'anasi hozirda ham mavjud—faqat nazariy jihatdan emas, balki kundalik ongda ham. Ammo yuqoridagi ta'riflardan unday emasligini kuzatish mumkun

Aytish mumkinki, davlatning paydo bo'lishiga oid turli nazariyalar shakllangan bo'lib, S.G.ofurov, A.Haydarov, N.To'laganova tomonidan chop etilgan "Siyosatshunoslik asoslari" nomli o'quv qo'llanmada to'liq ma'lumot berilgan<sup>33</sup>:

Teologik konsepsiya – davlatning kelib chiqishini ilohiy qonunlar bilan bog'laydi.

Patriarxal nazariya (asoschisi—XVIII asr ingliz siyosiy mutafakkiri Robert Filmer) davlatning vujudga kelishini urug'larning qabilalarga, qabilalarning esa katta ijtimoiy birliklarga, shu tariqa davlat tuzilmalariga qadar mexanik birlashuvi natijasi, deb hisoblaydi.

O'z vaqtida Konfutsiy davlatning patriarxal-paternalistik konsepsiyasini bayon qilib bergen edi: unga ko'ra davlat katta oila hisoblanadi. U hukmdorlarni fuqarolar bilan yaxshi fazilatlar asosida munosabat o'rnatishga da'vat qildi. Konfutsiyning fikriga ko'ra, davlat—bu umum manfaati yo'lida hammaning nomidan amalga oshiriladigan patriarxal hokimiyatning rivojlanchagan shakli.

T.Gobbs, J.Lokk va J.J.Russo tomonidan rivojlantirilgan ijtimoiy kelishuv nazariyasi davlatni ijtimoiy hayotni tashkil qilish va tartibga solishni ta'minlash maqsadida mustaqil hukmdor va fuqarolar o'rtasida o'rnatilgan o'zaro kelishuvdan keltirib chiqaradi. Davlat hokimiyatni bo'lish masalasi tadqiq etiladi.

XIX asrda davlatning paydo bo'lishini bir guruhning ikkinchisini bosib olish bilan izohlovchi zo'ravonlik nazariyasi (asoschisi avstriyalik sotsiolog va huquqshunos L. Gumplovich) keng tarqaldi.

Psixologik nazariya davlatning paydo bo'lishini inson dahosidan tug'ilgan g'oyalardan keltirib chiqaradi.

---

<sup>33</sup> G.ofurov S.M., Xaydarov A.A., To'laganova N.O'. Siyosatshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. –B.102-103

Ijtimoiy-iqtisodiy nazariya davlatning kelib chiqish manbalarini mehnat taqsimotidan, jamiyatni boshqarish faoliyatining ajralib chiqishidan qidiradi. Uning eng qadimiy ko‘rinishi – Platon qarashlari.

Marksistik nazariyaga ko‘ra, davlat iqtisodiy jihatdan hukmron sinf manfaatlарining ifodachisi sifatida jamiyatning sinflarga bo‘linishi natijasida paydo bo‘ladi. Davlatning barham topishi muammosi bu nazariyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat paydo bo‘lishining zamonaviy nazariyasi – yuridik nazariya hisoblanadi, chunki u davlatni xalqlarning huquqlarida ko‘radi va hokimiyatni inson huquqlari, ya’ni belgilangan darajadagi inson erkinliklarining asosiy talablarini hokimiyatga bo‘lgan munosabat bilan bog‘laydi.

## 2. Davlatning belgilari va funksiyalari

Davlatning milliylik va suverenligi masalasining rivojida Yevropa kechgan “O’ttiz yillik urush”ning (1618–1648) ahamiyati muhim, boisi urush yakuni natijasida xalqaro munosabatlarda Vestfaliya tizimi shakllandi va uning asosiy prinsipi sifatida “milliy suveren davlat prinsipi” namoyon bo‘ldi. O’sha davrda milliy suveren davlat bo‘lish uchun qo‘yidagi asosiy talablar shakllandi:

- muayyan hududga ega bo‘lish;
- o‘sha hududda yashovchi muayyan aholiga ega bo‘lish;
- xalqi tomonidan tan olingan boshqaruvning mavjudligi;
- boshqa davlatlar tomonidan tan olinish.

Aytmoqchimizki, bugungi kunda davlatning institut sifatidagi rivojlanishi mukammal darajaga chiqdi va o‘ziga xos belgilari shakllandi:

• Suverenitet – mustaqillik har qanday davlatning eng muhim va hal qiluvchi belgisidir. Davlat suvereniteti o‘zining ichki va tashqi jihatlari bilan ajralib turadi. Davlat suverenitetining tashqi jihatlari boshqa davatlarning suveren davlat ichki ishlariga aralashmasligi uning mustaqilligini hurmat qilinishini nazarda tutadi. Suverenitetning ichki tomoni esa mamlakat doirasida siyosiy hokimiyatni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqi bilan izohlanadi.

• ommaviy hokimiyat—har bir davlat o‘zining keng tarmoqligi davlat hokimiyati organlari va muassasalariga ega. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

- vakillik—qonunchilik organlari;
- ijro etuvchilik—rahbarlik organlari;
- sud organlari;
- davlat nazorat organlari;
- ma’murit.

• hudud—davlatning ma’lum chegaralar bilan belgilangan o‘z hududining mavjudligi;

• Oshkora kuch ishlatish, jismoniy majburlash monopoliyasi. Davlatning majburlash doirasi erkinlikni cheklashdan tortib, to insonni jismoniy yo‘q qilishgacha tarqalishi mumkin.

• Mamlakat hududidagi barcha aholi uchun bajarilishi majbur bo‘lgan qonunlar va me’yorlar qabul qilishning yagona huquqiga ega bo‘lganligi.

• Aholidan soliqlar va turli yig‘imlar olish huquqi.

• Davlat ramzları - gerb, bayroq, madhiya.

• Xalq—har bir davlat hududida joylashgan bir millatli yoki ko‘p millatli aholi davlatning eng yetakchi belgisi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan asosiy belgilar davlatning nihoyatda keng qamrovli siyosiy institut ekanligidan dalolat beradi.

Demak, siyosiy instituti sifatida davlat bir qator funksiyalarni bajaradi:

Odatda, davlat funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo‘linadi.

Davlatning ichki funksiyalari quyidagi sohalar: iqtisodiy (iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, davlat korxonalarini boshqarish, narx siyosatining huquqiy asoslarini belgilash, tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish), ijtimoiy (ish bilan bandlikning ijtimoiy kaflatlarini ta’milash, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi), ta’lim (ta’lim olishni demokratlashtirish, uning uzuksizligini ta’milash, ta’lim olish uchun barchaga teng imkoniyatlar berish), ekologik, soliq yig‘ish, madaniy hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini o‘z ichiga oladi.

Davlatning tashqi funksiyalari:

-xalqaro munosabatlarda davlat manfaatlarini himoya qilish va ro‘yobga chiqarish.

-davlatni himoya qilish;

-dunyoviy tartib-qoidalarni qo‘llab-quvvatlash;

-xalqaro global muammolarni hal qilishda ishtirok etish.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, agarda davlat faoliyati Sh.Monteskyoning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati funksiyalarini ajratish haqidagi g‘oyalari asosida qurilgan bo‘lsa, hokimiyat organlari samarali faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Ularga yana davlat boshlig‘ining hokimiyati qo‘shiladi.

Bugungi kunda davlatni bir qator mezonlar asosida quyidagi turланин sanab o‘tish mumkin:

1. Diniy tashkilotlarga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra: diniy, dunyoviy, ateistik davlat.

2. iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga ko‘ra: rivojlanayotgan yoki uchinchi dunyo mamlakatlari - ular asosan qishloq xo‘jalikgiga asoslangan, tabbiy resurslarning katta qismini eksport qiluvchi davlatlar; industrial (sanoatlashgan) davlatlar – iqtisodiyoti asosini sanoat ishlab chiqarish tashkil etadi; postindustrial – bu davatlarda iqtisodiyot asosini sanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko‘rsatish sohalari tashkil etadi.

3. Davlatda mafkuraning ustuvorligiga ko‘ra: mafkuralashgan va mafkuralashmagan.

4. Davlat o‘z funksiyalarini bajara olishi qobiliyatiga ko‘ra. Ushbu bo‘linish nisbatan zamонавиyoq hisoblanadi:

4.1. Davlat o‘z funksiyalarini samarali bajaruvchi davlat (effective state).

4.2. Kuchsiz davlat (weak states) – samarali boshqaruvga ega bo‘lmagan, jinoyatchilik, korrupsiya avj olgan davlat.

4.3. Tanazzulga yuz tutgan davlat (failed states) – minimal tarzda ham boshqaruvga ega bo‘lmagan, aniq bir hukumat shakllanmagan davlat<sup>34</sup>.

---

<sup>34</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An

5. Davlat shakliga ko‘ra. Davlat shakli deganda, davlatdagি siyosiy hokimiyatni uyuşhtirishning uch asosiy belgilari tushuniladi. Bular:

5.1. Boshqaruv shakli: respublika va monarxiya.

5.2. Davlat tuzilishi shakli: unitar, federativ va konfederativ.

5.3. Siyosiy idora usuli (siyosiy rejim): demokratik va g‘ayri demokratik (totalitar va avtoritar).

Ta’kidlash joizki, “huquqiy davlat” atamasi hozirda kundalik ha-yotimizda ko‘p qo‘llaniladi. Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi va qonunning ustuvorligi, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi, sudning mustaqilligi, inson huquqlari va erkinliklari ta’milanadigan, huquqni muhofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo‘lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir.

Huquqiy davlat bu – amalda qonun va huquq normalari ustuvorligi ta’minlangan davlatdir. Unda hokimiyat faqat huquq asosida amalga oshadi, qonunlar asosida chegaralab qo‘yiladi.

Huquqiy davlat quyidagi asosiy prinsiplarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Qonun ustuvorligi.

2. Shaxs erkinliklari huquqlari hamda manfaatlarining daxlsizligini, qonun bilan kafolatli himoya qilinishi.

3. Davlat va shaxs o‘rtasida o‘zaro mas’uliyat va ishonchning mavjud bo‘lishi.

4. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va surʼd hokimiyatlariga bo‘linishi.

5. Nazorat qilishning samarali formalarining mavjud bo‘lishi.

6. Demokratiya prinsiplariga izchillik bilan amal qilinishi.

Bu o‘rindan “fuqarolik jamiyati” tushunchasiga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak. Fuqarolik jamiyati – bu fuqarolarning boshqaruv jarayonida real ishtirokini, davlat faoliyatini ustidan ularning nazoratini ta’minlashga layoqatli nodavlat ijtimoiy tashkilotlarning yig‘indisidir.

Hozirgi zamon fuqarolik jamiyatining 5ta belgisi mavjud:

1. Davlatdan va bir-biridan mustaqil individlar, tashkilotlar va institatlarning mavjudligi.
2. Davlatga bog‘liq bo‘lmaidan daromad manbalarining mavjudligi.
3. Xususiy mulk ustun bo‘lgan holda bozor iqtisodiyotida mulkinning xilma-xil shakllari mavjudligi.
4. Jamiyat tarkibida o‘rta sinf miqdorining ko‘pligi.
5. Rivojlangan industrial va postindustrial jamiyat.

Bundan tashqari, bugungi kunda G‘arb davlatlari tashqi siyosiy doktrinalarida “yolg‘onchi davlat” (“rogue state”, “strani-izgoi”) konsepsiysi ham shakllangan. “Yolg‘onchi davlat” (“rogue state”) – bevosa xalqaro xavfsizlik va boshqa davlatlar barqarorligiga tahdid uyg‘otuvchi davlatlardir<sup>35</sup>. Bu atama AQSH sobiq prezidetni B.Klinton ma’muriyati tomonidan keng qo‘llanila boshlangan bo‘lsa, 2001-yil voqealaridan keyin “Yolg‘onchi davlat” (“rogue state”) konsepsiysi Bush ma’muriyati davrida (2002-yilda) Eron, Iraq va Shimoliy Koreyani nazarda tutuvchi “Yovuzlik o‘qi” (“Axis of Evil”) konsepsiyasiga almashtirildi<sup>36</sup>.

### **3. Davlat shakli va uning mohiyati**

Yuqorida ta’kidlanganidek, davlat shakli – davlatning oliy organlarini tashkil etish usuli, davlat hokimiyatining hududiy tuzilishi va hokimiyatni amalga oshirish usullari.

Davlat shakli deganda boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli (siyosiy rejim) tushunadi. Ilmiy manbalarda bu haqida to‘liq ma’lumotlar berilgan (qarang: Farmanov R.F., To‘laganova N.O., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.–T., 2006.)

---

<sup>35</sup> Minnerop Petra. The Classification of States and the Creation of Status within International Community // [http://www.mpil.de/files/pdf3/mpunyb\\_minnerop\\_7.pdf](http://www.mpil.de/files/pdf3/mpunyb_minnerop_7.pdf)

<sup>36</sup> Text of President Bush’s 2002 State of the Union Address // <https://www.washingtonpost.com/wp-srv/onpolitics/transcripts/sou012902.htm> - Jan. 29, 2002

Boshqaruv shakli – muayyan davlatda hokimiyatni uyuşdırış usulining majmuidir. Boshqaruv shakli quyidagi larni anglash imkoniyatini beradi:

- Davlat oliy organlarining vujudga kelishi va ularning tuzilishi;
- Davlatning oliy va boshqa organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qurilishi;
- Oliy davlat hokimiyati va mamlakat aholisi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qurilishi;
- Oliy davlat organlari tomonidan fuqarolar huquq va erkinliklarining ta’minlanish darajasi.

Davlat boshqaruv shakli monarxiya (mutlaq, konstitutsion, teokratik, dualistik) va respublikaga bo‘linadi.


Monarxiya – bu shunday boshqaruv shakli, unda oliy hokimiyat yakka bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi va, odatda, meros bo‘lib o‘tadi.

Cheklangan monarxiya (yoki konstitutsiyaviy monarxiya) – boshqaruvning shunday shakli, unda monarxning hokimiyati va killik organlari tomonidan sezilarli darajada cheklanadi. Odatda, bu cheklash parlament tomonidan tasdiqlangan konstitutsiya bilan belgilanadi. Monarx esa konstitutsiyani o‘zgartirish huquqiga ega emas.

Hozirda mavjud ko‘p davlatlar respublika bo‘lsada, bu shakl yaxshi yoki demokratik degani emas. Davlat rahbari sifatida Britaniya, Norvegiya, Shvetsiya, Daniya, Ispaniya, Gollandiyada qirollik oilasi ramziy boshqaruvni olib borsada, bu mamlakatlar maqomi va aholisi farovonligi yuqori.

Konstitutsiyaviy monarxiyaning shakllaridan biri sifatida dualistik monarxiya maydonga chiqadi. Dualistik monarxiyaning asosiy belgilari – ikkiyoqlama xarakter kasb etadi; yuridik jihatdan hokimiyat haqiqatda monarch tomonidan shakllantirilgan hukumat va parlament o‘rtasida bo‘linadi; hukumat parlamentdagi partiya tarkibiga bog‘liq bo‘lmasan holda shakllantiriladi va uning oldida hisob bermaydi; monarch asosan feodallarning manfaatlarini ifodalaydi, parlament esa burjuaziya va aholining boshqa qatlamlarini himoya qiladi. Boshqaruv-

ning bunday shakli kayzer Germaniyasida mavjud edi (1871–1918), hozirda esa Marokashda amal qilayapti.



Bir qator davlatlarda monarch mamlakatning nafaqat dunyoviy, balki diniy hayotiga ham boshchilik qiladi. Bunday monarchiyalar teokratik monarchiyalar deb ataladi. Boshqaruvning bunday shakli Saudiya Arabiston va Vatikanda amal qiladi.

Respublika - lotincha “jamoa ishi” so‘zdan olingen bo‘lib, davlat hokimiyatini aholi muayyan muddatga saylab qo‘yadigan idoralar amalga oshiradi.

Respublika boshqaruvi shakliga quyidagi belgilar xos :

- oliy hokimiyat saylanuvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi;
- hokimiyatning manbai xalq hisoblanadi;
- oliy hokimiyat organlarining vakolatlari muddat bilan chegaralangan bo‘ladi;
- turli shakllarda demokratiya institutlaridan foydalaniladi;
- davlat boshlig‘ining va boshqa mansabdor shaxslarning yuridik hamda siyosiy javobgarligi mavjud bo‘ladi.

Respublika uch hil ko‘rinishda bo‘ladi: parlamentar, prezidentlik va aralash.

Boshqaruvning prezidentlik respublikasi shaklidagi davlatlarda esa respublika prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi. U davlat organlari tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Prezident bevosita xalq tomonidan yoki oliy xalq vakillaridan iborat parlament tomonidan saylab qo‘yiladigan davlatlarda davlat boshlig‘i xalqdan vakolat olgan organ sifatida davlat boshqaruvida keng vakolatlarga ega bo‘lib, amalda davlat hokimiyati organlari tizimida birlamchi organ, mamlakatning siyosiy namoyandasini hisoblanadi.

Prezidentlik respublikasi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- prezidentda ham davlat boshlig‘i, ham hukumat rahbari vakolatlari birlashgan bo‘ladi;
- prezident saylovlari umumiyligi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ladi, bu bilan prezident mandatni bevosita xalqdan oladi;
- prezident katta vakolatlarga ega bo‘ladi, u hukumatni mustaqil ravishda shakllantiradi, mazkur hukumat prezident oldida javobgar bo‘ladi.

Parlamentar respublikaning asosiy o‘ziga xos xususiyati shundaki, hukumat parlamentda ko‘pchilikni tashkil qiluvchi partiya deputatlari orasidan parlament tomonidan shakllantiriladi. Hukumat prezident oldida emas, balki parlament oldida mas’ul bo‘ladi. Bunday respublikalarning boshqa xususiyatlariga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

– oliv hokimiyat parlamentga tegishli bo‘ladi;

– prezident umumxalq tomonidan saylanmay, parlament tomonidan yoki parlament tashkil qiladigan maxsus kollegiya tomonidan saylanadigan davlatlarda prezident to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqdan, mandat olmay, vakolatni parlamentdan oladi. Bu ham parlamentning birlamchi hokimiyat organi ekani, legitimlik parlamentda bo‘lishidan dalolat beradi;

– hukumat faqat parlament yo‘li bilan shakllantiriladi, bunda hukumat boshlig‘i prezident emas, balki yetakchi partiya yoki partiyalar koalisiyasi yetakchisi bo‘ladi;

– parlament tomonidan hukumatga ishonchsizlik votumi bildiriliishi hukumat parlament ko‘pchiligi qo‘llab-quvvatlashidan mahrum bo‘lganligi hamda iste’foga chiqishi kerakligini anglatadi.

Parlementar respublikalar kuchli qonun chiqaruvchi hokimiyat va unga ijro etuvchi hokimiyatning bo‘ysunishi bilan tavsiflanadi. Qoida tariqasida, parlamentar davlatlarda prezident qonunlarga veto qo‘yish, referendum o‘tkazish, favqulodda holat joriy etish huquqlariga ega bo‘lmaydi. Ayrimlarida bunday huquqni prezident faqat hukumat taklif kiritgandagina tasdiqlab berishdan nariga o‘tolmaydi. Hozir Finlyandiya, Germaniya, Italiya, Vengriya, Hindiston kabi davlatlar parlamentar respublikalar hisoblanadi<sup>37</sup>.

Respublika boshqaruvining aralash shakli ham mavjud. Bu shakl ikki xil modelga ega. Birinchi tipga boshqaruvning shunday shakli kiradiki, unda parlament modeliga ko‘ra prezident sezilarli darajada muhim rol o‘ynaydi (hozirgi Fransiya Respublikasi). Bunday tizimlarda Prezident ochiq saylovlarda saylanadi, u hukumatni shakllantirish va asosiy lavozimlarga tayinlashda muhim ta’sir ko‘rsatadi. Hukumat prezidentga bo‘ysunibgina qolmay, parlament oldida hisob ham beradi, ba’zi hollarda u parlament bilan almashtirilishi ham mumkin. Konstitutsiyaviy boshqarish bilan bir qatorda partiya tizimlari tuzilmasi va parlamentdagi ko‘pchilikning haqiqiy munosabati muhim rol o‘ynaydi. Fransiya Prezidenti parlamentda ko‘pchilik ovozga ega bo‘lsagina, o‘z pozitsiyalarini mustahkam saqlab qolishi mumkin.

---

<sup>37</sup> Miroqilov M. Boshqaruv shakllari // <http://huquqburch.uz/uz/view/780>

Respublika boshqaruvinining ikkinchi aralash shakli Shveysariyada mavjud. Bu yerda parlament hukumatni saylasa-da, uni chaqirib olish huquqiga ega emas. O‘z navbatida, hukumatda parlamentga nisbatan qaror qabul qilish huquqi yo‘q. Hukumat lavozimi va deputatlik mandatini bir-biriga qo‘shib bo‘lmaydi. Hukumatni kollegial organ shakllantiradi, ayni paytda, prezidentlik tizimiga zid ravishda rasman qonun chiqarishda tashabbus ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Davlatni boshqarish shakllarining bir-biridan farqlanishiga qaramay, parlament va hukumatning mavjudligi har qanday tipdagi davlatlar (mutlaq monarxiya bundan mustasno) uchun umumiylis hisoblanadi.

Davlat tuzilish shakli - davlatning ma’muriy-hududiy tuzilishi, uning bo‘laklari, markaziy organlari, bu organlarning joylardagi mahalliy organlari bilan o‘zaro aloqalarining xususiyatlardan iborat. Uning uchta shakli mavjud-unitar, federativ, konfederativ.

Unitar (fransuzcha - unitaire - yagona, degani) davlat oddiy va yaxlit davlatdir. Markaziy hokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazorating qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo‘linadi.

Unitar tizimda davlat tarkibiga kiruvchi qismlarga kuchli e’tibor va mustaqil avtonomiya berilmaydi. Boshqaruv poytaxtdan turib olib boriladi. Fransiyada departament, Xitoyda provinsiya, Shvetsiyada kounti, Yaponiyada prefektura deb nomlanuvchi tarkibiy qismlar markazdan mahalliy xususiyatlarga alohida urg‘u bermasdan turib boshqariladi.

#### *Unitar tizimning afzallik va kamchiliklari<sup>38</sup>:*

Unitar davlatlar juda oson tarzda o‘ta markazlashuvi mumkin va natijada mahalliy hokimiyat poytaxt ruxsatisiz hatto svetofor yoki avtobus bekatini ham o‘rnatishga qodir bo‘lmasisligi mumkin. Bu holat fuqarolarni mahalliy ishlarga aralashmaslik va siyosiy begonalashuviga olib keladi.

Yaponiya 1871-yildagi fransuz tizimidan olgan modeliga asosan, Yaponiyadagi 43 ta prefektura, 3 ta eng yirik shahrlar, shimoliy

<sup>38</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.— P.65.

qismdag'i kam sonli aholi yashovchi orolning barchasida saylanuvchi gubernator va bir palatali parlament mavjud. Ammo ularning faoliyati Tokiodagi ichki ishlar vazirligi tomonidan nazorat qilinishi va cheklanishi, hududiy birlklarga o'zлari uchun zarur soliqlarning 30 foiz qismigina ular tomonidan yig'ilishiga rmxsat berilganligi sababli avtonomiya yetarli hokimiyatga ega emas va ularni yuqoridagi sababga ko'ra 30 foiz avtonomiya ham deyishadi. Bu esa ayrim prefektura gubernatorlarining ko'proq avtonomiya talab qilishiga olib kelmoqda.

Ammo markazlashgan hokimiyat zamonaviy muammolarga to'qnash kelganda afzalliklarga ega. Unitar tizimda poytaxt iqtisodiy resurslarni safarbar etishi va rejalashtirish va rivojlanishni muvofiqlashtirishi mumkin. Butun davlat bo'ylab bir xilda soliqlar o'rnatilishi, firma va ishchi kuchining AQSHdagi kabi kam soliq to'lanuvchi boshqa hududga ko'chib yurishiga majbur qilmaydi. Ta'lim standartlari ham Yaponiyadagi kabi barcha hududlarda bir xil va yuqori darajada bo'ladi.

Federativ (lotincha - feodus - ittifoq degani) davlat bo'lib, uning subyektlari davlat mustaqilligiga ega bo'ladi. Federatsiyalarning ikki turi – ittifoq va avtonomiya mavjud. Federalizmdagi davlatning tarkibiy qismlariga AQSH va Braziliyada shtatlar, Germaniyada Landtag, Shveysariyada kantonlar misol bo'la oladi. Ular siyosiy o'ringa ega va markaziy hokimiyat osonlik bilan ularni bekor qila olmaydi yoki o'zgartira olmaydi.

#### *Federal tizimning afzallik va kamchiliklari<sup>39</sup>*

Fuqarolar mahalliy boshqaruvga yaqin va ular mahalliy rasmiyalar va ularning qarorlariga ta'sir eta oladilar. AQSHda shtatlarni yangi dasturlarni sinab ko'rish mumkinligi bois "demokratiya laboratoriylari" deya nomlashadi. Chunki muvaffaqiyatli yakunlangan dastur davlat miqyosida tatbiq etiladi. Agar muvafaqqiyatsiz chiqsa, uncha zarari katta bo'lmaydi.

Kamchiligi mahalliy hokimiyatda qator muammolar ko'zga tashlanadi, ya'ni moliyaviy resurslarning yetishmasligi, rasmiyalarning

---

<sup>39</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.– P.66.

nomunosib va korrupsiyaga moyilligi. Mahalliy hokimiyat qarorlari esa mazkur salbiy omillar asosida xizmat ko'rsatishning turg'un holatga keltirishi va ularni yetarlicha nazorat qilolmaslikka olib keli-shi mumkin.

Konfederativ – davlatning muayyan ittifoqi bo'lib, iqtisodiy, si-yosiy, harbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida tuziladi. Ularda yagona hokimiyat va qo'onunchilik organi mavjud bo'lmaydi. Senegambiya (Senegal+Gambiya, 1982–1989-yy.), Afrika Davlat-lari Ittifoqi (Mali+Gana+Gvineya, 1960–196-yy.). Birlashgan Arab Respublikasi (Misr+Suriya, 1958–1961-yy.), Arab Federatsiyasi (Iraq+Iordaniya, 1958 yy.) , Arab Islom Respublikasi (Liviya+Tunis, 1974-yy.).

### **Davlat (hududiy) tuzilishi shakli**

	<b>Oddiy</b>	<b>Murakkab</b>	
<b>Mezonlar</b>	<b>Unitar davlat</b>	<b>Federativ davlat</b>	<b>Konfederativ davlat</b>
Konstitutsiya	Yagona	umumiy konstitutsiya asosida davlatning konstitutsiyasi bo'lishi	umumiy konstitutsiyasi yo'q, ammo bo'lishi ham mumkin
Hokimiyat oliv muassasalari	Yagona	ikki palatali parlament	hokimiyat muassasalarining vakolatlari eng ko'p darajada
Fuqaroligi	Yagona	yagona va ikki fuqarolilik	fuqaroligi bo'lmaydi
Huquq tizimi	Yagona	yagona. alohida huquq tizimiga ega bo'lishi mumkin	ittifoq shartnomasi
Sudlov tizimi	Yagona	yagona va ikki tizimli	yagona sudlov tizimi yo'q
Hududi	Yagona	yagona. Chegarani qo'riqlash yagonadir.	yagona hududi bo'lmaydi

Valutasi	Yagona	Yagona	yagona valutasi bo‘lishi va bo‘lmasligi ham mumkin.
----------	--------	--------	---

Manba: Farmanov R.F., To‘laganova N.O., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N. Zamonaliviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.–T., 2006.).

Siyosiy idora usuli (siyosiy rejim)–davlatning alohida shakli uchun xos bo‘lgan siyosiy munosabatlар, hokimiyat organлari tomonidan qo‘llaniladigan usul va vositalar, davlat hokimiyati va jamiyatning qaror topgan munosabatlari, maskuraning hukmron shakllari, ijtimoiy va sinfiy o‘zaro munosabatlар, siyosiy madaniyat va tafakkur turlari-ning majmui.

Siyosiy rejim uchgа bo‘linadi:

1. Demokratik rejim.
2. Totalitar rejim.
3. Avtoritar rejim.

### Siyosiy rejimlarning turlari va ular o‘rtasidagi tafovutlar

Nº	Mezonlar	Demokratik rejim	Totalitar rejim	Avtoritar rejim
1.	<b>Qonunchilik</b>	Qonunlarning rivojlangan tizimi	Qonunlar tizimi juda oz	Qonunlar tizimi juda kam ishlab chiqilgan
2.	<b>Huquq va erkinliklar</b>	Qonun bilan taqiqlanmagan barcha narsalarga ruxsat etilgan	Hokimiyat tomonidan belgilangan narsalar-gagina ruxsat berilgan	Siyosatga aloqasi bo‘lmagan narsalargagina ruxsat berilgan
3.	<b>Davlat rahbarining va kolatlari</b>	Qonun bilan qat’iy cheklangan	Amalda cheklanmagan	Aslida cheklanmagan

<b>4.</b>	<b>Hokimiyatarning bo‘linish prinsipi</b>	Amalga oshirilgan	Rad qilinadi	Yuzaki e’tirof etiladi.
<b>5.</b>	<b>Hokimiyatning vakillik organlari</b>	Keng doiradagi vakolatlarga ega	Qo‘g‘irchoq maqomida yoki mavjud emas	Qo‘g‘irchoq maqomida
<b>6.</b>	<b>Hokimiyatning mahalliy organlari vakolatlari</b>	Eng yuqori darajada	Eng kam darajada	Nomigagina keng
<b>7.</b>	<b>Partiyalar</b>	Ko‘ppartiya-viylik	Hukmron partiya davlat partiyasi hisoblanadi	Ommaviy siyosiy yagona partiya
<b>8.</b>	<b>Mafkura</b>	Siyosiy plyuralizm (hurfiylik)	Yagona mafkura hukmronligi	Rasmiy yagona mafkura
<b>9.</b>	<b>Huquq-tartibot organlari</b>	Qonun bilan qat’iy chegaralangan	Ommaviy siyosiy qatag‘onlarni amalga oshiradi.	Yashirin siyosiy qidiruv amalga os-hiriladi
<b>10</b>	<b>Muxolifat</b>	Oshkora faoliyat ko‘rsatadi	Taqiqlangan	Inkor qilinadi

Manba: Farmanov R.F., To‘laganova N.O., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhamadiyev U.N. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.—T., 2006.)

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Davlatga xos umumiy belgilar deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatning vujudga kelishi haqidagi nazariyalar borasida qanday fikrdasiz?
3. Davlat funksiyalari borasida qanday fikr bildira olasiz?
4. Davlat shakllari deganda nimani tushunasiz?
5. Monarxiyaga xos xususiyatlarni sanab o‘ting.

6. Prezidentlik va parlamentar respublikalar o‘rtasidagi asosiy farqlarni sanab o‘ting.
7. Konfederatsiya xos belgilarni izohlab bering?
8. Unitar va federativ davlat o‘rtasidagi farqlarni sanab o‘ting.

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. “O‘zbekiston - huquqiy demokratik davlat” nomli doklad tayyorlab kelish.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –T.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев К.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар груҳи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма.–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.

11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидағи Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории./ История и современность, 2006, № 1: 3–45.
5. Морозова Л. А. Теория государства и права. Учебник. 2002, 414 с.
6. Гайворонская Я. В., Самусенко Т. М. Теория государства и права. Издательство ДВГУ 2000.
7. Мелехин А. В. Теория государства и права: учеб. / А. В. Мелехин. - М. : Маркет ДС, 2007, 154 с.
8. Морозова, Л. А. Теория государства и права – М.: Изд. Эксмо, - 2009.
9. Blum, William. Rogue state: a guide to the world's only super-power. Zed Books.–NY, 2006.
10. Словарь терминов и понятий по обществознанию. Автор-составитель А.М. Лопухов. 7-е изд. переб. и доп. -М., 2013, 290–291 с.
11. Мироқилов М. Бошқарув шакллари // <http://huquqburch.uz/uz/view/780>
12. Text of President Bush's 2002 State of the Union Address // <https://www.washingtonpost.com/wp-srv/onpolitics/transcripts/sou012902.htm> - Jan. 29, 2002

13. Minnerop Petra. The Classification of States and the Creation of Status within International Community // [http://www.mpil.de/files/pdf3/-mpunyb\\_minnerop\\_7.pdf](http://www.mpil.de/files/pdf3/-mpunyb_minnerop_7.pdf)
14. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, T.: Universitet, 2003.
15. Oblomuradov N., Ko‘chimov N. Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O‘quv qo‘llanma –T.: Soliq akademiyasi, 2008.
16. Макиавелли Н. Ҳукмдор / Зохир Аълам таржимаси // Жаҳон адабиёти. -2002. -№9.–Б.105–148
17. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк).–Т.: Янги аср авлоди, 2015, 312 б.
18. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри.–Т.: Янги аср авлоди, 2016, 320 б.
19. Платон. Государство /пер.с др.В.Н.Карпова.–СПб.:Азбука, 2017, 352 с.
20. Платон. Государства и политика / пер.введ и comment. В.Н.Карпова.–М.:ACT, 2017, 469 с.
21. Аристотель. Политика / пер. с древнегреч. С.А.Жебелева.–М. ACT, 2017, 384 с.
22. Макиавелли Н. Государь.–М.: Издательство «Э», 2016, 640 с.
23. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
24. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
25. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. –М., 2000.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **7-mavzu. SIYOSIY PARTIYALAR VA MANFAATDOR GURUHLAR**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy partiyalar va manfaatdor guruhlar haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'om ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Siyosiy partiya, partiyaning asosiy maqsadi, siyosiy partiyalarning asosiy belgilari, M.Veber, siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalari, siyosiy rekrutlash, kadrlar partiyalari, ommaviy partiyalar, partiyaviy tizim, bir partiyaviy tizimlar, ikki partiyaviy tizimlar, ko'ppartiyaviy tizim, manfaatdor guruh, lobbizm.*

### **Asosiy savol:**

1. Siyosiy partiya tushunchasi, tarixi va funksiyalari.
2. Siyosiy partiyalar tasnifi va partiyaviy tizim.
3. Manfaatdor guruhlar va uning siyosatdagi ishtiroki.

### **1. Siyosiy partiya tushunchasi, tarixi va funksiyalari**

Demokratik jamiyatlarning muhim belgilaridan biri siyosiy partiyalarning jamiyat hayotida muhim o'rinn tutishi bilan belgilanadi. AQSHli tadqiqotchi Elmer Erik Shattshnayder (1892–1971yy.) ta'kidlaganidek, "Siyosiy partiyalarning o'sishi – bu zamonaviy hukumatlarning muhim ajralib turuvchi xususiyatlaridan biridir. Siyosiy partiyalar demokratiyani yaratadi. Zamonaviy demokratiya partiya nuqtayi nazaridan eng xavfsizdir"<sup>40</sup>.

---

<sup>40</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. –P.195

«Partiya» so‘zi lotincha «partio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «ish», «qism» degan ma’nolarni anglatadi.

Siyosiy partiyaga nisbatan bir qancha ta’riflarni ilmiy adabiyotlarda uchratish mumkin:

Siyosiy partiya – aholining, sinfning, ijtimoiy qatlam yoki qatlamlarning bir qismi.

Siyosiy partiya – fuqarolarning eng faol, mafkuraviy mushtaraklik bilan bog‘langan, davlatda hokimiyatni qo‘lga olishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi.

Siyosiy partiya – rasmiy va tashkiliy tizimiga ega huquqiy maqomga ega bo‘lgan va saylov jarayonlarida ishtirok etadigan nodavlat institut turi va guruhiy birlashmadir.

Partiyalar haqidagi ilk tasavvurlar J.J.Russo, Sh.Monteske, E.Berk va boshqa mutafakkirlar hamda siyosiy arboblarning nomlari bilan bog‘liq. Siyosiy partiyalar muammosi M.Veber, G.Moska, V.Pareto kabi XX asr boshlariga mansub mashhur G‘arb sotsiologlarining asarlarida ham katta o‘rin egallaydi. Lekin partiyaning vujudga kelish tarixi katta tarixiy davrni o‘z ichiga qamrab oladi.

Qadimgi rimliklarga qadar qadimgi Yunonistonda “partiya”ning ilk ko‘rinishlari mayjud bo‘lgan. “Partiyalar” hozirgi tushunchasidan tamoman farq qilgan holda muayyan bir hudud yoki mintaqadagi aholi guruhlari manfaatlarini ifodalagan. Qadimgi yunon faylasufi Arastu miloddan avvalgi VI asrda Attikadagi dengiz qirg‘oqbo‘yi va tog‘da yashovchi aholining “partiyalari” o‘rtasidagi kurashni yozib qoldirgan. Qadimgi Afinada mavjud bo‘lgan geteriylar kabi ba’zi guruhlarni ham o‘z davrining “partiyalari” deb atash mumkin. Keyinchalik qadimgi Rimda ma’lum bir shaxslar yoki konsepsiya(g‘oya)-lar atrofida aholining muayyan bir qismi–partiyalar to‘plana boshlagan. Boshqacha aytganda, zamonaviy partiya mohiyatining ilk negizlari shakllangan. Masalan, aka-uka Grakxlar partiyasi muayyan bir siyosat, ya’ni yer islohotlari o‘tkazilishi tarafдорлари va talabgorlarini o‘z atrofida to‘plagan.

Qadimgi davrda “partiyaviy” guruhlarning belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan hamda nisbatan mukammalroq uyushmalarning

mavjud bo‘lishi o‘rta asrlarga kelib ham davom etadi. Fransiyadagi ilk parlament (General Shtatlar)ni shakllantirishda ishtirok etgan aholi tabaqalari, shuningdek, Angliyadagi “Oq atirgullar” va “Qizil atirgullar” guruhlari, Yorklar va Lankasterlarni bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin. XVII-XVIII asrlarda esa burjua inqiloblari oralig‘idagi “partiyalar” diniy, tabaqaviy, urug‘-oilaviy birlashmalar ta’siri ostida bo‘lganlar, siyosiy uyushmalar sifatida mustaqil siyosat olib bormaganlar<sup>41</sup>.

XVIII asr oxirida Yevropadagi burjua inqiloblarining g‘alaba qozonishi hamda inson huquqlari va erkinlarining tantana qilishi asosiy turtki bo‘lgan deb xulosa qilish mumkin. 1789-yildagi Inson va fuqarolarning huquqlari to‘g‘risidagi Fransuz deklaratsiyasida, shuningdek, 1776-yildagi AQSH Mustaqillik deklaratsiyasida siyosiy partiyalar haqida hech qanday ishora bo‘lmasa-da, fuqarolarning bir qancha shaxsiy, siyosiy huquq va erkinliklari mustahkamlab qo‘yilgan. Bunday demokratik huquqiy hujjalarning qabul qilinishi natijasida jamiyatda muhim siyosiy o‘zgarishlar avj oladi hamda ijtimoiy hayotda yangi siyosiy institutlar (xususan, siyosiy partiyalar)ning tom ma’noda shakllanishi ana shu siyosiy o‘zgarishlarning xarakteri bilan bog‘liq holda kechadi. Yanada aniqroq qilib aytganda, saylab qo‘yiladigan vakillar orqali amalga oshiriladigan xalq hokimiyatchiligi tizimining vujudga kelishi o‘z-o‘zidan hokimiyat uchun demokratik kurashlarda aholi maqsad va manfaatlarini ifodalovchi siyosiy partiyalarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Shunday ekan olim M.Veber siyosiy partiyalarning shakllanish tarixi-ni uchta bosqichini ajratib ko‘rsatgan: 1.zodagonlarning siyosiy to‘garagi, 2. siyosiy klub. 3.ommaviy partiyalar. Masalan, Angliyada Torilar to‘garagi undan keyin esa 1831-yilda tuzilgan «Charlton klab» u o‘z navbatida konservatorlar partiyasiga aylandi; Viglar to‘garagi, undan so‘ng 1836-yilda tuzilgan «Reform klab» klubi keyin esa liberal partiyaga asos bo‘ldi.

---

<sup>41</sup> O‘runov O. Siyosiy partiyalar tarix silsilasida // <http://huquqburch.uz/uz/view/925>

Biroq hamma partiyalar ham o‘z tarixlarida mazkur uch bosqichni bosib o‘tmaganlar. Odatda, ko‘pincha siyosiy klub yoki ijtimoiy-siyosiy harakatlardan siyosiy partiyalar kelib chiqqan. Zamonaviy siyosiy partiyalar esa birdaniga ommaviy partiya sifatida shakllanmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmiga jamiyatni katta qismini qamrab oluvchi siyosiy partiyalar shakllandi. Birinchi ommaviy siyosiy partiyaga 1861-yilda Angliyada asos solingan. U “Saylovlarni qayd etish bo‘yicha liberal shirkat” deb atalgan. U “Angliya Liberal partiyasi” deb ham atalib, Yevropadagi birinchi ommaviy partiya sifatida tarix sahifalaridan o‘rin olgan. 1863-yilda Ferdinand Lassal Germaniyada «Ishchilarning umumgerman ittifoqi» deb atalgan birinchi ommaviy ishchilar partiyasini tuzgan.

Proletariatning dastlabki siyosiy tashkilotlaridan biri – bu K.Marks va F.Engels tomonidan 1847-yilda Londonda tuzilgan «Kommunistlar ittifoqi» hisoblanadi.

Shunday qilib, partiyalar vujudga kelishining juda ko‘p yo‘llari mavjud. Partiyalar paydo bo‘lishining ikki asosiy sababini ko‘rsatish mumkin:

- siyosatda ishtirok etish sohasini ancha kengaytirgan umumiylar saylov huquqining joriy etilishi; Quyidagi dalillarga e’tibor beraylik: Angliyada 1830-yilda saylov huquqidan 200 ming, 1832-yilda 600 ming, 1883-yilga kelib esa 9 million fuqaro foydalanadigan bo‘ldi.

- ishchilar sinfining tashkiliy jihatdan rivojlanishi. Buning ta’siri ikki yoqlama namoyon bo‘ldi: bir tomondan, uyushayotgan proletariat parlamentda va undan tashqarida uning manfaatlarini himoya qiluvchi ko‘plab ommaviy partiyalarni yaratdi. Masalan, XX asrda Xitoy kommunistik partiyasi eng ko‘p a’zolari bo‘lgan ommaviy siyosiy partiyaga aylandi. Ikkinchi tomondan esa, raqobat taqozosi bilan an’anaviy siyosiy guruhlarning son jihatdan o‘sib borayotgan proletar partiyalariga o‘zlarining tegishli tarzda transformatsiya qilin-gan tashkiliy tuzilmalarini qarshi qo‘yish zarurati paydo bo‘ldi.

Boshqacha aytganda, ishchilar partiyasiga qarshi turish uchun sarmoyadorlar o‘z partiyalarini tuza boshladilar.

Demak, bugungi kunda siyosiy partiyalar–jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyondalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok etish orqali o‘z manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot. Yoki boshqacha izohlaganda, siyosiy partiyalar–qarash va maqsadlari bir bo‘lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolar ning siyosiy maqsadlarini ko‘zlab tuzgan birlashmalari – tashkilotidir.

Amerikalik siyosatshunos olim D. La. Palombara siyosiy partiyaning universal ta’rifini ifodalashga intilib partiyani shakllantiruvchi to‘rtta muhim jihatni asoslagan edi:

- har qanday partiya muayyan mafkuraning, dunyoqarashning ifodachisidir;
- partiya–odamlarning nisbatan ancha uzoq vaqtga mo‘ljallangan institutsionallashgan birlashmasi–tashkilotidir;
- siyosiy partiyaning maqsadi siyosiy hokimiyatni egallah va amalga oshirishdir;
- har bir partiya o‘zining xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga erishishga intiladi.

Umuman olganda, hozirda siyosiy partiyalarning shakllanishi uch yo‘l orqali amalga oshiriladi:

1. «Yuqoridan» shakllanish yo‘li – bu parlament guruhlari, siyosiy elita, partiya byurokratlari faoliyatlari asosida amalga oshirilishi mumkin.

2. «Quyidan» shakllanish – bu ijtimoiy harakatlar, yoki aniq mafkura, yetakchi tarafdarlarining birlashuvlari asosida bo‘lishi mumkin.

3. Partiya shakkllanishining «aralash» usuli – bu elitar guruhlar va oddiy fuqarolarning birqalikdagi harakatlari asosida ro‘yobga chiqadi.

Bugungi kunda siyosiy partiyalarning jahon ijtimoiy-siyosiy tizimidan mustahkam o‘rin olishida ularning institutsionallashuvi muhim bosqich hisoblanadi. Siyosiy partiyalarning institutsionallashuvi – siyosiy partiyalarning fuqarolarning odatdagi uyushmalari dan to‘liq konstitutsiyaviy-huquqiy institutga aylanishi jarayonidir. Partiyalarning institutsionallashuvi jarayoni ikkita o‘zaro bog‘liq yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- Konstitutsiya asosida siyosiy partiyalar huquqiy holatini umumiy tarzda belgilash;
- qonunlarda partiyalarning faoliyat ko'rsatish mexanizmini mustahkamlash.

Ko'pchilik mamlakatlarda esa siyosiy partiyalarga doir alohida qonunlar ham qabul qilingan. GFR (1967-yil), Portugaliya (1975-yil), Ispaniya (1978-yil), - 1981-yil qaytdan to'ldirildi. O'zbekiston (1996, 2004, 2007-yil). Shvetsiya (1956-yil), Finlandiya (1969), AQSH (1917-yil) kabi mamlakatlarda siyosiy partiyalarni moliyalashtirishga doir maxsus qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tashkiloti sifatida o'z tuzilmasiga ega bo'lib, quyidagi asosiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) rahbarlik rolini boshqaruvchi oliy yo'lboshchi va shtab;
- b) rahbarlik qiluvchi guruhning buyruqlarini bajaruvchi barqaror byurokratik apparat;
- d) byurokratiya tarkibiga kirgani holda partiya hayotida ishtirok etuvchi faol partiya a'zolari;
- e) partiyaga ergashuvchi, lekin uning faoliyatida juda kam ishtirok etuvchi passiv a'zolar. Ular qatoriga partiyaga xayrixoh bo'lganlarni va pul-mablag' bilan yordam ko'rsatuvchilarni ham qo'shish mumkin.

Demokratik partiyalarning 3 ta muhim belgisi bor:

1. markazlashganlik darajasi;
2. partiyaning siyosatda ishtirok etish darajasi;
3. partiyalar o'zlarini moddiy ta'minlashi ta'minlash darajasi.

Siyosiy partiyalar ahamiyati bevosita ular bajaradigan funksiyalari bilan belgilanadi. Ushbu funksiyalar xilma-xil bo'lib, turli manbalar-da turlichayoritilgan<sup>42</sup>:

➤ aholi va hukumat o'rtaida ko'priq vazifasini bajaradi. Fuqarolar uchun siyosiy partiyalar xalq talab va istaklarini hukumatga yetkazuvchi muhim vosita hisoblanadi;

---

<sup>42</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.196–97

- manfaatlarni agregatsiyalash;
- fuqarolarni siyosiy tizimga integrasiyalash;
- siyosiy ijtimoiylashtirish;
- saylovchilarni saylovlarga jalg etish (mobilizatsiyalash);
- hukumatni tuzishda ishtirot etish.

Siyosiy partiyalar funksiyalarini yo‘nalishlarga ajratgan holda quyidagicha tushuntirish mumkin:

1. Nazariy: Jamiyat istiqbolini tahlil etish va nazariy jihatdan baholash, turli ijtimoiy guruqlar manfaatlarini aniqlash, jamiyatni yangilash strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish.

2. G‘oyaviy: Ommanning dunyoqarashini, axloqiy qadriyatlarini ximoya qilish, o‘zlarining dasturiy maqsadlari va siyosatini tashviq qilish, fuqarolarni o‘z partiyasi saflariga jalg etish.

3. Siyosiy: Hokimiyat uchun kurash, davlatning ichki va tashqi siyosiy yo‘lini ishlab chiqish va amalga oshirish; muqobil takliflarni tayyorlash, saylovoldi dasturini bajarish.

4. Tashkiliy: Dasturiy ko‘rsatma va qarorlarni amalga oshirish, saylov yo‘lini ishlab chiqish va amalga oshirish; saylov kompaniya-sini o‘tkazish; saylanadigan lavozimlar uchun nomzodlarni tanlash; hukmron elita uchun kadrlarni tayyorlash.

Aytish mumkinki, partiyaning tashkilotchilik funksiyasi muayyan kadrlar siyosatida, ya’ni partiyaning o‘zida, boshqa davlat va jamoat tashkilotlarida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishdan iborat faoliyatda o‘z ifodasini topadi. Partiyalarning tashkilotchilik bo‘rasidagi ushbu kichik funksiyasini siyosatshunoslar **siyosiy rekrutlash** – siyosiy rahbar kadrlarni tanlash funksiyasi deb ataydilar. O‘zining siyosiy kadrlari orqali partiya davlat apparatida va boshqa tashkilotlarda o‘z siyosatini o‘tkazadi, siyosiy tizimning boshqa institutlariga o‘za’sirini yoyadi.

## **2. Siyosiy partiyalar tasnifi va partiyaviy tizim**

Siyosiy partiyalar muayyan umumiy belgilarga egadir. Bu hol ularni turli asoslarda tasniflashga imkon beradi. Partiyalar tipologiyasi:

yasiga ularning sinfiy tabiatи, kelib chiqishi, ichki tuzilipsh, a'zolik munosabatlarining o'ziga xosliklari, siyosiy maqsadlari va boshqa mezonlar asos qilib olinishi mumkin.

Siyosiy partiyalarni tasniflashtirish birinchi marta XX asr o'rtalarida fransuz siyosatshunosi Moris Dyuverje tomonidan ishlab chiqildi. Unga binoan partiyalar ikki tipga bo'linadi:

1. Kadrlar partiyasi.
2. Ommaviy partiya.

Kadrlar partiyalari (cadre parties) XIX asr o'rtasida evolutsiya jarayonida elektoral qo'mitalar va parlament guruhlaridan paydo bo'lgan. Ular nisbatan kam sonli ekanliklari, a'zolikning erkinligi bilan ajralib turadi va, eng avvalo, professional siyosatchilarga hamda partiyani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan moliya elitasiga suyanadi. Ushbu partiyalar elektoral funksiyalarga yo'naltirilgan. Ularda parlament a'zolari ustunlik qiladi. Ular, odatda, liberal va konservativ partiyalardan iborat. Kadrlar partiyalarida ularga kiruvchilarning soniga emas, sifatiga ahamiyat beriladi.

Ommaviy bilvosita partiyalar-keyinchalik M.Dyuverje o'z tizimiga o'zgartirishlar kiritib, ommaviy bilvosita partiyalar ham mavjudligini tan oldi. Masalan, Angliyada leyboristlar partiyasi a'zoligiga nomzod dastavval kasaba uyushmasiga a'zo bo'ladi, so'ngra o'z xohishi bilan avtomatik ravishda Britaniya leyboristlar partiyasi-BLP a'zo bo'lishi mumkin.

Ommaviy partiyalar (mass parties) a'zolar sonining ko'pligi va a'zolikning doimiyligi bilan ajralib turadi. Ular kadrlar partiyalaridan keyinroq, umumiylar saylov huquqining tarqalishi bilan bog'liq ravishda va ko'p jihatdan ishchilar harakatining to'lqinida paydo bo'lgan. Ommaviy partiyalar aniq-ravshan mafkuraviy yo'naltirilganligi, faoliyatning tarbiyaviy shakllaridan keng foydalanishi, a'zolar bilan turli partiya tuzilmalari o'rtasida qalin aloqaning mavjudligi bilan ajralib turadi. Ommaviy partiyalarga kommunistik, sotsial-demokratik, populistik va fashistik partiyalar kiradi.

Partiyalar tipologiyasiga hissa qo'shgan fransuz siyosatshunosи J.Blondel (1929-yil) ommaviy partiyalarni g'arb tipidagi ommaviy vakillik partiyalari, kommunistik va populistik turlarga bo'lган.

Bundan tashqari, partiyalarning bir qator tasniflarini ham kuzatish mumkin:


### Partiyalar tasnifi

<b>Nº</b>	<b>Tasniflash mezoni</b>	<b>Partiyalar turi</b>
<b>1.</b>	<b>Sinfiy tabiatiga ko'ra</b>	1) ishchi partiyalar: sotsial-demokratik, kommunistik; 2) burjua partiyalari: mayda burjua, milliy burjua, savdo-sudxo'r burjua partiyalari; 3) o'rta tabaqalar partiyalari: demokratik; 4) dehqonlar partiyalari; 5) sinflararo partiyalar: ishchi-dehqonlar, ziyorolar, millatchilik, diniy, traybolistik (qabilaviy) partiyalar.
<b>2.</b>	<b>Siyosiy faoliyat vositalariga ko'ra</b>	1) ko'proq parlamentda faoliyat ko'rsatuvchi partiyalar; 2) ko'proq parlamentdan tashqarida faoliyat ko'rsatuvchi partiyalar.
<b>3.</b>	<b>Mavjud ijtimoiy tuzumga munosabatiga ko'ra</b>	1) inqilobiy; 2) islohotchilik; 3) liberal; 4) konservativ.
<b>4.</b>	<b>Tashkiliy tuzilmasining tipiga ko'ra</b>	1) kadrlar partiyalari; 2) ommaviy partiyalar: qat'iy yoki moslashuvchan tarzda tashkil etilgan .
<b>5.</b>	<b>Jamiyatning siyosiy tizimidagi o'rni va roliga ko'ra</b>	1) hukmron partiya; 2) hukmron bo'lmağan partiya; 3) kam ta'sirga ega partiya; 4) «so'llar», 5) markazchilar, 6) "o'nglar"; 7) muxolifatdagi partiya.
<b>6.</b>	<b>Davlat tuzilishi shakliga munosabatiga ko'ra</b>	1) unitar; 2) federal; 3) ayirmachi (separatist) partiyalar.
<b>7.</b>	<b>Mafkurasiga ko'ra</b>	1) qattiq mafkuralashgan partiya; 2) pragmatik partiya.

*Manba: Farmanov R.F., To'laganova N.O.', Turdiyev M.T., Jo'rayev Q.A., Muhamadiyev U.N. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma.-T., 20*

Siyosiy partiyalarning jamiyatning siyosiy tizimida tutgan o‘rniga ko‘ra «so‘l», «markaz» va «o‘ng» partiyalarga bo‘linishi Buyuk Fransuz inqilobi davrida ro‘y berdi. 1789-yilda Fransiyada Ta’sis majlisи deputatlari majlisida zalda qiroл hokimiyatini tiklash taraf-dorlari o‘ngda, respublikachi-inqilobchilar esa majlis raisining chap tomonida o‘rin egalladilar. Shundan buyon «so‘l» qarash taraf dorlari aholining kambag‘al qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi qat’iyatl, inqilobiy, radikal kayfiyatli kuchlar hisoblanadi. Jamiyatning o‘ziga ancha tuq qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi reformistik, konser-vativ qarash va faoliyat taraf dorlari esa «o‘ng» kuchlar yoki «o‘ng partiyalar»ga kiritiladi. Masalan:

- kommunistik va sotsialistik partiyalar - «so‘l» partiyalar;
- sotsial-demokratik partiyalar - «so‘l-markaz» partiyalar;
- dehqonlar, mayda burjua, ekologik partiyalar - «markaz» partiyalar;
- o‘rta burjuaziya va milliy burjuaziyaning partiyalari - «o‘ng-markaz» partiyalar;
- konservativ partiyalar esa - «o‘ng» partiyalar hisoblanadi. Shuningdek millatchi, fashistik, ekstremistik partiya va tashkilotlar «ultra o‘ng» partiyalarga mansubdirlar.



Partiyaviy tizim. Siyosiy partiyalar har bir davlatda o‘zlarining soni, jamiyatdagi o‘rni, faolligi darajasiga ko‘ra turlicha ko‘rinishlarga ega. Pariyaviy tizim – siyosiy partiyalarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlar tizmidir. Boshqacha aytganda, partiyaviy tizim - mamlakatda mavjud bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatayotgan barcha siyosiy partiyalar majmui.

Partiyaviy tizimlarni tavsiflashda quyidagi mezonlarga alohida ahamiyat berish zamонавиy siyosatshunoslik fanida muhim o‘rinni egallaydi:

- jamiyatda samarali partiyalarning mavjudligi;
- yetakchilik qiluvchi siyosiy partyaning yoki koalitsiyaning mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- partiyalar o‘rtasida raqobat muhitining darajasi.

Jahon miqyosida ro‘y bergan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonida – a) bir partiyaviylik, b) ikki partiyaviylik, d) uch partiyaviylik, e) to‘rt partiyaviylik va f) ko‘ppartiyaviylik tizimlar shakllangan.

Bir partiyaviy tizimlar asosan totalitar siyosiy tartibotlarga xos bo‘lib, unda siyosiy partiya bilan davlat o‘rtasida amalda hech qanday chegara qolmagan. Buni sobiq Ittifoq davridagi KPSS, KXDRda “Koreya mehnat partiyasi”ni misol sifatida keltirish mumkin.

Ikki partiyaviy tizim siyosiy konsepsiyalari nisbatan yaqin bo‘lgan ikki siyosiy partyaning yetakchi faoliyati asosida shakllanadi. Bunga AQSHdagi demkoratlar va respublikachilar partiyalarini keltirish mumkin.

Odatda, ikki partiyadan ortiq partiyaviy tizim ko‘p partiyaviy deb nomlanadi. Ularni “uch”, “to‘rt” va “ko‘ppartiyaviy” tizimga ajratish nisbatan nisbiy xarakterga ega.

Uch partiyaviylik tizimi yetarli darajadagi ta’sir kuchiga ega bo‘lgan uch siyosiy partyaning faoliyati natijasida vujudga keladi.

To‘rt partiyaviylik tizimi, asosan, jamiyat g‘oyaviy jihatdan “so‘llar” va “o‘nglar”ga bo‘lingan mamlakatlarda qaror topgan. Masalan, Fransiyada kommunistlar va sotsialistlar “so‘llar” vakillari bo‘lsalar, demokratlar va respublikachilar “o‘nglar”ning vakillaridir.

Ko‘ppartiyaviylik esa, siyosiy tizimlarning uzoq davom etgan taraqqiyoti natijasidir.

Dominatsiya tizimi (Hukmron partiyaviy tizim) deb ataluvchi tizim ham mavjud. Bu tizimga davlatning siyosiy hayotida alohida o‘rin tutuvchi partiyaning uzluksiz, uzoq muddat davomida hokimiyatni amalga oshirishi xosdir. Yakka partiyaviy tizim bilan solishtirganda dominant partiyaviy tizimda raqib partiyalar bahslashadilar va kamdan-kam yutadilar. Ba’zi demokratik xalqlarda dominant partiyaviy tizim bor edi, ammo ular uzoqqa bormadi. Chunki yetakchi partiyaning poraxo‘rligi va no‘noqligidan saylovchilarning ixlosi qaytgan. Hindiston bir necha yillar davomida Milliy Kongress partiyasi, Yaponiya Liberal demokratlari va Meksika esa Intsitsional Inqilobiy Partiya tomonidan boshqarildi. 2000-yilda Meksikaning konservativ Milliy Harakat partiyasi Institutsional Inqilob partiyasi ustidan g‘alaba qozondi va prezidentlik sayloviga chek qo‘ydi, bu bilan Meksika Yetakchi partiyaviy tizimdan ko‘ppartiyaviylik tizimiga qadam qo‘ydi va nihoyat 2009-yilda Yaponiya Demokratik partiyasi Liberal demokratik partiyasini chetlatdi.

“Ikki–plyus” partiyaviy tizimlar. Hozirda ko‘p demokratik mammalatlarda ikkita katta partiyalar bilan birga bir yoki bir nechta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mayda partiyalar bor. Germaniya Xristian Demokratlar va Sotsial Demokratlar kabi katta partiyalarga ega, biroq Ozod Demokratlar, Yashil va So‘l partiyalar ham o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun yetarlicha ovozga ega bo‘la oladilar. Britaniyada Leyboristlar va Konservatorlar mavjud ikki partiyaviy tizim bo‘lsada, liberal demokratik partyaning ham o‘ziga xos nufuzi mavjud<sup>43</sup>.

O‘zgaruvchan partiyaviy tizimlar (fluid party system). Ilmiy adabiyotlarda mazkur nomdag‘i partiyaviy tizim ham mavjud bo‘lib, u jamiyatda partiyaviy tizim beqaror bo‘lgan holatdagi tizimlarga qo‘llaniladi. Bu yerda partiyaviy tizimlar tez-tez o‘zgaradi: inqilob, yangilanish, manfaatlar o‘zgarishi natijasida. Muayyan partiyaviy tizimga nisbatan uzoq vaqt amal qilish holati kuzatilmaydi.

---

<sup>43</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.206

### **3. Manfaatdor guruhlar va uning siyosatdagi ishtiroki**

Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jarayonda siyosiy partiyalardan tashqari hukumatga ma'lum darajada ta'sir o'tkazishga qodir tuzilmalar ham shakllangan. Ularni ilmiy adabiyotlarda “manfaatdor guruh” (“interest group”, gruppа interesov), “lobbi” kabi tushunchalar bilan ta'riflanadi.

Manfaatdor guruh – bu hukumatga ta'sir o'tkazishga harakat qiluvchi odamlarning bir jamoasidir. Ba'zi manfaatdor guruhlar o'tkinchi bo'ladi, boshqalari esa abadiydir. Ba'zilari muntazam siyosat yuritadilar boshqalari esa keng tarzda o'zgartirib borishadi. Ba'zilar ijroya va boshqaruv organlari orqali faoliyat yuritadi, boshqalari sud va qonunchilik organlari orqali faoliyat ko'rsatadi. Ammo hammasi davlat siyosati bilan birgalikda xususiy manfaatlarni targ'ib qilishga harakat qiluvchi ro'yxatga olinmagan tashkilotlardir.

Har bir jamiyat plyuralistik hisoblanib, u yerda iqtisodiy, madaniy, harbiy, diniy, etnik guruhlar faoliyat yuritadi. Ularning har biri o'zining manfaati uchun hukumatga ta'sir o'tkazishga urinadi va ma'lum ma'noda manfaatdor guruhlarga aylanishadi.

Siyosiy partiyalar va manfaatdor guruhlar o'rtasidagi farqlar<sup>44</sup>:

**1. Maqsadga ko'ra.** Siyosiy partiyalar hokimiyatga saylov orqali erishishga intilishadi. Manfaatdor guruhlar esa hukumat tuzulmalardan maxsus dasturlar va muammolarga e'tibor qaratishadi. Ular qonunchilik va ijro organlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishadi. Ular o'z manfaatlari uchun barcha partiyalarni ham moddiy ham ma'naviy qo'llab-quvvatlashi mumkin.

**2. A'zolik tabiatiga ko'ra.** Siyosiy partiyalar salovlarda g'alabalaga erishish uchun keng aholi qo'llab-quvvatlashishiga erishishga intilishadi. Ular ommaviy bo'lib, keng a'zolikka asoslangan. Manfaatdor guruhlar aksincha tor doiradagi guruh.

Manfaatdor guruhlar o'zi uchun foyda va ustunliklarga egalik qilishni maqsad qilib oladi, ya'ni turli xil ijtimoiy manbalar ustidan

---

<sup>44</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.180

nazoratni qo‘lga olish va davlat (siyosiy) qarorlarini qabul qilish va ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish huquqi uchun doimiy raqobat va kurash holatida bo‘lmoqdalar. Siyosatni amalga oshirishda eng qiyin shu bilan birga muhim muammolardan biri – bu butun bir jamiyat manfaatlari va ayrim guruuhlar manfaatlari muvofiqlashtirish hisoblanadi. Bu qarordan jamiyat va siyosiy tizim barqarorligi va mustahkamligi, hukumatning qonuniyligi va samaradorligi, ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalarning rivojlanish dinamikasi ushbu muammoning hal etilishiga bog‘liq.

Davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishiga manfaatdor guruuhlarining ta’sir etish uslublari va ko‘rinishlarini tadqiq etishda siyosiy sotsiologiya bir qancha nazariy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Masalan: guruh manfaatlari nazariyasi *lobbizm* va *korporativizmlar*.

Sotsiologik konsepsiyalar taraqqiyotining zamonaviy bosqichi XX asr boshlarida A.Bentli va V.Pareto nazariyalari orqali ochib berilgan. Aynan V.Paretoning “Umumiy sotsiologiya to‘g‘risida traktat” asarida ishlab chiqilgan elitaning aylanish (sirkulatsiya) va to‘xtovsiz ayla-nish (krugоворот) konsepsiyasi birinchi mikronazariya bo‘lib, siyosiy hayot zamonaviy sotsiologiyasi ibtidosini boshlab berdi. Ammo A. Bentlining “Boshqaruv jarayoni” (1908 y.) asarida birinchi bor “manfaatdor guruuhlari” konsepsiyasi mukammal ishlab chiqilib, nazariyalar taraqqiyotida haqiqiy inqilobni boshlab berdi.

Siyosiy jarayonni tadqiq etishda A.Bentlining yangicha yondashuvvi quyidagilarni ta’kidlashda namoyon bo‘ldi. U siyosatni o‘rganishda jamiyatning siyosiy tashkilotlarining rasmiy holatlari va qonun chiqaruvchi me’yorlarini ta’riflashga olib kelmasligi lozim deb aytib, birinchi navbatda u siyosiy maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan guruhlarga ixtiyoriy birlashuvchi, insonlar harakatlarini o‘rganishni nazarda tutadi. Jamiyat – bu turli guruuhlar manfaatlarining yig‘indisi bo‘lib, ularning soni faqatgina bir ko‘rsatkich orqali cheklanadi u ham bo‘lsa, ular uchun yaratilgan va faoliyat olib boruvchi manfaatlardir.

Manfaatdor guruuhlari taraqqiyotining muhim davri Devid Trumennenning 1951-yilda nashr etilgan “Boshqaruv jarayoni. Siyosiy manfaatlar va jamoat fikri” tadqiqoti hisoblanadi. A.Bentli g‘oyalarini

rivojlantirib, D. Trumen siyosiy jarayonni manbalarni taqsimlashga egalik uchun kurashuvchi guruhlar raqobati jarayoni sifatida ta'kidladi. Jamiyatni bo'lsa – o'zaro aloqada bo'lган ko'plab guruhlar sifatida belgiladi.

Shu bilan birga D. Trumen "manfaatdor guruh" tushunchasini aniqroq qilib tushuntirdi. Bu tushunchada u ushbu guruhdagi qarashlar yakdilligi bilan aniqlanadigan, xulq-atvor me'yorlarini belgilash, ta'minlash va mustahkamlash uchun boshqa guruhlarga bir qancha talablarni olg'a suruvchi, bir yoki bir qancha umumiy manfaatlarga ega bo'lган har qanday guruhnini tushungan.

Manfaatdor guruhlarning hokimiyat bilan munosabati, ta'sir o'tkazishga bo'lган xatta-harakati lobbizm deb ataladi. Lobbizmning asl mohiyati va mazmunini tushunishda ikki asosiy yondashuv mavjud.

**Birinchi yondashuvga** ko'ra, lobbizmga davlat boshqaruvi va (shahar) hokimiyati tuzilmalariga kerakli qarorning qabul qilinishi uchun ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning faoliyati sifatida qaraladi.

**Ikkinchi yondashuv** tarafdorlari lobbizmni jismoniy shaxslar yoki mijozlar manfaatlarini davlat boshqaruvi va (shahar) hokimiyati tuzilmalari bo'ylab yurg'izadigan tashkilotlarning professional faoliyati bilan bog'laydilar.

Siyosiy fanlar manfaatdor guruhlar bilan davlat siyosatini olib boruvchi hukumat institutlari o'rtasida tizimli aloqalar mavjudligiga urg'u berishadi. Bunday aloqalarning xarakteri haqida yakdilik yo'qligi hozirgi zamon jamiyatlari manfaatdor guruhini tashkillashtiruvchi ko'plab tizimlar va ularning hukumat institutlari bilan munosabatlarining turli xil modellaridan iborat deyishimizga asos bo'la oladi.

Siyosatshunoslik sohasida o'tkazilgan bir qancha tadqiqotlarga asoslanib, hozirgi jamiyatga xos bo'lган quyidagi manfaatdor guruhlar va davlat munosabatlari modellarini ajratishimiz mumkin:

- 1) Plyuralistik.
- 2) Demokratik korporativ.
- 3) Boshqariladigan.

Manfaatdor guruhlarining **plyuralistik tizimining** o‘ziga xos xususiyatlari sifatida manfaatlarni tashkillashtirish ko‘rinishlari va siyosiy jarayonlarda guruh bo‘lib qatnashish usullari namoyon bo‘ladi:

- har xil guruhlar bir ijtimoiy manfaatni namoyon qilishi mumkin;
- guruhlarga a’zolik ko‘ngilli va chegaralangan;
- guruhlar ko‘pincha erkin va markazsizlashgan tashkiliy tuzilmaga ega;
- manfaatdor guruh va hukumat bir-biridan aniq ajratilgan bo‘ladi.

Bunday tizim doirasida kasaba uyushmalari, biznes-assotsiatsiyalar kabi jamiyatning muayyan sohalari uchun alohida manfaatdor guruhlar mavjud bo‘lishi bilan birga, bunday sohalarning har biriga ko‘plab guruhlar–kasaba uyushmalari, biznes-assotsiatsiyalar vakillik qilishi mumkin. Mazkur guruhlar bir-birlari bilan boylik, a’zolik va ta’sir kuchi uchun kurashishadi hamda ularning har biri davlat siyosati va siyosiy yo‘nalishni belgilovchi shaxslarga o‘z shartlarini qo‘yishga urinishadi. Plyuralistik tizimga ega manfaatlar guruhlarni Qo‘shma Shtatlarda ko‘rishimiz mumkin. Kanada va Yangi Zelandiya ham yaxshi misol bo‘lishi mumkin. Kasaba uyushmalaridagi a’zolikning nisbatan kengroq ekanligi, biznes-assotsiatsiyalari faoliyatining ko‘proq koordinatsiyalashganiga qaramay, tadqiqotchilar bu kategoriyaga Buyuk Britaniya hamda Fransiya bilan Yaponiyani ham kiritishadi.

Manfaatdor guruhlarining **korporativ tizimiga** manfaat vakilligining kengroq tashkillashtirilishi xosdir:

- Har bir ijtimoiy manfaatga odatda yagona bosh assotsiatsiya vakillik qiladi;
- Bunday assotsiatsiyaga a’zolik ko‘pincha barcha uchun majburiy bo‘ladi;
- Bosh assotsiatsiyalar markaziy tuzilmasiga ega bo‘ladi va a’zolarining faoliyatlarini taqsimlaydi;
- Ko‘p hollarda manfaat guruhlari siyosatda muntazam ravishda ishtirok etadilar.

Shunday qilib, plyuralistik tizimda bir-biridan mustaqil, biznes manfaatlarini o‘zida aks ettiruvchi bir qancha guruhlar bor bo‘lsa,

korporativ tizimda barcha eng muhim sanoat va tadbirkor manfaatlarini ilgari suruvchi yagona bosh assotsiatsiya faoliyat yuritadi.

Va nihoyat, o'ziga xos manfaatdor guruhlarini tashkillashtirish modeli **boshqariladigan tizimlarda** bo'ladi:

- jamiyatning har bir sohasiga bir guruh vakillik qiladi;
- bunday guruhlarga a'zolik ko'pincha majburiy bo'ladi;
- har bir guruh odatda iyerarxik tuzilmaga ega bo'ladi;
- guruhlar davlat siyosiyati qo'llab-quvvatlanishi maqsadida hukumat yoki uning organlari tomonidan nazorat qilinadi.

Bunday tizimning asosiy belgisi shuki, bu yerda guruhlar davlatning jamiyat ustidan nazoratini osonlashtirish uchungina mavjud bo'ladi. Partiyaviy tashkilotlar jamiyat hayotiga kirib olgan hamda barcha assotsiativ guruhlari boshqariladigan an'anaviy kommunistik tizimlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan, kasaba uyushmalari yoki yoshlarning tashkilotlari to'liq kommunistik partiya tomonidan nazorat qilinib, ular kamdan-kam holatlarda o'z a'zolari manfaatlarini ilgari sura olishgan. Bunday nazorat bugungi kunda Xitoy, Shimoliy Koreya va Kubada saqlanib qolgan. Boshqariladigan manfaatdor guruhlarini shakllantirish Braziliya va Meksika kabi bir qancha rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llab-quvvatlanayapti.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy partiya deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyalari nimadan iborat?
3. Siyosiy partiyalarning vujudga kelish tarixini bayon qiling.
3. Siyosiy partiyalar tipologiyasi borasida qanday fikrdasiz?
4. Kadrlar partiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. "O'ng" va "so'l" partiyalarni izohlab bering.
7. Partiyaviy tizim deganda nimani tushunasiz?
8. Bugungi kunda qanday partiyaviy tizimlarni kuzatish mumkin?
9. Manfaatdor guruhlar tushunchasini izohlab bering.
10. Lobbizm mohiyatini tushuntirib bering.
11. O'zbekistonda siyosiy partiyalar borasida qanday huquqiy hujjalalar mavjud?

## ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O'zbekistonda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish tartibini o'rGANIB kelish.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.

2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.

3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –T.: TDIU, 2010.

4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.

5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.

6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.

7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма.–Т., 2002.

8. Муаллифлар гурухи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.

9. Фоғуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.

10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.

11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрг тараққиётни ва халқ фаровонлигининг гарови.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 b.
6. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, T.: Universitet, 2003.
7. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O'quv qo'llanma –T.: Soliq akademiyasi, 2008.
8. Ирхин Ю. В., Зотов В. Д., Зотова Л. В. Политология: Учебник. – М., 2000.
9. Қодиров А.Қ. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг концептуал муаммолари // Хуқуқ-Право-Law. -2002.- №4.
10. Мамадалиев Ш. Ўзбекистон сиёсий партиялари: шаклланиш жараёнлари ва ривожланиш истиқболлари. – Т., 2004.
11. Ўрунов О. Сиёсий партиялар тарих силсиласида // <http://huquqburch.uz/uz/view/925>
12. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўкув қўлланма. – Т., 2004.
13. Власов В. И. и др. История политических и правовых учений. Ростов-на-Дону, 2004.

14. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
15. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
16. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. –М., 2000.
17. The role of political parties in the political process / OSCE Human Dimension Seminar. - Warsaw, 18–20 May 2011

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **8-mavzu. SIYOSIY ELITA VA LIDER**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy elita va lider haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

Elitalar nazariya, elita, oligarxiya, kontrelita, hukmron elita, oliv darajadagi siyosiy elita, o'rta darajadagi siyosiy elita, quyi darajadagi elita, ma'muriy elita, ijtimoiy tengsizlik, G.Moska, V. Pareto.

### **Asosiy savol:**

1. Siyosiy elita mohiyati, shakllanish omillari va funksiyalari;
2. Siyosiy elitaga oid nazariyalar.
3. Siyosiy lider: mohiyati, funksiyalari, nazariy qarashlar va uning tipologiyasi.

### **1. Siyosiy elita mohiyati, shakllanish omillari va funksiyalari**

Hokimiyatga intilish, unga erishish, siyosiy qarorlar qabul qilinishida bevosita ishtirok etishda tarixan muayyan insonjar guruhi shakllangan. Garchi bugungi kunda siyosiy boshqaruvda barcha fuqarolar teng huquqli deb e'tirof etilsada, eng rivojlangan mamlakatlarning siyosiy amaliyoti shuni ko'rsatadiki, hokimiyatni taqsimlash va amalgamoshirish jarayoni fuqarolarning teng qatnashishini nazarda tutmaydi.

"Elita" atamasi fransuz tilidan "elite" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "eng yaxshi, tanlangan, saralangan" degan ma'nolarni bildiradi. Shu bois ham siyosiy leksikonda, dastlab "elita" atamasi jamiyat boshqaruvi uchun tanlab olingan eng yaxshi odamlar, maxsus boshqaruv tizimi uchun tayyorlangan mutaxassislar, degan ma'nolarni bildiradi. Keyinchalik XIX asrga kelib "siyosiy elita" tushunchasining keng qamrovli talqini ilmiy jihatdan asoslandi.

«Siyosiy elita» atamasi o‘zining zamonaviy talqinida, butun jamiyat ustidan real hokimiyatga ega bo‘lgan «ozchilik» ijtimoiy guruhi sifatida siyosatshunoslikda XX asrning boshlarida avstriyalik siyosatshunos R.Mixels va italiyalik siyosatshunoslар G. Moska va V.Paretolar tomonidan kiritildi. V.Pareto ilmiy muomalaga “elita” atamasini kiritgan.

Siyosiy elita – bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o‘rirlarni egallagan odamlar to‘dasiga emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo‘ladigan, mukammal tashkil etilgan hamkorlik asosidagi ijtimoiy guruhlardir.

«Siyosiy elita» tushunchasini keng va tor ma’noda qo‘llash lozim. Keng ma’noda «siyosiy elita» tushunchasi «hukmron elita» tushunchasiga teng.

Boshqaruv elitasi – bu jamiyatning tashkiliy ozchiligi bo‘lib, ko‘pchilikdan farqli bo‘lgan, lekin nihoyatda yakdil ijtimoiy guruh hisoblanadi. U liderlik qobiliyatlariga ega bo‘lib, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rgan; u jamiyat institutlarida boshqaruv kursini egallashi bilan bir vaqtida ana shu jamiyatda hokimiyat qarorlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsata oladi.

Siyosiy elita tor ma’noda boshqaruvchi elitaning bir qismi bo‘lib, o‘zining hokimiyatni amalga oshirishga bevosita qatnashishi bilan undan farq qiladi.

Siyosiy elita o‘z qo‘lida davlat hokimiyatini jamlagan va jamiyat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallaydigan ijtimoiy guruhdir.

Siyosiy elitaning vujudga kelishi sabablari haqida so‘z yuritilganda, insonlarning hukmron sinfga kirish omilini ochib beradi: harbiy botirlik, moddiy boylik, ma’naviy hukmronlikka egalik. Ushbu uch omil bilan aristokratiyaning uch tarixiy shakli bog‘liq: harbiy, cherkov va moliyaviydir. Biroq hukmron sinfga ajratishning oliy mezoni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. O‘z jamiyatining zaif va kuchli tomonlarini biluvchi, uni nazorat qila oluvchi.

Jamiyatda siyosiy elitaning shakllanishi sabablari nisbatan R.F.Farmonov va boshqa mualliflar tomonidan tayyorlangan “Zamnaviy siyosatshunoslik” o‘quv qo‘llanmasidan keng keltirilgan. Xususan, quyidagicha keltirilgan:

Birinchi, mehnat taqsimoti qonuni va u bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatning ijtimoiy yo‘naltirilishi, turli guruhlar va qatlamlarning ijtimoiy vazifalarining farqliliginini ta’minlaydi. Jamiyatning sohalashtirilishi faqat mehnat taqsimoti tufayli yuzaga kelishi mumkin va ijtimoiy ierarxiya asosida insonlar ijro etadigan mos sinflar, qatlamlar va guruhlar ierarxiyasi paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy piramida yuqorisiga umumiy boshqaruv va rahbarlikni amalga oshiruvchilar qo‘yiladi, boshqa funksiyalarning muvaffaqiyatli ijrosi uchun tegishli zarur choralar ko‘riladi. Shundan kelib chiqib, elitaning mavjudligi boshqaruv mehnatining yuqori ijtimoiy ahamiyati va uning ustunliklari hamda boshqa shakllar tizimi ko‘rinishidagi muvofiq xohish-irodasi bilan izohlanadi. Gap shundaki, siyosat bu qadriyat va resurslar yoyilishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan boshqaruv mehnatidir. ***Boshqaruvda siyosatdan foydalanishdagi keng imkoniyatlar muhim stimuldir, demak, boshqaruvchi elita mavjudligining omili ham aynan shudir.***

Ikkinchi, ijtimoiy tengsizlik natijasida mulkka va, avvalo, ishlab chiqarish vositalariga ega bo‘lgan individlar va guruhlar moddiy boylikning iste’molida va taqsimlanishida hukmron mavqega ega.

Shu bilan birga tengsizlik odamlar qobiliyatiga ham tegishlidir. Rahbarlikda va boshqaruv faoliyatida tajriba, umumiy bilimlar, shuningdek, andisha yuksak aql-zakovat talab qilinadi. Demak, ***odamlarning tabiat in’omiga egaligi, psixologik tengsizligi jamiyatning elita va ommaga bo‘linishi borasidagi ikkinchi muhim omildir.***

Uchinchi, siyosat har kimning qiziqish doirasiga kiravermaydi. Ko‘plar uchun siyosatga jalb qilinish bu ikkinchi darajali ishdir. Siyosatda ozchilik faollik ko‘rsatadi. ***Bu siyosiy elitaning mavjudligining uchichnchi – siyosiy omildir.***

Siyosiy elita davlat va jamiyat ishlarida ko‘plab funksiyalarni bajaradi:

- turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini o‘rganish va tahlil etish;
- turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini subordinasiya qilish;
- siyosiy yo‘l va maqsadlarda manfaatlarni ifodalash;
- siyosiy mafkurani ishlab chiqish;

- boshqaruv organlari apparatining kadrlarini tayinlash;
- siyosiy tizim institutlarini tuzish va ularga tuzatishlar kiritish;
- siyosiy yetakchilarni ilgari surish.

Siyosiy elitani hokimiyat funksiyalarining hajmi asosida quyidagi darajalarga bo‘lish mumkin: olyi, o‘rta va quiy.

## 2. Siyosiy elitaga oid nazariyalar

Hattoki barcha demokratik mezonlarga *to ‘liq erishilganda ham*, siyosiy hokimiyat teng taqsimlangan bo‘lmaydi. Kamchilik ko‘p narsaga, ko‘pchilik kam yoki hech narsaga erishmaydi. Siyosiy olimlar bu tengsizlikni odatiy va o‘zgartirib bo‘lmas deb tushunishadi. Siyosiy elitalar qarorlar qabul qilishadi, oddiy xalq va omma odatda shu qarorlar doirasida harakatlanishadi.

*Asosiy babs* bu elitalar ommaga qanchalik javobgarligidadir. Shu bois siyosiy elitalar nazariyasi borasida ikkita model shakllangan:

**Birinchi model**, elitalar omma oldida oz miqdorda javobgar deb hisoblovchilar – **elitaristik (yoki oligarxik) nazariyachilar**. Ushbu modelning ko‘zga ko‘ringan vakillari, “makiavellistik maktab” deb nom olgan, namoyandalari G.Moska, V.Pareto, R.Mixelslardir. “Makiavellistlar” degan atamani birinchi bo‘lib amerikalik siyosatshunos F.Xinter ishlatgan. Bunga sabab ushbu siyosatshunoslarning fikrlari XVI asrda ijod qilgan buyuk mutafakkirning fikrlariga yaqinligi edi. N.Makiavelli hukmdorlarni tasvirlashda tulki obrazi orqali – ayyorlik va epchillik, sher obrazi orqali – kuch sifatlarini ifodalagan.

“Makiavellistlarning” xususiyati shundaki, ular elitani alohida mujassamlashgan guruh sifatida ko‘rganlar. Bundan tashqari, bu guruh boshqa guruhlar orasida o‘z ustunligini alohida xususiyatlar bilan qo‘llab-quvvatlagan. Shuningdek, boshqaruvchi elita qatoriga qo‘shilish har bir shaxsdan alohida sifat va qobiliyatlar majmuasiga ega bo‘lishni talab qiladi. Elitalarning alohida sifati tabiiy tug‘ma holat hamda boshqarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaga bog‘liqidir. Ammo bu sifatlar doimiy emasligi tarixiy rivojlanish davrida kuzatish mumkin.

Siyosiy elita nazariyasining eng birinchi asoschilaridan biri bu, italiyalik olim G. Moskadir (1859–1941-yillar). Aynan mazkur olim XIX asrning oxirlarida, siyosatshunoslik fanining shakllanishi yuz berayotgan bir davrda, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. 1885-yilda G. Moska "Siyosiy fan asoslari", deb nomlangan ilmiy maqolani e'lon qildi. Keyinchalik olimning ishi "Hukmron sinf" nomi bilan yuritila boshlandi. Mazkur ilmiy nashrda G. Moska o'zining siyosiy konsepsiyasini bayon qilib bergen edi. Unga ko'ra, jamiyat ikki sinfdan: hukmronlik qiluvchilar va boshqaruvchilar sinflaridan iboratdir. Boshqaruvchilar sinfi, garchand ular har qanday jamiyatda ham kamchilikni tashkil etsalarda, barcha asosiy siyosiy funksiyalarini bajaradilar.

Shuning uchun Italian siyosiy olimi Gaetano Moska hokimiyat doimo kamchilik qo'lida bo'ladi deb aytgan edi<sup>45</sup>. G. Moska garchand "elita" atamasini ishlatmagan bo'lsada, "hukmron sinf" va "siyosiy sinf" atamalari bilan amalda "siyosiy elita"ni ifodalagan edi. G. Moska mamlakatda boshqarish funksiyasini amalgalash oshiruvchi "kam sonli sinfnинг" eng zarur va muhim xususiyatlari qatoriga hamjihatlik, uyushqoqlik va hokimiyat vakolatlarini samarali ravishda amalgalash oshira olish layoqatining mavjud bo'lishi kabilarni kiritadi.

G. Moska hukmron sinfning rivojlanishida ikkita tendensiyani belgilaydi. Bir tomondan, elita vakillarining o'z vazifalari va imtiyozlarini o'zlarida doimo qoldirishga harakat qilishi, ikkinchi tomondan, yangi kuchlarning eski kuchlarning o'rniga kelishidir. Agar jamiyatda aristokratik yondashuv ustunlik qilsa, hukmron sinf yopiq bo'ladi va jamiyatning rivojlanish qobiliyati qisqaradi. Agar ikkinchi (demokratik) tendensiya ustunlik qilsa, hukmron sinfga kirish qiyinchilik tug'dirmaydi va uning shaxsiy yangilanishi tez sur'atlar bilan oshib boradi. Ammo bunday tendensiya holatida quyi guruhlarning hokimiyatni egallash uchun bo'lgan xatti-harakatlari beqaror vaziyat, siyosiy krizislarga olib kelish xavfini tug'diradi.

Italiyalik olim V. Pareto (1848–1923-yillar)ning xulosalari ham nihoyatda diqqatga sazovordir. Har ikkala olim bir-biridan mustaqil

---

<sup>45</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.104.

ravishda “siyosiy sinf” haqidagi ilmiy xulosalarini ishlab chiqqanlar.

Uning tushunchasicha elita – bu tanlab olingen jamiyatning ozchilik qismi bo‘lib, unga barcha a’zolar moslashishi kerak. Pereto fikriga ko‘ra elita o‘zini tutishi va tadbirkorligi, uni o‘rab turganlarning ojiz va ta’sirchan tomonlarni ko‘ra bilish va ulardan o‘zining manfaatlari yo‘lida foydalanish qobiliyati bilan xarakterlananishi kerak.

V.Pareto siyosatshunoslik faniga «elita» va «kontrelita» tushunchalarini kiritdi. V.Paretoning fikricha, individlar bir-birlaridan jismoniy, axloqiy va intellektual (aqliy) xususiyatlari bilan ajralib turishadi. V. Paretoning ahamiyatli nazariyasi elitaning omma ustidagi ustunligini asoslash fikriga qaratilgan. Ushbu ustunlik elitalar vakillarining tabiiy sifati bilan tushuntiriladi: ularning hayoti, kuchi, energiyasi va irodasidir. “Elita” atamasining asosiy g‘oyasi ustunlik demakdir.

V.Paretoga binoan, elita hukmron elitaga–bevosita yoki bilvosita boshqarish ishlarida qatnashadigan va hukmron bo‘limgan elitaga–kontrelitaga bo‘linadi. Kontrelita bu elitaga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarga ega, biroq u yoki bu jamiyatda maqomi va boshqa turli xil to‘sinqinliklar sababli, boshqaruv funksiyalariga kirishga ega bo‘limgan kishilar guruhidir. Ba’zi bir holatlarga ko‘ra, elita va kontrelita vakillari o‘zaro o‘rin almashishlari mumkin.

V.Paretoda jamiyatni boshqarish uchun qo‘llanadigan resurslarni sharhlashda ko‘proq makiavellistik qarashlar mavjud. Uning fikricha, nisbatan kamsonli sinf qisman kuch bilan hokimiyat tepasida tura oladi va qisman bo‘ysunuvchi sinfnинг ko‘p qismi tomonidan berilgan roziligi sababi bilangina tura oladi. Biroq ishontirish qobiliyati hokimiyatni saqlash uchun ko‘p hollarda yetarli emas va o‘sha paytda elita o‘z faoliyatida kuch ishlatishi kerak.

V.Pareto shuni ta’kidlaydiki, ozchilikning ko‘pchilik ustidan hukmronligi tabiiy tug‘ma qobiliyatga bog‘liq bo‘lsa, biroq o‘zining doimiy hukmronlik holatini ta’minlab turishi uchun bu omil emas. Elitalarga tegishlilik majburlash asosida hech qachon meros bo‘lib o‘tmaydi. Bolalar o‘z ota-onasining yuksak sifatli qobiliyatlarini o‘zlarida mujassamlashtira olmaydilar va shuning uchun bu xislatlar kamayish tendensiyasiga ega. Ayni paytda, jamiyatda doimo kontre-

lita mavjud bo‘lgan. Kontrelita elitalar elementining doimiy salohiyatli, muqarrar raqiblaridir.

Avtoriyalik olim R.Mixels (1876- 1936) *oligarxiyaning temir qonunini* yaratdi. Unga ko‘ra, hokimiyatning ozchilik tomonidan egal-lanish jarayoni muqarrardir va har qanday tashkilotda muqarrar ravishda ko‘pchilikni boshqaradigan ozchilik vujudga keladi. G.Moska bu qarashni rivojlantirgan holda, siyosiy elitani *yopiq sinf*, «siyosiy sinf» deb ataydi.

Makiavelli maktabi konsepsiysi quyidagi jihatlari sababli tandiqdga uchraydi: a) psixologik omillar ahamiyati oshirib yuborilgan; b) demokratiyaning xushlamasligi, omma faolligini baholay olmasligi; d) jamiyat evolutsiyasini yetarlicha hisobga olmaganligi va hokimiyat uchun kurashga surbetlik bilan munosabatda bo‘lish.

**Ikkinci model**, elitalar to‘la to‘kis omma oldida javobgar deb hisoblovchi va jamiyatda turli elitalar mavjudligi va ular o‘rtasidagi qarama-qarshilikni nazarda tutuvchi **pluralistlar** (yoki poligarxik, demokratik) model hisoblanadi<sup>46</sup>. Mazkur model doirasida bir qator konsepsiylar shakllangan (qarang. Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik.–T.,2013):

➤ Elitalarning qadriyatli nazariyasi. Asoschilari–V.Ropke, X.Ortega-i-Gasset va boshq. Bu nazariya vakillari elitar nazariyani zamonaviy davlat hayotiga moslashtirishga intiladi, uni demokratiya bilan qo‘sishga intiladi. Belgilari: elita tarixan o‘z funksiyalarini o‘zgartirib kelgan ijtimoiy tizimning eng muhim va qadrli unsiridir, aristokratiya ishbilarmonlarga almashgan, ishbilarmonlar esa menejer va intellektuallar bilan almashgan; elita nisbatan amal qiladigan funksiyalarni bajarish asosida birlashadi; elita bilan omma o‘rtasidagi munosabatlar hukmronlik xarakterini kasb etmaydi, balki ixtiyoriylik asosida qabul qilinadigan boshqarish sifatida namoyon bo‘ladi; eliti shakllantirish–bu hokimiyat uchun kurash natijasida emas, balki yuksak boshqaruv qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarning jamiyat tomonidan tabiiy tanlovidir.

<sup>46</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.104.

➤ Demokratik elitizm nazariyasi. R.Dal, S.M.Lipset, K.Mangeym va boshq. R.Dal elita borasida shunday degandi: “Hozirgi ulkan zamonaviy jamiyatda teng demokratiyaning iloji yo‘q; hokumat juda katta va muammolar o‘ta murakkab..... Asosiy siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy qarorlar kichik kam sonli insonlar guruhi tomonidan qabul qilinadi..... Bu tizimni ulkan siyosiy tizimlarda qo‘llab ko‘rishning iloji yo‘q” deb ta’kidlagan.<sup>47</sup> Demokratik elitizm nazariyasi vakillari demokratiyani saylovchilar ovozi uchun turli elitar guruhlarning raqobatlari sifatida talqin etadi.

➤ Elita plyuralizmi nazariyasi. Bu ko‘pincha elitalarning funksional nazariyasi deb ham ataladi – R.Aron, A.Bentli, R.Dal, S.Keller, D.Rismen. Uning xususiyati: siyosiy elitani funksional elita sifatida talqin etish. Funksional elitalar – bu jamiyatdagi muayyan rahbarlik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lish uchun zarur bo‘lgan, maxsus malakalarni egallagan shaxs yoki guruhdir. Elitani yagona va yagona imtiyozli, nisbatan jipslashgan guruhlar sifatida inkor etish; jamiyatni elita va ommaga bo‘lish nisbiy, shartli va ba’zan unchalik ko‘zga tashlanmaydi; hozirgi demokratiyada elita eng komponentli va qiziqib intiladigan fuqarolardan shakllantiriladi. Demokratik davlatlarda elita muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelayotganligi uchun ularning ijtimoiy hukmronligi to‘g‘risida gapirish nojoizdir. Elitalar plyuralizmi konsepsiyasidan zamonaviy g‘arb demokratiyasining taraqqiy-parvarligini nazariy asoslash uchun keng foydalaniлади.

➤ Elitalarning so‘l liberal konsepsiysi plyuralistik elitizm nazariyasiga (yuqoridagi) nisbatan o‘ziga xos g‘oyaviy muxolifiy qarashlari bilan ajralib turadi – P.Birnbaum, J.Meyno, R.Miliband, F.Xanter. Elita nazariyalari ichida Kolumbiya universiteti satsiologgi Charlz Rayt Millsning o‘ziga xos manifesti bu oqimning xarakterli xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Unda AQSHda hokimiyat boshqaruvi barcha elitalar tomonidan emas, balki bitta hokimiyat yuritayotgan elita (“Power Elite”) tomonidan amalga oshirilayotganligini isbotlashga harakat qilingan. Uning fikricha, katta biznesmenlar

---

<sup>47</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.104.

siyosatchilarga pul berishadi, siyosatchilar esa uni ommaviy mudofaa xarajatlari uchun ajratishadi, yuqori lavozimdagи generallar esa yana o'sha katta biznesmenlar bilan shartnomaga tuzishadi. Pul aylanib katta biznesmenlarning u cho'ntagidan bunisiga o'tadi. Ch.R.Mills bu o'zaro til biriktirilgan fitna Amerikani urushga chorlashini bashorat qilgan.

Pul va aloqalar elitaga siyosiy qudratga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. 2004-yil prezidentlik saylovlarida o'z nomzodlarini qo'ygan Yel universiteti bitiruvchilari - J.Bush (68) va J.Kerri (66) ikkalasi ham oliy elita va maxfiy jamiyat hisoblangan "Chanoq va Suyak" jamiyati a'zolari bo'lishgan. Elita bu "boy" degan tushuncha bilan sinonim emas. Ayrim boylar davlat mansabiga ega bo'lishadi va uni hokmiyatga keltingan kishilar foydasiga o'z navbatida maqbul qonunlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar taqdim etadi<sup>48</sup>.

### **3. Siyosiy lider: mohiyati, funksiyalari, nazariy qarashlar va uning tipologiyasi**

Siyosatshunoslikda dolzarb masalalardan biri, siyosiy yetakchilik masalasıdır. Bu o'rinda quyidagi tushunchalar mohiyatini anglash lozim:

**Yetakchi (lider)** – bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Lider va uning izdoshlari o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u liderdan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'naltirilgan bo'ladi.

**Yetakchilik (liderlik)** – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozitsiyadir.

**Siyosiy yetakchilik (liderlik)** – bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday raqobatchilik kurashuvda tomonlar ijtimoiy vazifalarni yechish bo'yicha dasturlar bilan almashinadilar.

---

<sup>48</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.-P.105.

Siyosiy yetakchi (lider) – siyosiy jarayonlar bilan birga butun jamiyat va siyosiy tashkilot yoki harakatni ham boshqaradi, voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo‘nalishini o‘zgartira oladi. Siyosiy liderlar jamiyatdagi siyosiy jarayonlarni jonlantiradilar, jamiyatning tarixiy rivojlanishini belgilovchi dasturlar va g‘oyalarni ilgari suradilar.

Yetakchilik mavzusi qadimgi davrda to bugungi kungacha turli tadqiqotchilar, siyosiy arboblar tomonidan o‘rganib kelingan va unga ta’riflar berilgan. “Tarixni mashhur shaxslar yaratadi” degan ibora ham bejiz yaratilmagan.

Siyosiy yetakchi (lider) – mamlakat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydigan, siyosiy jarayonlarga va vaziyatlarga ta’sir ko‘rsata oladigan jamiyatning, muayyan ijtimoiy guruhning, tashkilotning obro‘li shaxsidir.

Siyosiy liderlik hodisasiga sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixologiya va boshqa fanlarda ko‘plab nazariyalar mavjud. Bu hodisaga qiziqish va uni tahlil etishga intilishning ibtidosi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik davrning mualliflari Gerodot, Plutarxlar ham siyosiy liderlik to‘g‘risida ko‘plab mulohazalar bildirishgan.

Siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan siyosiy liderlik hodisasini tahlil etishda Abu Nasr Forobi, Amir Temur, Alisher Navoiy xizmatlari kattadir. Buni siyosiy ta’limotlar shakllanish tarixidan ham kuza-tish mumkin.

Aytish mumkinki, siyosiy yetakchilikning sharqona tahlilida yetakchiga nasixatgo‘ylik yondashuvi ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra davlat arbobi siyosati har qanday vaziyatda ham axloqiy tamoyillar: rostguylik, halollik, odamlarga xayrixohlik va hokazolarga zid bo‘imasligi kerak. Ta’kidlab o‘tish lozimki, yetakchini axloqiy qoidalarga rioya qilishga chorlovchi bunday sharqona qarashlar hozirgi zamon demokratik jamiyatlarida siyosatning insoniyashuvida, uning inson huquqlari kafolati sifatida tanilishida o‘z ifodasini topmoqda.

O‘yg‘onish davri mutaffakkiri, N. Makiavellining fikricha, *siyosiy yetakchi* – bu butun jamiyatni jipslashtiruvchi, ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositalarni qo‘llovchi hukmdordir.

XIX asrga kelib shaxs irodasini jamiyat taraqqiyotining belgilovchi kuchi, deb hisoblovchi volyuntaristik nazariyalar paydo bo‘lgan. Yetakchilik to‘g‘risidagi bu nazariya vakillari Tomas Karleyl (1795–1881) va Ralf Uolso Emersonlar (1803–1882) fikricha, odamlarning ko‘pchiligi barcha munosabatlarda yetakchilarning yo‘naltiruvchi ta’sirisiz normal hayot kechira olmaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, tarix qahramon, diniy shaxs ijodining mahsulidir.

Siyosiy fikrlar ta’limotidagi siyosiy liderlik nazariyasida F. Nisshe ishlab chiqqan paradigmalar ham muhim rol o‘ynaydi. U oliv biologik tip – yetakchi, yo‘lboshchi inson, g‘ayritabiyy favqulodda inson to‘g‘risidagi g‘oyani asoslashga harakat qildi. G‘ayritabiyy, favqulodda inson insoniy axloq me’yorlari bilan chegaralanmagan bo‘lib u, yaxshilik va yomonlikdan yuqori turadi. U oddiy odamlarga, o‘ziga o‘xhash favqulodda yo‘lboshchi insonlar bilan mehribon, muloyim bo‘lishi mumkin. U yuksak hayotiy quvvatga egaligi va hokimiyatga bo‘lgan irodasi bilan boshqa kishilardan ajralib turadi. U kishi irodali, rivojlangan va go‘zal insondir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, siyosiy yetakchilik omilini “qahramon”, “dohiy” kabi epitetlar bilan izohlash hollari ilmiy amaliyotga kirib keldi. Uning asosida insoniyat sivilizatsiyasining barcha yutuqlarini buyuk yetakchilar (liderlar) faoliyati bilan bog‘lashga harakat qilingan nazariy g‘oyalar paydo bo‘la boshladi. Fransiyalik sotsiolog va psixolog olim G. Tard va uning vatandoshi G. Lebon buyuk yetakchilar bir paytning o‘zida buyuk psixologlar hamdir, deb ta’kidlagan edilar. Avstraliyalik psixolog olim Z. Freyd esa siyosiy yetakchilikning obro‘-e’tibori va mavqesi xuddi oiladagi otaning obro‘siga o‘xshaydi. Oiladagi bolalar, dono otaga qanchalik talpinsalar, odamlar ham jamiyat miqyosida siyosiy yetakchiga shunchalik ishtiyoq bilan intiladilar, deb ta’kidlagan edi.

Amerikalik politolog Margarit Xarmani yetakchi (lider)ni quyidagicha ta’riflaydi: Yetakchi – ko‘p qirrali tushuncha, uning namoyon bo‘lishini ko‘rayotganda, quyidagilarga e’tibor berish kerakligini aytadi.

- a) Rahbarning o‘z xarakteri.
  - b) Unga muxolifatda bo‘lgan rahbarning xislatlari (unga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha siyosat subyektlari).
  - c) Rahbarlar va unga raqobat qilayotganlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa.
  - d) Rahbarlikni amalga oshirish chog‘idagi aniq vaziyat.
- “Siyosiy yetakchi” jamiyatda ro‘y beruvchi siyosiy jarayonlarning yetakchi subyekti sifatida quyidagi muhim funksiyalarini bajaradi:
- integrativ funksiya;
  - qarorlar qabul qilish funksiyasi;
  - kommunikativ funksiya;
  - safarbar qilish funksiyasi;
  - sotsial arbitraj funksiyasi;
  - siyosiy tizim va uning alohida olingan institutlarini legitimlashtirish funksiyasi.

*Siyosiy yetakchilikka oid nazariyalar.* Yetakchilik tabiatini tushuntirishga bo‘lgan intilishlar ko‘pgina nazariyalarni paydo qildi.

➤ *Xislatlar (sifatlar) nazariyasi.* Ulardan eng qadimiyrog‘i va ahamiyatini hozirga qadar yo‘qotmagani xislatlar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning asoschilaridan biri E.Bogardus fikricha, a’lo darajali intellektual iste’dodlar shaxsga ertami-kechmi yetakchilikka olib keluvchi ko‘zga ko‘ringan mavqeni beradi. Yetakchilik-alohida sifatlaridan (tafakkuri, irodasi, kuch-g‘ayrati va boshq.) paydo bo‘ladigan fenomen. Demak, yetakchilik hodisasini yetakchining yuksak fazilatlari asosida tushuntirish ushbu nazariyaning mohiyatini tashkil etadi.

➤ *Omiliy-tahliliy ta’limot.* Biroq nodemokratik davlatlarda o‘rtamiyona, go‘r, yorqin xislatlarga ega bo‘lmagan shaxslarning tez-tez siyosiy yetakchilar sifatida siyosat maydoniga kelishlari kuzatilgan. Bularni hisobga olish xislatlar nazariyasining rivojiga - uning omiliy-tahliliy tamoyili yaratilishiga olib keldi. Bu tamoyil yetakchilarning sof individual xususiyatlarini va muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish jarayonida namoyon bo‘lgan xulq-atvorlarini

taqqoslaydi. Siyosiy yetakchining individual xususiyatlari va uning oldida turgan maqsadlarga erishishga intilishi natijasida siyosiy liderning «ikkinchi tabiat» vujudga keladi. Xulq-atvor uslubi ishlab chiqiladi. Siyosiy liderning maqsadni mo‘ljallash va unga erishish uslubiga muayyan ijtimoiy vaziyatlar ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, V.I.Leninning yaqinlari bilan munosabatida namoyon bo‘luchchi individual xislatlari hech ham zo‘ravonlikka chanqoq va odamlarning kulfatlariga befarq, rahmsiz va zolimligidan darak bermasdi. Biroq uning o‘jarligi va utopik maqsadga intilishlari uni hokimiyatni saqlab qolish uchun jinoyatlar oldida to‘xtamaydigan, umuminsoniy axloq me’yorlarini inkor etuvchi diktatorga aylantirgan.

➤ *Vaziyatlar nazariyasi* (V. Dall, T. Xilton, A. Gardner) yetakchilikning ma’lum bir ijtimoiy sharoitlarga bog‘liqligi g‘oyasiga asoslandi. Lider – muayyan vaziyat mahsulidir. Bunga ko‘ra, aynan vujudga kelgan aniq shart-sharoitlar yetakchini saralaydi va xulq-atvorini beligilaydi. Vaziyatlar nazariyasi shaxs individual sifatlarining muhim rolini inkor etmaydi, biroq ularni mutlaqlashtirmaydi ham. Biroq bu tamoyil yetakchining faolligini, uning vaziyatni o‘z vaqtida to‘g‘ri baholash va o‘zgartirish, o‘tkir muammolar yechilishini topa olish qobiliyatini yetarlicha aks ettirmaydi. Tarixda tasodifiy liderlar bo‘lmaydi: har bir lider o‘z davrining va shu davrga xos tarixiy vaziyatning mahsulidir. Iskandar Zulqarnayn, Oliver Kromvel, Chingizzxon, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdilar ham o‘z davrining liderlari edilar. Ammo tabiiyki, ular bir-birlaridan tubdan farq qilardilar.

➤ *Konstituentlar nazariyasi* yetakchilik qobiliyatini izdoshlar va konstituentlar orqali tushuntiradi. Ayni izdosh - deb yozadi F. Etenford, – yetakchi va vaziyatni o‘zgartiradi, oxir oqibatda yetakchilikni qabul qiladi yoki rad etiladi. Ancha afzalliklarga ega bu naziariya yetakchining yangiliklarga intiluvchanligi, mustaqilligi va faolligini yetarli hisobga olmaydi.

Siyosiy liderlarni tarafdarlar manfaatlarining ifodachisi sifatidagi bunday qarash birmuncha kamchiliklarga ham egadir. Ushbu naziariya va vaziyatlar ta’limoti ham siyosiy liderning hokimiyatni egallagan dan keyingi faoliyatidagi mustaqillikni, faollikni tushuntirib bera ol-

maydi. Tarix saboqlari ko'rsatadiki, ko'pgina siyosiy rahbarlar o'zini hokimiyat tepasiga keltirgan qatlamlar va guruhlar manfaatlariga qarshi qaratilgan faoliyat yuritganlar.

➤ *Psichoanalitika nazariyasi*. Siyosiy liderlik tabiatini tushuntirish va uni bir xilda izohlash murakkab vazifa bo'lib, uning subyektiv mexanizmlarini psixologik ta'limotlar, xususan psichoanalitika nazariyasi tushuntirib beradi. Uning asoschisi Z.Freyddir. Siyosiy liderlik asosida shahvoniy mayllar yotadi. Sublimatsiya, boshqa holatga o'tish jaryonida, u ijodiy faoliyatga, jumladan, siyosiy liderlikka ham intilish sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pgina kishilarda rahbarlik lavozimlarini egallash subyektiv-kompensatorlik vazifasini bajaradi. Turli xil kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, nomukammallik hissiyotini yengishga yordam beradi. Muayyan psixologik ehtiyojlar siyosiy liderga bo'ysunishga majbur etadi.

Siyosiy liderlikning psichoanalitik nazariyasi rivojiga Frankfurt mактabi vakillari E. Fromm va T.Adorno sezilarli hissa qo'shdilar. Ular avtoritarizmga moyil bo'lgan va hokimiyatga intiluvchi shaxs tipini aniqladilar. Bunday shaxs nosog'lom, ya'ni oilaviy nevroz holatini keltirib chiqaruvchi sharoitlarda shakllanadi. Kishi bunday sharoitlarda ularning hammasidan hukmronlik yoki bo'ysunish munosabatlariга qochishga intiladi. Liderlik-avtoritar shaxs uchun o'zining notekis kayfiyatlaridan holi bo'lishga va o'z irodasiga boshqalarni buysundirishga imkon beradigan psixologik ehtiyojdir. Boshqalar ustidan cheksiz hukmronlik qilish, bunday kishiga o'ziga xos sarxushlik baxsh etadi. U o'ziga xos sadizm, zo'ravonlik shaklidir. Shu bilan bir vaqtدا, avtoritar shaxs mazoxistik xususiyatga ham egadir, ya'ni u o'zidan zo'rroq kuch bilan to'qnashganda, unga sajda qiladi. Boshqalarning kuchsizligi unda g'azablanish, ularni tahqirlash kayfiyatlarini tug'diradi.

Bunday xulq-atvor shakli psixologik ma'noda kuchlilikning emas, kuchsizlikning namoyon bo'lishidir. Avtoritar shaxs haqqoniy kuchga ega bo'lmasdan, boshqa kishilar ustidan hukmronlik qilish vositasida u kuchga ega bo'lishga o'zini ishontirishga harakat qiladi. Bunday shaxs irratsionaldir, mistikaga moyildir va, birinchi navbatda, his-

siyotlar asosida fikr yuritadi, tenglik va demokratiyaga toqat qila olmaydi. Boshqa barcha kishilarni kuchli-kuchsiz munosabatlari vositasida idrok etadi.

➤ *Interfaol tahlil*. Yetakchilik to‘g‘risida yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan nazariyalar uning turli tomonlarini ko‘rishga imkon beradi, biroq uning bir butun ko‘rinishini bera olmaydi. Yetakchilikni kompleks tadqiq etishni amalga oshirishni interfaol tahlil bajaradi. U yetakchilikning asosiy to‘rtta *xususiyatini* hisobga oladi:

1. liderning xarakterli xususiyatlari;
2. u bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar;
3. uning izdoshlari va ularning o‘zaro harakati tizimi;
4. lider va o‘zaro munosabat mexanizmi.

Lekin liderlikning universal ta’limotini yaratish mumkin emas. Sababi, bu voqelikning o‘zi namoyon bo‘lishiga, vazifalariga, tarixiy davr, siyosiy tizim xususiyatlariga ko‘ra xilma-xildir.

*Siyosiy liderlik turlari*. O‘z davrida M. Veber (1864–1920-yillar) ning liderlikning mumtoz, deb hisoblash mumkin bo‘lgan uch turini «Siyosat–ham mayl, ham kasb sifatida» maqolasida bergen legitimlikning uch turiga asoslanadi:

*An’anaviy liderlik*. Liderlikning bu turlari an’analalar, marosimlar, odat kuchi kabi mexanizmlarga tayanadi. Itoat qilish odati an’analarning muqaddasligiga va hokimiyatning meros tariqasida o‘tishiga asoslangan. Liderlikning bu turi dohiylar, oqsoqollar, shohlar boshqaruvi uchun xosdir.

*Xarizmatik liderlik*. Hukmdor–liderning qudratiga xalqning cheksiz ishonchiga asoslanadi.

*Ratsional-oshkora liderlik*. Liderlikni saylashning tartibi, unga muayyan hokimlik vakolatlarining oqilligi, qonuniyligi to‘g‘risidagi tasavvurlarga asoslanadi.

Amerikalik politolog M. Xermann “siyosiy yetakchilik”ning o‘ziga xos tipologiyasini taklif qilgan edi. Unga ko‘ra, yetakchilarni turlarga bo‘lishda uning imidji muhim o‘rinni egallaydi: 1) bayroqdar yoki buyuk inson, 2) xizmatkor, 3) savdogar, 4) o‘t o‘chiruvchi.

Rahbarlik uslubiga ko‘ra: a) avtoritar, b) demokratik, d) liberal

Ta’sir etish shakli bo‘yicha: a) rasmiy, b) norasmiy

Mavjud siyosiy tizimga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra: funksional lider, disfunktional lider.konformist lider. nonkonformist lider.

O‘z avtoritetining ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra: a) an’naviy lider, b) byurokratik lider, d) xarizmatik lider.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlarda hozirgi dunyoda liderlik rivojlanishida beshta tendensiya shakllangani keltirilgan:

1. Milliy liderlar endilikda global muammolarni chetlab o‘ta olmaydilar. Ular o‘z ichki siyosatlarini umumjahon, global jarayonning bir qismi sifatida qarashlari lozim bo‘ladi.

2. Norasmiy liderlar roli va ta’sirining ortib borishi.

3. Liderlar faoliyati iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko‘proq jalb qilinyapti. Bu—lider faoliyati bilan bog‘liq ravishda u yoki bu millat turmush darajasining ortishida namoyon bo‘lyapti, o‘z navbatida, bu faoliyatning davomiyligi ham ortyapti.

4. Lider-qahramon va lider-antiqahramon kabi siyosatchilarning paydo bo‘lish ehtimoli kamayapti.

5. Hokimiyatlar bo‘linishi va fuqarolik jamiyat chegaralarining kengayishi hisobiga siyosiy yetakchi hokimiyat ham cheklanyapti.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy elita deganda nimani tushunasiz?

2. Siyosiy elita funksiyalarini sanab o‘ting.

3. Siyosiy elitaning vujudga kelish sabablarini ko‘rsating.

4. Siyosiy elitaga oid qanday nazariyalarni bilasiz?

5. Siyosiy yetakchi tushunchasiga ta’rif bering?

6. Siyosiy yetakchiga oid xislatlar nazariyasini tushuntirib bering?

7. Siyosiy liderning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

8. Siyosiy yetakchining funksiyalarini sharhlab bering.

### *Mustaqil ish topshiriqlari*

1. O‘zbekistonda milliy kadrlar tayyorlash siyosatini o‘rganib tahliliy ma’lumot tayyorlash.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar**

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўкув юрт талабалари учун ўкув кўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –T.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўкув-услубий кўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилкориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўкув кўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўкув кўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар грухси. Политология. Ўкув кўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “УАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Ғофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўкув кўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўкув юрт талабалари учун ўкув кўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.
11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

### **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик–хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил

истиқболларига багишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.—Т.: Ўзбекистон, 2016.—56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш—юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.—Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.

4. Гринин Л. Е. О стадиях эволюции государства. Проблемы теории./ История и современность, 2006, № 1: 3–45.

5. Морозова Л. А. Теория государства и права. Учебник. 2002. - 414 с.

6. Гайворонская Я. В., Самусенко Т. М. Теория государства и права. Издательство ДВГУ 2000.

7. Мелехин А. В. Теория государства и права: учеб. / А. В. Мелехин. – М. : Маркет DC, 2007.—С. 154.

8. Морозова, Л. А. Теория государства и права – М.: Изд. Эксмо, - 2009.

9. Blum, William. Rogue state: a guide to the world's only superpower. Zed Books.—NY, 2006.

10. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazarriyasi, T.: Universitet, 2003.

11. Oblomuradov N., Ko‘chimov N. Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O‘quv qo‘llanma —T.: Soliq akademiyasi, 2008.

12. Макиавелли Н. Ҳукмдор / Зохир Аълам таржимаси // Жаҳон адабиёти. -2002. -№9.-Б.105–148

13. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк).—Т.: Янги аср авлоди, 2015, 312 б.

14. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри.—Т.: Янги аср авлоди, 2016, 320 б.

15. Макиавелли Н. Государь.—М.: Издательство «Э», 2016, 640 с.

16. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
17. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
18. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **9-mavzu. SIYOSIY MAFKURA**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiyo mafkuralar va ularning zamonaviy jamiyatlarda-gi o'rni haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shak-llantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

Mafkura, so'llar, o'nglar, markazchilar, markaz-o'nglar, markaz-so'llar, liberalizm, T. Gobbs, Sh. Monteskyo, A.Smit, T.Jefferson, J.Lokk, laissez-faire, merkantilizm, konservativizm, neoliberalizm, neokonservativizm, sotsializm, kommunizm, sotsial demokratiya, mil-latchilik, feminizm, ekologik mafkuralar

### **Asosiy savollar:**

1. Siyosiy mafkura tushunchasi va funksiyalari.
2. Siyosiy mafkura shakllari.

### **1. Siyosiy mafkura tushunchasi va funksiyalari**

Siyosiy mafkura – siyosiy fanning eng murakkab mavzularidan biri hisoblanadi. Manbalardan ma'lumki, “mafcura” tushunchasi il-miy muomalaga fransiyalik faylasuf olim A.D.de Trasi tomonidan 1796-yilda kiritilgan edi. Mazkur olim bir guruh faylasuflar bilan hamkorlikda “Mafkura loyihasi” nomli ma'ruzani tayyorlab, ke-yinchalik unda ko'tarilgan g'oyalarni o'zining to'rt tomlik “Mafkura elementlari” nomli asarida rivojlanitrgan edi.

«Mafcura» arabcha so'zdan olingan bo'lib, tor ma'noda qarashlar va e'tiqodlar tizimi, majmui degan ma'noni anglatadi. Mafkura jamiyatning muayyan doktrinalar asosida rivojlanishini nazarda tutuvchi e'tiqodlar tizimi. Mafkura oddiygina vaziyatni yaxshilash mumkinli-

giga ishonch yoki boshqacha aytganda, jamiyatni rivojlantirish rejasidir. Tadqiqotchi Entoni Douns ta'kidlaganidek, mafkura – bu “yaxshi jamiyatning va yaxshi jamiyat qurish yo'llarining verbal tasviri”<sup>49</sup>.

Keng ma'noda mafkura - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikr va g'oyalar maj-muidir.

“Mafkura” g‘arb tillarida “ideologiya” atamasi orqali izohalanadi, u yunoncha “ideya” va “logos” so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan, g‘oyalar haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Iqtisodiy determinizm ta’limoti mafkuraviy oqimlar, ijtimoiy guruhlarning moddiy shart-sharoitlari bilan bog‘liq ekanligidan kelib chiqadi. U bu oqimlarni umuman jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi tasavvurlar, g‘oyalar sifatida tavsiflaydi. Ijtimoiy guruhning jamiyatda tutgan o‘rniga ko‘ra iqtisodiy determinizm mafkuraning nazariy bilim vazifasini bajarishi mumkinligini ilgari suradi.

Ilmiy adabiyotlarda siyosiy mafkuraga nisbatan quyidagicha ta’riflar uchraydi:

Siyosiy mafkura – siyosiy borliqning muayyan ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, milliy birlashmalarining manfaatlari, maqsadlari va ideallari nuqtayi nazaridan nazariy idrok etilishini aks ettiruvchi g‘oyalar, qarashlar va tasavvurlar tizimi.

Siyosiy mafkura – jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim tuzilishi, turli ijtimoiy kuchlar va guruhlarning o‘rni va roli to‘g‘risidagi g‘oyalar, uning hokimiyatga ega bo‘lishi, undan foydalanish yo’llari, mehanizmlari to‘g‘risidagi qarashlarni amalga oshirishga bo‘lgan ishonch, maqsadlar yo‘lidagi faoliyatdir.

Siyosiy mafkura – bu muayyan ijtimoiy guruhning hokimiyatga intilishini yoki undan foydalanishini asoslovchi va siyosiy harakating u yoki bu strategiyasini ko‘zda tutuvchi g‘oyaviy tizimdir.

Mafkurada ijtimoiy guruhlari, tabaqalar, qatlamlar manfaatlari va qarashlari aks ettiriladi. Siyosat falsafasidan farqli o‘laroq, siyosiy mafkura bevosita siyosiy realliklarga, siyosiy jarayonlar mohiyatiga

<sup>49</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.40.

yo‘naltirilgandir. Shu nuqtayi nazardan siyosat turlicha mafkuraviy tizimlar, mafkuraviy-siyosiy oqimlar va yo‘nalishlarning to‘qnashuv maydoni hisoblanadi.

Siyosiy mafkura quyidagi asosiy tuzulmaviy unsurlardan iborat bo‘ladi:

1. davrning umumiyligi dunyoqarash tizimi bilan aloqadorlik;
2. mavjud tizimning u yoki bu holati asosida shakllangan dasturiy ko‘rsatmalar;
3. dasturiy ko‘rsatmalarni amalga oshirish strategiyasi;
4. tashviqot;
5. dasturni amalga oshirishga doir aniq o‘zgartirishlar yoki harakatlar.

Siyosiy mafkura fenomenining paydo bo‘lishi to‘g‘isida siyosat-shunoslikda turli xulosalar shakllangan. Jumladan, eng umumiyligi tarzda olinganda ular quyidagi holatlarni qamrab oladi.

Siyosiy mafkuralarning paydo bo‘lishi va institutsionallashuvi jamiyat ijtimoiy tarkibining turli-tumanligi va plyurallashganligi, siyosiy-falsafiy fikrlar, g‘oyalarning paydo bo‘lishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi g‘oyaviy munosabatlar tizimining shakllanishi bilan bog‘liq jarayonlardir.

Shuningdek, siyosiy mafkuralarning paydo bo‘lishiga milliy g‘oyaning hamda milliy davlatchilik g‘oyasining shakllanishi va institutsionallashuvi yetakchi zamin bo‘lib xizmat qildi.

Mafkura, xususan, siyosiy mafkura masalalari tahlili XIX asr oxiri XX asr boshlarida taniqli nemis olimi M. Veber tadqiqotlarida yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi. M. Veber mafkurani va boshqa g‘oyaviy, diniy tuzilmalarni ko‘r-ko‘rona ishonish sohasiga kiritgan edi. Bu bilan u mafkuraning ilmiyligi masalasini qo‘yishni ham inkor etadi. Shu sohaning taniqli mutaxassis K. Mangeym M. Veberdan keyin har qanday mafkurani voqelikning neadekvat (noto‘g‘ri), bir tomonlama aks etishi sifatida, voqealarning haqiqiy ahvolini ongli ravishda yashiradigan g‘oyalar yigindisi sifatida olib qaraydi. Mafkuraning ijtimoiy-tarixiy manbalarini chetga surib qo‘yib, uni jamoani birlashtiruvchi qurol sifatida (O. Lemberg, T. Parsons) haddan tashqari funksional talqin etishlari ham keng tarqalgan.

Mafkurani ayrim guruhlar va individlarning psixologiyasidan (R.Papys, D.Braun) iborat qilib ko'rsatish hollari ham kam emas. Shu bilan birga mafkurani xalqning, millatning dunyodagi o'rnini, manfaatlarini, orzu-intilishlarini ifodalaydigan g'oya, o'tmish va kelajakni bog'laydigan ko'prik (I.A.Karimov) sifatida ta'riflashlar ham mavjud.

Siyosiy mafkura ijtimoiy hayotda muayyan funksiyalarni bajaradi. Bular:

1. Mo'ljallash. Bu funksiya shunda ifodalanadiki, mafkura jamiyat, ijtimoiy ravnaq, shaxs hokimiyat haqidagi fundamental tasavvurlarni o'ziga qamrab olib, u inson faoliyatining ma'no-mazmunini va mo'ljalini ko'rsatib beradi.

2. Safarbar etish. Fozil jamiyat g'oyasini taklif etib uni amalga oshirish uchun jamiyatni, ijtimoiy guruhlarni safarbar qiladi.

3. Birlashtirish. Siyosiy mafkura jamiyatni birlashtiruvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi.

4. Yumshatish. Siyosiy mafkura jamiyat, guruhlar, individ ehtiyojlari va ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan vaziyatdagi ijtimoiy keskinlikni yumshatishga xizmat qiladi.

5. Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalash va himoyalash. Buning ma'nosi shuki, siyosiy mafkura u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlari asosida vujudga keladi va ularni boshqa guruhlar manfaatlari bilan o'zaro munosabatda sog'lom raqobat, murosa yoki kelishuv, ayrim hollarda ixtilosda bo'lishi mumkin. Mafkuraning funksiyasi - aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, kishilar mo'ljal qiladigan maqsad va vazifalarni belgilashdir.

Bugungi kunda mafkuralarni tasniflash ham mumkin. Mafkuralar 1789-yilgi Fransiya Milliy Assambleyasiga asoslangan holda chapdan-o'nggacha bo'lgan holda bir nechta turlarga bo'linishi mumkin. Monarx davrida turli qarashdagi kishilar suhbat davomida urushib ketmasliklari uchun turli joylarga o'tirishgan. Konservativlar monarxning o'ng tarafida, monarxiyaga qarshi radikallar chap tarafda, moderatorlar esa markazdan joy olishgan edi. Ularning ma'lum

g‘oyalari o‘zgargan bo‘lsa ham, qancha vaqtlardan beri o‘nglar, so‘llar va markazchilar deb atab kelinmoqda.

**So‘llar** hozirgi kunda tenglik, xayriya dasturlar hamda hukumatning iqtisodiyotga aralashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

**O‘nglar** esa individual tashabbusni hamda shaxsiy iqtisodiy faoliyatga urg‘u beradilar.

**Markazchilar** esa har ikki tomon g‘oyalarni tatbiq etishga harakat qiladilar. Ikki guruhdan biriga sal og‘gan kishilar esa **markaz-o‘nglar** va **markaz-so‘llar** deb ataladi. Masalan, Shvetsianing siyosiy partiyalari esa chapdan o‘ngga qarab shakllantirilgan. Kommunistik partiya, ijtimoiy Demokratik partiya, Markaz partiyasi, shuningdek, Liberal, Christian va Konservativ partiyalari.

Demak, mafkuraning keng tarqalgan shakli sifatida “chap” dan “o‘ng”ga quyidagicha amalga oshiriladi: “kommunizm-sotsializm-liberalizm-konservativizm-fashizm”.

## 2. Siyosiy mafkura shakllari


Hozirgi dunyo – murakkab mafkuraviy ziddiyatlar dunyosi, undagi mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda kuchliroq va xavfliroqdir. Bunday sharoitlarda mafkura sohasidagi g‘alabaning ahamiyati siyosat va iqtisodiyot sohasidagi g‘alabaning ahamiyatidan kam emas.

Biroq mafkuraviy vositalar yordamida so‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intiluvchi siyosiy kuch va harakatlar, shu jumladan, tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm, irqchilik, diniy fanatizm va ekstremizm singarilar ham mavjud.

**Liberalizm.** Tarixan birinchi mafkura liberalizmdir. U lotincha «liberalis» so‘zidan olingen bo‘lib, «erkin» degan ma’noni anglatadi. “Liberalizm” dastavval 1812-yilda Ispaniyada qo‘llanilgan. XIX asrning 40-yillariga kelib, bu atama butun Yevropaga tarqalgan. Liberalizm XVII-XVIII asrlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalari negizida burjua sinfi mafkurasi sifatida shakllandı. Bu mafkuraning asosiy qoidalari

J.Lokk, T. Gobbs, Sh. Monteskyo, A.Smit, T.Jefferson asarlarida ishlab chiqildi va asoslandi.

## Siyosiy mafkuralarning bir-biri bilan qay daraja aloqadorligini ko'rsatuvchi sxema



Manba: Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.42.

Liberalizm - muayyan ijtimoiy bazaga, dasturiy strategik va taktik qoidalari mavjud bo'lgan siyosiy partiylar tizimiga ega bo'lgan ancha keng g'oyaviy, ijtimoiy va siyosiy harakat.

Mazkur olimlar faoliyati natijasida liberal an'analarning ikki muhim turi haqidagi nazariy xulosalar shakllandi. Bular: 1. Angliya - sakson va 2. kontinental Yevropa turlari.

Angliya – sakson tipdagi liberal g'oyalarda yaqqol ravishda individual erkinlik masalasiga yetakchi e'tibor qaratilsa, kontinental Yevropa liberal g'oyalarda asosiy e'tibor milliy konsolidatsiyalashuv, avtoritar qarashlardan voz kechish kabi masalalarga qaratilgan edi.

Liberalizm poydevorini shaxs erkinligi, uning jamiyatdagi barcha institutlarga nisbatan eng oliy qadriyat ekanligi, shaxsning ham o'z oldida, ham jamiyat oldida mas'ulligi, barcha kishilarining o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish huquqini tan olishligi kabi prinsiplar tashkil etadi.

Bu mafkura parlament tuzumining, muhim siyosiy muammolarni hal etishda murosai-madora, kelishuvning tarafidoridir.

U davlatning ko‘payib ketgan iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalariga salbiy munosabatdadir. Liberalizm hokimiyatning taqsimlanishi, siyosiy plyuralizm, elitalar raqobati, qonunning ustuvorligini e’tirof etadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashni o‘zining asosiy maqsadi deb biladi. Boshqa kishilarning qarashlari va e’tiqodlariga sabr-toqatli bo‘lishlik himoya qilinadi. Erkinlik prinsipi liberalizm tarafidorlari tomonidan davlat cheklashlaridan erkin bo‘lishlik sifatida talqin etiladi. Bu g‘oyani J.Lokk inson o‘ziga nima kerakligini har qanday hukumatdan ko‘ra yaxshi biladi, deb talqin etgan edi.

Liberalistik g‘oyalarni aks ettirgan birinchi konstitutsiya AQSH Konstitutsiyasidir. Liberallar davlatni har bir fuqaroning manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatuvchi holis hakam deb hisoblaydilar. «Boshqaruv bilan eng kam shug‘ullanadigan hukumat eng yaxshi hukumatdir» (T. Jefferson). Konstitutsiya davlatning mustabidligiga qarshi kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

“Davlat tunggi qorovul vazifasini bajarishi kerak”. Bu g‘oyaning mazmuni shuki, davlat faqat ijtimoiy tartibni qo‘riqlash va mam-lakatni tashqi tahdiddan himoya qilishni ta’minlaydigan, lekin kerakli vazifalar bilan ta’minlanishi kerak. Shuning uchun aynan liberalizmda fuqarolik jamiyatining davlat ustidan ustuvorligi g‘oyasi qaror topdi va amalga oshirilmoqda.

Iqtisoddagi liberalizm shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit (1723–1790 yy.) tomonidan rivojlantirilgan. Adam Smit “Millatlar boyligi” asarini yozib, “laissez-faire” iqtisodiyotiga asos soldi. “Laissez-faire” - davlatning iqtisodiyotga minimal darajada aralashuvini nazarda tutuvchi iqtisodiy doktrina. Shuning uchun ham Frederik Uotkins 1776-yilga “Mafkuralar asrining birinchi yili” deb nom bergen edi.

A.Smit fikricha, millatlar boyligini ular egalik qilayotgan oltin va kumush emas, ishlab chiqarayotgan mahsulot va xizmatlar tashkil qiladi. Smit bu bilan *merkantilizm*-davlatlar boyligini ularning g‘aznasidagi oltinlar bilan o‘lchashni inkor qildi. Ispaniya Yangi dunyoning oltin va kumushlarini talar, lekin baribir kambag‘allahib bo-

rar, Fransiya ham merkantilist siyosatini yuritib, iqtisodiy rejalar, subsidiya, yig‘imlar kabi savdoga cheklovlari qo‘yib kelardi.

A.Smit bunday qilib farovonlikka erishib bo‘lmasligini aytadi. Hukumat aralashuvi o‘sishni to‘xtatadi. Agar biror korxonaga bioror mahsulot ishlab chiqarishda monopoliya huquqi berilsa, raqobat sinadi va natijada yangi turdag'i mahsulotlar chiqarish va narxlarni pasaytirishga intilish yo‘qoladi. Iqtisod o’smaydi. Agar milliy ishlab chiqarishni himoya qilish uchun soliqlar qo‘yilsa, sifatli va arzon mahsulotlar uchun stimul bo‘lmaydi. Davlatni iqtisodiyotdan chiqarib tashlash orqali, iqtisodning o‘zini erkin (fransuzchada “laissez-faire”) qoldirish orqali farovonlikka erishish mumkin<sup>50</sup>.

Liberal mafkuraning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri xususiy mulkka va bozorga asoslangan, davlatdan ham, siyosiy institatlardan ham mustaqil bo‘lgan iqtisodiy jamiyat sifatidagi fuqarolik jamiyatiga oyasidir.

**Konservativizm.** XIX asr boshlariga kelib siyosiy mafkuraning yangi bir ko‘rinishi sifatida konservativizm o‘rtaga chiqdi. konservativizm – mavjud ijtimoiy tartibni, eng avvalo, millatda, dinda, nikohda, oilada, xususiy mulkda mujassamlashgan axloqiy-huquqiy munosabatlarni saqlab qolish tarafdori bo‘lgan siyosiy mafkura.

«Konservativizm» atamasini birinchi bo‘lib fransuz yozuvchisi F.R.Shatobrian (1768–1848) muomalaga kiritgan. XVIII asr oxiri - XIX asr boshlaridagi konservativizmning eng yirik nazariyotchilari E.Berk, S.Koldrij, U. Vordsvort va boshqalar edi. E.Berk 1790-yilda «Fransuz inqilobi haqida mulohazalar» nomli kitobini yozdi va bu asar konservativizmning poydevori bo‘lib qoldi.

Edmund Berkning XIX asrdagi g‘oyalarini zamonaviy konservativizmdan farqlash uchun “klassik konservativizm” deb ataymiz. Edmund Berk Adam Smitning fikriga qo‘shilgan va erkin bozorni eng yaxshi iqtisodiy tizim deb bilgan. Lekin Berk Fransiya inqilobchilari qabul qilgan liberal qarashlarga butunlay qarshi chiqqan. Bu yerda liberalizm Jan Jak Russo va Tomas Peynning ta’siri ostida radika-

<sup>50</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.40–41.

*lizmga aylanib ulgurgan edi. Bir joyda paydo bo‘lgan mafkura boshqa muhitga o‘rnashish davomida buzilib ketadi. Liberalizm Amerikaga hech qanday qarshiliklarsiz o‘rnashdi. Lekin Fransiyada zodagonlar sinfi va hukumat qo‘llab turgan Katolik cherkovi bor edi. Inqilobchilar mavjud muammolarni qatl qilish bilan hal qilib, mavjud barcha institatlarni yo‘q qilishdi.*

E.Berkning fikricha, bu katta xato edi. Liberallar inson aql-idroki-ga ko‘p ishonib yuborishgan. Odamlar qisman ratsional bo‘lib, ularda doim noratsional ehtiroslari bo‘ladi. Ularni cheklash maqsadida jamiyat yillar davomida an’analalar, institutlar va monarxiya, cherkov kabi axloq normalarini shakllantirgan. Ular yo‘q qilinsa, inson ehtiroslari xaosga va xaos o‘z navbatida oldingidan ham battarroq despotiyaga olib keladi. E.Berk 1972-yilgi “Fransiyadagi inqilob haqidagi mulohazalar” asarida Fransiya harbiy diktatura ta’siriga tushib qolishini bashorat qilgan. 1799-yil esa hukumat tepasiga Napoleon keldi.

Bugungi kundagi institutlar va an’analarning barchasi ham yomon emasligini, ular yuz yillar davomidagi xatolar natijasida shakllangan ekanligini ta’kidlaydi Berk. Odamlar unga o‘rganib qolishgan. Ularning yaxshilarini saqlash (inglizcha “conserve”, konservativizm nomi ham shu so‘zdan) kerak. Bu barcha narsani o‘zgarishsiz qoldirish kerak degani emas. Albatta islohotlar kerak, deydi E.Berk, faqat sekin, bosqichma-bosqich, odamlarni moslashtirib amalga oshirish kerak. “Islohotlar qilmaydigan davlat o‘zini saqlab qololmaydi”, deb ta’kidlaydi Berk.

Shuning uchun konservativizm qoidalarining negizida tabiiy ravishda qaror topgan narsalar tabiatining buzilmasligi, oila, millat, sinf, tabaqaviy bo‘linish bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish g‘oyasi yotadi.

Ana shundan kelib chiqib, konservatorlar ijtimoiy taraqqiyotga yangiliklarga nisbatan vorislikning ustuvorligini yoqlab chiqadilar. Ularning fikricha siyosiy prinsiplarni urf-odatlarga, milliy an’analarga, qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institatlarga moslashtirish lozim. Zinapoya tarzidagi ijtimoiy tuzilishning yuqorida o‘rnatilganligiga hech sanday shubha yo‘q va shuning uchun uni

inson tomonidan o'zboshimchalik bilan o'zgartirib bo'lmaydi. Bunda kelib chiqadiki, tenglik prinsipi inson tabiatiga zid keladi va uni jamiyat tuzilishining negiziga qo'yib bo'lmaydi.

**Neoliberalizm.** Adam Smitning haqiqiy, klassik liberalizmiga nima bo'ldi? XIX asrning so'ngida ma'lum bo'ldiki, erkin bozor A.Smit o'ylaganchalik o'zini-o'zi nazorat qila olmas ekan. Raqobatni mukammal deb bo'lmas, A.Smit ogohlantirganidek, ishlab chiqaruvchilar bozorni to'ldirib tashlashar, monopoliyalar ko'payib borar edi. Tizim kambag'al quiy sinfni kengaytirib yubordi. Sinfiy mansublik meros bo'lib qolar, boy oilalar farzandlari ta'lim olib, tanishbilishlar orttirib, hokimiyatda yuqori cho'qqilarni egallardi. Spekuliyativ sarmoyalar sabab iqtisodiy inqirozlar tez-tez qaytarilib turar, ayniqsa kambag'al va ishchi sinflarga ko'proq zarar qilar edi. Qisqasi, "laissez-faire" iqtisodiyotning bir qancha muaommali tomonlari mavjud edi. Ingliz faylasufi Tomas Hill Grin 1880-yillarda liberalizmni qayta ko'rib chiqdi. Liberalizmning asosida erkin jamiyat yotadi. "Lekin iqtisodiy taraqqiyot bu erkinlikni tortib olsachi?"—deb savol tashlaydi o'rtaqa Grin. Klassik liberallar kelishuv (ikki tomonning davlat nazoratisiz shartnoma tuzishi)ga katta urg'u beradilar. Agar sizga qo'yilgan shartlar yoqmasa, shartnoma tuzmang, tamom. Lekin kelishayotgan tomonlar o'rtasida katta tafovut bo'lsachi? Masalan, boy ish beruvchi va ishga zor bo'lgan kambag'al o'rtasida. Kambag'alning judayam oz maoshli ishni qabul qilishi yoki qilmasligi o'rtasida "erkin tanlash huquqi" bor deb bo'ladimi? Lekin bu miqdor qorinni to'qlash uchun ham yetmasachi? Shunday mulohazalar qilib, T.H.Grin ta'kidlaydiki, bu holatda davlat jalb qilinishi kerak. Davlat erkinlikni buzish uchun emas, uni himoya qilish uchun aralashadi. T.H.Grin buni *ijobiy erkinlik* deb atagan. Davlatning aralashuvi talabga javob beradigan darajada erkin yashashni ta'minlash uchun bo'lishi kerak edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'sirida XX asrning 30-yillarida liberalizm neoliberalizmga o'sib o'tdi. Unda AQSH prezidenti T. Ruzveltning «Yangi yo'li» katta o'rin tutdi. Ruzvelt davlatning iqtisodiy va ijtimoiy roli masalasini qaytadan ko'rib chiqdi.

Klassik liberalizm davlatni bozordan haydab chiqargan bo'lsa, neoliberalizm uni qaytarib olib keldi. Neoliberalizm ish haqi va ish soati, kasaba uyushmalari tuzish huquqi, ishsizlik va salomatlik sug'urtalari, yaxshi ta'lim imkoniyatlar uchun kurashadi. Buning uchun ular ishchilar sinfidan ko'ra boylarga ko'proq soliqlar solishiadi. Bundan tashqari, ular bank va moliyani tartibga solib, moliyaviy ko'piklarning oldini olishga harakat qilishadi. Bu AQSHdagi so'nggi asrning, Vudro Vilson, Franklin Ruzvelt va Barak Obama davrining liberalizmi. Klassik liberalizm bilan neoliberalizmning umumiy jihatasi so'z va matbuot erkinligida ko'rindi.

Neoliberallar davlatning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishi, faol ijtimoiy siyosat olib borishi zarurligini tan oladilar. Ular ijtimoiy adolatni o'rnatishni, monopoliyalarning hokimiyatini cheklashni, moddiy boyliklarni soliq tizimi va davlatning ijtimoiy dasturlari orqali jamiyatning quyi qatlamlari foydasiga qayta taqsimlashni yoqlab chiqadilar. Shuningdek, liberalizmda boshqaruvchi va boshqariluvchilarning o'zaro kelishuvi, siyosiy jarayonda ommanning ishtirok etishi zarurligi, siyosiy qarorlarni qabul qilish amaliyotini demokratlashtirish muhim xarakterli xususiyatdir.

Umuman, liberalizm g'arb demokratiyasining g'oyaviy asosi, AQSHda esa AQSH demokratik partiyasining g'oyaviy-nazariy mafkurasidir.

**Neokonservativizm.** Tarixiy taraqqiyot konservativizmda ham o'zgarishlar yasadi. U bugun liberalizm singari bozor, raqobat erkinligini ta'minlashni, iqtisodiyotga davlatning aralashuvini cheklashni talab qilmoqda. XX asrning 70-yillarda konservativizm tarixida yangi tarixiy davr - neokonservativizm (D. Bell, Z. Bzejinskiy, N. Podgores, N. Kristoll, A. Xayek) boshlandi. Bu yangi oqimning paydo bo'lishini tadqiqotchilar AQSHda Ronald Reygan boshchiligidagi respublikachilar partiyasining, Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher boshchiligidagi konservatorlar partiyasining, Germaniyada (o'sha davrda - GFR) Gelmut Kol boshchiligidagi XDS-XSS blokining hokimiyatga kelishi bilan bog'laydilar.

Neokonservativizm neoliberalizm va sotsializmga qarshi turish maqsadida shakllandı. Amerika neokonservativizmiga Milton Fridmen (1912–2006) katta turtki berdi. Nobel mukofoti sovrindori M.Fridmen erkin bozor baribir eng yaxshi iqtisod ekanligini, Adam Smit haq bo‘lganini va davlat qayerga aralashsa, o‘scha yerni vayron qilishini ta’kidlaydi. Margaret Tetcher Britaniyada, Ronald Reyan Qo‘shma Shtatlarda mazkur liberalizmni 1980-yillarda amalga tatbiq qilib, ijobiy natijalarga erishishdi.

AQSH neokonservativizmni Adam Smitning iqtisodiy qarashlari bilan Edmund Berkning an’ana haqidagi g‘oyalarining chatishmasi deyish mumkin.

Neoliberalizm davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashishi zarurligini tan oladi va davlat ijtimoiy dasturlarining rivojlantirilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Neokonservativizm esa aksincha, davlatning iqtisodiyotga aralashishini cheklashni talab qiladi. Antietatizm, davlatning ijtimoiy vazifalarini cheklash neokonservativizm g‘oviy-siyosiy ko‘rsatmalarining belgilovchi alomatidir.

Neokonservatorlar qarashlariga ko‘ra «eng yaxshi hukumat shuki, u kamroq boshqaradi». Ular aholining kam ta’milangan qatlamlari foydasiga resurslarni qayta taqsimlash maqsadida yirik kapitalga solinayotgan soliqlarga qarshi chiqadilar. Ular teng taqsimlashning ashaddiy dushmanlari sifatida davlatning ijtimoiy dasturlarini qisqartirishni talab etadilar. Neokonservatorlar fikricha, *hozirgi davlat kishilar uchun natijalar tengligini emas, balki imkoniyatlar tengligini yaratib berishi kerak*. Davlatning «sog‘iladigan sigir»ga aylanishi insonni buzadi, ishdan chiqaradi. Har bir kishi o‘z faoliyatida davlatga emas, balki o‘zining kuchiga hamda o‘z yaqinlari va hamyurtlariga tayanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, neokonservativizm mafkurasida oila, din, axloq, ayrim guruhlarning imtiyozli o‘rni haqidagi eski davrning qadriyatları yangi, burjua munosabatlari davrining individualizm, bozor erkinligi kabi qadriyatları bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

**Marksistik sotsializm**<sup>51</sup>. Liberalizm (klassik liberalizm) XIX asrda peshqadamlik qildi, lekin tanqidchilar boylar va kambag' allar o'rtasida katta farqlanish hosil bo'lganini ma'qullashmadid. T.H.Grindan farqli o'laroq, ba'zi insonlar islohotlarning ijtimoiy holatni yetarlicha o'zgartira olishiga ishonishmas, ular kapitalistik tizimni kuch bilan ag'darishni ma'qul ko'rishdi. Bu sotsialistlar edi va ularning yetakchi mutafakkiri Karl Marks bo'lib, olim sifatida fan uchun emas, balki inqilobni targ'ib qilish uchun yozgan. U burjuaziya tanazzulga yuz tutadi degan ilg'or nazariyalari ustidan ishslashdan ham oldinroq burjuaziyani yomon ko'rardi. Uning g'oyalari tafsiloti 1848-yildagi "Proletariatlarning kishanlaridan bo'lak yo'qotadigan narsasi yo'q. Ularga g'alaba qozonishlari uchun olam muhayyo. Butun dunyo ishchilari, birlashingiz!" kabi jarangdor so'zlarni qamrab olgan "Kommunist Manifesti" broshyurasida aks etadi. K.Marks Yevropaning ilk sotsialistik partiyasini tuzilishida ishtirok etgan.

K.Marks o'zining "Kapital" asarida nima sababdan kapitalizm ishchilar tomonidan ag'darilishi mumkinligini keng tahlil qilgan. Keyin sinflararo tafovutsiz sermahsul jamiyat, **sotsializm** kelishi kerak edi. Undan so'ng sanoat ishlab chiqarish yuqori bo'lgan **Kommunizm** bosqichiga o'tilib, ushbu sotsialistik jamiyat politsiya, pul birligi, hattoki hukumasiz hayot kechiradi. U tuzumda mol-mulk juda ko'p bo'ladi, odamlar faqat o'zlariga kerakli bo'lgan narsalarni oladi. Unda hech qanday xususiy mulkchilik bo'lmaydi va shu sabab hech qanday politisiyaga ehtiyoj qolmaydi. Chunki davlat sinflar orasida tafovut bor bo'lishi uchun bir vosita, agar hukumat bo'lmasa, demak, sinfiylik ham bo'lmaydi. Hukumat so'na boshlaydi. Sotsializmdan keyin kelishi bashorat qilingan utopiyaga-Kommunizm yuzaga keladi.

K.Marks bor e'tiborini kapitalzimning kamchiliklari va xatolariga qaratadi lekin sotsializmning qanday bo'lishi haqida hech qanday aniq ma'lumot berib o'tmaydi. Bu sotsialistlarning ko'pchiligiga sotsializm haqidagi o'z qarshlarini ilgari surishga va o'z g'oyalariaga nisbatan aynan shuni Marks nazarda tutgan deyishlariga imkon berdi.

---

<sup>51</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.45.

Misol tariqasida, Lenin va Stalinning gipermarkazlashtirilgan mustabid tizimi, Trotskiyning o'xshashlik ayblovi, Maoning o'z-o'zini vayron qiluvchi revolutsiyasi, B.Titonning markazlashmagan tizimi ni keltirish mumkin. Hammasi o'zicha haq edi. Va buning barchasi "real" sotsializmni o'zgacha talqin qilish imkoniyatini beradi. Nati-jada mazkur mafkura o'zini to'liq oqlamadi va yemirildi.

**Sotsial demokratiya** – ijtimoiy yordam va farovonlikka urg'u beruvchi, lekin sanoatga davlat egalik qilmaydigan sotsializmning yumshoqroq shakli<sup>52</sup>. XX asr boshlarida Marksizmni qo'llab-quvvatlagan Germaniya Sotsial Demokratik partiyasi Germaniyadagi eng yirik partiyaga aylandi. K.Marks an'anaviy partiyalarni va kasaba uyushmalarini e'tiborga olmadi, chunki burjua hukumatlari ularni osongina yo'q qilishi mumkin edi. Juda borsa, ular jiddiy inqilobiy faoliyat uchun mashg'ulot maydonlariga aylanardi. Lekin Sotsial demokratlarining omadi kela boshladi. Ular Reyxstag va mahalliy idoralarga saylanadilar, ularning kasaba uyushmaliyu yuqori maoshlar va yaxshiroq ish sharoitlarini talab qilib, unga erishishdi. Ba'zilar ishchi sinf o'z maqsadlariga inqilobsiz ham erishishi mumkin deya o'ylay boshladi. O'qdan foydalanishga na hojat, agar uning o'rniiga saylov byulletenlaridan foydalanish mumkin bo'lsa?

Shuning uchun bu mafkura XIX asrning oxirida nemis mutafakkirlari va jamoat arboblari Karl Kautskiy va E.Bernshteyn tomonidan asoslab berilgan. Unga ko'ra yangi jamiyatga sinfiy kurash yoki inqilobiy yo'l bilan emas, balki tinch, evolutsion yo'l bilan burjua jamiyatini asta-sekin isloq qilish orqali o'tiladi.

Eduard Bernshteyn ushbu qarashni rivojlantirdi. U o'zining "Evolutsion Sotsializm"ida (1901) ishchi sinfning haqiqiy yutuqlarini aytib o'tdi va Marks Kapitalizmining qulashi va inqilobning zarurligi haqidagi fikrlarini noto'g'ri deb topdi. Islohotlar natijasida ishchilar sinfi uchun ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish yo'li bilan ham sotsializm qurish mumkin, deya ta'kidladi u. Marksizmni qayta ko'rib chiqishda Bernshteyn mafkurani o'zgartiruvchi nomini oldi va an'anaviy mark-

---

<sup>52</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.-P.46.

sistlar tomonidan kuchli tanqidga uchradi. Germaniyadagi Veymar Respublikasi (1919–1933) davrida Sotsial demokratlar o‘zlarining jangovarligini susaytirishdi hamda liberallar va katoliklar bilan demokratiyani saqlash umidida birga faoliyat olib borishdi.

Sotsial-demokratlar bu maqsadlarini amalga oshirishni davlatning jamiyat iqtisodiy hayotiga faol aralashishini, daromadlarni yo‘qsillar foydasiga qayta taqsimlash, iqtisodiyotning davlat sektorini va ko‘plab davlat ijtimoiy dasturlarini rivojlantirish bilan bog‘laydilar.

**Millatchilik.** Mafkuralar ichida so‘l ko‘rinishga ega bo‘lgan mafkura – bu millatchilikdir. Millatchilik o‘z mamlakatining bidadligi va buyukligiga ishonish bilan ifodalanadi. Millatchilik ko‘pincha bosib olinish yoki chet elliklar qatag‘oniga uchrashdan kelib chiqadi. “Chet elliklarning zo‘ravonligiga boshqa yo‘l qo‘ymaymiz!” – deb qiyqirishadi kubaliklar, falastinliklar, iroqliklar, xitoyliklar va boshqa millatlar. Millatchilik barcha qolgan mafkuralar ustidan g‘alaba qozonib, ularga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. AQSH konservativimi Amerika millatchiligi bilan qorishib ketgan.

“Millat” atamasi dastlab XIII asrda paydo bo‘lgan va “millatchilik” atamasi esa Buyuk Fransiya inqilobi davridan boshlab qo‘llanilmoqda. Millatchilik siyosiy mafkura sifatida XIX asr o‘rtalaridan shakllana boshlagan. Uni 1848-yildagi G‘arbiy Yevropa inqiloblari davrida siyosiy mafkura sifatida rasmiylashtirishdi va G‘arbiy Yevropa va Lotin Amerikada o‘ta faollashdi.

Millatchilikning turli ko‘rinishlari mavjud:

- liberal millatchilik – mustamlakachilikka qarshi mustaqillik uchun kurash olib borgan millatlar. XX asrdagi mustamlakachilikka qarshi kurashlar aynan liberal millatchilik ko‘rinishida yuz berdi.

- konservativ millatchilik – milliy an’analarga, milliy birlik va milliy g‘ururga katta ahamiyat beradi. Masalan, Buyuk Britaniyadagi monarxiya konservativ millatchilik timsolidir.

- shovinizm millatchilikning jazavaga tushgan shijoatli ko‘rinishi, u militarizm bilan bog‘liq. Unda “dushman obrazi” shakllantiriladi.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy davrda ham turli siyosiy mafkuralar shakllangan. Ular qatoriga **feminizm** va **ekologik mafkuralarni** keltirish mumkin.

**Feminizm** – 1960-yillar ayol yozuvchilar tomonidan vujudga keltirilgan ayollar harakati. 1970-yilga kelib AQSH va G'arbiy Yevropada siyosiy kuchga aylandi. Feminist yozuvchi ayollarning erkaklarga nisbatan kam maosh olishlari, lavozimlari yo'qligi, erkaklar tomonidan psixologik va fizik tahqirlanganligi, kredit va sug'urtalar berilmasligi va ikkinchi darajali fuqarolar bo'lib qolganliklarini tanqid qilishar edi.

Ularning fikricha, mavjud muammoning tagida psixologiya yotadi. Ayollar va erkaklar o'rtasida biologik jihatdan gender roli yo'qligi, ushbu gender o'rtasidagi farqlar patriarxal jamiyat tomonidan sun'iy keltirib chiqarilgan bo'lib, uni tuzatish mumkin deydi feministlar. Tarbiya bolani yumshoq, qiz bolani esa o'ziga ishonuvchan qilib katta qilishi mumkin.

Feministlar idrokni o'stiruvchi guruhlarga qo'shib, shovinist erkaklarga qarshi chiqishdi. Feminizm o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ko'p ish beruvchilar ayollarga adolatli imkoniyatlar berib, ba'zida ularni erkaklardan ustun qo'ydilar. Ayollar yuqori boshqaruva o'rinaliga kirib kela boshladi, ular erkaklarga qaraganda jamoaviy bo'lib ishlamoqda, ko'pincha erkaklarga xos deb hisoblangan kasblar, jumladan tibbiyot, huquq va biznesda ayollarni ham ko'rishimiz mumkin.

**Ekologik mafkura (Environmentalizm).** 1960-yillarga kelib atrof-muhitni muhofaza qilish tarafdorlari rivojlangan mamlakatlarda keng quloch yoya bordi. Iqtisodiy o'sishning atrof-muhitga salbiy ta'siri haqida qayg'urilmas edi. Har qanday o'sish ham yaxshi o'sish hisoblanar, "biz hech qachon tabiatni yeb tugatmaymiz", degan g'oya bor edi. Konchilik, zavodlar va hatto fermer xo'jaliklari daryolarni zaharlashar, sanoat va avtomobillar havoni ifloslantirar, kimyoviy moddalar hududlarni yashashga yaroqsiz ahvolga keltirib qo'yar va yadroviy qurol radioaktivlikni yuzaga keltirardi. Atrof-muhim himoyachilari (Environmentalistlar) "o'sishni" cheklash kerak degan

g‘oya bilan chiqdilar. Atrof-muhitga zarar yetkazib, bunday ahvolda davom etolmaymiz deb tanqid qilishdi. Ekologlarning talablari faqat gina 1970-yilda “Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi” (EPA) tuzilishi bilan qisman qondirildi. Sanoat guruhlari EPA nazorati iqtisodiy o‘sishni cheklashini, respublikachi prezident amalda bo‘lganida EPA samarasiz ekanligi ta’kidlandi. Energiya ishlab chiqarish toza, tegilmagan atrof-muhitdan ko‘ra muhimroq deb aytishar edi<sup>53</sup>.

Atrof-muhit himoyachilari ba’zilar siyosiy partiylar tuza boshladilar, avval Fuqarolar partiyasi, so‘ngra Yashillar, lekin ularning ta’sir kuchi ikki asosiy partiyaning ichida bo‘lib, ularning hech biri atrof-muhit himoyachilarining ovoziga e’tiborsizlik bilan qaray olmas edi. G‘arbiy Yevropada 1980-yillar, ayniqsa Germaniya va Shvetsiyada Yashillar partiyasi parlamentga saylanishga, yadro energetikasini tugatishga, zaharli axlatlarni va urushlarni to‘xtatishga muvaffaq bo‘lishdi. Ko‘plar Yashillar partiyasiga eski an’anaviy partiyalarning muqobili sifatida qaray boshlashdi.

**Milliy mafkuralar.** Hozirgi zamoning mafkuralari qatorida milliy mafkuralar muhim o‘rinni egallaydi. Ular kelib chiqishiga, mazmun-mohiyatiga ko‘ra boshqa mafkuralardan farq qiladi.

Birinchidan, milliy mafkuralar dunyo mustamlakachilik tizimining yemirilishi, yosh mustaqil milliy davlatlarning tashkil topishi va ularni qaramlik doirasidan chiqarish, rivojlantirish zaruriyati bilan maydonga keldi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida G‘arbiy Yevropa milliy hayotning uyg‘onishini va milliy mafkuralarning gurkirab rivojlanishini o‘z boshidan kechirgan edi. Hozirgi kunga kelib bu tendensiyalar sobiq SSSR va boshqa sotsialistik mamlakatlar o‘rnida tashkil topgan respublikalarda yuz bermoqda.

Ikkinchidan, milliy mafkuralar faqat ayrim ijtimoiy, irqi, etnik guruhning, xalqning manfaatigina emas, balki mustaqillik uchun, milliy hayotni rivojlantirish uchun kurash olib borayotgan xalqlarning dunyoda tutgan o‘rnini, turmush tarzini, orzu-umidlarini, intilishlarini, manfaatlarini aks ettiradi.

---

<sup>53</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.46.

Uchinchidan, milliy mafkuralar u yoki bu xalqlar qaramligining obyektiv negizlarini, ularni bartaraf etish va haqiqiy mustaqillikka erishish yo'llarini ochib beradi.

To'rtinchidan, milliy mafkuralar yosh, mustaqil davlatlar, xalqlarining o'zligini anglashga, qaramlik doirasidan chiqishga, ularning chinakamiga erkin bo'lishiga, jahon hamjamiyatida munosib o'mini topishga yordam beradi.

Albatta, milliy mafkuralarning barchasi bir xil emas. Ularning ichida u yoki bu xalq uchun alohida sharoit yaratishga da'vo qiladigan mafkuralar ham uchrab turadi.

Biroq milliy mafkuralarning aksariyati xalqlarning haqiqiy orzu umidlarini, intilishlarini aks ettiradi. Ular yosh davlatlar xalqlariga qaramlik asoratlarini bartaraf etish va mustaqillikni mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib g'oyaviy bayroq bo'lib xizmat qiladi.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy mafkura deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy mafkuraning shakllanish tarixini tushuntirib bering.
3. Siyosiy mafkurlarning asosiy funksiyalarini sanab bering.
4. A.Smit qarashlari haqida ma'lumot bering?
5. Liberalizm va neoliberalizm o'rtaida qanday farqlar mavjud?
6. Konservativizm va neokonservativizm o'rta sidagi farqlarni tushuntirib bering?
7. Bugungi kunda qanday zamonaviy mafkuralarni bilasiz?
8. Sotsial-demokratiya mohiyatini qanday izohlaysiz?
9. Millatchilik mafkuralarining mohiyatini tushuntirib bering.

### *Mustaqil ish topshiriqlari*

1. O'zbekiston milliy mafkurasi borasida doklad tayyorlab keling.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув қўлланма.–Т.:ТошДШИ, 2013.

2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –T.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилкориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма.–Т., 2002.
8. Муаллифлар груҳи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Софуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Ўзбекистон, 1992.
11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик–хар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағищланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик

Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2016.–56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш–юрг тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.–Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017.–48 б.

5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 б.

6. Yusupova G.X., Jabborov X.J., Qosimova X.X. Siyosat nazariyasi, Т.: Universitet, 2003.

7. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O'quv qo'llanma –Т.: Soliq akademiyasi, 2008.

8. Бобоев X. Гафуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти.–Т., 2001.

9. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.

10. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.

11. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.

12. Отамуротов С. Ҳокимият ва демократия мутаносиблиги.// Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. 2003, №1–2.

13. Диний экстремизм ва фундаментализм: тарихи, моҳияти ва бугунги ҳавфи / Тузувчилик: F. Хотамов, M. Лафасов, A. Умаров. – Т., 1999.

14. Ислом ва дунёвий-маърифий давлат / З.И. Мунавваров ва В. Шнайцер-Детерснинг умумий таҳрири остида. –Т., 2003.

15. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Ўкув қўлланма.– Т., 2004.

16. Рамазонов И., Муминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997

17. Г. Аҳмадбек қизи. Фуқаролик жамиятини ривожланишида ахборотлашув жараёнининг ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, март, 2012 йил.

18. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва

демократик тараққиёт сари. –Т.: Ўзбекистон., 2005

19. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства –Т.: ТГЮИ, 2007.

20. Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов/ Пер.с англ.под.ред.Г.Г.Водолазова, В.Ю.Бельского.–М.: Юнитидана, 2005.

21. Жумаев Р.З. ва бошқ. Сиёсий ислоҳотлар стратегияси.–Т.: Академия, 2010.

22. Алексеева Т.А. Современные политические теории.–М.,2000.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **10-mavzu. DEMOKRATIYA VA UNING RIVOJLANISHI**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- demokratiya nazariyasi va uning hayotga tatbiq etilishi haqidagi bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Demokratiya, demokratik qadriyatlar, Avraam Linkoln, xalqning hokimiyat manbai deb tan olinishi, Afina demokratiyasi, demokratiya to'g'risida zamonaviy qarashlar, liberal-demokratiya, sotsial-demokratiya, plyuralistik demokratiya, poliarxiya, S.Xantington, R.Dal, R.Darendorf*

### **Asosiy savol:**

1. Demokratiya tushunchasi mohiyati va uning rivoji.
2. Demokratianing zamonaviy talqini va uning vazifalari.
3. Demokratiyani joriy etish masalasi: shart-sharoitlar va to'siqlar.
4. Demokratiya modellari va shakllari.

### **1. Demokratiya tushunchasi mohiyati va uning rivoji**

Bugungi kundalik hayotimizda “demokratiya” tushunchasi bilan deyarli har kuni to‘qnashamiz. Uning “tenglik”, “shaxs erkinligi”, “so‘z erkinligi” yoki “davlat boshqaruv usuli” sifatidagi bir qator talqinlari qo‘llaniladi. Hatto xalqaro munosabatlarda ro‘y bergen “rangli inqiloblar” demokratiyaga nisbatan G‘arbning mahsuloti sifatidagi qarashlarning shakllanishiga ham sabab bo‘ldi.

Hozirgi kunda dunyoda 200 dan ortiq davlat mavjud bo‘lsa, ularning 160 ga yaqini demokratik taraqqiyot yo‘lidan bormoqda. Bu davlatlarda demokratiya milliy va umumbashariy qadriyat sifatida

qaror topganligi dunyo hamjamiyatni tomonidan e'tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanligini dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilayotganligi demokratiyani milliy va umumbashariy qadriyat sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir<sup>54</sup>.

Demokratiya – jamiyatni idora etishning eng maqbul uslubi, fuqarolik jamiyatini qurishning bosh yo'li sifatida e'tirof etilgan umuminsoniyat tafakkuri va faoliyatining mahsulidir.

“Demokratiya” termini aslida ikki yunoncha so‘zning birikmasidan hosil bo‘lgan: “demos” – xalq va “cratos” – hokimiyat. “Demokratiya” so‘zi “xalq hokimiyati” degan ma’noni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, demokratiyaning asosiy belgisi alohida olingan u yoki bu mamlakatda xalqni oliv hokimiyatning manbai ekanligini amalda e’tirof etishdir. Ayni paytda, turli xalqlar demokratiyaning shakli va mazmunini turli davrlarda turlicha talqin etishgan. Demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan hozirgi zamon talqini aynan bir xil emas.

Ilmiy manbalarda demokratiyaning vujudga kelish asoslari qadimgi Gretsiya nomi bilan bog‘lanadi. Ularda demokratiya yana quydagi ma’nolarni: a) isyonkor yo‘qsillar tantanasi; b) kambag‘allar hukmronligi; d) polis ishida barcha fuqarolar ishtiroki; e) rasmiy tadbirlar orqali(saylov, navbat, tayinlash) boshqaruvni amalga oshirishni bildirgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumida qadimgi harbiy-qabilaviy davlatchilik bosqichlarida o‘ziga xos demokratik boshqaruv shakli mavjud bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda demokratiya boshqaruvning boshqa usullari (tiraniya, despotizm, oligarxiya, aristokratiya kabilalar) bilan o‘zaro o‘rin almashib turgan. Qadimgi Rimda esa Respublika cha demokratiya bir necha asrlar mobaynida amal qilib kelgan va keyinchalik imperiya tipidagi monarxiya boshqaruvi tizimiga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergen edi.

---

<sup>54</sup> Ahmedova F.M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o‘quv - uslubiy majmua–T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2016.–B.224.

Demokratiyaning yo‘qsillar hokimiyati sifatidagi ma’nosи— Platon o‘zining «Respublika» asarida barcha boshqaruv shakllarini 2 guruhga, ya’ni ijobjiy va salbiy guruhlarga bo‘ladi. U demokratiyani davlatning zulmkor shakllaridan biri deb hisoblab, uni timokratiya, oligarxiya va tiraniya bilan bir qatorga qo‘ygan edi. Boshqaruvning ushbu nomaqbul zanjirini parchalab tashlash uchun Platon ideal davlat, ya’ni bir guruh aristokrat (zodagon) donishmandlarning boshqaruvini joriy etishni taklif qiladi.

Aristotel ham demokratiya nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biridir. U boshqaruv usullarini 6 turga bo‘ladi va ularni 2 guruhga ajratadi.

- Ijobjiy usullar— monarxiya, aristokratiya, politiya;
- Nomaqbul usullar— zo‘rlik, oligarxiya, demokratiya.

Demokratiyaning polis ishida barcha fuqarolar ishtiroki sifatidagi ma’nosini - Qadimgi Afinada kuzatish mumkin. Qadimgi Gretsiyadagi Afina davlatida 400 ming aholi bo‘lib, uning faqatgina 40 mingigina teng huquqli fuqarolar bo‘lishgan. Mana shu o‘n foiz aholi butun «demos» nomidan hokimiyatga da‘vogarlik qilgan. Buning ustiga ayollar, ko‘chib kelganlar, qullar siyosiy huquqlarga ega bo‘lmaganlar.

O‘rta asrlar mobaynida ham ba’zi-ba’zida demokratik tipdagи shahar va davlatlar vujudga kelib turgan va u yerda xalq yig‘inlari jamiyat hayotida hal qiluvchi rol o‘ynagan (masalan, Gollandiya, Venetsiya, Lukka, Jeneva, Genuya va h.k.).

Biroq o‘rta asrlar siyosiy qarashlarida demokratiya nazariyasi qadimgi davrdagidan ancha farqlanadi. Bu davrga kelib «demokratiya – monarxning xalq ustidan hokimiyati» degan ma’no kasb eta boshlagan edi. Chunki o‘sha davrda amaldagi qirol hokimiyati oliv huquqlarining demokratik legitimatsiyasi (qonuniylashtirilishi) ga urinishlar mavjud edi. Bu davrdagi ko‘pgina muammolar, jumladan, qonunlar kimga tegishli: xalqqami yoki monarxgami, hokimiyatni amalga oshirish monarxning funksiyasi hisoblanadimi yoki majburiyatimi, kabi savollar o‘rtaga tashlanadi. Agar qadimgi va ilk o‘rta asrlarda asosiy hokimiyat qonunchilik hisoblansa, bu

davrda ijroiya hokimiyatining mavqeい ancha yuksalib, u hukmdor qо'lida mujassamlashdi.

Demak, "demokratiya" tushunchasiga nisbatan XIX asrga qadar ma'lum ma'noda salbiy munosabatda bo'lib kelingan. Yangi davrga kelib demokratik ta'limoti to'g'risida so'z ketganda, demokratiyaning respublikacha konsepsiysi, Buyuk fransuz inqilobi va uning asosiy demokratik tamoyillari, zamonaviy demokratiyaning shakllanishiga muhim hissa qo'shgan Amerika Qo'shma Shtatlari Konstitutsiyasiga alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Bu davrda davlatning respublikacha shakli va unga demokratiyaning munosabati masalasi yuzaga chiqdi. Dastavval, AQSHda respublika e'lon qilinganda ko'pchilik uning davomiyligiga shubha bilan qarashgan. Chunki Afina va Rim demokratiyasini barbod bo'lgan edi.

Ammo bu davrda AQSHda demokratiyaning rivojida T.Jeferson xizmati katta bo'lib, u o'z zamonasining buyuk hujjati – AQSH Mustaqillik deklaratsiyasining (1776-yil 4-iyulda qabul qilingan) mualifidir. Barcha kishilarning hayot kechirishi, erkinligi, mulkka egalik qilishi, xavfsizligining ta'minlanishi kabi huquqlarga ega bo'lishi mazkur Deklaratsiyaning asosiy jihatlari edi. Deklaratsiyaga ko'ra, xalq - hokimiyatning birdan-bir manbasi va unga suverenitet xosdir; hukumat xalqning xizmatkoridir; davlatning barcha organlari xalq manfaatlari yo'lida faoliyat yurgizishi lozim va agar ushbu manfaatlarni buzsalar, xalq o'ziga yoqmagan hukumatni ag'darib tashlash huquqiga ega; hokimiyatlar bo'linishi ta'minlanishi lozim. O'z mohiyatiga ko'ra ushbu hujjat 1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining debochasi bo'lib, uning uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, demokratiyaning rivojiga yangi davrdagi ijtimoiy shart-noma nazariyasi maktabi vakillarining (T.Gobbs, J.J.Russo, J.Lokk, Sh.L.Monteske va boshq) siyosiy-huquqiy qarashlari inson huquqlari va erkinliklari rivojiga keng yo'l ochib berdi. Demokratiyaning bir qator asosiy elementlari (xalq va hokimiyat suvereniteti, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va o'zaro ziddiyatlarni bartaraf qilish uchun shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish g'oyasi) shakllandи.

Yangi davrda demokratiyaning rivojiga fransuz davlat va siyosat arbobi Aleksis de Tokvil (1805–1859) o‘zining «Amerikada demokratiya» nomli kitobi bilan katta hissa qo‘shdi.

A.Tokvil demokratiya deganda toifalar o‘rtasidagi tafovutlarning yo‘qolishi, fuqarolar siyosiy tengligining qaror topishini tushundi. XVIII va XIX asrlardagi inqiloblar o‘rta asrlardan meros bo‘lib keelayotgan har bir kishining hokimiyat tizimi, nufuzi, madaniyatdagi mavqeい aniq belgilanadigan tarixiy tuzilmalarga barham berdi. Ayni ma’noda, demokratiya tuzilmasiz jamiyat, turli toifadagi kishilarning tartibsiz ravishdagi aralashuvi prinsipini o‘zida aks ettiradi. Agar ilgari har kimning o‘rni oldindan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, endilikda jamiyatning har bir a’zosi o‘z ahvolini na kafolatlangan, na tabiiy va na adolatli deb hisoblaydi. Bunda har kuni kurash bo‘ladi, unda kishilar nimaga arzishlari va qanday maqomga ega ekanliklarini birlariga isbotlaydilar.

Shu bilan birga A. Tokvil demokratiyaning salbiy jihatlarini ham e’tirof etgan. U demokratiyaga xos bo‘lgan anarxiyaga aylanish xavfini ko‘ra oldi. Lekin u hammadan ko‘proq demokratik jamiyatlardagi obyektiv prinsiplar – markazlashuvdan, inson hayotining uning individual erkinliklarini cheklab qo‘yadigan darajada davlatlashuvidan xavfsiragan edi. Erkinliklarning bu cheklanishi, jamiyatning qullikka qarab borishi ham demokratik xususiyatga ega. Bu xavfsirashlarning behuda bo‘lmaganligini biz bugungi kun tajribasidan ko‘rib turibsiz. Hozirgi davr uchun A.Tokvilning demokratiya bu – jamiyatni tashkil qilish shakligina bo‘lib qolmay, ayni paytda, unda kechayotgan jarayon hamdir, degan xulosasi juda muhim.

XX asrda demokratiya to‘g‘risidagi qarashlar tubdan o‘zgardi. BMT tomonidan 1948-yilda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi demokratiya uchun kurashning yangi to‘lqinini boshlab berdi.

Bu davrga kelib zamonaviy demokratiya faqat davlat yoki hukumat doirasasi bilan cheklanib qolmasdan, barcha turdagи katta-yu kichik jamoalardagi qarorlar qabul qilish jarayoniga ham taalluqli bo‘lib qoldi. Davlat doirasidagi demokratiya bilan ijtimoiy institatlardagi

demokratiya o‘rtasida keskin farqlanishlar yuzaga keldi. Biroq davlatning o‘zi ko‘p sonli jamoalardan tarkib topganligi sababli, davlat miqyosidagi demokratiya o‘z ustuvor ahamiyatini saqlab qoldi.

Shunday bo‘lsada, demokratiyaga nisbatan salbiy qarashlar mav-jud. Eng yangi davr mutafakkirlari bo‘lgan R. Mixels, V. Pareto, G. Moska va boshqalar demokratiyani tanqid qilish orqali siyosiy obro‘ orttirganlar. Ular demokratiyani barqaror tartibot bo‘lmay, doimo siyosiy chegara o‘rtasida o‘zgarib, jamiyatning anarxik va yarim anarxik holatidan odamlarning siyosiy mustaqilligini cheklash tomon harakatlanadi, deb hisoblaganlar. Aynish, ularning hisoblashlaricha, o‘rtacha demokratiya xilma-xil safsatabozlarning ta’sirida va quyidagilarni ortiqcha kengayib ketganligi oqibatida u olomonlar hokimiyatiga aylanadi, keyin esa diktator yoki diktatura paydo bo‘lib zo‘rlik yo‘li bilan tartib o‘rnatib jamiyatda avtoritar tartibotni tiklaydi, degan fikrlarni bildirib o‘tishgan. Masalan, XIX asr oxiri va XX asrda amalda o‘z mafkuralarining negiziga demokratiyaning turli xil nazariyalarini aralashtirmagan (bolshevizm va fashizmni ham qo‘sib hisoblaganda) siyosiy ta’limot qolmadi.

Bu o‘rinda XX asrning mashhur siyosatchisi U. Cherchilning demokratiya dahshatli narsa, lekin insoniyat hali undan afzalroq narsani o‘ylab topgani yo‘q, degan fikrlarini keltirish mumkin.

XX asrda ikkinchi yarmida demokratiya keng rivojlandi. Mustaqillikka erishgan sobiq mustamlaka davlatlar o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlay boshladilar. 1974-yildan ko‘plab avtoritar va totalitar davlatlar demokratik tizimga o‘tishdi. Siyosatshunoslikda bu “demokrtik tranzit” deb nomlanadi. Bu konsepsiya 1970-yillarda amerikalik mutaxassis Denkvort Rostouga tegishli, unga ko‘ra avtoritar tuzumlar ma’lum vaqtidan keyin qulashi liberal-demokratik tuzumlar o‘rnatalishi olib keladi. Bu yo‘lning tarafdori S. Xantington “demokratik tranzitning” tarixda 3 to‘lqini bo‘lgan deb ta’kidlagan:

Birinchi to‘lqin XIX asr boshida AQSHning erkak jinsiga mansub aholisi ovoz berish huquqiga ega bo‘lgandan so‘ng boshlanib, to XX asrning 20-yillari boshlarigacha davom etdi. Bu davr mobaynida demokratiya 29 mamlakatda qaror topdi. Birinchi to‘lqinning zaiflashu-

vi va orqaga chekinishi 1922-yilda Italiyada hokimiyat Mussolinining qo‘liga o‘tishi bilan boshlandi va 1942-yilgcha, ya’ni demokratik jamiyatlar soni 12 taga tushguncha davom etdi.

Ikkinci to‘lqin 2-jahon urushida Ittifoqchilar kozongan g‘alabadan turki olib, 1962-yilgacha, ya’ni demokratik davlatlar soni 36 taga yetguncha davom etdi. 1962-yildan 70-yillarning o‘rtalarigacha davom etgan davr ikkinchi to‘lqinning orqaga chekinishi davri bo‘ldi. Buning oqibatida demokratik mamlakatlar soni yana 30 tagacha kataydi.

Uchinchi to‘lqin 1974-yilda boshlanib, yana 30 ga yaqin demokratik tuzumlarni yuzaga chiqardi. Uchinchi to‘lqin, hatto Sovet Ittifoqi va Afrikaning ayrim qismlarida sodir bo‘lgan inqilobiy o‘zgarishlarni hisobga olmagan taqdirda ham, demokratik mamlakatlar sonini ikki baravarga oshirdi.

Tadqiqotchi Charlz Krautxammer “Arab bahori”ni 2005-yildayoq demokratlashuvning 4-to‘lqini bo‘lishi kerak edi, deb hisoblagan<sup>55</sup>.

Bu XX asrda demokratiyaning boshqa mafkuralardan ustunligi borasidagi qarashlarning shakllanishiga olib keldi. 1960-yilda Harvard sotsiologi Daniel Bell shunday fikrlarni bildirgan, bir asr davom etgan mafkuraviy kurash tugash arafasida. Mustabid kommunizm inqirozga yuz tutishi va farovon davlatchilik g‘oyasining vujudga kelishini D.Bell “mafcura intihosi” deb atadi. Endilikda mafkuralar borasida ortiqcha tortishuvga hojat yo‘q, siyosiy munozaralar asosan qanday qilib farovon davlatni barpo etish borasidagi texnik masalalar borasi yuz beradi.

1989-yilga kelganda, bu qarashni AQSHlik F.Fukuyama “tarix intihosi” deb nomladi<sup>56</sup>. Uning fikricha, Sobiq Ittifoq parchalanishi bilan G‘arbning liberal-demokratiysi g‘alaba qozondi, bu nafaqat mafkuralar o‘rtasidagi kurashga, balki tarixning ham tugashiga olib keldi. Endilikda hech qanday mafkuralar bizga tahdid sololmaydi. “Tarixning tugashi” ma’nosи yirik mafkuralar o‘rtasidagi kurashning tugaganligini anglatadi.

<sup>55</sup> Krauthammer Ch. The Arab Spring of 2005 // The Seattle Times. 21 March 2005. // [ttp://seattletimes.com/html/opinion/2002214060\\_krauthammer21.html](http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_krauthammer21.html)

<sup>56</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.56.

Bir qarashda D.Bell va F.Fukuyama tezislari to‘g‘ridek, biroq bugungi kunda demokratiyaga xavf soluvchi– neofashizm, natsionalizm (millatchilik) singari radikal mafkuralar mavjudligini ham e’tirof etish lozim.

## **2. Demokratiyaning zamonaviy talqini va uning vazifalari**

Ma’lumki, demokratiyani jamiyatda qanday qilib joriy etish to‘g‘risida olimlarning bir necha avlodni bosh qotirganlar va bugungi kunda ham bu boradagi izlanishlar davom etmoqda. G‘arb olimlarining hisoblariga ko‘ra hozirgi vaqtgacha demokratiya to‘g‘risida to‘plangan ta’rif va tasniflar soni qariyb 550 tadan ortiqdir.

R.Dal e’tirof qilganidek, “demokratiyaning tabiatni ikki yarim ming yildan beri har tomonlama muhokama qilib kelinmoqda, bir qarashda ushbu muddat barchani qoniqtiradigan demokratiya g‘oyalari yig‘indisini ishlab chiqish uchun bemalol yetarlidек tuyuladi. Lekin bu amalga oshmadidi. Yigirma besh asr davomida demokratiya g‘oyalari ilgari surildi, himoya qilindi, tanqid qilindi, yo‘q qilindi, keyin yana tiklandi, ammo ushbu hodisaning mohiyatini tashkil qiluvchi fundamental masalalar bo‘yicha yagona to‘xtamga kelingani yo‘q”.<sup>57</sup>

Bugungi kunda “demokratiya” tushunchasini qanday tushunamiz? Buni AQSH prezidenti Avraam Linkoln quyidagicha izohlagan «demokratiya – xalq uchun xalq saylagan xalq boshqaruvidir». (Government of the people, by the people, for the people.). Demokratiya xalqning o‘zidan kelib chiqadi («of»), xalq tomonidan amalga oshiriladi («by»), xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi («for»).

Demokratiyani ta’riflashda lug‘aviy ma’nosida kelib chiqib, “xalq hokimiyyati” ma’nosida bugungi kunda qo‘llab bo‘lmaydi. Zamonaviy demokratiya xalq hokimiyyati o‘rnatalishi dolzarb sanalmaydi. Aksincha, xalq unda umumiyl rol o‘ynaydi. Bugun kunda demokratiya –

<sup>57</sup> Ahmedova F.M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o‘quv - uslubiy majmua-T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2016.–B.224.

AQSHlik sotsiolog va politologi Seymour Martin Lipset (1922–2006-yy.) ta’biri bilan aytganda, “hokimiyat mansabдор shaxslarining o‘zgarish imkoniyatini konstitutsiya asosida muntazam ta’minlaydigan siyosiy tizimdir va aholining katta qismiga hokimiyat uchun kurashayotgan talabgorlar orasidan bittasini tanlash borasidagi eng asosiy qarorga ta’sir o‘tkazish imkoniyatini yaratgan ijtimoiy mexanizmdir”<sup>58</sup>.

Demak, real demokratiya hech qayerda va hech qachon xalq hokimiyati bo‘lgan emas, chunki bunday holda u nodavlat, ijtimoiy o‘zo‘zini boshqarishni bildiradi. Boshqacha aytganda davlatning parchalanishini anglatadi.

To‘liq demokratiya esa ijtimoiy hayotni boshqarishda davlat rolining butunlay to‘xtashi va bu – jamiyatning nosiyosiy, no-davlat ko‘rinishidir. Paradoksni qarangki, u holda - ya’ni davlat yo‘qolganda, barham topganda «demokratiya» tushunchasi hozirgi ma’nosini yo‘qotadi. Bundan xulosa shuki, modomiki davlat mavjud ekan, demokratik jamiyatda ham demokratiya ideal demokratiya bo‘la olmaydi va ijtimoiy ong buni to‘g‘ri, tabiiy bir reallik sifatida qabul qilmog‘i lozim. Shunday qilib, jamiyatda davlat mavjud bo‘lganda demokratiya to‘liq bo‘lmaydi, to‘liq demokratiyada esa davlatga - ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning hokimiyat ko‘rinishidagi shakliga ehtiyoj qolmaydi<sup>59</sup>.

Shu sababli, demokratiya eng yaxshi ma’noda ko‘pchilikning kamchilik ustidan hokimiyati hisoblanadi, ko‘pincha esa ko‘p yoki kamroq darajada xalq nazoratida bo‘luvchi, yaxshi tashkil etilgan ozchilikning boshqaruв shaklidir.

Hozirgi vaqtida demokratiya - xalqning hokimiyat manbai, deb e’tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik huquqlarini himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy hokimiyat tizimi sifatida tushuniladi. Demokratiya sharoitida xalq doimo hokimiyatning yagona va asosiy manbai bo‘lib qoladi.

<sup>58</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.100.

<sup>59</sup> Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: O‘qituvchi, 2008. –B.182.

Umumlashtirib olganda, hozirgi siyosatshunoslikda «demokratiya» atamasi to‘rt ma’noda qo‘llaniladi:

- asosiysi – xalq hokimiyati, «xalq boshqaruvi, xalq tomonidan va xalq uchun saylanish»;
- a’zolarining boshqaruvdagi teng huquqli ishtiroki va ko‘pchilik ovoz orqali qarorlar qabul qilishga asoslangan har qanday tashkilotning tuzilish shakli;
- muayyan qadriyatlar tizimi, muayyan dunyoqarashga asoslangan ideal jamiyat tuzumi. Erkinlik, tenglik, inson huquqi va boshqalarni bu idealning tarkibiy qismlari qatoriga kiritadilar;
- xalq hokimiyatiga intilgan ijtimoiy va siyosiy harakatlar, demokratik maqsad va ideallarni amalga oshirish.

Shuningdek demokratiyani talqin etish borasida bir necha yondashuvlarni farqlash mumkin<sup>60</sup>:

**Qadriyatli yondashuv** tarafдорлари демократиyaning о‘зи аслida qadriyatdir, deb hisoblaydilar. Bu qadriyatlar erkinlik, tenglik, sotsial adolat, xalq hokimiyatchiligidagi о‘з aksini topadi.

**Ratsional-utilitar talqin.** Demokratiyaning ratsional-utilitar talqini tarafдорлари, demokratiya jamiyat hayotini tashkil qilish uchun nihoyatda foydali va eng ratsional hodisadir, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, demokratik boshqaruv nihoyatda samarali qarorlarning qabul qilinishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tizimli yondashuv.** G‘arb politologlari N. Luman, K. Doych kabilalar g‘oyasiga ko‘ra, demokratiya jamiyat siyosiy tizimini saqlash va rivojlantirishning hamda ushbu tizimning turli sotsial o‘zgarishlarga moslashishining eng samarali yo‘lidir. Demokratiyaga tizimli yondashuv vakillari demokratiyaning boshqaruvning ideal modeli deb hisoblaydilar. Ayni paytda, ularning fikriga ko‘ra, bunday modelning ishlashi uchun mamlakat fuqarolari ratsional ravishdagi xulq-atvorni namoyon qilishlari zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, hozirgi paytda ham demokratiyaning yangi nazariy asoslari, formalari ustida mutaxassislar izlanishlarni davom

---

<sup>60</sup> Idirov U.Yu. Politologiya. Mavzularini interfaol o‘rganish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: ToshDSHI, 2010. –B.41-42.

ettirmoqdalar. Jumladan, “Vertikal demokratiya” (J. Sar-tori), “Informasion demokratiya” (M. Rokar) kabi atamalar ham ilgari surilmoxda.

Demokratiya bugungi kunda o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, mazkur sabab tufayli qadrli hisoblanadi. Demokratiyaning muhim belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin<sup>61</sup>:

1. Xalq davlat hokimiyatini boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi. Bevosita ishtirok etish - bunda xalq saylovlari yo‘li bilan davlatning oliv vakillik yoki mahalliy vakillik organlarini shakllantiradi. Bilvosita ishtirok etish – bunda fuqarolar davlatning vakillik organlariga o‘z nomzodini taqdim etadi.

2. Davlatning suverenitetiga egaligi. Davlat mustaqillikka egaligi demokratiyaning ta’milanishiga muhim omildir. Davlat qachonki, suverenitetini, ya’ni ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka egaligini e’lon qilinishi bilan to‘la asosda erkinlikni ta’minlaydi.

3. Davlatda to‘la suverenitet ta’milanishi uchun o‘z davlat ramzlariga (bayrog‘i, gerbi, madhiyasi), davlat tiliga egaligi, davlatning poytaxtiga egaligi, chegaralarining daxlsizligi, bo‘linmasligi.

4. Hokimiyatlarning bo‘linishi prinsipiiga ko‘ra davlat organlari-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo‘linishi.

5. Jamiyat va davlatning eng muhim masalalari umumiyoq ovozga-referendum o‘tkazish yo‘li bilan hal qilinishi.

6. Davlatda fikrlar xilma-xilligi asosida siyosiy rejim o‘rnatish. Ya’ni hech qaysi mafkurani davlat mafkurasini sifatida o‘rnatmaslik.

7. Davlatda ijtimoiy adolat va qonuniylik o‘rnatilganligi. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinishi.

8. Inson huquqlarini tan olish va xalqaro andozalar miqyosida ro‘yobga chiqarish.

9. Demokratik huquqiy va dunyoviy davlat prinsiplarini amalga oshirish.

10. Ijtimoiy nizolarning oldini olishning, barqarorlik va milliy kelishuvni qo‘llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmning mayjudligi.

<sup>61</sup> Husainov U. Demokratizm prinsipini ta’minalashning huquqiy asoslari. -T., 2010. -B.12-13. // library.ziyonet.uz/uz/book/download/49273

Demokratiyaning mazkur belgilaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda “demokratik davlat” degan atama ham mavjud.

Demokratik davlat – davlatning tamomila yangi tarixiy shaklidir. U ijtimoiy adolat prinsiplariga, huquqqa, qonunga, konstitutsiyaga asoslanadigan davlatdir. U xalq uchun xizmat qiladigan, uning manfaatlari va huquqlarini ta’minlaydigan davlatdir. Demokratik jamiyat qurish jarayoni kuchli fuqarolik jamiyatni yaratishni taqozo qiladi.

**Demokratik davlat** – bunday davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida mamlakat fuqarolari turli-tuman yo’llar orqali keng ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo’li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Demokratik davlatda inson manfaati, qadr-qimmati, hayoti, sog’ligi har narsadan yuqori turadi. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash choralarini doimiy ravishda ko’rib boradi. Davlat fuqarolar nazoratida bo’ladi va ularga turli vositalar orqali hisob beradi. Demokratik davlat o’zini o’zi boshqarish, ko’ppartiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo’lishi, fikrlar xilma-xilligiga sharoit yaratadi<sup>62</sup>.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, G’arb manbalarida “noliberal demokratiya” (“illiberal democracy”) atamasi mavjud. Masalan, Sobiq Sovet Ittifoqi o’zini eng yaxshi demokratiya deb atagan. Xitoy bugungi kunda o’zini “Xalq Respublikasi” (“Xitoy Xalq Respublikasi”) deb ataydi. Yoki G’arb davlatlari tomonidan qoralanayotgan Shimoliy Koreya rasmiy nomi Koreya Xalq Demokratik Respublikasi sanaladi. Ma’lum ma’noda bu davlatda saylovlar bo’ladi, demokratik prinsiplar mavjud. Ammo bu yerda “demokratiya” tushunchasi “erkinlik” tushunchasi bilan teng emas. Saylovlar, fikr bildirishlar, ommaviy axborot vositalari davlat nazoratida. Shunday ekan, o’zini demokratiya deb e’lon qilgan har qanday davlat to’laqonli demokratiya bo’lmasligi ham mumkin. Albatta, bu G’arbcha yondashuv sanaladi<sup>63</sup>.

<sup>62</sup> G’aniev K., Rasulov B. Davlat hokimiysi va boshqaruvini demokratlashtirish. Uslubiy ko’rsatma.—Samarqand: SamDAQI, 2013.—B.40.

<sup>63</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.—P.98.

Bundan tashqari, kunlik axborot oqimi bilan tanishish jarayonida “fuqarolik jamiyat” va “demokratik jamiyat” tushunchalari bilan to‘qashamiz. Ular ayni bir xil ma’noga ega tushunchami yoki ular o‘rtasida farq bormi? degan savol tug‘ilishi mumkin.

Demokratik jamiyat – fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan, boshqaruvda fuqarolar faol ishtirok etadigan jamiyatdir<sup>64</sup>.

Demokratik jamiyat kishilarga aosiy huquqlarni beribgina qolmay, balki ularni himoya ham qiladi. Asosiy inson huquqlariga so‘z va matbuot erkinligi; diniy e’tiqod erkinligi; majlislar va uyushmalar erkinligi; qonun oldida teng himoya erkinligi; qonunga rioya qilish va adolatli sud yuritish huquqlari kiradi. Demokratik jamiyat fuqarolari g‘oyalar va qarashlarning erkin almashuvi natijasida haqiqatni aniqlashga yordam beradilar. Fikrlar va g‘oyalar xilma-xilligi jamiyat taraqqiyoti uchun yo‘l ochadi. Demokratiya cheklanmagan g‘oyalar, ma’lumotlar, qarashlar, fikr-mulohazalar uchun zamin yaratadi, o‘z navbatida, ular ham demokratiyaning gullab-yashnashi uchun xizmat qiladi.

Demokratik jamiyatda diniy e’tiqod erkinligi yoki vijdon erkinligi ham muhim o‘rin tutadi. Demokratik hukumat diniy e’tiqod odamlarning shaxsiy ishi, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, biror-bir dinga e’tiqod yoki mansublik hech kimga majburan singdirilmaydi. Fuqarolar u yoki bu dinni boshqasidan afzal ko‘rganliklari va aksincha, birorta ham dinga imon keltirmaganliklari uchun jazoga tortilishi yoki jarima to‘lashga majbur etilishi mumkin emas.

Demokratik jamiyat fuqarolari siyosiy jarayonda ishtirok etishga majbur qilinishi mumkin emas. Ular turli tashkilotlar, uyushmalar va ko‘ngilli jamiyatlarga birlashish imkoniyatlariga egadir. Jamiyat a’zolarining erkin ravishda birlashuvi va hukumatdan ay-

<sup>64</sup> “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fanidan ma’ruzalar matni. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliq akademiyasi Ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasи.–T., 2016.–B.3. // akademiya.uz/d/967631/d/demokratikzhamiyatkurishnazariyasimaruzalar\_0.doc

rim xilma-xil guruuhlar tashkil etish huquqi demokratianing poy-devori hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati – teng huquqli insonlarning jamiyati, yakka shaxslar yoki jamoalar manfaatlarini ta'minlashga ko'maklashadigan jamoat va nodavlat institutlarining tizimidir.

Ular o'rtasidagi farqlar quyidagilardan iborat<sup>65</sup>:

– birinchidan, demokratik jamiyat fuqarolik jamiyatining quyi bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun ham unda demokratik qadriyatlarning shakllanish jarayoni amalga oshadi. Masalan, qonun ustuvorligi, so'z, fikrlar va e'tiqod erkinligi va boshqalarni shakllantirish demokratik jamiyatni qurish jarayonida amalga oshiriladi;

– ikkinchidan, agar demokratik jamiyatda unga xos bo'lgan qadriyatlarni shakllantirish vazifasi turadigan bo'lsa, fuqarolik jamiyatida ularning tabiiy ishlashini tashkil qilib turuvchi tizim shakllanadi. Buning natijasida fuqaro bilan hokimiyatga nisbatan fuqaroning mavqeい ustuvorlik darajasiga ko'tariladi. Bunday sharoitda hokimiyat hokimiyat uchun emas, balki xalq uchun tamoyili qaror topadi;

– uchinchidan, fuqarolik jamiyatida hokimiyatga nisbatan fuqarolarning mavqeい ustuvorlik darajasiga ko'tarilishi natijasida hokimiyatga nisbatan fuqarolarning jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar, uning taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarda fuqarolarning mas'ulligi ham oshadi. Chunki, uning hokimiyat faoliyati us-tidagi nazorati ta'minlanadi. Shu ma'noda ham jamiyatni boshqarish fuqarolar zimmasiga o'tadi, demokratik jamiyatda inson huquqlarini ta'minlanganligini belgilovchi mezon bo'lsa fuqarolik jamiyatida fuqarolarning jamiyatni boshqaruvida ishtirok qilishi, erkin faoliyat ko'rsatishi hayotiy jarayon darajasiga ko'tariladi;

– to'rtinchidan, fuqarolik jamiyati demokratik qadriyatlar shakllangan jamiyat, demokratik huquqiy davlat zaminida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular o'rtasida uyg'unlik mavjud bo'ladi. Agar demokratik jamiyatda unga xos bo'lgan qadriyatlar shakllansa, fuqa-

<sup>65</sup> Toshev B. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda siyosiy partiyalarning o'mni va roli: Ma'ruzalar matni. (Yuristlar malakasini oshirish markazi)–T., 2013.–B.3–16. // [http://www.uzmarkaz.uz/www\\_data/articles/file/6\\_mavzu.%20siyosiy%20partiyalarning%20urni.pdf](http://www.uzmarkaz.uz/www_data/articles/file/6_mavzu.%20siyosiy%20partiyalarning%20urni.pdf)

rolik jamiyatida ularning tabiiy ishlash jarayoni amal qiladi. Saylov, nomidan ko‘rinib turibdiki, bir necha nomzod ichidan tanlab olish asosida o‘tkaziladigan tadbir hisoblanadi. Ammo tanlovn ni xalq amalga oshirmas ekan, u hokimiyatning o‘z xohish-irodasini xalq nomi bilan amalg a oshirishning eng qulay imkoniyatiga aylanib qolaveradi.

Faqat bu o‘rinda demokratiyani davlat boshqaruv usuli sifatida tushunib, uning mohiyatini cheklab qo‘ymaslik zarur. Demokratiya va demokratlashuv muammosi bilan shug‘ullangan AQSHlik faylasuf Djon Dyui (1859–1952-yy.) demokratiyaga bunday tor yondashuvni qattiq tanqid qilgan. Uning fikricha, — “...demokratiya avvalambor siyosiy boshqaruvning usuli emas, balki yetakchi ravishda hayotni tashkil qilish usuli, turmush tarzidir”. Hozirda demokratlashuv jarayoni bilan bog‘liq nazariyalar, ma’lumotlar ko‘pchiligi bois, demokratiyaga o‘tish vazifalarini hal qilish yo‘llarining xilma-xilligi oshib bormoqda va shuning uchun ham uning konseptual masalalari murakkabligicha qolmoqda<sup>66</sup>.

Demokratiya jamiyatda muayyan vazifani bajaradi. Demokratiyaning vazifasi – fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin hozirgacha hech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga harakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muhim siyosiy faollik belgisi bo‘libgina qolmasdan, bu ularning huquqlari, balki burchlari ekanligini ham anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatlarni ham hisobga olish muhimdir<sup>67</sup>.

---

<sup>66</sup> Ahmedova F.M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o‘quv - uslubiy majmua—T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2016.—B.224.

<sup>67</sup> O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyogi: Oliy ta‘lim muosasalari talabalari uchun darslik. / mas‘ul muharrir prof. I.Ergashev.—T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.—B.17.

### **3. Demokratiyani joriy etish masalasi: shart-sharoitlar va to'siqlar**

Jamiyatda demokratiyani qanday joriy etish, uni amalga oshirish mexanizmi ayni vaqtida dolzarb sanaladi. Ilmiy adabiyotlarda *demokratiyani amalga oshirish mexanizmlarining* quyidagi jihatlari sanab o'tilgan:

1. Hokimiyatlarning bo'linishi funksiyasi – qonunchilik, ijroiya va sud.
2. Iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy huquqlarning qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilishi.
3. Erkin va muntazam davriy saylovlari.
4. Siyosiy qarorlarning ko'pchilik tomonidan qabul qilinishi va bunda ozchilik huquqlarining qat'iy kafolatlanishi.
5. Qonuniy muxolifatning mavjudligi.

Biroq jamiyat hayotini demokratlashtirish uchun muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lishi va yaratilishi lozim. Aks holda demokratiyaning joriy etish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Demokratiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy va tashqi siyosiy shart-sharoitlarni sanab o'tish mumkin.

Demokratiyaning iqtisodiy shart-sharoitlari: mulkchilik shakllari plyuralizmi, rivojlangan bozor va tovar ishlab chiqaruvchilar raqobati mavjudligi, industrial va umuman iqtisodiy rivojlanishning nisbatan yuqori darajasi; urbanizatsiyaning yuqori darajasi. Yirik shaharlar aholisiga boshqaruvning an'anaviy shakllariga moyil bo'lgan qishloq aholisiga qaraganda demokratiyaga ko'proq tayyor bo'ladi; ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanganligi; raqobatli bozor iqtisodiyoti.

Demokratiyaning ijtimoiy shart-sharoitlari: o'rta sinfga mansub aholi sonining ko'pligi va ijtimoiy plyuralizmning mavjudligi. Ijtimoiy tengsizlik darajasining pasayishi. Rivojlangan ichki bozor va raqobatbardosh mulkdorlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda demokratiyaning shakllanishi muvaffaqiyatli kechadi. Biryoqlama, eksportga mo'ljallangan iqtisodiyot va davlat bilan qo'shilib ketgan

monopolistik burjuaziyaga ega davlatlar esa ko‘proq avtoritarizmga moyil bo‘ladi.

Demokratiyaning madaniy shart-sharoitlari. Aholining yuqori savodxonlik darajasi va faol siyosiy madaniyatning mavjudligi. Bilimsiz odamlar odatda siyosat va demokratiya bilan qiziqmaydilar, natijada turli siyosiy kuchlar nayranglari obyektiga aylanib qoladilar. Ma’rifatlilik va faol siyosiy madaniyat demokratiya uchun zarur bo‘lgan siyosatda faol qatnashishni, ayni paytda qonunga, ko‘pchilikning qarorlariga bo‘ysunish qobiliyatini aks ettiradi.

Demokratiyaning tashqi siyosiy shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi: aralashuv; siyosiy ta’sir ko‘rsatish; iqtisodiy ta’sir o‘tkazish; madaniy-axborot ta’siri; yaxshi qo‘sning shinchilik.

Barqaror demokratiya davlatlarda birdaniga paydo bo‘ladigan jarayon emas, u tarixan keng ko‘lamli va yaxshi ta’lim olgan o‘rtalarning shakllanishi orqali yuz bergan. Demokratiyaga o‘tish shu sababli asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshadi. Jahonda demokratiyaning keng yoyilishi asosida demokratlashuv jarayonini faqat oldingan intiluvchi, kengayuvchi tendensiya sifatida qabul qilish noto‘g‘ri. Jamiyatda demokratiyaning inqirozga yuz tutish holatlari ham mavjud. Demokratiyaga to‘siq bo‘luvchi bir qator omillarni sanab o‘tish mumkin:

1. kambag‘allik;
2. ijtimoiy tengsizlik;
3. o‘rtalarning mavjud bo‘lmashligi;
4. ta’lim darajasining pastligi;
5. neft;
6. qabila-urug‘chilik tizimi;
7. zaif fuqarolik jamiyat;
8. ilgari demokratik tajribaning mavjud bo‘lmashligi;
9. yon-atrofida demokratik davlatlarning mavjud bo‘lmashligi.

Bu yerda neft omilining kiritilishiga sabab G‘arb manbalarida davlat foydasining 60 % va undan ortig‘ini neftdan oluvchi 23 davlat davlatlar “petrostate” atamasi bilan ataladi. Neft foydasi kam sonli insonlar qo‘lida to‘planadi, natijada demokratiyaga zarar yetadi. Shu-

ning uchun bunday davlatlarni to‘laqonli demokratik davlat deb atash mushkul. Bu davlatlarda yalpi ichki mahsulotning jon boshiga ulushi yuqori. Ammo neft sanoati ko‘pchilikni ish bilan ta’minlay olmaydi. Fuqarolar davlatga ish va ijtimoiy yordam bo‘yicha qaram bo‘lib qoladilar. Oqibatda nisbatan mustaqil, plyuralistik o‘rtta sinf shakllana olmaydi<sup>68</sup>.

Ma’lum ma’no yuz bergen “Arab bahori”, “rangli inqiloblar”ning mohiyatini aynan jamiyatning yuqorida ko‘rsatilgan muammolari bilan bog‘liq. 2003-yilda Gruziya, 2004-yilda Ukrainada yuz bergen “rangli inqiloblar” borasida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Toshkentda “Nezavisimaya gazeta”sining muxbiriga bergen intervusida quyidagilarni ta’kidlab o‘tgandi:

“Nazаримда, бу турдаги инқилобларда албатта бир неча омиллар мавжуд бо‘лади. Бу борада Г‘арбга асосиyl рол ажратилишига менunchalik moyil emasman. Bundan ham muhimroq bir omil borki,u ham bo‘lsa, qator yillar davomida mamlakatda asta-sekin to‘planib boradigan ichki norozilik kayfiyatidir. Ikkinchи omil esa, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi siyosatiga bog‘liq. Shuningdek, hukumatning aholi bilan aloqasi qanchalik mustahkam ekani, ular o‘rtasida muloqotning mavjud yoki yo‘qligi ham g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. **Eng yomoni, hokimiyat bilan xalqning munosabati kar bilan soqovning “so‘zlashuvi”ni eslatadigan holatdir**”<sup>69</sup>.

Qisqacha ma’lumot berib o‘tadigan bo‘lsak, “rangli inqiloblar” – “demokratiya”, “liberalizm”, “milliy mustaqillik” shiorlari ostida: 2000-yil Serbiyada, 2003-yil Gruziyada, 2004-yil Ukrainianada, 2005-yil Qirg‘izistonda olib borilgan va o‘zlariga muayyan bir rangni belgi sifatida olishgan. “Rangli inqiloblar”da tashqi ta’sirlarni quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘rganish mumkin: demokratiyani yoyish shiori, say-lovlarga aralashish, oppozitsiyani har tamonlama qo‘llab-quvvatlash yoki yoshlar harakatini vujudga keltirish va turli nohukumat tashki-

<sup>68</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction.–New Jersey: Pearson, 2013.–P.114

<sup>69</sup>Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar , deb hisoblashar edi.–T.: O‘zbekiston, 2005.–B.6.

lotlar faoliyati va uning siyosiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirish va boshq.

“Arab bahori” atamasi esa fanga 2011-yilning boshida amerikalik Mark Linch va Djozef Massad tomonidan kiritilgan<sup>70</sup>. “Arab bahori” atamasi ostida ular ba’zi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlari-da tuzumlari o‘zgarishiga olib kelgan namoyishlarni ta’riflashadi. Amerikalik mutaxasislar bu atamani mafkuraviy deb tan olishgan<sup>71</sup>. “Arab bahori” 1848-yildagi “Xalqlar bahori” va 1968-yildagi “Praga bahori”<sup>72</sup> atamasiga qiyos sifatida o‘ylab topilgan. Bunday tasnif bu inqiloblarni liberal-demokratik tuzumlarning o‘rnatalishi bilan yakun topadi deb baholangan.

“Rangli inqiloblar” va “Arab bahori” yuz bergan davlatlarda demokratiyaning joriy etilishi bilan bog‘liq asosiy ikki muammo namoyon bo‘ldi:

Birinchidan, demokratik jarayonlar rivojiga yillar davomida to‘planib qolgan ichki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolar, hukumatning xalq dardini vaqtida eshitda olmasligi to‘sinq bo‘lib kelgan. Bu xalqning noroziligiga sabab bo‘lgan.

Ikkinchidan, demokratiyaning sun‘iy ravishda tashqi ta’sir ostida joriy etishga urinish salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi yana bir bor o‘z isbotini topdi. Deyarli barcha demokratiya bilan bog‘liq ilmiy adabiyyotlarda demokratiyaning yagona universal modeli yo‘qligi, har bir jamiyatda demokratiya o‘ziga xos xususiyatlar asosida evolutsion yo‘l bilan rivojlanishi e’tirof etilgan.

---

<sup>70</sup> Lynch M. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. -New York: Public Affairs. 2012.-P.304.

<sup>71</sup> См. Фененко А. Междуречная конкуренция на Ближнем Востоке: факты и тенденции. // Международные процессы.-Том 12.-№3 (38).-2014.-С.34-54

<sup>72</sup> Sullivan C.J. Riding the Revolutionary Wave: America, The Arab Spring and the Autumn of 1989 //

The Washington Review of Turkish and Eurasian Affairs. Rethink Institute. April 2011. // <http://www.thewashingtonreview.org/articles/riding-the-revolutionary-wave-america-the-arab-spring-and-the-autumn-of-1989.html>

“Demokratiya – faqat nazariy yoki siyosiy jarayongina bo‘lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an’analari, madaniyat, psixologiyasining xususiyatlari hamdir. Siyosatda demokratiyani yuqorida tushirish mumkin. Lekin bu bilan demokratiya sizu bizning amaliy hayotimizga singmaydi. Demokratiya jamiyatning qadriyatiga, har bir insonning boyligiga aylanmog‘i kerak. Bu esa bir zumda bo‘ladigan ish emas. Xalqning madaniyatida joy ololmagan demokratiya turmush tarzining tarkibiy qismi ham bo‘la olmaydi. Bu tayyorgarlik ko‘rish va demokratiya tamoyillarini o‘zlashtirishdan iborat ancha uzoq muddatli jarayondir”<sup>73</sup>.

Bugungi kunda demokratiyaning – “Sharqona demokratiya” va “G‘arbona demokratiya” deb atalgan shakllari haqida ham turli ziddiyatli mulohazalar mavjud. “Avvalo, – deydi professor I.Ergashev – “Sharqona demokratiya” va “G‘arbona demokratiya” atamasining alohida-alohida ishlatalishi demokratiyaning umuminsoniy ma’nomazmuniga, umum e’tirof etilgan qadriyat sifatida uning umumiyligi soya tashlamaydi. Boshqacha aytganda, –demokratiya (Sharqda ham, G‘arbda ham)– umum e’tirof etilgan tushuncha. Unda muammo nimada? Muammo bizning nazarimizcha, – “Sharqona” yoki – “G‘arbona” demokratiya o‘rtasidagi farqni anglash zamirida yotibdi, ya’ni muammo demokratiyaning umumiyligi, yagona mohiyatiga emas, uning o‘ziga xos milliy-ma’naviy xususiyatlarini farqlash, e’tirof etish bilan bog‘liq”. Demokratiyaning bu atamalarini bir-biriga qarama -qarshi qo‘yish yoki bir-biridan ustun qo‘yish mumkin emas<sup>74</sup>.

---

<sup>73</sup> Каримов. И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараккиёт йўлида.–Т.6.–Т.:Ўзбекистон, 1998.–Б.160.

<sup>74</sup> Ahmedova F.M. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o‘quv - uslubiy majmua–Т.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2016.–Б.225.

#### **4. Demokratiya modellari va shakllari**

Demokratiyaning joriy etilishi, amal qilish prinsiplariga ko‘ra o‘ziga xos modellari mavjud. Metodologik nuqtayi nazardan demokratiyaning uchta modellarini farqlash mumkin:

Liberal demokratiya. Ijtimoiy fikr tarixida birinchi bor individni jamiyat va davlatdan, davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajratdi, davlatning fuqarolik jamiyati va shaxs bilan munosabatlarini qonun va vazifalar jihatidan chekladi, ozchilikning ko‘pchilikka nisbatan muxtoriyati va huquqdarini himoya qildi, barcha fuqarolarning siyosiy teng huquqlilagini bayon etdi, shaxsni siyosiy tizimning bosh elementi sifatida fundamental, begonalashmaydigan huquqlar bilan ta’minladi. Liberal demokratiya g‘oyasiga ko‘ra shaxs manfaatlari asosiy yetakchi omil hisoblanadi. Liberal demokratiyaning yirik nazariyotchilaridan bo‘lgan italiyan siyosatshunos va faylasufi Norberto Babbio (1909–2004-yy.) fikriga ko‘ra, demokratiyaning asosiy subyekti bu ayrim olingan shaxs-individdir.

Liberal demokratiyaning o‘ziga xos belgilari:

- mulkiy va boshqa cheklovlarining yo‘qligi;
- individualizm, individning davlat qonunlaridan ustunligi tan olinishi;
- erkinlikni har qanday majburlash va cheklashlarning bo‘lmasligi deb tushunish;
- davlat faoliyati sohasini asosan ijtimoiy tartibni, ijtimoiy tinchlikni muhofaza qilish bilan cheklab qo‘yish, uning fuqarolik jamiyati ishlariga aralashmasligi;
- fuqarolarning bo‘linishi;
- davlat ustidan fuqarolar nazorati o‘rnatalishining samarali shakli sifatida tiyib turuvchi va muvozanat saqlovchi tuzilmalarning yaratilishi;
- ko‘pchilikning ozchilik ustidan hukmronligining cheklanishi va hokazo.


Shu bilan birga liberal-demokratiyaning ijtimoiy-siyosiy cheklanganligi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qila olmasligi, tengsizlikning or-

tishi, shaxs siyosiy ishtirokining cheklanganligi, davlat “tungi qorovul” roli bilangina cheklab qo‘yilishi liberal demokratiyaning asosiy kamchiligi sanaladi.

**Plyuralistik demokratiya.** Plyuralistik demokratiya modeli liberal siyosiy tizimdan o‘sib chiqqan va uning asosiy tashkiliy tamoyillarini meros qilib olgan. Ularga konstitutsionalizm, hokimiyatlar bo‘linishi va boshqalar, shuningdek, shaxsiy erkinliklar, inson huquqlari, ozchilik muxtoriyati va boshqa qadriyatlar kiradi. Zamonaviy demokratiyaga berilayotgan baholar va atamalar turlicha. U ko‘pincha plyuralistik, deb ataladi, negaki u avval mavjud bo‘limgan ijtimoiy manfaatlar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, guruhiy va boshq.) va ularni bayon qilish shakllarining (siyosiy partiyalar, jamiyatlar, ijtimoiy harakatlar, fuqarolar guruhlari) xilma-xilligiga asoslanadi.

Plyuralistik demokratiya turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar manfaatlarining siyosiy hokimiyat tizimida to‘liq ravishda aks etishini nazarda tutadi. Bunda jamiyatda biror sind yoki guruhning monopol hokimiyati kuzatilmaydi.


### PLYURALISTIK MODELI



Jamiyatda hokimiyatga, uning qarorlariga ta'sir o'tkazuvchi bir nechta manfaatdor guruhlar (diniy, ijtimoiy harakatlar, turli guruhlar va boshq.) mavjud bo'ladi. Ta'kidlash joizki, siyosiy partiyalar manfaatdor guruh hisoblanmaydi, u manfaatdor guruhlar manfaatini amalga oshiruvchi vosita sanaladi. Ayni paytda turli manfaatlar o'rtaсидаги мувоzanatning та'minlanishini talab etadi.

Shunday qilib, plyuralistik demokratiya xilma-xil ijtimoiy guruhlarga o'z manfaatlarini ifodalash va raqobatli jarayonda ularning muvozanatini aks ettiruvchi, murosa-madoraga asoslangan boshqaruv shaklidir.

Plyuralistik demokratiya nazariyasi jahoning ko'plab mamlakatlarida e'tirof etiladi va amalda qo'llanila boshladi. Biroq, unda ham ayrim kamchiliklar mavjudligi oydinlashdi, kamchiliklari - voqelikni ideallashtirish, aholining guruhlarga mansubligi hissini, fuqarolarning manfaatdor guruhlarda ishtirokini oshirib yuborishda ko'rindi. Real hayotda aholining uchdan bir qismidan ko'p bo'lмаган qismi manfaatdor guruhlarda birlashgan. Bu esa plyuralistik demokratiya ko'pchilik hokimiyatini amalga oshirishda ayrim kamchiliklarga egaligini ko'rsatadi.



Mazkur kamchiliklar natijasida plyuralistik demokratiya nazariyasi doirasida yana bir model shakllandi. Plyuralistik demokratiya g‘oyasining tarafdarlaridan biri bo‘lgan AQSHlik siyosatshunos Robert Dal (1915–2014) – plyuralistik demokratiya tashkiliy tus olgan ko‘p miqdordagi manfaatlarning birgalikda mavjud bo‘lishi, degan fikrni ilgari surgan edi<sup>75</sup>. Bu o‘rinda R.Dal yangi “poliarxiya” modelini shakllantirdi. Unga ko‘ra, jamiyatda bitta guruh manfaatlari monopoliya bo‘lib qolmasligi, jamiyat diktaturaga aylanib ketmasligi uchun “poliarxiya” (“ko‘p hokimiyatilik”) modelini taklif etdi. Bunda jamiyatda saylovlarda hokimiyat uchun kurashayotgan bir necha guruhlar mavjud bo‘lib, ularning o‘z elitasi va keng ommasi mavjud. Bu orqali ular siyosiy jarayonlarga keng ommani jalb etadilar. Ular bir-birlari bilan barqaror munosabatda bo‘lishadi.

R.Dal “Demokratiya va uning tanqidi” (1989) asarida poliarxiyaning siyosiy rejim sifatidagi asosiy qoidalarini shakllantirdi:

- muxolifatda hukumat qarorlari borasida e’tiroz bildirish huquqining mavjudligi;

- umumiy ovoz berish, erkin va shaffof, halol saylovlar.

*Sotsial demokratiya.* Demokratiyaning keng tarqalgan modellaridan biri sotsial demokratiyadir. O‘zbekistonda siyosatshunoslikka doir ilmiy adabiyotlarda sotsialistik demokratiya, jamoaviy demokratiya, identitar demokratiya shaklida ham uchratish mumkin. Faqat sotsial demokratiyaning rivojlanish asoslari marksistik-sotsialistik g‘oyalarga borib taqalsada, u tarixiy rivojlanishi davrida mohiyatan o‘zgargan. Uni sobiq Ittifoq yoki shu kabi davlatlardagi sotsialistik demokratiya modeli bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Sotsial demokratiyaga sof jamoaviy yoki sotsialistik demokratiya deb qarasak, unda muxolifat yot tushuncha hisoblanadi, xususiy mulk huquqi cheklanadi, ko‘ppartiyaviylik masalasi ham ochiq qoladi, o‘zini xalq bilan bir narsa sifatida ko‘rsatuvchi totalitar rejim shakllanishi va insonlar huquqlari cheklanishi xavfi bor. Sotsial demokratiyaning asosiy g‘oyalari –adolat, tenglik, erkinlik va birodar-

<sup>75</sup> Даль Р. Демократия и её критики / Пер. с англ. под ред. Ильина М. В.–М.: РОССПЭН, 2003.

lik. Shuning uchun bugungi kunda sotsial demokratiyani mohiyatan ijtimoiy demokratiya sifatida tushunish maqsadga muvofiq sanaladi.

Masalan, buni hozirda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan “Adolat” sotsial demokratik partiyasi ustavi va saylov oldi dasturlaridan ham kuzatish mumkin. Partiya saylov oldi dasturlarida quyidagi tamoyillar aks etgan: “Adolat – hayotimizning bosh mezoni, adolat – har bir inson uchun”, “Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun”, “Yangi uy qurmey turib, eskisini buzmang” yoki “Partiya o‘zini iqtisodiyot va **ijtimoiy sohalarda** innovatsion taraqqiyotning, yaratilgan moddiy boyliklarni **adolatli taqsimlashning**, qonunchilik va huquqtartibotni mustahkamlashning, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga amal qilishning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ochiqligi va **hisobbdorligining** faol tarafдори, deb biladi.”<sup>76</sup>

Umuman, sotsial demokratiyaning o‘zga xos jihatlarini quyidagilarda kuzatish mumkin:

- jamoaviylik, ijtimoiy manfaatlarning shaxsiy manfaatlardan ustunligi;
- davlat ishlarida fuqarolarning teng huquqliligi va faol ishtiroki;
- inson huquqlarining kafolatlanishi;
- so‘z va mitinglar o‘tkazish erkinliklari;
- fuqarolarning boshqaruvda ishtirok etishlari uchun ijtimoiy shart-sharoitlarning yaratilishi;
- ana shu asosiy guruhlarning demokratik tarzda tashkil etilishi.

Xalqning boshqaruvda ishtirok etish darajasi, hokimiyat funksiyalarini kimlar bajarishiga bog‘liq ravishda demokratiyani ikki turga ajratish mumkin:

1. Bevosita demokratiya (to‘g‘ri demokratiya, plebissitar demokratiya, partisipatorlik demokratiyasi)
2. Bilvosita demokratiya (vakillik demokratiyasi, reprezentativ demokratiya)

---

<sup>76</sup> “Adolat” SDP Saylovoldi dasturi - <http://adolat.uz/wp-content/uploads/2014/12/saylovoldi-dastur.pdf>

*Demokratiyaning bevosita shakli* qarorlarni qabul qilish, muhokama etish va tayyorlashda fuqarolarning o‘zлari ishtirok etishlarini taqozo qiladi. Amalda ushbu shakldan nisbatan uncha katta bo‘Imagan jamoalarda foydalaniлади. Bunda qabul qilinayotgan qarorlar oddiy bo‘lib, ularni tayyorlash va muhokama qilish uchun maxsus malaka talab qilinmaydigan hollarda foydalanish mumkin. Hozirgi kunda bevosita demokratiya asosan mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish darrasida uchraydi Masalan, Shveysariyada fuqarolarning o‘zлari tomonidan masalalar ko‘rib chiqiladi va o‘zлari tomonidan hal qilinadi. Bunga muhim qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, muhim siyosiy va mahalliy ahamiyatga molik qarorlar qabul qilish kabilar kiradi.

Bundan tashqari bevosita demokratiyaning ko‘rinishlariga referendumlarni keltirish mumkin. Unda xalq muayyan bir muhim masalada qaror qabul qilishda bevosita ishtirok etadi. Shuningdek, meeting, namoyish, norozilik harakatlari ham hukumat qaroriga ta’sir o‘tkazganligi bois ular ham ma’lum ma’noda bevosita demokratiya shakllari hisoblanadi (asosan partisipatorlik demokratiyasini doirasida).

Konstitutsiyaviy huquq fanida bevosita demokratiya institutlarini ikki guruhga: qat’iy (imperativ) va tavsiya xususiyatga ega institutlarga ajratish qabul qilingan.

Bevosita demokratiya qat’iy (imperativ) shakllarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, xalq tomonidan qabul qilingan qaror uzil-kesil, majburiy hisoblanadi, davlat organlari yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan tasdiqlashni taqozo etmaydi (ular faqat mazkur qarorni rasman qabul qilingan deb e’lon qilishlari mumkin). Bevosita demokratiyaning qat’iy shakllariga imperativ referendum hamda deputatlar va saylab qo‘yiladigan mansabdar shaxslarni xalq tomonidan saylash kiradi.

Bevosita demokratiya tavsiyaviy shakllarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular yordamida aniqlangan xalq (aholi)ning xohish-irodasi tegishli davlat organi yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organining qarorida o‘z aksini topadi (mazkur qarorga asos bo‘lib xizmat qiladi). Lekin mazkur organ o‘z hujjatining uzil-kesil matnini o‘zi mustaqil ta’riflasa-da, u xalq (aholi)ning xohish-irodasini inobatga oladi.

Bevosita demokratiyaning tavsiyaviy shakllariga konsultativ referendumlar (so'rovlar), xalq muhokamalari, tashabbuslari (shu jumladan, huquq ijodkorligi tashabbuslari), petitsiyalar kiradi.

Fuqarolarning yig'ilishlari (yig'inlari)ning qarorlari ayrim hollarda (masalan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini saylashda, deputatlikka nomzodlarni kiritishda) imperativ xususiyatga ega bo'lsa, boshqa hollarda (masalan, kichik tumanda yoki aholi yashaydigan manzilda yangi obyekt qurilishi yuzasidan o'z fikrini bildirishda, mahalliy tuzilma boshlig'ining bildirishini muhokama qilishda) tavsiya, maslahat xususiyatiga ega bo'ladi.

«To'g'ridan-to'g'ri demokratiya», «bevosita xalq hokimiyatchiligi» tushunchalari ham «bevosita demokratiya» tushunchasi bilan bir xil ma'noda qo'llanadi<sup>77</sup>.

Bevosita demokratiya fuqarolarning siyosiy faolligini oshiradi, hokimiyat legitimligini mustahkamlashni ta'minlaydi, davlat instituti va mansabdar shaxslar faoliyatini samarali nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada hokimiyatni suiiste'mol qilish, deputatning xalqdan uzilib qolishi, amaldorlar byurokratlashuvining oldi olinadi.

Shu bilan birga bevosita demokratiyaning ham o'z kamchiliklari bor:

- bevosita demokratiyada ham fuqarolarning siyosatga ta'sir etish imkoniyatlarini mutlaqlashtirish kerak emas. Chunki bevosita demokratiya fuqarolarga ovoz berish vositasida, odatda, prezident, hukumat, partiya yoki tashabbuskor guruh tomonidan tayyorlangan muayyan qonun loyihasini, qarorlarni ma'qullash yoki rad etish huquqini beradi, holos.

- yetarli darajada iqtidorga ega bo'lmaganligi sababli, qabul qilingan qarorlarning kam samara berishi;

- ommaning mafkuraviy ta'sirlarga beriluvchanligi oqibatida totalitarizm yoki populistik avtoritarizm xavfining kuchayishi;

- fuqarolarning katta qismini majburlashsiz, ularning shaxsiy erkinliklariga daxl qilmasdan turib, boshqaruvda doimiy tarzda ishtirok etishga jalb qilishning mumkin emasligi.

<sup>77</sup> Ilmiy lug'at // <http://muloqot.uz/blogs/164579/116319/>

**Vakillik demokratiyasi** bu – fuqarolarning boshqaruvdagi bilvosita ishtiroki bo‘lib, ular qonunlarni qabul qilish va farmoyishlar beinish vakolati berilgan o‘z vakillarini hokimiyat organlariga saylaydilar. Uning mohiyati fuqarolarning qarorlar qabul qilishda o‘z siyosiy vakolatlarini ular tomonidan saylangan, ularning manfaatlарини ifodalaydigan hamda ana shu manfaatlarga mos ravishda qonunlar qabul qilishi, farmoyishlar berishi lozim bo‘lgan deputatlarga o‘tkazib berish orqali bilvosita ishtirok etishidan iborat. Xususan, hududning kattaligi yoki boshqa sabablar tufayli fuqarolarning muhim siyosiy qarorlarni qabul qilishda bevosita qatnashishi qiyin bo‘lgan hollarda hamda mutaxassislarning yuqori malakaga ega bo‘lishini talab qiluvchi murakkab qarorlar qabul qilishda vakillik demokratiya juda zarurdir.

Vakillik demokratiya to‘g‘risida nemis olimi Ralf Darendorf «o‘zining tom manosiga qarama-qarshi o‘larоq, demokratiya «xalq hokimiyati» emas, bunaqasi umuman bo‘lmaydi. Demokratiya – bu xalq tomonidan saylanadigan, kerak bo‘lsa uning o‘zi chaqirib oladigan hukumat; bundan tashqari bu – o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgan hukumatdir», deb yozadi.

Vakillik demokratiyasining eng asosiy mezoni bu – haqqoniy saylovlardir. Saylovlар orqali xalq o‘z nomidan hokimiyatda faoliyat yuritadigan o‘z vakillarini saylab oladilar. Vakolatli demokratiyaning eng katta afzalliklaridan biri, erkin ijtimoiy tuzum va ijtimoiy vazifalarni hal etishning yuksak darajada samaradorligidir. U barqarorlik va tartibni kafolatlaydi, jamiyatni uning keng qatlamlari intiladigan tekischilikdan saqlaydi. Vakolatli demokratiyaning yuksak samara berishi siyosiy tizimning oqilona tashkil etilishi, aniq va ravshan mehnat taqsimoti, qarorlar qabul qiluvchi shaxslarning to‘g‘ri demokratiya sharoitlaridagiga nisbatan ancha yuqori iqtidorga ega ekanliklari bilan izohlanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, vakillik demokratiyasining quyidagi asosiy xususiyatlarini sanab o‘tish mumkin<sup>78</sup>:

---

<sup>78</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.100–101.

*Hukumatning xalq oldida javobgarligi.* Demokratiyada siyosatchilarni ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlashi yoki ovozlarning ko‘pchiliginini olishi shart. Siyosiy yetakchilar fuqarolar oldida javobgardirlar. Saylanishiga qaramasdan noto‘g‘ri boshqarayotgan saylangan yetakchi o‘z lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Hech kim siyosatda o‘rin egallahash uchun alohida huquqqa ega emas. U erkin, adolatli va doimiy tarzda fuqarolar tomonidan ma’lum bir davrga saylanishi lozim. Ma’lum muddat chegarasiga qaramasdan, ko‘p tizimlar qayta saylov-larga ruxsat berishadi. Qayta saylov bu – xalq tomonidan hukumat siyosatining umumiy yo‘nalishini ham qo‘llab-quvvatlash ham nazorat qilish vositasidir.

*Siyosiy raqobat.* Saylovlar davomida saylovchilar yo nomzodlarni yo partiyalarni tanlash huquqiga ega bo‘lishlari shart. Bu kamida ikkita yo‘l borligini bildiradi. Yevropada saylovchilar bir nechta partiylar orasidan tanlash huquqiga ega. Bu orqali partiylar uchun o‘zining alohida mafkurasi va siyosatini ajralishiga zamin yaratiladi. Bitta partiya yoki bitta nomzod saylovları soxta bo‘ladi.

*Hokimiyatdagi o‘zgarishlar.* Hokimiyat boshqaruvi tinch va legitim yo‘llar bilan ma’lum muddatlarda almashinib turishi kerak. Hokimiyat tepasida uzoq turadigan partiyaga ega tizim bu haqiqiy demokratiya hisoblanmaydi. 2006-yili Singapur Xalq Harakati partiysi saylovda ketma-ket o‘ninchı marta g‘olib bo‘ldi; bu ularga qisqa saylov oldi harakatlarini olib borish va konstitutsiya chegaralarini qayta o‘rnatishga imkon berdi. Meksikaning Institutsional Inqilob Partiyasi 1920-yildan keyingi davrda ketma-ket 14 ta saylovlarda g‘olib bo‘lgan. Lekin 2000-yilda Meksika Milliy Harakat Partiyasi prezidentlik saylovlarida g‘olib bo‘ldi va Meksika demokratiya rivojlana boshlandi. Hokimiyatdagi o‘zgarishlarning eng muhim jihatni bu korrupsiyani nazorat etish imkonini berishdir. Kuchlar almashinuvida hukumatdagi shaxslarni korrupsiyada ayblaydigan muxolifat partiya mayjud bo‘lib, u insonlarning o‘z lavozimini noto‘g‘ri ishlatishga bo‘lgan istagini to‘g‘rilaydigan kuchdir.

*Ommaviy vakillik.* Vakillik demokratiyasida saylovchilar o‘z va killarini qonunchilik organlari saylashadi. Ular saylovchilarning umumiyl manfaatlarini himoya qiladi.

*Siyosiy tenglik, ko‘pchilik qarori, erkin ommaviy axborot vositalari* va boshqalar.

Shu bilan birga, vakolatli demokratiya bir qator kamchiliklarga ham ega. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin<sup>79</sup>:

- saylovlar oralig‘idagi muddatda xalqning amalda hokimiyatdan chetlatib qo‘yilishi va bu bilan demokratiyaning xalq hokimiyati sifatidagi mohiyatidan uzoqlashib ketishi;

- byurokratlashuvning muqarrarligi, deputatlar va mansabdorlar ning xalqdan uzilib qolishi;

- mansabdor shaxslarni sotib olish imkoniyatlarining nisbatan kengligi;

- siyosiy o‘yinlarni amalga oshirish, hokimiyatning murakkab ko‘p pog‘onali tizimi yordamida ko‘pchilikka ma’qul bo‘lmaydigan qarorlarni qabul qilish uchun keng imkoniyatlarning mavjudligi: saylovchi - parlament - hukumat - bosh vazir yoki prezident.

Umuman olganda, demokratiyaning taraqqiyoti partiyalarning, ijtimoiy tashkilotlar va boshqa institutlarning soni bilan emas, balkiinsonning jamiyatdagi mavqeyi bilan belgilanadi. Demokratiya – umuminsoniy qadriyat. Qayerda xalq demokratiyani chuqr anglab yetsa, xalqning e’tiqodi, mehnatsevarlik odobi kuchli bo‘lsa, o‘sha yerda demokratiya mustahkam bo‘ladi.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Demokratiya deganda nimani tushunasiz?
2. Qadimgi Yunonistonda demokratiya borasidagi qarashlarni izohlab bering.
3. Demokratiya borasidagi qarashlarning rivojini tushuntirib bering.

<sup>79</sup> Farmonov R.F., To‘laganova N.O., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.–T., 2006.–B.90.

4. Demokratiyaning zamonaviy talqinlarini izohlab bering.
5. Bugungi kunda demokratiyani qanday ma'nolarda tushunish mumkin?
6. Demokratik davlat deganda nimani tushunasiz?
7. Demokratik jamiyat va fuqarolik jamiyat o'rtasida farqlanishlar mavjudmi?
8. Demokratiyani joriy etishning iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlari nimani anglatadi?
9. Demokratiyaning univesal modeli mavjudmi?
10. Liberal demokratiyaning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
11. Plyuralistik demokratiyani tushuntirib bering.
12. Sotsial demokratiyaning bugungi kundagi ahamiyatini qanday izohlash mumkin?
13. Bevosita demokratiya afzallikkleri va kamchiliklarini sanab o'ting.
14. Vakillik demokratiyasining asosiy afzalligini qanday izohlash mumkin?
15. Vakillik demokratiyasining kamchiliklari mavjudmi?

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O'zbekistonda demokratiyaning rivojlanish xususiyatlari mavzusida doklad tayyorlab kelish.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik),–T.: TDIU, 2010.
3. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўкув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.

4. Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
5. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўкув қўлланма.–Т., 2006.
6. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўкув қўлланма.– Т., 2002.
7. Муаллифлар гуруҳи. Политология. Ўкув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
8. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўкув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
9. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти: Олий таълим муассасалари талабалари учун дарслик. / масъул муҳаррир проф. И.Эргашев.–Т.: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2005.
10. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик– ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил яқунлари ва 2017 йил истиқболлариiga бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.– Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.– Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.– Т.: Ma'naviyat, 2008, 176 б.
6. Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар , деб ҳисоблашар эди.–Т.: Ўзбекистон, 2005.
7. Каримов. И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида.–Т.6.–Т.:Ўзбекистон, 1998.
8. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси. / Е. Кањязов, Ш. Зулфиқоров, О. Турғунов. Ўзбекистон Республикаси сайлов тизими ва сайлов қонунчилиги.– Т.: O'zbekiston, 2014.
9. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O'quv qo'llanma–Т.: Soliq akademiyasi, 2008.
10. Ahmedova F.M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti fanidan o'quv - uslubiy majmua–Т.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2016.
11. Фаниев К., Расулов Б. Давлат ҳокимияти ва бошқарувини демократлаштириш. Услубий кўрсатма.–Самарқанд: СамДАҚИ, 2013, 40 б.
12. Даль Р. Демократия и её критики / Пер. с англ. под ред. Ильина М. В.– М.: РОССПЭН, 2003.
13. Даль Р. Полиархия: участие и оппозиция / Пер. с англ. под ред. С. Деникиной, В. Барановой. – М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2010.
14. Ҳусаинов У. Демократизм принципини таъминлашнинг ҳуқуқий асослари.–Т., 2010.–Б.12–13. // library.ziyouonet.uz/uz/book/download/49273
15. “Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва

амалиёти” фанидан маъruzalар матни. Ўзбекистон Республикаси Давлат солик қўмитаси солик академияси Ижтимоий - гуманитар фанлар кафедраси.–Т., 2016. // akademiya.uz/d/967631/d/demokratikzhamiyatkurish-nazariyasimaruzalar\_0.doc

16. Тошев Б. Ўзбекистонда демократик жамият қуришда сиёсий партияларнинг ўрни ва роли: Маъruzalар матни. (Юристлар малакасини ошириш маркази)–Т., 2013. // [http://www.uzmarkaz.uz/-www\\_data/articles/file/6\\_mavzu.%20сиёсий-%20партияларнинг%20урни.pdf](http://www.uzmarkaz.uz/-www_data/articles/file/6_mavzu.%20сиёсий-%20партияларнинг%20урни.pdf)

17. “Адолат” СДП Сайлов олди дастури - [http://adolat.uz/wp-content/uploads/2014/12/saylov\\_oldi-dastur.pdf](http://adolat.uz/wp-content/uploads/2014/12/saylov_oldi-dastur.pdf)

18. Lynch M. The Arab Uprising: The Unfinished Revolutions of the New Middle East. -New York: Public Affairs. 2012.

19. Krauthammer Ch. The Arab Spring of 2005 // The Seattle Times. 21 March 2005. // [http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060\\_krauthammer-21.html](http://seattletimes.com/html/opinion/2002214060_krauthammer-21.html)

20. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.

21. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.

22. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. – М., 2000.

23. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Укув кулланма. – Т., 2004.

24. Рамазонов И., Муминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997.

25. Г. Аҳмадбек кизи. Фуқаролик жамиятини ривожланишида ахборотлашув жараёнининг ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, март, 2012 йил

26. Исломов З.М. Ўзбекистон модернизациялаш ва демократик тараққиёт сари.–Т.: Ўзбекистон., 2005.

27. Хейвуд Э. Политология: учебник для студентов вузов/Пер.с англ.под.ред.Г.Г.Водолазова, В.Ю.Бельского.–М.: Юнитидана, 2005.

28. Жумаев Р.З. ва бошк. Сиёсий ислоҳотлар стратегияси.–Т.: Академия, 2010.
29. Алексеева Т.А. Современные политические теории.–М.,2000.

30. Политология: Учебноепособие / Подред. А.С.Тургаева, А.Е.Хренова.-СПб.:Питер, 2005.-560 с.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **11-mavzu. SIYOSIY MADANIYAT**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- siyosiy madaniyat, siyosiy ijtimoiylashuv va ijtimoiy fikr haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

*Siyosiy madaniyat, Iogann Gerder, G.Almond, S.Verba, siyosiy madaniyatning asosiy xususiyatlar, identifikatsiya funksiyasi, moslashtirish (adaptatsiya) funksiyasi, integratsiya (dezintegratsiya) funksiyasi, kommunikatsiya funksiyasi, dunyoqarash darajasi, fuqarolik darajasi, siyosiy daraja, totalitar-avtoritar modeli, siyosiy ijtimoiylashuv, ijtimoiy fikr.*

### **Asosiy savol:**

1. Siyosiy madaniyat tushunchasining mohiyati.
2. Siyosiy madaniyat funksiyalari, daraja va modellari.
3. Siyosiy madaniyat tasnifi.
4. Siyosiy ijtimoiylashuv va ijtimoiy fikr.

### **1. Siyosiy madaniyat tushunchasining mohiyati**

Har bir jamiyat o'z a'zolari uchun muayyan bir me'yor va qadriyatlarni shakllantiradi. Mazkur omillar sabab xalqlar, millatlar bir-biridan farqlanadi. Siyosiy madaniyat siyosiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi bo'lganligi bois, xalq va millatlarning siyosiy tizim haqidagi o'ziga xos e'tiqodlari, ramzlari va qadriyatlari millatning siyosiy madaniyatini namoyon qiladi.

Har bir davlatning syosiy madaniyati uning tarixi, iqtisodiyoti, dini va folklori orgali aniqlanadi. Siyosiy madaniyatning asosiy qadriyatları asrlar davomida shakllanadi. Siyosiy madaniyat xalqning umumiyl siyosiy xotirasining bir shakli sanaladi. Masalan, AQSH

“raqobatlashuvchi individualizm” asosida shakllangan. Bu holat hozirga qadar davom etmoqda. Uzoq yillik hindular jamoasiga nazar tashlasangiz, garchi ular demokratik davlat hududida joylashgan bo‘lsalarda, o‘zlarining kastachilik tizimini saqlab qolgan<sup>80</sup>.

Jamiyatda siyosiy madaniyatning nechog‘lik rivojlanganlik darajasiga qarab, siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganligiga baho berish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy va huquqiy jihatdan layoqatlilik darajasini ifoda etib, jamiyatda siyosiy va davlat institutlarining shakllanishi, faoliyat ko‘rsatishiga, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning tashkil qilinish jarayoniga katta va hal qiluvchi, ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois siyosiy madaniyat haqida gapirganda, birinchi navbatda, siyosiy ongning darjasи, siyosiy mafkuraning mohiyati, siyosiy ruhiyatning sifat mazmuni hamda siyosiy xulq-atvorning mu-rakkab tarkibini teran ravishda tahlil qilish kerak bo‘ladi, chunki ular o‘rtasidagi dialektik birlik siyosiy madaniyat amaliyotining mushtarak qonuniyati mazmunini tashkil etadi.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyatning turli ta’riflarini uchratish mumkin. Kanadalik tadqiqotchi G.Patrikning aniqlashicha, 1976-yilda “siyosiy madaniyat”ning 40dan ortiq ta’rifi turli adabiyotlarda qayd etilgan ekan. Keyingi davrlarda ham uning ta’rifi ortib bordi:

Siyosiy madaniyat – bu keng ma’noda fuqarolarning siyosiy bilimlari, mo’ljal baholari, xatti-harakatlarining darjasи va tabiatini anglatib, siyosiy munosabatlarni yo‘naltirib turish jarayonlarining ijtimoiy qadriyatlari mazmuni va sifati, an’analari va qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi. Tor ma’noda esa siyosiy madaniyat siyosiy munosabatlar mazmuni va sifati darajasini belgilab beradigan o‘zaro muloqot tarzini anglatadi.

Siyosiy madaniyat – subyektning davlat bilan o‘zaro ta’sirini va siyosiy faoliyatga kirib borishini amalga oshirishda vosita bo‘lib xiz-

<sup>80</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. –P.119-120.

mat qiluvchi siyosiy bilimlar, qadriyat mezonlari, xulq-atvor model-larining yig‘indisi.

Siyosiy madaniyat bu – siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir, shuningdek, siyosiy institutlarning xarakteri va faoliyat tartibotining hamda jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining sivilizatsiyalashganligi darajasidadir.

Siyosiy madaniyat – subyektning davlat bilan o‘zaro ta’sirini va uning siyosiy faoliyatga kirib borishini ainalga oshirishda vosita bo‘lib xizmat qiluvchi siyosiy bilimlar, qadriyat mezonlari, xulq-atvor modellarining yig‘indisidan iborat. Siyosiy madaniyat jamiyat va shaxsning sivilizatsiyalashganligining u yoki bu darajasini, ularning siyosiy xulq-atvor hamda xatti-harakatlarining qandaydir qoidalarini qabul qilish qobiliyatini aks ettiradi.

AQSHlik siyosatshunos Sidney Verba (1932-h.d.)ning ta’kidlashicha, siyosiy madaniyat siyosiy jarayonlarda ishtirok etayotgan empirik e’tiqodlar, ifodali ramzlar va qadriyatlar tizimidir.

«Siyosiy madaniyat» atamasi XVIII asr nemis faylasufi va ma’rifatparvari Iogann Gerder tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. XIX asr oxiri– XX asr boshlaridan e’tiboran ushbu tushuncha siyosiy tadqiqotlarning markaziy obyektiga aylangan. Hozirga qadar bir qator tadqiqotchilar siyosiy madaniyatni tadqiq etishda munosib hissalarini qo‘shishgan.

Hozirgi zamон siyosatshunoslida siyosiy madaniyat tushunchasi dastavval amerikalik siyosatshunos Xerman Fayner (1898–1969-yy.) ning “Buyuk Yevropa davlatlarining boshqaruв tizimlari” (1957-y.) asarida birinchi marta ishlatalidi.

AQSHlik olim Gabriel Almond(1911–2002-yy.)ning “Qiyosiy siyosiy tizimlar” asarida bu tushunchaning birinchi konseptual tahlili amalga oshirildi. Bu asarda siyosiy madaniyat bilan siyosiy tizim o‘rtasidagi munosabatlar, ularning tuzilmaviy va tarkibiy unsurlari tahlil etilgan.

Amerikalik siyosatshunoslар Garbriel Almond va Sidney Verba o‘zlarining «Fuqarolik madaniyati» (1963) nomli kitobida siyosiy madaniyatni kishilarning siyosiy institutga nisbatan ruhiy yo‘nalishlar majmuasi sifatida ta’riflaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, millatning

siyosiy madaniyati muayyan millat vakillari orasida yo‘nalishlar namunalarini siyosiy institutga nisbatan alohida taqsimlashdir. Jamiyatning siyosiy madaniyati esa aholining bilimlari, hissiyorotlari bahanishining umumlashgan siyosiy tizimdir. Siyosiy madaniyatga qadriyatlar, e’tiqodlar, yo‘riqnomalar va boshqa majmuasi deb qarash ko‘pchilik siyosatshunoslar uchun umumiyyidir.

Siyosiy madaniyat nazariyasini shakllantirishga Seymour Martin Lipset (1922–2006-yy.), L.Pay, M.Dyuverje, K.fon Boym, U.Rozenbaum, R.Rouz, M.Kroze va boshqa olimlar katta hissa qo‘shdilar.

Tegishli tadqiqotlarning tahlili «siyosiy madaniyat» tushunchasining eng ko‘p uchraydigan quyidagi talqinlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

- shaxsning va ijtimoiy birlikning o‘zida siyosiy ma’lumotlilikni, siyosiy ong va ijtimoiy-siyosiy faoliyatni birlashtirgan madaniyat;
- jamiyat ma’naviy madaniyatining, uning ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq unsurlarini o‘z ichiga olgan qismi;
- muayyan ijtimoiy birlik yoki muayyan shaxsga xos bo‘lgan siyosiy ong va xulq-atvor stereotiplarining yig‘indisi;
- tarixan belgilangan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy subyektning siyosiy bilimlari, qadriyat mezonlari, xulq-atvor namularining ro‘yobga chiqishi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytganda, siyosiy madaniyat uzoq yillar va avlodlar almashinuvি natijasida tashkil topgan siyosiy an’analari, siyosiy amaliyot me’yorlari, g‘oyalar, turli ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga doir konsepsiylar va e’tiqodlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, siyosiy madaniyat o‘ziga xos ichki tuzilishga ega, ilmiy adabiyotlar u siyosiy madaniyat tarkibiy qismi deb ham yuritiladi. Siyosiy madaniyat elementlari:

**I. Siyosiy tajriba** – a) xalqning o‘ziga xos milliy-ma’naviy qadriyatlari; b) mentaliteti; tarixiy xotirasi va an’analari; d) milliy

davlatchilikni amalga oshirish tajribasi; e) milliy qadriyatlardan kelib chiquvchi siyosiy maqsadlar.

**II. 2) Siyosiy ong**– a) mafkuraviy, g‘oyaviy komponent; b) emotional-psixologik komponent.

**III. 3) Siyosiy xulq-atvor**– a) siyosiy vaziyat, jarayondagi xatti-harakatlar, faoliyat yo‘nalishi; b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat turlari.

Demak, siyosiy madaniyat o‘z ichiga tarixiy tajriba asosida to‘plangan siyosat haqidagi bilimlar va siyosiy tafakkur usulini, siyosiy hissiyot va an’analarni, maqsadlarni, tafakkurdan chuqur joy olgan siyosiy faoliyat usullarini qamrab oladi.

Ushbu unsurlar ijobjiy xususiyatga ham, salbiy xususiyatga ham ega bo‘lishi mumkin. Aynan mana shu ma’noda ular butun siyosiy tizimning holatiga ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi va bu hol siyosiy madaniyatni siyosiy tizimning tarkibiy qismi deb aytishga imkon beradi. Siyosiy madaniyatning siyosiy tizimni takomillashtirishdagi o‘mini quyidagi tezislarda ifodalash mumkin:

a) uzoq davom etuvchi tarixiy davrlarda siyosiy madaniyat siyosiy tizimni yangilaydi, zamonaviylashtiradi;

b) muayyan jamiyatda amalda faoliyat ko‘rsatayotgan siyosiy tizim o‘zida uning siyosiy madaniyati tarixini aks ettiradi. Siyosiy madaniyat garchi siyosiy tizimning asosi bo‘lsa-da, o‘z faoliyatida nisbatan mustaqildir.

## **2. Siyosiy madaniyat funksiyalari, daraja va modellari**

Siyosiy madaniyat jamiyatdagи ahamiyati bevosita qanday funksiyalarni bajarishi bilan aniqlanadi. Uning funksiyalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Dunyon, undagi tendensiyalar va realliklarni tushunishdan iborat bo‘lgan “kognitiv” funksiya.

2. Siyosiy xulq-atvorni rag‘batlantirish funksiyasi.

3. Normativ funksiya.

4. Davr talablari va kelajak istiqbollari haqidagi qarashlar va unga nisbatan xulq-atvorning namoyon bo‘lishi.

Turli tarixiy sharoitlarda, xususan, siyosiy jarayonlarning beqarorligi davrida siyosiy madaniyatning ayrim funksiyalarining so‘nishi va hatto o‘z ta’sirini yo‘qotishi mumkin. Siyosiy madaniyatning tabiatи, mazmuni va o‘ziga xosligiga mamlakatning mintaqaviy va tarixiy xususiyatlari katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyatda siyosiy madaniyatning rivojlanishi, keng yoyilishi o‘ziga xos sharoit va murakkabliklarga ega hisoblanadi. Shu bilan birga siyosiy madaniyat o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Siyosiy madaniyatni chuqur o‘rganmay turib, har bir jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchini anglash juda ham qiyindir. Hozirgi siyosatshunoslik fanida siyosiy madaniyatning uchta asosiy darajasi ajratib ko‘rsatiladi: dunyoqarash, fuqarolik va siyosat. Mazkur darajalarning har birida insonda ancha qarama-qarshi tasavvurlar hosil bo‘lishi mumkin<sup>81</sup>.

1. Dunyoqarash (tafakkur qilish) darajasi asosiy hisoblanadi. Bu pog‘onada insonning siyosat dunyosida o‘z-o‘zini belgilashi, siyosiy xulq-atvorning u yoki bu yo‘nalishlarini, me’yorlarini tanlashi yuz beradi. Ushbu tanlash uning hayotiy pozitsiyalari, individual yoki jamoaviy qadriyatlarni afzal ko‘rish, G‘arb yoki Sharq sivilizatsiyasi me’yorlarini tan olish, diniy yoki materialistik dunyoqarashi, mafkuraga, zo‘ravonlikka munosabati va boshqalar bilan bog‘liq holda kechadi.

2. Fuqarolik darajasi siyosiy madaniyatning o‘zagi shakllanadi. Ushbu daraja odamlarning hokimiyatga hukmronlik va majburlashning ommaviy markazi sifatidagi munosabatini tavsiflaydi. Inson siyosat olami bilan to‘qnashar yoki unga kirib borar ekan, muqarrar ravishda o‘zining hokimiyatga, uning imkoniyatlari va vakolatlariga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Hokimiyatni qabul qilish asosida esa inson o‘zining fuqarolik huquqlari va majburiyatları borasidagi mavqeini aniqlashtirib oladi.

Fuqaroning hokimiyatga bo‘ysunishi adolatli ekanligi yoki fuqaro huquqining hokimiyatga nisbatan ustunligi haqidagi ishonch aynan

<sup>81</sup> Farmonov R.F., To‘laganova N.O., Turdiyev M.T., Jo‘rayev Q.A., Muhammadiyev U.N. Zamonaviy siyosatshunoslik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.–T., 2006. –B.172.

fuqarolik darajasida shakllanadi. Ko‘pchilik kishilar uchun ana shunday ichki ishonch ularning partiyaviy intilishlariga qaraganda ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

3. Siyosiy darajada davlat va davlatlararo aloqalardan tortib to‘zini siyosat subyekti sifatida qabul qilishgacha bo‘lgan sof siyosiy hodisa-larga oid qadriyatli munosabatlар shakllanadi. Inson va siyosat o‘rtasidagi o‘zarо munosabatlар uzil-kesil oydinlashadi. Siyosatning inson hayotidagi roli belgilanadi.

Siyosiy madaniyat darajalari hamma davlatlarda ham bir xil emas, ular o‘rtasidagi farqlanishlar siyosiy madaniyatning modeliga qarab farqlanadi. Siyosiy madaniyat modeli – bu siyosiy rejimga nisbatan davlat va jamiyatda shakllangan va amal qiladigan siyosiy madaniyat andozasidir. Ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyatning asosan ikki modeli ko‘rsatiladi: totalitar-avtoritar va plyuralistik (liberal-demokratik), shuningdek uchinchi model sifatida “sharqona siyosiy madaniyat” modeli ham keltiriladi.

Siyosiy madaniyatning ***totalitar-avtoritar modeli*** fuqaroning jamoaviy sifatlarini uning individual sifatlaridan ustunligi bilan ajralib turadi. Bu model uchun quyidagi xususiyatlar xos<sup>82</sup>:

- jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari davlat tomonidan markazlashtirilgan holda shakllantiriladi. Shunga muvofiq ravishda davlat manfaatlari ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlidan muhimroqdir. Asosiy qadriyatlar jumlasiga «tartib», «xayrixohlik», «siyosiy ishonch», «davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash», «yagona mafkura», «siyosiy birdamlik» kabi tushunchalar kiradi;

- jamiyatning siyosiy axborot olishi cheklangan bo‘lib, hokimiyat tomonidan bir kanal orqali, monopoliya tarzida boshqariladi. Siyosiy senzuradan faol foydalilanildi;

- siyosiy til standartlashtirilgan va kambag‘al. Unga keskinlik, aksariyat hollarda esa – cheklanganlik va qolipga solinganlik xos;

---

<sup>82</sup> G‘ofurov S.M., Xaydarov A.A., To‘laganova N.O‘. Siyosatshunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma—T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.—B.153.

- jamiyatning siyosiy madaniyati yuqoridan turib muqobil holda shakllantiriladi;
- jamiyat katta qismining siyosiy madaniyati yuqori emas. Siyosiy-madaniy taraqqiyotning o'sib borishi sust.

Totalitarizm tuzumining ilk qurbanlari tabiiy ravishda fuqarolik jamiyatni unsurlari va uning tuzilmalari hisoblanadi.

Siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli o'z-o'zini tashqi dunyodan ajratib qo'yish va siyosiy-madaniy makonning biqiqligi bilan ajralib turadi. Ushbu makon chegarasida zo'ravonlik xususan, to'g'ridan-to'g'ri zo'ravonlik hukmronlik qiladi.

Tashqi muhit bilan aloqaga kirishganda mazkur model qabul qilingan va bag'rikenglik darajasining pastligi hamda tajovuzkorlik elementlariga ega bo'lgan shafqatsizligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, mazkur modelning ichida uning totalitar va avtoritar sohalari mutanosib emas. Unda yo totalitar, yoki avtoritar tamo-yillar ustunlik qiladi. Birinchi holatda yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarning hammasi mavjud bo'ladi. Ikkinci holatda – tegishli jamiyatning siyosiy madaniyatida ayrim liberal-demokratik unsurlar mavjud bo'lishi mumkin.

Siyosiy madaniyatning *plyuralistik (liberal-demokratik) modeli* fuqaroning siyosiy huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirilganligi, jamiyat hayotiy faoliyati faqat huquqiy boshqarish orqali tartibga solinishi bilan ajralib turadi<sup>83</sup>.

Bu modelning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari markazlashmagan (ko'p kanalli) holda xilma-xil manbalar asosida shakllantiriladi. Unga muvofiq, davlat manfaatlarining ustuvorlik darajasi ularning jamiyat va uning ijtimoiy guruhlari hamda fuqarolari manfaatlariga qay tarzda mos kelishi bilan bog'liq. Asosiy qadriyatlarni sirasiga inson huquqlari, erkinligi; mafkurada, siyosatda, iqtisodiyotda fikrlar xilma-xilligi, demokratiya, huquqiy tartibot, xususiy mulk va shax-

<sup>83</sup> G'ofurov S.M., Xaydarov A.A., To'laganova N.O'. Siyosatshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.–B.154

siy hayotning daxlsizligi, ijtimoiy fikrning ustuvorligi va boshqa tushunchalar kiradi;

- jamiyatning siyosiy axborot bilan ta'minlanishi ko'p kanallar orqali va muqobililik asosida amalga oshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri siyosiy senzura juda oz darajada va asosan, radikal ekstremistik mazmundagi axborotga nisbatan qo'llaniladi;

- siyosiy til boy va standartlashmagan, uzluksiz takomillashtirilib va boyitib boriladi;

- siyosiy xulq-atvor xilma-xildir;

- jamiyatning siyosiy madaniyati ancha yuqori darajada. Unga texnika taraqqiyoti bilan mustahkamlab boriluvchi siyosiy-madaniy taraqqiyot xos.

Plyuralistik siyosiy madaniyat sharoitida demokratik maqsadlar faqatgina demokratik vositalar, mexanizmlar va usullar yordamida amalga oshiriladi. Sinflar, guruhlari va jamiyatning boshqa ijtimoiy qatlamlari o'rtasida siyosiy hamkorlikning o'ziga xos an'analari shakllanadi.

**Sharqona siyosiy madaniyat modeli<sup>84</sup>** – siyosiy madaniyatning sharqona modeli, jumladan, o'zbek xalqining o'ziga xos siyosiy madaniyati asoslari ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan niyatda boy madaniy va ma'naviy makonda shakllangandir. U o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, ajdodlarimiz siyosiy tafakkurida davlat rahbari siyosatidagi adolat va insof masalasi hal qiluvchi markaziy o'rinni egallaydi. Bu o'rinda O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak», degan hayotiy prinsiplari juda ham ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, siyosiy to's-to'polonlarga nisbatan toqatsizlik, siyosiy muvozanatini saqlash, siyosiy tinchlik va barqarorlikka, osoyishtalikka kuchli moyillik. Siyosiy jarayonlarga vazminlik, chuqur fikr mulohaza bilan yondashish, unda ko'pchilik manfaatlarini ko'proq hurmatlash.

---

<sup>84</sup> Mualliflar guruhi. Politologiya. O'quv qo'llanma. T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyot. "O'AJBNT" markazi, 2002.–B.185

Uchinchidan, o‘zining oljanob maqsadlarida, kundalik hayotida siyosiy rahbarga suyanish, undan doimo adolat kutib yashash va unga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ko‘rsatish, siyosiy xulq-atvorda kuchli andishalikni namoyon qilish.

To‘rtinchidan, siyosiy erkinlikni axloq me’yorlari doirasida qabul qilish.

Beshinchidan, bag‘rikenglik (tolerantlik), xalqaro totuvlik va ishonchga kuchli moyillik. Bunday tashabbuslarni O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasiga 72-sessiyadagi BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifining ilgari surilishidan ham kuzatish mumkin.

### **3. Siyosiy madaniyat tasnifi**

Siyosiy madaniyat bugungi kunda jahonda 200dan ortiq davlat bo‘lsa, har birida o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Tadqiqotchilar siyosiy madaniyatning mazkur xususiyatidan kelib chiqib, uni bir necha tur-larga ajratishgan.

Siyosiy madaniyatlarning tahlili va ularni qiyoslash uchun ko‘pincha amerikalik olimlar G.Almond va S.Verba tomonidan “Fuqarolik madaniyati” (1963-y.) kitobida taklif etilgan tipologiyadan foydalaniladi. Ular siyosiy madaniyatning uchta ideal «sof» turini ajratib ko‘rsatganlar: patriarxal, tobelik, faollik.

**Patriarxal siyosiy madaniyat (parochial)** mahalliy qadriyatlarga (qabila, urug‘-aymoq qadriyatlariiga) yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi va mahalliy vatanparvarlik, oilaviylik, korrupsiya shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Individ global madaniyatni kam qabul qiladi, muayyan siyosiy rollarni (masalan, saylovchi rolini) bajar-maydi. Aholi o‘zlarining davlatlari bilan g‘ururlanmaydilar, siyosatga qiziqmaydilar, ilmga intilish sust bo‘lib, bu haqda kamroq gapiriladi. Siyosiy raqobat deyarli yo‘q, fuqarolarning siyosiy institutlardagi ishtiroki past sanaladi. Bu jamiyatlarda demokratiyani rivojlantirish juda mushkul sanaladi. Madaniyatning bunday turi siyosiy madani-

yat mahalliy submadaniyatlarning qatlami sifatida namoyon bo‘lgan davlatlar uchun xosdir.

**Tobelik siyosiy madaniyati (subject)** individning siyosiy tizimga passiv va chetlashgan munosabatini taqozo etadi. U garchi siyosiy jihatdan ongli bo‘lsa-da, an’analarga qarab ish qiladi. Hokimiyatga bo‘ysunar ekan, individ undan turli ne’matlar va in’om-ehsonlar (ijtimoiy nafaqalar, kafolatlar va hokazo) kutadi hamda uning o‘z hukmini o‘tkazishidan xavfsiraydi.

Tobelik tipidagi siyosiy madaniyatning afzalligi shundan iboratki, u ulkan ommani safarbar qila oladi, ularning kuch-g‘ayratlarini ijtimoiy zarur (yoki o‘ylab topilgan) islohotlarga yo‘naltiradi.

**Faollik siyosiy madaniyati (participant)** faollik jalb etilganlik va ratsionallik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Fuqarolar siyosiy madaniyatga faol ta’sir o‘tkazishga, uning faoliyatini qonuniy vositalar (saylovlar, namoyishlar va boshqalar) yordamida yo‘naltirishga intiladilar. Mazkur turning eng muhim xususiyati shundan iboratki, unda shaxs va davlat manfaatlarining avtonomiysi haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘ladi. Bu demokratiyaning rivoji uchun eng qulay sharoit sanaladi.

Har bir davlatda mazkur turlarning aralashmasi kuzatiladi. G. Almond siyosiy madaniyatni turlarga bo‘lishning quyidagi holatini ham taklif qilgan edi<sup>85</sup>:

1. Gomogen siyosiy madaniyat, unda aholining aksariyat qismi jamiyatda mavjud siyosiy tizimning tashkil qilinish prinsiplarini qo‘llaydi va turli kelishmovchiliklarga nisbatan sabrlilik bilan munosabatda bo‘ladi. (Siyosiy madaniyatning bu turi AQSH va Buyuk Britaniya jamiyatiga xos).

2. Fragmentar siyosiy madaniyat, unda yetakchi siyosiy masalar bo‘yicha o‘zaro kelishuv yuqori darajada bo‘lmaydi, jamiyat turli madaniyat namunalariga bo‘lingan bo‘ladi.

3. Industrlashtirish davri darajasigacha bo‘lgan siyosiy madaniyat, rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo‘lgan siyosiy madaniyatni tashkil qiladi.

---

<sup>85</sup> Idirov U.YU. Politologiya: o‘quv qo‘llanma.—T.:ToshDSHI, 2013.—B.104.

4. Totalitar siyosiy madaniyat, ushbu madaniyat turi asosi komunistik tartibotlarga xosdir.

Ayni paytda siyosiy madaniyatning «yopiq» va «ochiq» singari turlari ham mavjud.

Siyosiy madaniyatning «yopiq turi» o‘zining siyosiy biqiqligi bilan ajralib turadi. O‘z siyosiy qadriyatlari va me’yorlariga yo‘naltirilgan mazkur tur siyosiy-madaniy avtonomiya rejimida rivojlanadi. O‘zining etnik, diniy, tarixiy, ijtimoiy an’analalariga sodiq va ularga qat’iy amal qiladi. Siyosiy me’yorlar va mezonlarning boshqa tizimlarini qabul qilmaydi. Mazkur turga fuqarolar siyosiy intilishlarining cheklanishi va boshqarib turilishi xosdir. Mafkuraviy (siyosiy-diniy) radikalizmga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘ravonlikka moyil. Bu tur siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeliga yaqin turadi.

«Ochiq tur» o‘zga madaniyatlar tajribasini qabul qiladi. O‘zgarib turuvchi voqelikka muvofiq tarzda o‘zgartirishlar kiritilib turuvchi boy siyosiy an’analarga ega. Doimiy o‘z-o‘zini isloh qilish rejimida rivojlanadi. Siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeliga yaqin turadi.

Siyosiy madaniyat turlari bilan bir qatorda umuminsoniy siyosiy-madaniy makonda siyosiy submadaniyatlar ham kuzatiladi, («sub» bu o‘rinda lotinchadan tarjima qilinganda «tag», “ostki” ma’nolarini bildiradi). Submadaniyat umummadaniyatning tarkibiy va o‘ziga xos qismi sanaladi. Buning bo‘lishi tabiiy holat va madaniy xilma-xillikni ta’minlaydi. Boshqa tomondan submadaniyat ba’zan davlat uchun xavf ham sanaladi. Masalan, sobiq Ittifoqning, Yugoslaviyaning par-chalanishiga fuqarolarning davlatdan ko‘ra o‘zining milliy jamoasiga sodiqligi ham sabab bo‘lgan. Kosovaning dini va tili jihatidan Serbiyadan farqlanishi uning mustaqillikka intilishiga olib keldi. Unda submadaniyatlarni asosiy madaniyatlar bilan birlashtirish kerakmi degan savol tug‘iladi? Bu murakkab jarayon, shuning uchun bosqinchilar avvalo xalqlarning madaniyatiga nisbatan ayovsiz kurash olib borgan. Agar birlashtirish amalga oshmasa, submadaniyatlarning mustaqillikka intilishi kuchayadi. AQSH buning uddasidan chiqa

olgan va barcha ahaoli qatlamlari va muhojirlarni yagona amerika madaniyatiga birlashishida ma'lum ma'noda ijobiy natijaga erishgan.

**Elita va omma submadaniyatlar.** Mamlakatning siyosiy madaniyati bir xil va monolit emas. Ulardan biri odatda humkron bo'lgan madaniyat va submadaniyat o'rtasida farqlarni, shuningdek elita va ommaviy munosabatlar o'rtasidagi farqlarni qidiradi. Elitarlar – siyosatga ko'proq qiziqadilar va ko'proq ishtirok etishadi. Ular ko'proq saylashga,adolatsizlikka qarshi kurashishga, turli guruhlarni shakllantirishga va rasmiy boshqaruvin bilan shug'ullanishadi. Shuning uchun ular va omma o'rtasida siyosiy madaniyatda tafovutlar mavjud. Bu eng avvalo demokratiya uchun katta salbiy holat hisoblanadi. Shuning uchun yagona "fuqarolik madaniyati"ni shakllantirish muhim sanaladi. Buning asosiy xulosasi shundan iborat: xalq qanchalik ko'p bilimli bo'lib boraversa, siyosatdagi faol ishtiroki ham shunchalik ortib boraveradi. Fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega<sup>86</sup>.

Siyosiy submadaniyatlar, shuningdek, siyosatning muayyan subyektlariga xosdir. Ular siyosat sohasida tegishli guruhlarga mansub kishilarning o'ziga xos qarashlari, xayrixohliklari va xulq-atvori bilan ajralib turadi. Ularning eng muhimlari va yaqqol namoyon bo'lib turuvchilari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- G'arb siyosiy submadaniyati
- Sharq siyosiy submadaniyati
- Mintaqaviy siyosiy submadaniyatlar
- Siyosiy-diniy submadaniyatlar
- Etno-siyosiy submadaniyatlar
- Milliy ozchilikni tashkil etuvchi xalqlarning submadaniyati
- Yoshlarning siyosiy submadaniyati va boshqalar.

---

<sup>86</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.126

#### **4. Siyosiy ijtimoiylashuv va ijtimoiy fikr**

Siyosiy madaniyatning ajralmas qismi va funksiyalaridan biri siyosiy ijtimoiylashuvdir. U alohida, o‘ziga xos siyosiy-madaniy jarayon dan iborat. Ijtimoiylashuv – madaniyatni o‘rganish jarayoni. Siyosiy ijtimoiylashuv – inson siyosiy ongi va siyosiy xulq-atvorining shakllanish va rivojlanish jarayonidan iborat.

Siyosiy ijtimoiylashtirish – siyosiy qadriyatlar va o‘ziga xos ko‘nikmalarni o‘rgatish jarayoni.

Siyosiy ijtimoiylashuv o‘zida ikki jihatni birlashtiruvchi jarayondir: a) bir tomondan – u siyosiy tizim talablarining muayyan me’yorlar va qadriyatlar shaklida shaxsnинг ichki tuzilmasiga o‘tishini qayd etadi; b) boshqa tomondan – u shaxsnинг mazkur qadriyat va me’yorni siyosiy xulq-atvorning muayyan shakllarida mustahkamlangan holda qanday o‘zlashtirayotganligini namoyish etadi.

Siyosiy ijtimoiylashtirish jarayonlarida siyosiy-ijtimoiy institutlar muhim rol o‘ynaydi. Asosiy ijtimoiy institutlar quyidagilardan iborat<sup>87</sup>:

– *Oila*. Oila bolani ijtimoiylashtirish jarayoni barcha boshqa omillardan ustun sanaladi. Hukumatning, maktablarning ijtimoiylashtirish qadriyatları oilaga yo‘naltirilmas ekan, unda ularning urinishlari barbod bo‘ladi. Masalan, “Sovuq urush” davrida Polshaga o‘xhash komunistik davlatlarda bunday muammolar yuzaga kelgan: siyosiy tuzum bolalarga sotsialistik qadriyatlarni singdirishga intilsa ham, oilada muhitida ularni rad etishni o‘rgatishgan. Agar oila va hukumatning qarashlari teng bo‘lsa, ijtimoiylashuvning ana shu ikki harakati bir-birini to‘ldirib boraveradi.

Ota-onalarning siyosatga bo‘lgan ta’siri o‘n yillab davom etadi. Ko‘p odamlar o‘z ota-onalari singari saylashadi. Asosan, shaxslarni oila muhitidagi psixologik sharoit tarbiyalaydi va o‘z siyosiy qarashlarini belgilashga yordam beradi. U turli me’yorni, qadriyatlar, e’tiqod va hukumatga bo‘lgan ishonch yoki ishonchsiz-

---

<sup>87</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.–P.132–33.

lik munosabatlarini vujudga keltiradi. Bolalar ota-onalari o'rgatgan qadryatlarni tanqid qilmasdan va to'g'ri qabul qilishadi va butun hayotlari davomida aynan shularni takrorlashlari mumkin.

– *Maktab*. Ko'p maqsadli ijtimoiylashtarish aynan maktablarda sodir bo'ladi. Ko'plab davlatlarda tarix fanidan bolalarda g'urur va vatanparvarlikni uyg'otish maqsadida foydalanishadi. Ko'plab Afrika xalqlari turli til va tarixga ega bo'lgan qabilalarni birlashtirish uchun odatda ingliz yoki fransuz tilidan foydalangan holda ular qachonlardir buyuk va birlashgan xalq bo'lgan ekanliklarini singdirib o'tishadi. Lekin bu (oxirgi paytlarda Kongoda kuza-tilganidek) ba'zida ish bermaydi. Kommunistik xalqlarda ham o'z tuzumlarini qo'llab-quvvatlanishiga erishish uchun maktablardan foydalanishadi. 1989-yilda ko'rganimizdek, bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi; buning boisi Sharqiy Yevropada kommunistlarning maktablardagi harakatlari oila va cherkovlarda rad etildi.

Maktab ta'limi siyosiy munosabatga ta'sir ko'rsatadi. Teng ravishda, ko'plab yillar ta'lim olgan odam ta'lim olmagan odamdan farqli tarzda o'z jamiyati uchun kuchli mas'uliyat hissini ko'rsatadi va jamiyat siyosatiga ko'proq ta'sir ko'rsata olishini sezadi. Ta'lim kengroq ochiq fikrlaydigan munosabatlarni yaratadi va odatda o'z istaklari va ishtiroklari orqali kishilar ko'p daromadga va martabaga erishadilar.

– *Tengdosh guruuhlar*. Insonning do'stlari va birga o'ynovchi hamrohlari ham siyosiy qadriyatlarning shakllanishini belgilab berishadi. Misol uchun, Yamaykadagi maktabga boradigan ishchisinf bolalari yuqori ijtimoiy guruh bolalari bilan birga bir sinfga borsa ularning siyosiy fikrlari o'sadi, agar o'ziga o'xshagan ishchi sinfining bolalari bilan birga o'qisa, ularning qarashlari avvalgidek o'zgarmasdan qolaveradi.

Tengdosh guruuhlar ta'siri bugungi kunda oshganga o'xshamoqda. Ota va onasi ishlaydigan bolalar boshqa oilalarga nisbatan tengdoshlari orqali ko'proq ijtimoiylashishi mumkin. Boisi ota-onaning farzandiga vaqt yo'q. "Oila qadriyatlari"ni qo'llab-quvvatlovchilar aynan shu omillar yoshlarni narkoman va zo'ravon bo'lishiga sa-

bab ekanligini ta'kidlashmoqda. Bu bir hikmatli gapning isbotidir: "Do'stlarining kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman".

— *Ommaviy axborot vositalari.* Siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida ommaviy axborot vositalarinning, ayniqsa, televizorning o'rni katta. Ko'pchilik uning salbiy ta'sir kuchidan qo'rqadi.

Garvard siyosatshunosi Robert Putnam xulosasiga ko'ra, uzoq televizor ko'rish odamni passiv va jamiyat hamda atrofidagi guruhlariga qiziqishini so'ndiradi. Yiliga minglab soat televizor ko'radigan amerikalik bolalar ko'plab jinoyat va qotilliklar guvohi bo'lishadi. Ko'plab tanqidchilar ta'kidlashicha, bu ularni yuraksiz va zolimga aylatiradi, lekin bu to'liq isbotlanmagan. Televizorlar juda erta yoshdan: hatto 3 yasharli bolalar televizordagi gapirayotgan prezidentni tanib olishlari va u xalqning "boshlig'i" ekanligini anglay olishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari shaxslarning ijobiy va salbiy ijtimoiylashuviga ham olib kelishi mumkin. Bunga kimlar qanday maqsadga yondashuvi bilan bog'liq. Hukumat vatanparvar yoshlarni tayyoralashga intilsa, turli g'arazli kuchlar internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali ularni yo'lidan urishga intilmoqdalar.

— *Hukumat.* Hukumatning o'zi ijtimoiylashtirishning asosiy subjekti va aynan u hayotiy standartlarning o'sishini ta'minlaydi. Ko'plab hukumat tadbirlari jamoatchilikka hukumat faoliyatini ko'rsatishga qaratilgan harakatlardir va bu doimo qo'llab-quvvatlash va sadoqatlikni uyg'otishga qaratilgan bo'ladi.

Individlarga siyosiy xulq-atvorning muayyan namunalarini oldindan belgilab beruvchi siyosiy qadriyatlar va me'yordarning tabiatiga asoslangan holda siyosiy ijtimoiylashuv bir nechta turlarga ajratiladi<sup>88</sup>:

Siyosiy ijtimoiylashuvning uyg'un (garmonik) turi bir xil madaniy muhitning, shakllangan demokratik an'analar va fuqarolik jamiyatining mavjud bo'lishini va ular hokimiyat bilan individning o'zaro hurmatga asoslangan muloqotini ta'minlashini taqozo etadi. Madaniy

<sup>88</sup> G'ofurov S.M., Xaydarov A.A., To'laganova N.O'. Siyosatshunoslik asoslari: o'quv qo'llanma-T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.—B.160–61.

bir xillikning bunday darajasi hokimiyat va individum tomonidan qabul qilingan ideallar, me'yorlar va qadriyatlarga sodiq bo'lgan Britaniya-Amerika madaniyati uchun xosdir.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida siyosiy ijtimoiylashuvning plynuralistik turi ustunlik qiladi. Unga shaxs va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatning vositachilik xususiyati; individning o'zi mansub bo'lgan madaniy-etnik guruhning ideallari va qadriyatlari doirasida birlamchi siyosiy ijtimoiylashuvini taqozo etuvchi ko'p sonli har xil submadaniyatlarning mavjudligi xosdir.

G'arb sivilizatsiyasiga mansub bo'lмаган jamiyatlar siyosiy ijtimoiylashuvning ziddiyatlari turi bilan tavsiflanadi. Bu turga aholi katta qismining qashshoqlik darajasi yuqoriligi, individning urug'-aymoq va qabilaviy qadriyatlarga qat'yan sodiqligi xos. Mazkur o'ziga xos xususiyatlar turli qadriyatlarning sohiblari bilan hokimiyat o'rtasida hamjihatlikka erishishda qiyinchilik tug'diradi. Bu jamiyatlarda madaniy har xillikning kuchliligi tufayli siyosiy zo'ravonlik darajasi yuqoridir.

Siyosiy ijtimoiylashuvning gegemonistik turi insonning siyosatga faqat qandaydir bir sinfning, muayyan dinning yoki siyosiy mafkura ning qadriyatları asosida kirib kelishini taqozo etadi. Siyosiy ijtimoiylashuvning bunday turi sotsializm mamlakatlarida amalga oshirildi.

**Jamoatchilik fikri (public opinion)<sup>89</sup>.** Bu o'rinda aytish kerakki, siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatda siyosiy tizimga nisbatan ijtimoiy (yoki jamoatchilik) fikrlar ham shakllanadi. Siyosiy madaniyat va jamoatchilik fikri o'rtasida farqlar mavjud. Siyosiy madaniyat-e'tiborini siyosat va hukumatning asosiy va umumiyy siyosiy qadriyatlariga qaratadi. Ijtimoiy fikr esa e'tiborini muayyan bir yetakchilar va ularning siyosatiga qaratadi. Jamoatchilik fikri— muayyan vaziyatlar va hodisalarga nisbatan fuqarolarning munosabati aks etiradi.

Mansabdor shaxslar ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrini o'zgartirishga harakat qilishadi. 1971-yilda

---

<sup>89</sup> Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.- P.138-39.

R.Nikson Xitoya tashrif buyurgan birinchi pezident ekanligi e'lon qilingandan so'ng, amerikaliklar Xitoya nisbatan fikri o'zgardi va ularga nisbatan ijobiy qaray boshladi. Ispaniya bosh vaziri va partiya rahbari Filipp Ganzales dastlab NATO ga qarshi bo'lgan, lekin keyinchalik uning tkri o'zgardi. Ispaniyani NATO ga qo'shilishga undadi va 1986-yilgi referendumlarda Ispan xalqi unga yon bosdi va uni qo'llab-quvvatladi. Britaniya sotsiolog Beatriz Veb uzoq vaqt oldin shunday degan edi: "jamoatchilk fikri o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, buning hammasi ishonch va sa'y-harakatlar markazi tomonidan boshqarilishi kerak".

Istalgan hukumat xalq qarashlari oldida ojizdir. Mahatma Gandhi ishlatmasdan protest orqali xalq qarashlaridan foydalanib Hindiston mustaqilligini qo'lga kiritdi. Agar Britaniya Hindistonni tark etmasa och qolish orqali o'limini kutishini aytdi. Gandining bu harakatlari yetarli kuchga ega bo'lgan Buyuk Britaniya 1947-yilda Hindistonga mustaqillik berishga majbur bo'ldi.

Jamoatchilik fikri turli xil guruqlar tomonidan boshqariladi, yoki unga ta'sir o'tkaziladi. Ayniqsa OAVlari orqali xalq e'tiborini turli shikoyatlarga sabab bo'ladigan masalalarga qaratiladi va bu orqali tarafdarlar soni kengaydi. Shu bois jamoatchilik fikri ijtimoiy so'rovlari orqali o'rganib borishadi. Bu esa siyosatshunoslikda siyosiy madaniyat va jamoatchilik (ijtimoiy) fikr ahamiyatining bugungi demokratik jamiyatlarda ortib borayotganligini ko'rsatadi. .

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Siyosiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
2. G'arb va Sharq siyosiy madaniyatida qanday farqlar mavjud?
3. G.Almondning qarashlarini izohlang.
4. Siyosiy madaniyat tipologiyasini tushuntirib bering.
5. Siyosiy ijtimoiylashuv deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy fikrning bugungi kundagi ahamiyatini qanday izohlaysiz?

## ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O‘zbekistonda siyosiy madaniyatning o‘ziga xos jihatlari bora-sida ma’lumotlar to‘plab kelish.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darslik), –Т.: TDIU, 2010.
4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўқув-услубий қўлланма.–Т.: ТошДШИ, 2010.
5. Одилкориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик.–Т.: Ўқитувчи, 2008.
6. Фармонов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.–Т., 2006.
7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма.– Т., 2002.
8. Муаллифлар гуруҳи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЗБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Ҳайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма–Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Шаропов Ф.Ш. Сиёсатшунослик: Олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма.–Т.Ўзбекистон, 1992.
11. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якупнари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз.– Т.: Ўзбекистон, 2016, б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз.– Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.–Т.: Ma'naviyat, 2008, 76 б.
6. Oblomuradov N., Ko'chimov N. Siyosatshunoslik. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti: O'quv qo'llanma –Т.: Soliq akademiyasi, 2008.
7. Бобоев X. Faфуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти.–Т., 2001.
8. Гаджиев К.С. Политология. – М., 2003.
9. Желтов В. В. Политология.–Ростов-на-Дону, 2004.
10. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. М., 2000.
11. Пугачев В. П., Соловьев А. И. Сиёсатшуносликка кириш: Укув қулланма. – Т., 2004.
12. Рамазонов И., Мўминов Э. Политология: Дарслик. – Т., 1997
13. Г. Аҳмадбек қизи. Фуқаролик жамиятини ривожланишида ахборотлашув жараёнининг ўрни. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, март, 2012 йилю
14. Гавров С. Н. Политическая культура // Социокультурная антропология: история, теория, методология. Энциклопедический

словарь.—М.: Академический проект, Константа, 2012.

15. Гуляихин В. Н. Архетипы политической культуры российских граждан // Социодинамика.—2013.—№ 1.—С. 153–170.

16. Verba S. Almond G. The Civic Culture.—Princeton: Princeton University Pressб 1963.

17. Wilson R. The Many Voices of Political Culture: Assessing Different Approaches // World Politics.—№.52.—2000.—P.246–73.

18. Сулаймонова Р. Сиёсий маданият ва юксак маънавият кўзгуси // <http://adolat.uz/2016/05/siyosiy-madaniyat-va-manaviyat> - 2016.

### **3. Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.uz-info.com/](http://www.uz-info.com/)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **12-mavzu. GENDER MUAMMOSINING KELIB CHIQISHI VA HAL ETILISHI**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga siyosatshunoslik fani haqida ma'lumot berish;
- gender muammosining kelib chiqishi va hal etilishi haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

Feministik nazariyasi, gender masalasi, siyosiy mafkura, neomakiavellizm, liberalizm, shaxs erkinligi, neoliberalizm, neokonservativizm, R.Xoff.

### **Asosiy savol:**

1. Feministik nazariyaning gender konsepsiyasiga aylanishining tarixiy genezisi.
2. Gender yondashuvi nuqtayi nazaridan siyosiy ishtirok masalalari.
3. O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashning huquqiy jihatlari.

### **1. Feministik nazariyaning gender konsepsiyasiga aylanishining tarixiy genezisi**

Keyingi vaqtarda tobora ahamiyati ortib borayotgan “gender” tushunchasi XX asr oxiriga kelib ijtimoiy-gumanitar bilimlarning markaziy kategoriyalaridan biriga aylandi. Mazkur yangi tushunchaning paydo bo'lishida ijtimoiy rivojlanishning muqobil falsafiy konsepsiysi bo'lgan feministik nazariya hal qiluvchi rol o'ynadi. Feministik nazariya, asosiy maqsadi xotin-qizlarning teng huquqligidan iborat bo'lgan ijtimoiy-siyosiy harakat shakllanib kelayot-

gan yangi nazariy-metodologik yondashuv uchun poydevor bo'ldi. Siyosiy harakat sifatida feminism uzoq tarixga ega. Shu bilan birga, AQSHlik faylasuf K.Xoff to'g'ri ta'kidlaganidek, "xotin-qizlarning turli xil harakatlarini erkak va ayollarning teng ahamiyatga egaligini e'tirof etishga to'sqinlik qilgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlarni tanqid qilish birlashtirardi". Feminizm siyosiy nazariyaning nafaqat qoidalari, balki mazmunini ham tanqid qiladi. Feminizm yordamida, deb yozadi AQSHlik tadqiqotchi V. Brayson, "shu nar-sa aniqlandiki, mavjud g'oya va qadriyatlar nafaqat gender-neytral bo'limgan, balki ko'pincha erkaklarning cheklangan tasavvurlarini aks ettiradi". Klassik siyosiy matnlarni tahlil qilish feminist tanqid-chilarni ayollarning ijtimoiy ishlarni hal qilish, davlatni boshqarishda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan xislatlarga egaligi rad etib kelningan, degan xulosaga olib keldi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar MDH a'zo-davlatlaridagi gender-shunoslar orasida ham ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Masalan, V. Fesenko ushbu yo'nalishni davom ettirib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "...Siyosiy nazariyaning falsafiy qonunlarini ham, empirik siyosat-shunoslik tadqiqotlarini ham feministik tanqid qilish siyosatshunoslar 1970-yilgacha yozgan ishlarning aksariyatiga shubha bilan qarash lozim, degan xulosaga olib kelardi". Buning ustiga, feminist tanqid-chilarning bir qismi muammoning mohiyatini epistemologiya sohasidan izlay boshladilar. Ularning fikricha, pozitivistik epistemologiya umuman inson, jumladan ayollar tabiatи haqidagi asosiy normativ tasavvurlarni ochiq yoki yashirin ravishda niqoblab kelgan. Tadqiqotning obyektivligi va olingen bilimning universalligi haqidagi shiorlar ortida, aslida, siyosat borasida ayollar emas, erkaklar to'plagan tajriba turardi, azaldan erkaklarning siyosatga aloqadorligi, ayollarning esa siyosatdan uzoqligi, erkaklarning ijtimoiy hayotning ommaviy sohasiga, ayollarning esa shaxsiy hayotga daxldorligining ustunligi haqidagi taxminlar yashiringan edi".

Nihoyat, siyosiy nazariya va empirik siyosatshunoslikning falsafiy qonunlarini feministik tanqid qilish ommaviy va xususiy hayotni ajratish va qarama-qarshi qo'yishga asoslangan an'anaviy siyosat

konsepsiyasini shubha ostiga qo'ydi. Masalan, B. Nelsonning fikri-cha, "siyosiy fan ... barcha siyosiy hodisalar gender tuzilishga egaligini ta'kidlashi va ayni vaqtida ayollar an'anaviy ravishda o'zlarining ijtimoiy quvvatini sarflaydigan sohalarga alohida e'tibor qaratishi kerak".

V. Brayson keljakning yagona feminizm nazariyasini ta'riflab, bunday nazariyaning boshlang'ich pozitsiyasi sifatida an'anaviy siyosiy nazariyalar fikriga qarama-qarshi ravishda, oila, naslni davom ettirish va jinsiylik kabilar siyosiy tahlilga kiritilishi kerakligini ta'kidlaydi. "Shaxs – siyosiy mavjudotdir" degan qoidani ayollar ehtiyojini jiddiy qabul qilishga da'vogar hech bir nazariya e'tiborsiz qoldirmasligi kerak.

70-yillarda yuzaga kelgan ayollarga oid tadqiqotlar (women studys) natijasida feminist ayollar deyarli barcha ijtimoiy institut, norma, qonun-qoidalarda erkaklar qarashlari va androsentrism ustuvorligini aniqladilar. O. A. Voroninanjing ta'kidlashicha, "Feminist ayollar aslo "ayollar fani" yoki falsafasini yaratishga intilmayaptilar. Gap bunda ilmiy va nazariy bilim tizimida feministcha istiqbolni ishlab chiqish haqida bormoqda. Fanning feministik tanqidi gender asimmetriyasi diskriminatsiyasini ishlab chiqaruvchi hukmronlik va bo'ysunish tizimining ishlab chiqarish sohasi va dunyo haqidagi bilimlar tuzilishi shiga qay tariqa joriy etilayotganligini ko'rsatadi".

XX asrning 80-yillarida ayollarga oid tadqiqotlar rivojlanishida yangi bosqich-patriarxat va o'ziga xos ayollar tajribasini tahlil qilishda gender tizimini tahlil qilishga o'tish kuzatildi. Ayollar muammo-sini tahlil qilish yangi sifatga, ya'ni gender tadqiqotlariga o'sib o'tdi. Bunda erkaklar ham, ayollar ham teng darajada ilmiy obyektlar hisoblandi, barcha ijtimoiy jarayonlarda gender mavjudligi tan olindi.

"Gender" tushunchasi ijtimoiy jinsn bildiradi. Ingliz tilida ijtimoiy jins va biologik jins tushunchalari farqlanadi.

Jins va gender (gender) tushunchalari quyidagicha farqlanadi: an'anaviy ravishda ularning birinchisi odamlarning insoniy mohiyatlari erkak yoki ayol sifatida belgilanadigan anatomik-fiziologik xususiyatlarini bildirish uchun foydalanilgan. Insonning jinsi (ya'ni

biologik xususiyatlari) ayollar va erkaklar o'rtasidagi psixologik va ijtimoiy farqlarning asosi va birinchi sababi deb hisoblangan. Ilmiy tadqiqotlar rivojlangani sayin biologik nuqtayi nazardan erkaklar va ayollar o'rtasida farqqa qaraganda o'xshashliklar ko'proq ekanligi aniq bo'ldi. Ko'pchilik tadqiqotchilar hattoki ayollar va erkaklar o'rtasidagi yagona aniq va muhim biologik farq ularning avlodlarni yaratishdagi rolida, deb hisoblaydilar. Bugunga kelib shu narsa aniq bo'ldiki, jinslarning, masalan, erkaklarning baland bo'y, og'ir vazn, mushakli massa va jismoniy kuchi singari "tipik" farqlari juda beqaror bo'lib, o'ylaganimizga xilof tarzda jins bilan ancha kam bog'langan. Masalan, Shimoliy-g'arbiy Yevropadagi ayollar Janubiy-sharqiy Osiyodagi erkaklardan, umuman olganda, balanddir. Insonning bo'yi va og'irligiga, shuningdek jismoniy kuchiga ovqatlanish va turmush tarzi katta ta'sir ko'rsatadi, bular esa, o'z navbatida, kimga (erkaklargami yoki ayollarga) ko'proq ovqat berish zarur, kimga baquvvat ozuqa zarurroq, ular yoki bular uchun qaysi sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish mumkin, degan ijtimoiy qarashlar ta'siridandir.

Biologik farqlardan tashqari, odamlar o'rtasida ularning ijtimoiy vazifalari, faoliyat shakllari, xatti-harakatlari va emotSIONAL xususiyatlarda bo'linish mavjud. Antropologlar, etnograflar va tarixchilar "sof erkaklarga xos" yoki "sof ayollarga xos"lik haqidagi tasavvurlarning nisbiyligini allaqachon aniqlaganlar: bir jamiyatda erkaklar mashg'uloti (xatti-harakati, xarakter jihat) deb hisoblangan jihat boshqasida ayollarga taalluqli deb hisoblanishi mumkin. Dunyoda ta'kidlanadigan ayollar va erkaklarning ijtimoiy tavsiflaridagi xilmayillik hamda odamlarning biologik tasniflaridagi prinsipial aynanlik biologik jins ularning turli jamiyatlarda mavjud bo'lgan ijtimoiy vazifalaridagi farqlarni izohlay olmasligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Shunday qilib, jamiyat odamlarga ularning biologik jinsidan kelib chiqib yuklaydigan ijtimoiy-madaniy normalari majmuuni bildiruvchi "gender" tushunchasi yuzaga keldi.

Ayollar va erkaklarning psixologik sifatlar, xatti-harakat modellari, faoliyat turlari, kasblarini biologik jinsi emas, balki ijtimoiy-madaniy normalari belgilaydi. Jamiyatda erkak yoki ayol bo'lish faqat u yoki

bu anatomik xususiyatlarga ega bo‘lishni bildirmaydi—bu ayni vaqtda u yoki bu belgilangan gender vazifalarni bajarishni ham anglatadi.

Genderning mohiyatini ta’riflashga turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Bugun ijtimoiy va gumanitar fanlarda qabul qilingan asosiy nazarialarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: 1) genderning ijtimoiy tuzilishi nazariyasi; 2) genderni stratifikatsiyaviy kategoriya sifatida tushunish; 3) genderni metafora madaniyati sifatida talqin etish.

Gender ijtimoiy konstruksiya sifatida ayollar va erkaklar o‘rtasidagi jamiyatning asosiy institutlari bilan tuziladigan uyushgan (tashkil topgan) model sifatida tushuniladi. Bu yondashuv ikkita asosiy g‘oyaga asoslangan: 1) gender—ijtimoiylashuv, mehnat taqsimoti, gender roller, oilalar tizimi, ommaviy axborot vositalari bilan shakllantiriladi; 2) genderni individlarning o‘zлari ham qaror toptiradilar—ularning ongi darajasida, jamiyat yaratgan normalarni qabul qilish va ularga moslashish (kiyimda, tashqi qiyofada, xatti-harakat uslubida va h.k.).

Gender g‘oyasi ijtimoiy tuzilma sifatida feminist konstruktivistlar K. Uest va D. Simmermanning “Genderni yaratish” asarida ifodalangan, shuningdek, gender nazariyasi va metodologiyasi rossiyalik tadqiqotchilar Ye. A. Zdravomislova va A. A. Temkina tomonidan ishlab chiqilgan.

Masalan, K. Uest va D. Simmermanning ta’kidlashlaricha, genderni jamiyat a’zolari sifatidagi bilimdonligi genderni yaratish borasidagi faoliyati uchun garov hisoblangan erkak va ayollar “yaradildilar”. Genderni yaratish maqsadi erkaklar va ayollar “tabiatini” ifodalash bo‘lgan ijtimoiy nazorat qilinuvchi harakatlar kompleksini qamrab oladi.

J. Lorberning ta’kidlashicha, aksariyat jamiyatlarda erkaklar va ayollar nafaqat har xil qabul qilinadilar, balki har xil baholanadilar ham. Ular o‘rtasida hokimiyatning taqsimlanishidagi farqlarni gender xususiyatlari hamda qobiliyatlardagi farqlar bilan asoslashga urinadilar.

Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabat va rollarni tabaqalashtiruvchi gender—stratifikatsion kategoriya. Biroq bunday kategoriyalarga, genderdan tashqari, yana sinf, irq, yosh ham kiradi.

Gender tadqiqotlarining nazariyotchisi va metodologgi J. Lorber ushbu yondashuvga asoslanadi hamda erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning uyushgan modeli sifatidagi genderni nafaqat ularning shaxslararo muloqoti yoki oiladagi o'zaro munosabatini, balki ularning jamiyatdagi asosiy institatlardagi (masalan, ijtimoiy sinflar, yirik tashkilotlardagi ierarxiyalar va bandlik tuzilishini shakllantirishda) ijtimoiy munosabatlarini ham belgilovchi kategoriya sifatida ta'riflaydi. Ushbu model amal qilishi uchun erkaklar va ayollar bir-birlaridan aniq ajralib turishlari kerak. Ya'ni ular mutlaqo farq qiluvchi mavjudotlar sifatida qabul qilinishlari zarur. Muallif shuningdek jins kategoriyasining kompleks xususiyatini, ya'ni bir-biri bilan quyidagi tarzda bog'langan tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadi: biologik kategoriya sifatidagi jins; ijtimoiy kategoriya sifatidagi jins; jinsiy o'zlik; maqom va tuzilish sifatidagi jins.

Shunday qilib, gender ayollar va erkaklarni ularning ijtimoiy roli asosida ta'riflashdir. Bu – jins (ayol va erkaklarning biologik xususiyatlari) emas, ayol degani ham emas. Gender jamiyat erkaklar va ayollarga ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotida yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va rollar konsepsiysi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning gender nuqtayi nazaridan rivojlanishini tahlil qilish erkak va ayollar funksiyalari va rollaridagi ijtimoiy farqlarni ajratishdir. Ushbu tushuncha asosida "... erkak va ayollarga faqat yo "himoyalash va jang qilish", yo "bola tug'ish va asrash" yuklatilgan biologik mavjudotlar sifatida qaraladigan ko'p asrlik tasavvurni yengish mumkin bo'ldi". Jinslar ortida oliy ijtimoiy funksiya, maqom, muayyan xatti-harakat stereotiplari tan olindi.

Rossiyalik tadqiqotchi O. A. Voronina quyidagilarni ta'kidlaydi: "Zamonaviy gender nazariyasi ayollar va erkaklar o'rtasidagi u yoki bu biologik, ijtimoiy, ruhiy farqlarni rad etishga urinmaydi. Ushbu nazariya faqat farqlash fakti o'z-o'zicha unchalik muhim emas, balki ularning ijtimoiy-madaniy bahosi va talqin etilishi, shuningdek hokimiyat tizimining ana shu farqlar asosida qurilishi ko'proq muhimdir, deb ta'kidlaydi. Gender tadqiqotlarining asosiy metodologiyasi erkak va ayol hayotining maqomi, rollari va hayotining boshqa jihatlaridagi

farqlarni tavsiflashdangina iborat emas, balki jamiyatda gender rollari va munosabatlari orqali qaror toptiriladigan hokimiyat va ustunlikni tahlil qilishdir. Gender rollari erkak va ayol munosabatlarini ustunlik va hokimiyat kategoriyalari orqali ta’riflaydi. Gender tadqiqotlarda hokimiyatning an’anaviy (patriarxat) ierarxiyasini qurish uchun jamiyat ijtimoiylashuv tizimlari, mehnat taqsimoti, madaniy qadriyatlar va simvollar orqali erkaklar va ayollarga qaysi rol, norma, qadriyat va xarakter jihatlarini yuklashi ko‘rib chiqiladi”.

Feministik harakatlar, so‘ngra esa ayollarga oid tadqiqotlar gender tadqiqotlari shakllanishining asosini tashkil etdi. Aynan ayollarga oid tadqiqotlar doirasida shu narsa aniqlandiki, deyarli barcha ijtimoiy institut, norma, qoida va xatti-harakatlarda erkaklar dominantasi (ustunligi) va adrosentrizm kuzatiladi. Gender tadqiqotlarining ilmiy obyektlarini bir xil darajada ham erkaklar, ham ayollar tashkil etdi. Gender iborasining kiritilishi biologik (anatomik) jins tushunchasini individlar ijtimoiy aqidalarga muvofiq bajarishlari lozim bo‘lgan xislat va normalarning ijtimoiy-madaniy to‘plamidan ajratish uchun xizmat qiladi. Shunday qilib, ayollar va erkaklarning ruhiy xislatlari, xatti-harakat modellari, faoliyat turlari va kasblarini pirovardida biologik jins emas, balki ijtimoiy-madaniy normalar belgilaydi.

Bizningcha, gender konsepsiyasini yaratishga oid asosiy nazariyalar ichida ijtimoiy qurilish nazariyasi eng maqbuli ko‘rinadi, chunki jinslar munosabatidagi ijtimoiy ong muayyan ijtimoiy mühitdagи stereotiplar, qoliplar va gender rollari orqali shakllanadi.

Erkak va ayollarning tengligi ijtimoiy va shaxsiy hayotning barsha sohalarida ikkala jinsning teng maqomga egaligi, mustaqilligi, mas’ulligi va ishtirokini nazarda tutadi. Ayrim biologik omillar tufayli, erkak va ayollarning hayot sharoiti o‘zaro farq qiladi. Masala, ushbu farqlarning mavjudligida emas, balki ular ayol va erkaklar turmush sharoitlariga salbiy ta’sir qilmasligi, kamsitilishga olib bormasligi, balki aksincha, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy imkoniyatlarni teng taqsimlashda o‘z ifodasini topishi lozimlidadir. Shunday qilib, zamonaviy gender nazariyasi erkaklar va ayollar o‘rtasida ba’zi biologik, ijtimoiy va psixologik farqlar borligini inkor etmaydi. U ushbu

farqlar mavjudligining o‘zi emas, balki ijtimoiy-madaniy baho va talqin, shuningdek hokimiyat tizimini mazkur farqlar asosida qurish muhimligini uqtiradi.

## **2. Gender yondashuvi nuqtayi nazaridan siyosiy ishtirok masalalari**

Siyosiy ishtirok – jamoaviy maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy xatti-harakat bo‘lib, ayrim istisnolarni inobatga olmaganda, tashkiliy tuzilmalar, muayyan siyosiy voqelar, guruhiy mansublik va individual xislatlar o‘rtasidagi kompleks o‘zaro aloqadorlikda amalga oshadi. Qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirok turli-tuman doiralarda (kontekstlarda), jumladan ijtimoiy harakatlar, nohukumat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati guruhlari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va tadbirdorlik tashkilotlari, shuningdek saylab qo‘yiladigan davlat organlarida, jumladan parlamentlar, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, global ijtimoiy va iqtisodiy muassasalar doiralarida yuz beradi.

Siyosiy ishtirok subyektlarini individlar, ijtimoiy guruuhlar, madaniy-kasbiy, etnomilliy, diniy va boshqa jamoalar tashkil qiladi. Miqyosiga ko‘ra u mahalliy, mintaqaviy, umum davlat yoki xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi. Real voqelikda siyosiy xatti-harakat huquq stereotiplari ko‘rinishida, qonunlar, normalar, an'analar, urf-odatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Siyosiy madaniyat, siyosiy xatti-harakat, fuqarolarning siyosiy aksiyalardagi ishtiroki, siyosatga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy madaniyat o‘zida jamiyatning siyosiy tajribasi, siyosiy hayot madaniyati, fuqarolarning faolligi yoki passivligini aks ettiradi. Masalan, siyosiy madaniyatni zamonaviy tushunish asoschilari G. Almond, S. Verba, J. Pauellning fikricha, individlar va ijtimoiy guruhlarning siyosatga jalb etilishi ularning o‘z ijtimoiy muhim manfaatlarini amalga oshirishga intilishlari bilan asoslangan bo‘lib, bevosita emas, balki siyosat subyektlari o‘zlarining hokimiyatga, siyosiy institutlarga, siyosiy elita, yetakchilar va shu kabilarga munosabatiga beradigan ma’no va mazmun

orqali yuz beradi. Ya’ni siyosiy madaniyat avvalo ijtimoiy psixologik ustanovka (yo‘nalish) bo‘lib, siyosiy xatti-harakatning eng barqaror hamda tipik namuna va qoidalarini belgilab beradi. Shunday qilib, tarixiy-siyosiy tajriba asosida jamiyatning ijtimoiy xotirasi shakllanadi, indvidlar ijtimoiy jamoalari siyosiy xatti-harakatlarining siyosiy mo‘ljallari va namunalari o‘zlashtiriladi.

Miqyosiga ko‘ra umumiy (ustunlik qiluvchi) aholining asosiy ko‘philigining siyosiy ongi va siyosiy xatti-harakatini ifodalovchi eng barqaror, tipik belgilardan iborat *siyosiy madaniyat* hamda muayyan siyosiy guruh va mintaqalarga xos bo‘lgan va jamiyatda ustunlik qiluvchi xulqdan ajralib turadigan siyosiy tashkilotlar va siyosiy xatti-harakat modellarining majmui bo‘lmish *submadaniyat* ajratiladi. Submadaniyat ijtimoiy-sinfiy, milliy-etnik, diniy, siyosiy, jins va yosh bilan bog‘liq, mintaqaviy mo‘ljallarni (orientatsiyalarni) qamrab oladi. Siyosiy xatti-harakat shakllarini tahlil qilish asosida uning quyidagi asosiy elementlarini ajratishimiz mumkin: 1) subyekt, ijtimoiy guruh, jamiyatning siyosiy tajribasi; 2) xatti-harakat stereotiplari; 3) siyosiy xatti-harakat tajribasini uzatish usuli bo‘lgan siyosiy an’analari; 4) qonunlarda mustahkamlangan siyosiy normalari; 5) turli guruhi, yetakchilarining siyosatning boshqa subyektlariga munosabatlari; 6) siyosiy xatti-harakatni belgilovchi omillar (mamlakatdagi vaziyat, siyosiy kuchlarning joylashuvi, shaxsiy va guruhiy manfaatlari); 7) axborot, siyosiy xatti-harakat tahlili va boshqalar.

Gender yondashuvi nuqtayi nazaridan, siyosiy soha chuqur diqqat obyekti hisoblanadi, chunki har bir insonning uyg‘un rivojlanishiga fuqarolik jamiyatni asoslarini yaratmay turib erishib bo‘lmaydi. Bunda rivojlangan demokratik institutlar “odamlar rivoji, odamlarning rivojlantirishi va odamlar uchun rivojlanish” prinsipining bajarilishiga yordam beradi. Hozirgi zamon gender tadqiqotlari zamonaviy sivilizatsiya insoniyatning faqat bir yarmi, ya’ni xususiy hayotda ham, ijtimoiy hayotda ham ayollarni o‘z hokimiyatiga batamom bo‘ysundirib olgan erkaklarni inobatga oluvchi patriarxat qadriyatlar asosiga qurilgan. Masalan, O.I.Voroninaning yozishicha, “an’anaviy siyosiy fan, shuningdek huquq ayollarni obyekt deb baholardi, boshqacha aytgan-

da, ularni siyosiy jarayonda ishtirok etishdan chetlatardi, buni tabiatga zid deb hisoblardi". Ayollar hokimiyatga ega emasirlar, binobarin hokimiyatga nazorat, zo'rlik va ustunlik quroli sifatida, o'zlariga esa hokimiyat qurbanlari sifatida qaraydilar. Ayollar qarorlar qabul qilish va ijtimoiy ne'matlarni taqsimlash sohasidan begonalashib qolganlar. Tadqiqotchilar ayollarning siyosiy faolligi pastligining bir qancha sabablarini ko'rsatadilar. Masalan, keng tarqalgan sabablardan biri deb siyosiy ijtimoiylashuv erkaklar va ayollarni, siyosatlarga turlicha munosabatga va, umuman, jadal faoliyatga turlicha munosabatda bo'lishga yo'naltiradi. Siyosiy soha ayol kishining hayotiy kuchlarini sarflash uchun to'g'ri kelmaydigan soha hisoblanadi.

Parsons an'anasida siyosiy ijtimoiylashuvning ta'siri quyidagi cha talqin etilgan. Erkak siyosatga asosan o'z martabasini oshirish maqsadida keladi. Ushbu sohada, xuddi oiladagi singari, u "instrumental" funksiyalarga ixtisoslashadi, tizimning tashqi vazifalariga qarab mo'ljal oladi. Ayol siyosatchilar martabaga kamroq darajada intiladilar, ular "ekspressiv" funksiyalarga, tizimning ichki vazifalariga ixtisoslashadilar va bu bilan tizim a'zolarining jipslashuvini ta'minlaydilar.

Shuningdek, ishtirok etishning tarkibiy omillari, ya'ni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq omillar ajratiladi. Ular orasida erkaklar va ayollar siyosatda foydalanishi mumkin bo'lgan resurslarning noteng taqsimlanishi ajralib turadi. Gender tizimi bilan belgilangan ma'lumot darjasи, daromadlar, ish tajribasidagi tengsizlik shunga olib keladiki, ayollar siyosat maydoniga chiqadigan aholi qatlamlarida kamroq bo'lib qoladilar va shu bois ularning siyosatda ishtirok etish imkoniyatlari ancha kam bo'ladi. Ular siyosatga ko'pincha ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidan keladilar, shu bois siyosiy tajribalari erkaklarnikidan kamroq bo'ladi. Biroq so'nggi yillarda vaziyat o'zgarmoqda. Boy siyosiy tajribaga ega bo'lgan huquqshunos va tadbirkor ayollar ko'paymoqda.

So'ngra vaziyat bilan bog'liq (biografik) omillar ko'rib chiqiladi. Ular ayollarning hozirgi jamiyatdagi hayot yo'liga xos xususiyatlar bilan bog'liq. Ayollarning aksariyati hamon uy xo'jaligini yuritish va

bolalar tarbiyasi uchun mas'uldirlar, shu bois ham siyosiy faoliyat uchun yetarli vaqt yoki quvvatga ega emasdirlar. Ayollar siyosatga erkaklarga qaraganda kattaroq yoshda kelishlari, "ayollardan iborat siyosiy elita" orasida esa ko'proq yolg'iz, ajrashgan, tul ayollar uchrashi bejiz emas.

Rossiyalik tadqiqotchilar Ye. V. Kudryashova, N. N. Kukarenko ayollarning siyosatdagi vakilligiga oid uchta nazariyani birlashtirib, ularni institutsional yondashuv sifatida ajratadilar. Institutsional konsepsiya doirasida ayollarning siyosatda kam ishtirot etishining ham ijtimoiy (gender rollari, stereotiplar), ham siyosiy omillari tahlil qilinadi. Masalan, institutsional yondashuv ayollar va erkaklarning siyosiy sohada ishtirot etishining darajasidagi bunday farqni tarkibiy, vaziyatga oid va madaniy omillar bilan izohlaydi. Mazkur yondashuv gender stereotiplari va rollarining ahamiyati va ijtimoiylashuviga e'tibor qaratgan holda, madaniy normalar ayollar va erkaklarga bolaligidan boshlab, ularning jamiyatda o'zini tutishning madaniy normasi sifatida erkaklar va ayollar uchun nima maqbul ekanligini bilgan holda ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashuvi davomida ularga qo'yiladigan identiklikni belgilab beradi. Ko'p asrlar mobaynida ayol deganda bolalar tarbiyasi va uy-ro'zg'or uchun mas'ul shaxs, erkak deganda esa ijtimoiy soha bilan band inson tushunildi. Faqat erkakkina barcha fuqarolik huquqlariga ega shaxs sifatida tasavvur qilindi. Binobarin, xususiy hayot va uy-ro'zg'or bilan bog'liq soha ayollarning rollari, majburiyatları va qadriyatları shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Erkaklarga kelganda esa, ularning siyosat bilan shug'ullanishi uchun yo'l doimo ochiq bo'lgani sababli, siyosatda maskulin (erkaknamo) qadriyatlar, masalan, ratsionallik, mustaqillik, tajovuzkorlik, musobaqa kabilar ustunlik qiladi. Shunday qilib, siyosat erkak qiyofasiga ega bo'ldi, ayollarning esa siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi rag'batlantirilmaydi va siyosat dunyosi ayollarning ijtimoiylashuvi uchun begona hisoblanadi, shu bois siyosatda ishtirot etish va martabaga erishish ayollarning aksariyati tomonidan imkoniyatdagи hayotiy yo'naliш sifatida baholanmaydi.

Gender rollari va stereotiplari "siyosat ayollar ishi emas, chunki u

ayollarning jadal ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini cheklaydi” degan fikrning kuchayishiga xizmat qiladi. Ayollarning qo‘lini bolalar va oila uchun mas’uliyat bog‘lab turadi. Bolalar va oila ularning individual o‘sishi hamda siyosiy faoliyat uchun zarur tajriba to‘plashi uchun, masalan, ma’lumotini (bilimini) ko‘paytirish, kasbida o‘sish yoki jamoat tashkilotlarida ishtirok etish kabi imkoniyatlarini cheklaydi.

Institutsional yondashuv siyosiy soha ko‘p jihatdan ayollarga qaraganda erkaklarga bag‘rikeng ekanligi faktiga e’tibor qaratadi. Bu esa siyosatda ishtirok etish imkoniyatlari yo‘lidagi to‘sıqlar, masalan, siyosatda ayollarga qarshi qoidalar yoki tasavvurlar shaklidagi to‘sıqlar qo‘yilganida namoyon bo‘ladi. X. Sheye o‘z maqolasida erkaklar ayollarni hokimiyat institutlariga qo‘yishdan qo‘rqishlarini, chunki ayollar ularning gegemoniyasini hamda partiyalar ichida partiya yo‘nalishiga qarshi ovoz berib, mavjud partiyalarni buzishlari mumkin deb hisoblaydilar.

Bundan tashqari, mualliflar ayollarning siyosatda ishtiroki kamligining ularning siyosiy faolligiga to‘sinqlik qiluvchi kamsitilish (diskriminatsiya) singari sabablarini ham ko‘rsatadilar. Bu esa ayollarga asosiy siyosiy lavozimlarni berishni istamaslikda ham, saylovchilarning ayollarga ovoz berishni istamasligida ham namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtida elektorat ham, erkak siyosatchilar ham ayollarga nisbatan ancha yondashuvchan bo‘lib borayotganliklari ta‘kidlanadi. Ye. V. Kudryashova, N. N. Kukarenko institutsional konsepsiylar bilan bir qatorda biologik konsepsiyanı ham ajratib ko‘rsatadilar. Biologik konsepsiya ayollarning siyosatda kam ishtirok etishini ayollarning o‘zları uy-ro‘zg‘or va “tinchroq mashg‘ulotga tabiatan moyilliklari sababli qiziqmasliklari bilan izohlaydi”. Mazkur yondashuv ayollarning bunga qiziqmasliklari yoki hamkasb erkaklar tomonidan ham, saylovchilar tomonidan ham tanqid qilinishdan qo‘rqishlari tu-fayli siyosat maydonida yetarli ko‘rinmasliklarida ayblaydi. Ayollar qattiq raqobat sharoitida harakat qilishni va aniq konstruktiv qarorlar qabul qilishni bilmaydigan odamlar sifatida tasvirlanadi.

V. Sapiro “o‘yin nazariyasini” ilgari suradi. Unga ko‘ra erkaklar

nafaqat ayollarga bosim o‘tkazadilar, balki ularni o‘zlarini “to‘liqsiz” va hayotning muqobil uslubiga moslasha olmaydigan qilib his etishlariga majbur qiladilar. Ye. Zdravomislova va A. Tyomkina ushbu fikrni rivojlantirib, ayollar muvaffaqiyatsizlik xatarini kamaytirishga hamda o‘zları bilimdonroq bo‘lgan va nisbatan xavfsiz soha, ya’ni oilada qolishga intilishlarini ko‘rsatadilar. Bundan tashqari, ayollar elektorat va hamkasblarining tanqididan qo‘rqadilar. Chunki ular u yoki bu siyosiy masalalarini boshqacha qabul qiladilar; ayollar ham erkaklar singari zarur bilim va tajriba yetishmasligidan o‘zlarini qat’iyatsiz his qiladilar. Biologik konsepsiyalarni xususiy va ijtimoiy hayotni qarama-qarshi qo‘yishdan kelib chiqadilar hamda nima erkaklarga, nima ayollarga xos deb hisoblanishi haqidagi “normalarni” o‘rnatadilar, binobarin, ayollarning hokimiyat tepasiga kelishi va siyosiy maydonda ishtirok etishiga to‘sinqilik qiladilar. Yuqorida bayon etilganlar asosida biologik konsepsiyalarga muvofiq, ayollarning hokimiyatda kam ishtirok etishlarining sababi aynan ularning xatti-harakati va dunyoqarashidir, degan xulosaga kelish mumkin. Bu bilan ushbu konsepsiya doirasida ayollarning siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy omillar e’tibordan chetda qoladi.

Ayollar va erkaklar siyosiy hayotda ishtirok etish uchun u yoki bu siyosiy maydonga xos bo‘lgan siyosiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlar hamda xatti-harakat modellarini egallab boradilar. Boshqacha aytganda, ular muayyan rivojlanish bosqichidagi aniq.bir jamiyatga xos bo‘lgan siyosiy tafakkur va xatti-harakat madaniyatini o‘zlashtiradilar. Masalan, ayollar va erkaklarning siyosatda ishtirok etish darajalari va shakllari, binobarin ushbu ishtirok natijalari u yoki bu darajada, avvalo, davlat siyosiy rejimining, siyosiy madaniyatning xususiyatlarini belgilab beradi.

Zamonaviy gender tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, hayotning aksariyat sohalari, norma va qadriyatlari erkaklarning ustunligi va androsentrizm kuzatiladi. Bu, avvalo, erkaklar qo‘lida bo‘lgan hokimiyat va mulkka taalluqlidir. Masalan, aksariyat hollarda, siyosiy ijtimoiylashuv erkaklar va ayollarni turli rollarni bajarishga, siyosat va umuman jadal faoliyatga turlicha munosabatda bo‘lishga yo‘naltiradi.

Bizningcha, aynan gender identifikatsiyasi siyosiy ishtirokni yengillashtiruvchi va/yoki og‘irlashtiruvchi sharoitlardan biri hisoblanadi, u mustaqil amal qiluvchi omil emas. O‘zlashtirilgan gender rollari siyosiy mo‘ljalda o‘z aksini topadi, bu esa ilk bolalikdagi siyosiy ijtimoiylashuvda shakllanadigan farqlar bilan bog‘liq. Shunday qilib, erkaklar qadriyatları va hokimiyat ustunlik qilgan, siyosat “erkaklarning ishi” deb hisoblangan muhitda siyosiy ijtimoiylashuv natijasida ayollarda siyosatda ishtirok etishga intilmaslik, ishonch va manfaatdorlikning yo‘qligi va siyosiy jarayonga ta’sir ko‘rsatmaslik shakllanadi.

Shuningdek, ayollarning siyosatda ishtirok etish imkoniyatlari ular ega bo‘lgan ishtirok etish resurslariga–bo‘sh vaqt, moddiy mablag‘ning bor-yo‘qligi, ma’lumot darajasi, axborot, bilim va undan foydalana olish, ommaviy axborot vositalaridan foydalana bilish, siyosiy partiyalarda a’zolik yoki jamoat tashkilotlariga mansublik kabi larga bog‘liqidir.

Shunday qilib, aytish mumkinki, siyosiy ijtimoiylashuv erkaklar va ayollarni turli rollarni bajarishga, siyosat va umuman jadal faoliyatga turlicha munosabatda bo‘lishga yo‘naltiradi. Bizningcha, aynan gender identifikatsiyasi siyosiy ishtirokni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi sharoitlardan biri hisoblanadi, u mustaqil amal qiluvchi omil emas. O‘zlashtirilgan gender rollari siyosiy mo‘ljalda (orientatsiyada) o‘z aksini topadi, bu esa ilk bolalikdagi siyosiy ijtimoiylashuvda shakllanadigan farqlar bilan bog‘liq.

Shunday qilib, erkaklar qadriyatları va hokimiyat ustunlik qilgan, siyosat “erkaklarning ishi” deb hisoblangan muhitda siyosiy ijtimoiylashuv natijasida ayollarda siyosatda ishtirok etishga intilmaslik, ishonch va manfaatdorlik (qiziqish)ning yo‘qligi va siyosiy jarayonga ta’sir ko‘rsatmaslik shakllanadi. Shuningdek, ayollarning siyosatda ishtirok etish imkoniyatlari ular ega bo‘lgan ishtirok etish resurslariga bog‘liqidir.

Fikrimizcha, demokratik prinsiplar va asosiy huquqlar erkaklar va ayollarning hayot va faoliyatning barcha sohalarida teng bo‘lishini tabab etadi. Insoniyatning barqaror rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri gender omillarni inobatga olishdir. Rivojlanish jarayonlarida

jamiyatning ayollardan iborat qismi ishtirok etishi butun jamiyat uchun hayot darajasini rivojlantirish va yaxshilashni davom ettirishni nazarda tutadi.

### **3. O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlashning huquqiy jihatlari**

Inson huquqlarini himoya qilish, shu jumladan gender tenglikni ta’minlash demokratlashtirish jarayonining asosiy ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston barqaror iqtisodiyotga va ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan demokratiq huquqiy davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidan bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro shartnomalarga qo‘shilishi hukumat oldiga xalqaro majburiyatlarni va ular asosida qabul qilingan qonun hujjalalarini bajarish uchun tashkiliy-huquqiy mexanizmni, ularga markazda ham, viloyatlarda ham rioya etilishi bo‘yicha doimiy monitoring tizimini yaratish vazifasini qo‘ydi. Shu maqsadda mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirildi.

Davlat va jamiyatning asosiy ustuvorligi erkak bilan ayolning teng huquq, teng imkoniyatlarini ta’minlashga erishish hamda shunga qaratilgan xalqaro standartlar, nazorat mexanizmlarni ro‘yobga chiqarish uchun mas’uliyatdan iborat. Mazkur yondashuvga muvofiq, milliy qonunchilik yaratilgan va rivojlantirilmoqda, amaldagi va yangidan qabul qilinayotgan qonunlar gender jihatdan ekspertizadan o‘tkaziladi, shuningdek, ona va bola muhofazasiga, xotin-qizlarning ijodiy va ma’naviy salohiyatini, qobiliyat va imkoniyatlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlashga qaratilgan alohida chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Erkak va ayolning tengligi xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha turlarini bartaraf etish haqidagi g‘oyalar davlatimizning Asosiy qonuni - 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga implementatsiya qilingan. Konstitutsiyaning

18-moddasida: «O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirilar», 46-moddasida: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», deb belgilab qo'yilgan.

BMT ning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasi (CEDAW) ni O'zbekiston 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qilgan. Ushbu Konvensiyaning bajarilishi haqida O'zbekiston Respublikasi hukumati CEDAW qo'mitasiga to'rtta Milliy ma'ruza taqdim qilgan, ularning oxirgisi 2010-yil yanvar oyida ko'rib chiqildi. Milliy ma'ruzalarda 2001-yil yanvaridan 2010-yil yanvarigacha O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan, xotin-qizlar ahvolini yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, aniq dastur va loyihalar, muhim tashabbuslar, shuningdek, kelgusi davr uchun mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar haqida ma'lumot berilgan. Ma'ruzalarda qonunchilik, siyosat va dasturlarda yuz bergen muhim o'zgarishlar ham aks ettilgan.

O'zbekiston Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha IV butunjahon konfrensiyasiga (Pekin, 1995) qabul qilingan Pekin platformasi va Harakat dasturiga (PPD) qo'shilgan.

Pekin platformasi va Harakat dasturi (PPD) asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekistonda xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha Milliy platforma va Harakat dasturi qabul qilingan bo'lib, unda ta'lim, bandlik, reproduktiv salomatlik va reproduktiv huquqni himoya qilish, ayollarni qonun qabul qiladigan darajaga ko'tarish kabi sohalar uchun o'nta ustuvor yo'nalish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoya qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy va moddiy ahvolini yaxshilash hamda ularning jamiyat hayotining barcha sohalarini isloq qilishdagi, yangilanish jarayonlaridagi ishtiroki uchun sharoit yaratish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Bu siyosatni amalaga oshirish shakllari O'zbekiston Respublikasi qonunlari,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, hukumat qarorlari, xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nufuzini oshirishga qaratilgan davlat dasturlaridir. Bunda birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko‘zda tutilgan mexanizm va qoidalarni eslash o‘rinli.

Mustaqillik yillarda mamlakatda onalik va bolalikni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik hamda me’oriy hujjatlarni bajarish doirasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan quyidagi chora-tadbirlar majmui amalga oshirildi:

- Ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda oila, onalik va bolalikni himoya qilishning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirish;
- Oilani mustahkamlash, onalar va bolalarning moddiy farovonligini ta’minalash uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;
- Sog‘lom yosh oilani shakllantirish, farzand tug‘ilishi, uni parvarish qilish va emlash tadbirlarini o‘tkazishda davlat tomonidan bepul yordam berish, shuningdek, bolalarga tibbiy yordamning barcha turlarini bepul ko‘rsatish;
- Umummilliy ko‘lamda 12 yillik bepul umumiyligi majburiy ta’limni ko‘zda tutuvchi umumta’lim dasturini amalga oshirish, yigit-qizlarning oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim olishi uchun katta miqdordagi davlat grantlarini ajratish;
- Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron, yetim bolalar ya kam ta’minalangan oilalarning farzandlarini davlat tomonidan himoyalanishini ta’minalash;
- Jamiatning oila, ona va bola munosabatida alohida sharoitlar, axloq me’yorlari va qoidalarni shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 25-maydag‘i “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Unda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini, ta’lim darajasi va kasbiy malakasini oshirish, ularning saylanadigan vakillik organlari hamda davlat hokimiyatining boshqa organlarida faol qatnashishini ta’minalash masalalariga alohida e’tibor berilgan. Ushbu

hujjat Xotin-qizlar qo‘mitasiga xalqaro ayollar harakati va gender yo‘nalishidagi boshqa nufuzli tuzilmalar bilan keng hamkorlik qilish, ular doirasidagi o‘z faoliyatini ayniqsa, ijtimoiy sohada rivojlantirish majburiyatini yukladi.

2008-yilda O‘zbekiston Respublikasida “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi yangi Qonun qabul qilindi. Shu asosda Odam savdosiga qarshi kurashning samaradorligini oshirish bo‘yicha Milliy harakat dasturi amalga oshirilmoqda. Shuningdek, “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unda “bola” ta’rifi Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga mos ravishda berildi.

2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan BMT ning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish Qo‘mitasining O‘zbekiston Respublikasining To‘rtinchi milliy ma’ruzasi natijalari yuzasidan Yakuniy xulosalarini bajarish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasি tasdiqlandi.

O‘zbekiston birinchi Prezidentining ayollar bilan ishlash tizi-mini yaratish borasidagi tashabbusi asosida 1991-yil 27-dekabrda (O‘zbekiston xotin-qizlarining Termiz konferensiyasida) O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil topdi va bu jamiyat birlashmasi—o‘zini—o‘zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi.

1995-yil 2-martdagi O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1084 sonli farmon e’lon qilindi. Farmon xotin-qizlar qo‘mitalari tizimini rivojini yangi bosqichga ko‘tardi va ayollar hayotining yanada yaxshilanishiga sharoitlar yaratdi.

Ushbu farmon asosida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisiga Bosh vazirning o‘ribbosari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi raisiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisining o‘ribbosari, Toshkent shahri va viloyatlar hamda tuman-shahar Xotin-qizlar qo‘mitalari raislariga hokim o‘ribbosari maqomi berildi va lavozim egalariga xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirish bilan bog‘liq masalalarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatildi.

2004-yilning 25-mayida Respublika Prezidentining “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3434-sonli farmoni e’lon qilindi. Farmon Qo‘mita tizimining yana bir bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘ldi. Ushbu farmon ijrosini nazorat qiluvchi Doimiy asosda ishlaydigan Hukumat komissiyasi shakllantirildi.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tizimida 460 dan ortiq mutahassislar faoliyat yuritayotgan 208 ta hududiy bo‘linmalar mavjud.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy maydondagi faolligini yana bir pog‘ona ko‘tarish maqsadida 2004-yil yili O‘zbekiston Respublikasining saylov qonunchilikiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritilib, siyosiy partiyalardan vakillik organlari hamda parlament deputatligiga nomzod ko‘rsatish jarayonida xotin-qizlar uchun 30 foizli kvota joriy etildi.

2009-yilning dekabrdagi saylov yakuniga ko‘ra, 33 nafar ayol O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati etib saylandi. Bu deputatlar umumiyligi sonining 22 foizini tashkil etadi. 2004-yili Qonunchilik palatasi tarkibida 17.5 foiz, 1999-yili – 8.2 foiz ayol deputatlar bor edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, 5 yil ichida ayollarning siyosiy faolligi ikki barobar oshgan.

Mamlakatizda xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar qoshida “Ayollar qanot”lari tashkil etildi va O‘zbekiston Xotin-qizlar. qo‘mitasi va “Ayollar qanoti” hamkorligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi natijasida xotin-qizlarning siyosiy partiyalardagi ulushi ortib bormoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri inson huquqlarini, xususan, gender tenglikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. “Gender” deganda nimani tushunasiz?
2. Feminizm konsepsiyasi mohiyati nimadan iborat?
3. O‘zbekistonda gender tenglik siyosati borasida qanday ma’lumotlarga egasiz?

4. Gender tenglikka oid zamonaviy qarashlarni so‘zlab bering.
5. Ayollarning siyosiy faoliyatdagi ishtiroki qanday?
6. O‘zbekistonda saylovlarda ayol nomzodlarga qanday e’tibor beriladi?
7. Gender tenglikning institutsional asoslari qanday?
8. Inson huquqlariga oid qanday xalqaro hujjatlarni bilasiz?
9. Ayollarning zamonaviy oiladagi roli qanday bo‘lishi kerak?
10. Turli jamiyatlarda gender tenglikka nisbatan erkaklar munosabati qanday?

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. “Ommaviy madaniyat” to‘g‘risida ma’lumot to‘plib, salbiy jihatlarini o‘rganib kelish.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўқув қўлланма. –Т.: ТошДШИ, 2013.
2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўқув юрт талабалари учун ўқув қўлланма. –Т.: Янги аср авлоди, 2013.
3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., YuIdashev O. Politologiya. (Darislik), -T.: TDIU, 2010.
4. Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008.
5. Фарманов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев Қ.А., Мухаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма. –Т., 2006.
6. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма. – Т., 2002.
7. Инагамова М.М. аёл ҳукуқлари шаклланишининг тарихий-ҳукуқий негизлари: ўқув қўлланма. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2012.

## **2. Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутки. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
5. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармони //http://www.lex.uz
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. –Т.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
7. Бобоев Ҳ. Ғафуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти. Т., 2001.
8. Гаджиев К.С. Политология. М., 2003.
9. Алексеева Т.А. Современные политические теории. –М.,2000.
10. Брайсон В. Политическая теория феминизма. Введение / Валери Брайсон. – М.: Идея-Пресс, 2001.
11. Феминизм в общественной мысли и литературе. – М.: «Грифон», 2006
12. Юкина И. Русский феминизм как вызов современности. – СПб: Алетейя, 2007

13. Кейтлин Моран. Быть женщиной: Откровения отъявленной феминистки = How to be a Woman. – М.: Альпина нон-фикшн, 2014.
14. Савицки Л. Фуко и феминизм: к политике «различия» // Феминистская критика и ревизия истории политической философии. – М.: РОССПЭН, 2005. – с.297-315.
15. Власова Т.И., Скиба Э.К. Гендер и феминистская теория в философии постмодерна: монография / Татьяна Власова, Элеонора Скиба. – Дн-вск: Изд-во Маковецкий, 2011
16. Кэрролл С.Дж, Зерилли Л.М. Феминистские вызовы политической науке // Гендерная реконструкция политических систем. – Спб.: Алетейя, 2004. – С.877 – 919
17. Брандт Г. Философская антропология феминизма. Природа женщины / Галина Брандт. – СПб.: Алетейя, 2006.
18. Hawkesworth, M.E. Globalization and Feminist Activism. – Rowman & Littlefield, 2006.
19. Appignanesi R., Garratt C., Introducing Postmodernism / Richard Appignanesi, Chris Garratt. – Cambridge: Icon Book Ltd, 2007

### **Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)

## **13-mavzu. TASHQI SIYOSAT. O'ZBEKISTONNING JA-HON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSİYASI**

### **Darsning maqsadi:**

- talabalarga tashqi siyosat haqida ma'lumot berish;
- O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi haqida bilimlarini shakllantirish;
- yoshlar orasida sog'lom ma'naviy-ilmiy muhitni shakllantirish.

### **Tushunchalar va tayanch iboralar:**

Tashqi siyosat, davlatlar o'rtasidagi raqobat, tashqi siyosatning "himoya qilish" va "tashabbus ko'rsatish" vazifasi, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi hudud, YuNESKO, O'zbekiston va Janubiy Osiyo.

### **Asosiy savollar:**

1. "Tashqi siyosat" kategoriyasi tahlili.
2. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
- 3.O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.
- 4 O'zbekiston va jahon davlatlari munosabatlari.

#### **1. "Tashqi siyosat" kategoriyasi tahlili**

**Tashqi siyosat** deganda, siyosatning davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi turi tushuniladi. Tashqi siyosiy maqsadlar milliy manfaatlarni aks ettiradi. Ularni ro'yobga chiqarar ekan, davlat o'z tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshiradi. Davlatning tashqi siyosati ham tashqi, ham ichki omillar ta'sirida shakllanadi va ularning murakkab o'zaro aloqasining hosilasi hisoblanadi.

2007-yil mamlakatimizda chop yetilgan "Xalqaro munosabatlari" kitobida keltirilishicha, tashqi siyosat - dunyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish va amalga oshirishga

doir ustuvor tamoyil va sa'y-harakatlardir<sup>90</sup>. Tashqi siyosiy maqsadga erishishda turli tamoyillar, uslub va mexanizmlarga tayaniladi. Diplomatiya tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy mexanizmi hisoblanadi<sup>91</sup>. Bundan kelib chiqadiki, "Tashqi siyosat deganda, siyosatning davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi turi tushuniladi"<sup>92</sup>.

Davlatlar o'rtasidagi raqobat–bu obyektiv hodisa bo'lib, u suveren davlatlarning barchasi uchun xarakterlidir.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar X.T.Odilqoriyev va D.X.Razzoqovlarning "Siyosatshunoslik" darsligida keltirilishicha, tashqi siyosat har bir zamonaviy davlatning bosh atributi, fundamental jihat, ajralmas qismi va vazifasi hisoblanadi. Chunki tashqi siyosat orqali davlat geografik-makoniy jihat kasb yetish bilan birga, o'zini noyob tarixiy, sotsiomadaniy, sivilizatsion va nihoyat, geo-siyosiy yaxlitlik sifatida namoyon qiladi<sup>93</sup>.

U munosabatlар va manfaatlar yig'indisi sifatida muayyan vositalar orqali yuzaga keladi. Xalqaro munosabatlар sohasida samarali raqobatdoshlik milliy manfaatlarni ifodalovchi tashqi siyosat natijasida paydo bo'ladi. Keng ma'noda tashqi siyosat – bu xalqaro munosabatlarda davlatning o'z milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarishidir. Shuningdek, tashqi siyosat muayyan mahkamaning strategiyasi, taktikasi va asosiy faoliyat yo'nalishini tashkil qiladi. Tashqi siyosat ikki muhim vazifani: himoya qilish va tashabbus ko'rsatishni bajaradi.

Rus olimi K.S.Gadjiev "Geosiyosatga kirish" darsligida, tashqi siyosat va uning mohiyati borasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. Juhon hamjamiyatida davlatlar o'rtasida aloqa o'rnatishning asosiy vosi-

<sup>90</sup> Xalqaro munosabatlар (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik). – T.:Akademiya, 2006.– B. 91.

<sup>91</sup> Xalqaro munosabatlар (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik). – T.:Akademiya, 2006.–B. 91.

<sup>92</sup> Jo'raev S. Zamonaviy xalqaro munosabatlар, -T.:Akademiya, 2007.– B. 8.

<sup>93</sup> G'afurov S.M., Xaydarov A.A., To'laganova N.O., Siyosatshunoslik asoslari:O'quv qo'llanmasi.–T.:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining nashriyoti, 2006.–B. 232.

talaridan biri bu tashqi siyosatdir. Tashqi siyosat deganda, davlatning tashqi siyosatidagi umumiy faoliyati tushuniladi. U shu davlatning boshqa davlatlar va xaqlar o'rtasidagi munosabatlarni umumqabul qilingan prinsiplar kompleksi vositasida, shu davlat maqsad hamda xohish irodasini hisobga olib tartibga soladi. U turli xil vositalar va metodlar orqali amalga oshiriladi. Bu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tashqi siyosatning asosiy vazifasi mamlakatni maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun xalqaro maydonda qulay sharoitni yaratishdan iboratdir. Tashqi siyosatning muhim funksiyalaridan biri, bu davlatlar o'rtasidagi agressiya, urush va kelishmovchiliklarni oldini olishdir<sup>94</sup>.

Ozorbayjonlik olim A.Gasanov fikricha, tashqi siyosat esa o'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek o'z hududida xavfsiz va ijobjiy xalqaro tajriba asosida tashqi aralashuvlarsiz qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatini amalga oshiradi, alohida mamlakatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik qiladi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy madaniy hayotning har bir sohasidagi xalqaro tajribaning ijobjiy taraflarini o'zlashtirib oladi. Shunday ekan tashqi siyosatga davlatning ichki siyosiy rivojlanishining asosiy masalalari yuzasidan kelib chiquvchi va mamlakatning milliy manfaatlari bilan tashqi dunyo manfaatlarini xalqaro qonun va normalar asosida bog'lovchi maqsadga yo'naltirilgan faoliyat deb izoh berish mumkin<sup>95</sup>.

Amerikalik xalqaro munosabatlar tadqiqotchisi R.Aliano "Tashqi siyosat davlatning tashqi va xalqaro (yoki geosiyosiy) muhittdagi strategiyasi hisoblanib, ijobjiy natijalarga erishishga yo'naltiriladi", deb hisoblaydi<sup>96</sup>.

Metodologik va konseptual jihatdan tashqi siyosat asoslarini o'rganish, uning asosiy maqsadi davlatlar milliy manfaatlarini

<sup>94</sup> Qarang: Odilqoriev X.T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik.–T.: O'qituvchi, 2008.–B.279.

<sup>95</sup> См.: Гаджиев К.С. Введение в геополитику.–М.: Логос, 1998.–С.407–415

<sup>96</sup> См.: Гасанов.А. Современные международные отношения и внешняя политика Азербайджана// Академия государственного управления при президенте Азербайджанской Республики.–Б.: Şərq-Qərb, 2007.–С. 260–261.

ta'minlashdan iborat ekanligini ko'rsatadi. Bu o'rinda tadqiqotchilar o'rtasida turli metodologik yondashuvlarni kuzatish mumkin.

Amerikalik siyosatshunos olim N.Spaykmen e'tiroficha, davlatlar tashqi siyosatning asosiy maqsadi: *hudud yaxlitligi* va *uning ustidan nazoratdir*.

Jahon xalqaro anarxiyasida tashqi siyosatning asosiy maqsadi birinchi navbatda davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yaxshilash, juda bo'limganda uning mavjud qudratini saqlab qolishdan iboratdir. Davlatning kuch-qudrati esa tugal manoda muvaffaqiyatli urush olib borish qobiliyati sanaladi. Shunday ekan harbiy va siyosiy muammo-larning kaliti davlatning geografik hududidadir. Davlatning hududi bu – urush vaqtida davlatning harakat bazasi va strategik pozitsiyasi hisoblanadi. Shu sababli davlat tashqi siyosatining eng fundamental omili bu-geografik hududdir, chunki bu eng doimiy va o'zgarmas omildir<sup>97</sup>.

Tashqi siyosat, rus tadqiqotchisi K.S.Gadjiyev qarashiga ko'ra, vosishta sanaladi. Ya'ni davlatlar o'rtasidagi urushlar, agressiya va turli xil ***konfliktlarni oldini olishning asosiy vositalaridan*** biri suveren davlatlar tashqi siyosati hisoblanadi. U har bir davlatning boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatni ma'lum prinsiplar, mexanizmlar asosida tartibga soladi<sup>98</sup>.

Tashqi siyosatning asosiy vazifasi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, xavfsizligi hamda davlat va uning fuqarolari huquqi va manfaatlarini chet ellarda himoya qilishini ta'minlovchi muhitni barpo etishdir. Bunday muhitni vujudga keltirish uchun har bir davlat qo'shni va uzoqdagi davlatlar bilan aloqa o'rnatadi. Xalqaro – davlatlararo munosabatlarni amalga oshirishda tashqi siyosat o'zining asosiy vositasi bo'l mish diplomatiyaga tayanadi<sup>99</sup>.

---

<sup>97</sup> Aliano R.A. The crime of world power: Politics without government in international system.–New York: Putnam, 1978.–P. 128.

<sup>98</sup> Spykman N. America's Strategy in World Politics.–Hamden, 1942.–P. 41.

<sup>99</sup> Гаджиев К.С. Введение в политическую науку.–М.: Логос, 1999.–C.217–19.

Tashqi siyosatning “**himoya qilish**” vazifasi davlat va xalqning mustaqilligini mustahkamlash, mudofaa, milliy manfaatlar kabilarni himoya qilishdan kelib chiqadi.

“**Tashabbus ko‘rsatish**” esa tashqi siyosatda samarali g‘oyalar, tashabbuslar bilan chiqish, geosiyosat olamida davlatning o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir. Har qanday holatda bu vazifalar maqbul darajada bajarilsa, davlatning tashqi siyosati kutilgan samarani beradi.

Bugungi kunda tashqi siyosat maqsadiga nisbatan ikki xil yondashuv shakllanmoqda:

Bir toifa mutaxassislar (xalqaro siyosiy terminologiyada “idealistlar” deb ataladi) tashqi siyosatda global, umumbashariy manfaatlar va xavfsizlikni milliy davlat manfaatlaridan ustun qo‘yishsa.

Boshqa bir guruh mutaxassislar (Ular “pragmatik” nomi bilan tanish) bugun va yaqin kelajakda tashqi siyosatda davlat suvereniteti ustuvorlikni o‘zida saqlab qolishi ma’qul va samarali ekanligi to‘g‘risida fikr bildirishmoqda<sup>100</sup>.

Tashqi siyosat davlat faoliyatining muhim sohasi sifatida muxtorligi va o‘ziga xos xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bunda tashqari, u aniq vazifalarga, predmet va metodlarga ega bo‘ladi. Masalan, xavfsizlik va mudofaa sohasidagi tashqi siyosat siyosiy, harbiy-texnikaviy, gumanitar kabi sohalardagi muammolarni boshqa davlatlar bilan birgalikda hal qiladi. Davlatlarning xalqaro hamkorligi harbiy sohada o‘zaro tushunuvchanlikni, xavfsizlikni ta’minlashda, qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirishda yakdil bo‘lishni taqozo etadi. Ayni paytda, tashqi iqtisodiy faoliyatda ham o‘ziga xos vazifalar bajariladi. Bunda asosiy e’tibor xorijiy investisiyalarni boshqarish, kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, samarali iqtisodiy hamkorlik kabilarga qaratiladi.

Ingliz tadqiqotchsi R.Dj.Feltxem “Nastolnaya Kniga Diplomata” risolasida har bir davlatning tashqi siyosati 3 ta omil asosida shakl-lanishini keltirib o‘tadi:

<sup>100</sup>Politologiya: O‘quv qo‘llanma / mualliflar guruhi. prof. I.Ergashev taxrir ostida.–T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.–B.231–32.

1. Ratsional (oqilona) – tashqi ishlar vaziri o‘z fikriga ko‘ra yoki diplomatlarining maslahatlariga muvofiq mamlakat manfaatlari uchun eng yaxshi yo‘lni oqilona tanlaydi;
2. Siyosiy – bunda hokimiyat mamlakat manfaatlariiga muqobil yo‘lni tanlab oladi;
3. Emotsional – bu jamiyat kutgan natija bo‘lib, ma’lum darajada televideniya orqali olingan axborotga asoslanadi. Yaqin kunlarga cha tashqi siyosatini shakllantirish birinchi navbatda savodli, siyosiy ongga ega bo‘lgan elitaning vazifasi edi. Hozirda esa axborot vosisati televideniya jamiyatning barcha qatlamiga ta’sir ko‘rsata oladi va tashqi siyosat haqida nokompitent fikrlarni uyg‘atmoqda<sup>101</sup>.

Amerikalik tadqiqotchi G.Allison yondashuviga ko‘ra tashqi siyosatning shakllanishi uch asosiy modelga ajratiladi<sup>102</sup>.

Birinchi model – klassik model bo‘lib, unda tashqi siyosat aktorning ongli, keng rejalashtirilgan faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinci model – tashqi siyosatning uyushgan aktorlar va jarayonlarning majmuasi sifatida namoyon bo‘lishi.

Uchinchi model – tashqi siyosat siyosiy muassasa va uning yetakchilari faoliyati natijasi sifatida namoyon bo‘lishi<sup>103</sup>. Ushbu modelda muallif Buyurokratik konsepsiyanı ilgari suradi. Negaki ushbu konsepsiya tashqi siyosat yo‘nalishini belgilashda siyosiy yetakchingning roli ustuvor ekanligni ko‘rsatib o‘tgan va asosiy e’tiborini uning xattiharakatiga qaratgan.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari**

O‘zbekiston 1991-yil 31-avgustda o‘z mustaqilligini e’lon qilishi bilan xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Xususan, O‘zbekiston 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti

<sup>101</sup> Фельтхем Р.Дж. Настольная Книга Дипломата.–London, 1998.–С.28–29.

<sup>102</sup> Ланцова С.А., Ачкасов В.А. Мировая политика и международные отношения.–СПБ:Питер, 2007.–С. 266.

<sup>103</sup> Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. С.А.Ланцова, В.А.Ачкасова.–СПб.:Питер, 2009.–С.266.

ning teng huquqli a'zolari safiga qo'shildi. 2015-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqa o'rnatgan. Toshkentda 44 ta elchixon, 9 ta faxriy konsul, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonalar, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonalar, 3 ta savdo vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalar chet davatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida, shu jumladan, Nyu-York shahrida BMT huzuridagi doimiy vakolatxonasi hamda Jeneva shahrida BMTning Yevropa bo'limi va boshqa xalqaro tashkilotlari huzurida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 100 dan ziyod xalqaro tashkilot a'zosidir. Ular orasida ayniqsa BMT, ShHT, MDH nufuzli tashkilotlardir. Yevropa Ittifoqi va NATO bilan yaqin hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda<sup>104</sup>.

Shu jihatdan, O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligida O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatini ishlab chiqish va uni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsianing qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida ilk marotaba tashqi siyosatni tartibga soluvchi norma-ning kiritilishi katta siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliv manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin.»<sup>105</sup>, deyiladi.

<sup>104</sup> O'zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari // [http://mfa.uz/uzb/xalqaro\\_munosabatlar](http://mfa.uz/uzb/xalqaro_munosabatlar).

<sup>105</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.: O'zbekiston, 1992. 17-modda.

Ta'kidlash joizki, Konstitutsiyaning tashqi siyosat prinsiplarini aks ettiruvchi 17-moddasi ikki qismdan iborat bo'lib, ularning birinchisi umumiy, ikkinchisi esa xususiy tusga ega.

Birinchi qismda umuman davlat tashqi siyosatining principial asoslarini belgilangan.

Ikkinci qismda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan chiqish prinsipi yanada aniqroq ifodalangan<sup>106</sup>.

O'zbekistonning 26 yillik rivojlanishi davrida tashqi siyosatga oid konstitutsion normalarni o'zida aks ettirgan ikki muhim hujjat qabul qilindi.

**Birinchisi**, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni<sup>107</sup>. Mazkur qonun 2012-yilda o'z kuchini yo'qotdi.

**Ikkinchisi**, Davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo'naliishlari, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalari, milliy manfaatlari va ularni ilgari surish mexanizmlarini belgilab beruvchi o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan qarashlarning yaxlit tizimini o'zida mujassam qilgan yangi hujjat - «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi» tayyorlandi.

Natijada xalqaro maydondagi geosiyosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2012-yilning yanvar oyida O'zbekiston tashqi siyosat strategiyasini amalga oshirish bo'yicha doktrinal hujjat ishlab chiqish tashabbusini ilgari surildi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim huquqiy asoslaridan biri 2012-yil 10-sentabrda «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi to'g'risida»gi Qonun imzonlandi.

---

<sup>106</sup> Tursunov A.S. O'zbekiston Respublikasi Kontstitutsiyasi va tashqi siyosat.-T.: TDYUI, 2005.-B.21.

<sup>107</sup> Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 10 sentabrdagi O'RQ-330-sonli «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan.

Hujjat 4 bo‘limdan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi davlatning va xalqning oliy manfaatlariga, farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyat-larga amal qilgan holda, ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek, ulardan chiqish huquqi ni o‘zida saqlab qoladi:

**I bo‘lim.** Hozirgi xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlarni O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari nuqtayi nazaridan baholash.

**II bo‘lim.** O‘zbekiston tashqi siyosatning asosiy maqsadi, prinsiplari va vazifalari.

**III bo‘lim.** O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari.

**IV bo‘lim.** O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlari.

Mamlakatimiz tashqi siyosati va diplomatiyasining ushbu hujjatda belgilab qo‘yilgan boshqa muhim jihatlari qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish mumkin<sup>108</sup>:

Birinchidan, O‘zbekiston xalqaro munosabatlar tizimining to‘laqonli subyekti sifatida faol va izchil tashqi siyosat strategiyasini olib boradi. Bunda milliy manfaatlarni sobitqadamlik bilan ilgari surish, davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari uchun qulay bo‘lgan tashqi muhitni shakllantirish kabi maqsad va vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston dunyodagi yetakchi davlatlar bilan strategik sherikchilik munosabatlarining muvozanatli va ko‘p qirrali tizimini shakllantirishda davom etadi; mintaqada geosiyosiy muvozanatni saqlash; siyosiy, iqtisodiy, savdo-sotiq, transport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalarni keng diversifikatsiya qilish yo‘lidan boradi.

---

<sup>108</sup> Yigitaliev SH.M. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi: milliy manfaatlar va azaliy qadriyatlar uyg‘unligi // <https://telegraf.uz/nuqtayi-nazar/ozbekiston-respublikasining-tashqi-siyosiy-faoliyati-koncepciyasi-milliy-manfaatlar-va-azaliy-qadriy> - 22.10.2015

Uchinchidan, mamlakatimizning xalqaro tashkilotlar bilan bo‘lgan aloqlariga ham alohida urg‘u beriladi. Bu borada, avvalambor, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan hamkorlik ustuvor ahamiyatga ega ekani bayon qilingan. Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi va boshqa qator xalqaro institutlar bilan aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. O‘zbekiston xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida qarorlar qabul qilish jarayonida konsensus prinsipi va o‘zaro ishonch, tenglik va bir-birining manfaatlarini hurmat qilish qoidalariга qat’iy rioya etish tarafdori ekanligi qayd qilingan.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi. Har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi. O‘zbekiston o‘zining qo‘shti davlatlardi qurolli ziddiyatlarga tortilishining oldini olish maqsadida tegishli choralarни ko‘radi; o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari va obyektlari joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi; O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida ishtirok etmaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida ham davlat boshqaruvi va tashqi siyosat masalalari markaziy o‘rinni egallaganini kuzatishimiz mumkin<sup>109</sup>. “Harakat strategiyasi” besh ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lib, uning beshinchi yo‘nalishi aynan—“**Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar**” masalalariga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra davlatimiz tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

<sup>109</sup> Qarang: O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni //http://www.lex.uz

1.Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o‘rnii va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘sniinchilik muhitini shakllantirish.

2.O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga holis axborot yetkazish.

3. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda hamkorlikning shartnomaviy huquqiy asoslarini takomillashtirish.

4. Davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yil 6-dekabrda O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligi munosabati bilan “**Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi**” nomli qilgan ma’ruzasida tashqi siyosatimiz borasida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan<sup>110</sup>:

“Biz tashqi siyosat sohasidagi faoliyatimizni avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiramiz.

Bu siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qaramaqarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etish tashkil etadi.

Biz bundan buyon ham uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettiramiz. Bu borada ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolamiz”.

---

<sup>110</sup> O‘zbekiston Respublikasi SH.M.Mirziyoevning “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirdagi ma’ruzasi. // <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-tara--07-12-2016> - 07.12.2016

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy me’yorlardan xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari va me’yorlarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Bu esa mamlakatmizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, Markaziy Osiyo davlatlari bilan do’stona munosabatlar rivoji, xalqaro hamjamiyatga mamlakatimizning integratsiyasi va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarining yanada mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

### **3.O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi**

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘lini tanladi va og‘ishmay shu yo‘ldan bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining xohish-irodasi va taklifiga ko‘ra, 1992-yilning 2-martida jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. O‘zbekiston BMT Nizomini, xalqaro huquqiy me’yorlarni, davlatlararo muomala qoidalarini, shuningdek, BMT tarkibiga kiruvchi xalqaro tashkilotlar talablariga rioya qilishini bildirdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyating to‘la teng huquqli a’zosi bo‘ldi.

1993-yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladи. O‘zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa’y-harakatlari natijasida BMTning Toshkentdagи vakolatxonasi O‘zbekistonda BMTning Taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi bo‘yicha oliy qo‘mita komissari, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Aholi joylashish jamg‘armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti dasturi, Bolalar jamg‘armasi singari ixtisoslashgan muassasalarни o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasida 4 marta nutq so‘zлади (1993, 1995, 2000 va 2010).

Islom Karimov 1993-yilgi BMTning 48-sessiyasida ilk marta ishtirok etib, jahonning boshqa mamlakatlaridan kelgan vakillar oldida chiqish qilgan edi. Brinchi Prezident I.A.Karimov BMT Bosh assambleyasining 48-sessiyasida so‘zlagan nutqida mazkur masala haqida to‘xtalib, shunday degan edi: “Tub tarixiy o‘zgarishlar davrida hozirgi dunyoning o‘zaro aloqasi va bir-biriga bog‘liqligi ortib borayotganligi ravshan ko‘rinib turibdi. Ayni shu paytda umuminsoniy muammolarni o‘rganish va hal qilishda jahon miqyosidagi siyosiy vosita sifatida BMTning dunyo ko‘lamidagi roli va ahamiyati oshib bormoqda”. Shu bois BMTning O‘zbekiston bilan aloqalariga oid masalalarni ilmiy jihatdan tahlil etish negizida ikki tomonlama munosabatlarni yanada takomillashtirish va istiqbollarini aniqlash hamda tegishli xulosa va takliflarni ishlab chiqish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonning BMT faoliyatidagi ishtiroki bu tashkilotning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning 50-sessiyasi max-

sus tantanali yig‘ilishida, bundan tashqari 2000-yilda Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMTning Mingyillik sammitida so‘zlagan nutqida ushbu tashkilotning barcha tizim va mexanizmlarini davr talablari bilan muvofiqlashtirish, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minalash borasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, BMTning mintaqaviy va global muammolarni hal etishdagi o‘rnii va ahamiyati-ni oshirish haqida to‘xtalib, quyidagi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi:

“Birinchidan, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish darkor. Uning doimiy a’zolari tarkibi nafaqat rivojlangan, balki rivjlanayotgan davlatlar hisobidan ham kengaytirilishi lozim. Xavfsizlik Kengashining ham doimiy, ham muvaqqat a’zolari sonini oshirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, global va mintaqaviy tahdidlarga munosabat bildirishda tezkorlikni oshirish uchun Bosh kotib vakolatlarini kengaytirish zarur;

Uchinchidan, Xavfsizlik Kengashining qurolli mojarolarning oldini olish, ziddiyatlar va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalari hamda mexanizmlaridan, shu jumladan, uzoq vaqt davom etayotgan mojarolarni bartaraf etishda “tinchlikka majbur qilish” deb ataluvchi mexanizmdan samarali foydalanish masalalaridagi o‘rnii va mas’uliyatini kuchaytirish lozim”<sup>111</sup>.

BMT faoliyatining eng muhim yo‘nalishi dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash, tinchlikka tahdidlarning oldini olishdir. Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan tinchlikparvar siyosat tashkilot olib borayotgan ezgu intilishlarga tayanch bo‘lmoqda. O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi zonaga aylantirish masalasida o‘z ifodasini topdi. Aynan O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan 2006-yilda Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi hudud deb e’lon qilindi. 2014-yil may oyida ushbu hujjat BMT Bosh Assambleyasida tasdiqlandi.

---

<sup>111</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild.–T.: O‘zbekiston, 2001.–B.111–112

Mamlakatimizda BMTning qator tarkibiy tuzilmalari – Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, Bolalar jamg‘armasi, Aholishunoslik jamg‘armasi, Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti, Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi, Taraq-qiyot dasturi, OIV/OITS bo‘yicha birlashgan dasturi vakolatxonalarini faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston BMTning 2017-yil 10-fevralda “Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik fondini tashkil qilish orqali Orol dengizi fojiasidan zarar ko‘rgan aholining turmush sharoiti salohiyatini mustahkamlash” bo‘yicha qo‘shma dasturining amalga oshirila boshlanganini to‘la qo‘llab-quvvatlaydi. Bu dastur O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining asosiy qoidalari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘la mos kelishni yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘zbekiston-BMT aloqalaridagi muhim jihatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi hisoblanadi. Nutqida quyidagi masalalarga to‘xtalib o‘tilgan asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ma’no-mazmuni, maqsadi va ahamiyati;
- O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatida Markaziy-Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratayotgani, qo‘shti davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining rivojlanishi;
- Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirish;
- Afg‘on muammosini hal etish bo‘yicha konstruktiv ruhdagi fikr va takliflar;
- Terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashishda faqat ularning oqibatlari bilan emas, balki sabablari bilan ham kurashish;

• Yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish; Unda BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etildi.

• Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namo-yandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beba-ho hissasi. Unda BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi.

**O'zbekiston-YUNESKO.** 1993-yil 26-oktabrda O'zbekiston Respublikasi BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) ga a'zo bo'ldi.

Tashkilotning nizomiga ko'ra 1994-yil dekabr oyida O'zbekistonda YUNESKO faoliyatini muvofiqlashtirish va dasturlarni amalga oshirish uchun YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya tashkil etildi. Ijtimoiy masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri o'rinnbosari Milliy komissiya raisi hisoblanadi.

**O'zbekiston-MDH.** Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) 1991-yil 8-dekabrdagi MDH tuzish to'g'risida bitim va 1991-yil 21-dekabrdagi mazkur Bitim Protokoli asosida tashkil qilingan.

Ozarbayjon Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Moldova Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina MDH ishtirokchi davlatlari hisoblanadi.

MDH Ijroiya Qo'mitasi Hamdo'stlikning ijro etuvchi, ma'muriy va muvofiqlashtiruvchi idorasidir. Uning shtab-kvartirasi Minskda va bo'linmasi Moskvada joylashgan.

O'tgan yillar mobaynida MDH doirasida ishtirokchi davlatlar uchun savdo-iqtisodiy munosabatlar, kommunikatsiya va transport tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xavfsizlikni ta'minlash hamda gumanitar aloqalarni mustahkamlash kabi ustuvor yo'naliishlarni o'z ichiga oluvchi qator hayotiy muhim yo'naliishlar bo'yicha keng ko'lamli huquqiy asos yaratildi va hamkorlikning vosita va mexanizmlari ishlab chiqildi.

O‘zbekiston MDH doirasida amaldagi o‘zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to‘laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafidoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston tomoni jahondagi jadal o‘zgarishlar sharoitida MDH-ni davlatlararo hamkorlik tizimi sifatida doimiy muzokaralar, oliy darajada siyosiy muloqotlar, vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqish, xalqaro xavfsizlikka oid ko‘plab dolzarb masalalarini hal etishning muhim mexanizmi deb hisoblaydi.

Hamdo‘stlik ko‘p rejali hamkorlikni muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi va barcha ishtirokchi davlatlarning maksimal ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishishishlari maqsadida xo‘jalik jarayonlarini tartibga soluvchi rolini o‘ynaydi va uning faoliyati shunga yo‘naltirilgan.

**O‘zbekiston-ShHT.** 2001-yil 15-iyunda Shanxay shahrida Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Xitoy, Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari rahbarlari tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzilishi haqida Deklaratsiya imzolandi.

Afg‘oniston, Belarus, Eron va Mug‘uliston Tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya va Shri-Lanka davlatlari ShHTda “muloqot yo‘lida hamkorlik” maqomiga ega. 2010-yil aprel oyida Toshkent shahrida ShHT va BMT kotibiyatlari hamkorligi to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Shuningdek, BMTning Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi, Yevroсиyo iqtisodiy hamjamiyati, Mustaqil Davlatlari Hamdo‘stligi kabi tashkilotlar bilan rasmiy aloqalar o‘rnatalilgan.

Tashkilot ikkita doimiy amaldagi organga, ya’ni Pekin shahrida ShHT Kotibiyati va Toshkent shahrida ShHT ning Mintaqaviy Aksil-terror tuzilmalariga ega.

O‘zbekistonning tashkilotga raisligi doirasida 2004-yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitda «ShHTda kuzatuvchi maqomi to‘g‘risidagi Nizom» hamda «ShHTning kuzatuvchilar bilan o‘zaro munosabatlari Tartibi to‘g‘risida» hujjatlar imzolandi. Kuzatuvchi davlat institutini

joriy etilishi, ShHTning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu, shuningdek, ShHTning kelajagini mustahkamlash, tashkilot salohiyatini kengaytirish hamda jahon hamjamiyatida uning roli va obro‘sini sezilarli darajada oshishiga sabab bo‘ldi.

2010-yil iyun oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan sammitda ShHTga yangi a’zolarni qabul qilish Nizomi hamda ShHTning prosteduralar Qoidasi tasdiqlandi. Shuningdek, ShHTga a’zo-davlatlar hukumatlari o‘rtasida qishloq xo‘jaligi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohalarida hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar imzolandi.

2013-yil noyabr oyida Toshkentda ShHTga a’zo davlatlar hukumat rahbarlarining (bosh vazirlar) bo‘lib o‘tgan 12-yig‘ilishida tomonlar jahon va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga oid keng qamrovli masalalar bo‘yicha fikr almashdilar hamda ShHT doirasida savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik masalalarini muhokama qildilar.

ShHTga a’zo davlatlar hukumat rahbarlarining kelajakda transport sohasida hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi Qo‘shma Bayonoti imzolandi hamda ShHTning Taraqqiyot Banki va Taraqqiyot Fondini tashkil qilish bo‘yicha kelgusida qilinadigan ishlar bo‘yicha qaror qabul qilindi.

2015-yil 9–10-iyulda Ufa shahrida ShHTning navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi, mazkur sammit davomida mintaqaviy muammolar va xalqaro xavfsizlikka doir dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, tashkilot faoliyatidagi ustuvor yo‘nalishlar va ShHT doirasida ko‘p tomonlama hamkorlik rivojining istiqbollari muhokama qilindi.

ShHT sammiti yakunida davlat rahbarlari tomonidan Ufa deklaratsiyasi imzolandi, 2025-yilgacha ShHT rivojlanish strategiyasi, 2016–2018-yillarga mo‘ljallangan ShHTga a’zo davlatlarining terrorizm, separatizm va ekstrimizmga qarshi kurashish uchun hamkorlik Dasturi tasdiqlandi, Hindiston va Pokistonning ShHT a’zoligiga qabul qilinishi jarayonining boshlanganligi haqida qaror qabul qilindi.

Davlat rahbarlari tomonidan Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 70-yilligi munosabati va narkotik tahdidlar muammosi yuzasidan bayonot qabul qilindi, shuningdek, ShHTga

a'zo davlatlarning chegara masalalari bo'yicha hamkorligi haqida Bitimi imzolandi.

ShHTning Ufa sammiti yakunlanishi bilan 2015–2016-yillarda Tashkilotga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tdi.

O'zbekiston raislik qiluvchi davlat sifatida ShHTga a'zo davlatlarning manfaatlarini aks ettiruvchi o'zaro manfaatli rivojlanish, ShHTning xalqaro maydonda obro'yini ortib borishini ta'minlash kabi tamoyillarga rioya qilish niyatida.

Xalqaro, mintaqaviy xavfsizlik, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ShHT a'zolari bo'lgan barcha davlatlar gumanitar rivojlanishiga bo'lgan zamonaviy tahdidlarga munosib javob tayyorlash, terrorizm, ekstremizm, ayirmachilikka qarshi birgalikda kurashishni kuchaytirish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mintaqada ShHTning taraqqiyot va barqarorlikning ishonchli kafolatchisi sifatidagi rolini mustahkamlash maqsadida a'zo davlatlar o'tasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish tadbirlariga, shuningdek BMT, boshqa xalqaro tashkilotlar va manfaatdor davlatlar bilan munosabatlarning keyingi rivojiga katta ahamiyat beriladi.

**O'zbekistonning Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorligi.** Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi rivojlanish loyihibalarini uzoq muddatli kreditlash bo'yicha yirik mamlakatlararo moliya institutlaridan biridir. Bank 1965-yilda tashkil etilgan, shtab-kvartirasi Manilada (Filippin) joylashgan.

OTBning asosiy maqsadi – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'maklashishdir.

OTB prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. 2013-yil yanvardan Bank prezidenti T.Nakao (Yaponiya) hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yil avgust oyida OTBning a'zosi bo'lgan. 1997-yilda Toshkentda OTB vakolatxonasi ochildi.

Respublika OTBning mintaqaviy a'zolari orasida 15-eng yirik akzioner va 14-eng yirik benefetsiar deb sanaladi.

O‘zbekistonda OTB bilan birgalikda amalga oshirilayotgan das-tur va loyihalar 4 asosiy tarmoqlarni o‘zida birlashtirgan: qishloq xo‘jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, transport va boj-xona tranziti sohasida mintaqaviy hamkorlik, bolalar himoyasi va boshlang‘ich ta’limni egallahsga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

2010-yilning 1–4-may kunlari Toshkent shahrida OTB Boshqaruv-chilar kengashining 43-majlisi o‘tkazildi, unda 2,3 ming kishi ishtirot etib, ularning 1,3 mingdan ortig‘i xorijiy vakillar bo‘ldi.

Ushbu tadbir OTB ning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida o‘tkazgan birinchi yig‘ilishi bo‘ldi.

2012-yil sentabrda, OTB O‘zbekiston Respublikasi bilan 2012–2016-yillarga mo‘ljallangan mamlakat bilan hamkorlik strate-giyasini (MHS) qabul qildi. Yuqoridagi strategiya O‘zbekistonda infratuzilma rivoji va sanoatni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun qaratilgan 2013–2015-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining farovonligini oshirish strategiyasi bilan muvo-fiqlashtirildi. MHSda asosiy e’tibor shahar infratuzilmasi va uy-joy xizmatlari, kommunikatsiya, energetika, suv tarmoqlari va transport rivojini qo‘llab-quvvatlashga va moliyaviy xizmatlar imkoniyatlari-dan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan.

O‘zbekiston va OTB o‘rtasidagi hamkorlikning muhim yangi yo‘nalishi muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2013-yil 20–23-noyabrda Toshkent shahrida OTB bilan birgalikda Osiyo quyosh energiyasi forumining 6-yig‘ilishi o‘tkazildi. Tadbirda 300 dan ortiq xorijiy mehmonlar ishtirot etdilar.

2014-yilda OTB O‘zbekistonda energiyaga nisbatan o‘sib borayotgan talabni qondirish, samarali energiya quvvatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 300 mln. AQSH dollar miqdorida zayom ajratdi. Osiyo taraqqiyot fondi va boshqa maxsus fondlar, oddiy kapital resurslaridan moliyalashtirila-digan O‘zbekistondagi grant loyihalari va zayomlar bo‘yicha o‘zlashtirilgan mablag‘larning umumiy yig‘indisi 2,01 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi.

O'tgan muddat ichida, OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSH dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSH dollarini o'z ichiga olgan umumiy miqdori 4,1 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lган 54 zayomni ajratdi.

**O'zbekistonning Jahon banki bilan hamkorligi.** 1992-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankingning teng huquqli a'zosi hisoblanadi. 1992-yil 2-iyulda «O'zbekiston Respublikasining Xalqaro valuta fondi, Rekonstruksiyalash va rivojlanish xalqaro banki, Rivojlanish xalqaro assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Ko'p tomonlama sarmoya ajratishni kafolatlovchi agentlikka a'zoligi to'g'risida»gi Qonuni kuchga kirdi.

O'zbekiston Jahon Banking Shveysariya a'zo-mamlakatlari guruhiga kiradi. 1992-yil sentabrdada Toshkentda Jahon Banking vakolatxonasi ochildi. Ayni paytda missiyaga yangi rahbari tayinlash kutilmoqda.

Jahon banki bilan joriy hamkorlik Bankning O'zbekiston Respublikasi bilan 2016–2020-yillar oralig'idagi hamkorlik strategiyasiga asoslangan bo'lib, qiymati 4 milliard dollar bo'lган (3,0 milliard dollari - Jahon banki qarzi) jami 27 investitsiya loyihibarini o'z ichiga olgan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining imtiyozli kreditlari va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kreditlarini nazarda tutadi.

**O'zbekistonning Xalqaro valuta fondi bilan hamkorligi.** O'zbekiston Respublikasi XVFga 1992-yil 21-sentabrdada a'zo bo'ldi. 1993-yilda Toshkentda XVF vakolatxonasi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yilning 21-sentabrida Xalqaro valuta fondining a'zosi bo'ldi. O'zbekistonning XVFdagi kvotasi 275,6 mln. SDRni tashkil etadi.

Ovoz berishda O'zbekiston Respublikasi Koreya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Papua-Yangi Gvineya, Mongoliya, Vanuatu, Solomon orollari, Samoa, Seyshel orollari, Palau, Mikroneziya, Marshal orollari, Kiribatti, Tuvalu kabi 15 ta davlat guruhiga kiradi.

XVFning O'zbekistonda vakolatxonasi 1993-yilning sentabridan ish boshladi. XVF bilan hamkorlik asosan moliya sektorini rivojlantirish va makroiqtisodiy islohotlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

1995–1996-yillar mobaynida XVF O‘zbekiston Respublikasiga umumiyligi qiymati 165,2 mln. SDR bo‘lgan kredit ajratdi, jumladan 99,75 mln. SDR tuzilmaviy qayta o‘zgartirish mexanizmlari va 65,45 mln. SDR–«Stend-bay» kreditlarini tashkil etti.

Ushbu kredit liniyalari tarkibiy va institutsiional islohotlarni amalga oshirish va iqtisodiyotda bozor munosabatlarini rivojlantirishga doir davlat dasturlarini qo‘llab-quvvatlashi yo‘naltirildi. Moliyaviy sohaga ajratilgan mablag‘lar ichki valuta bozoridagi operatsiyalarни kengaytirish, bank tizimi qonunchiligi va to‘lov tizimini takomillashtirishga qaratilgan edi.

2001-yilning sentabr va 2006-yilning fevral oylarida «Stend-bay» va tuzilmaviy qayta o‘zgartirish kreditlari bo‘yicha oxirgi to‘lovlar amalga oshirildi, natijada O‘zbekiston Respublikasining XVF oldagi kredit qaytishi bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq bajarildi.

2002-yilda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, Markaziy bank va XVFning hamkorligi jarayonida so‘mning ayriboshlashi va O‘zbekiston bilan XVF o‘rtasidagi Kelishuvning VIII moddasida ko‘zda tutilgan «Iqtisodiy va moliyaviy siyosat bo‘yicha Memorandum» va «Joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha milliy valutani ayriboshlashni ta’minlash ish rejasi» ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O‘zbekiston va XVF o‘rtasidagi konstruktiv muloqot Ish rejasida ko‘zda tutilgan barcha choralarini bajarishga yordam berdi, natijada 2003-yilning 15-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha milliy valutani ayriboshlashini ta’minlash borasidagi VIII moddaning 2(a), 3 va 4 bo‘limlari bo‘yicha majburiyatni olishga erishildi.

Oxirgi yillarda XVF turli yo‘nalishlar bo‘yicha texnik ko‘maklashuvni amalga oshirib keldi. Ulardan biri Markaziy bankka bank tizimida korporativ boshqaruvni yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha ko‘rsatilgan yordamdir.

XVFning tavsiyalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «Tijorat banklarining kapital adekvatliligiga bo‘lgan talablar to‘g‘risida», «Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan rezervlarni shakllantirish va foydalanish, aktivlar sifatini klas-

sifikatsiyalash», «Tijorat bankning likvidlilik boshqaruviga bo‘lgan talablar to‘g‘risida», «Banklar va ularga tegishli shaxslar o‘rtasidagi bo‘lgan operatsiyalar to‘g‘risida» va «Bir qarzdorning yoki o‘zaro aloqador qarzdorlar guruhining maksimal risk miqdori to‘g‘risida»gi nizomlarning yangi tahriri ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu o‘zgartirishlar milliy qonunchilikda bank nazoratining xalqaro talablarini (Bazel III) maksimal darajada hisobga olinishga sharoit yaratdi.

Xalqaro valuta fondi missiyasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga va Markaziy bankga konsultatsiya o‘tkazish hamda texnik ko‘maklashish maqsadida doimiy ravishda tashrif buyuradi. Missiyaning faoliyati iqtisodiyot sohasining ahvolini, moliya sektori va statistikani o‘rganish hamda istiqboldagi iqtisodiy islohotlar yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan.

#### **4. O‘zbekiston va jahon davlatlari munosabatlari**

Ulkan salohiyati shakllantirildi va kostruktiv hamkorlik tajribasi to‘plandi.

**O‘zbekiston-Amerika** o‘rtasida diplomatik aloqalar 1992-yil 19-fevralda o‘rnatalgan. Ushbu davr mobaynida o‘zaro hamkorlikning munosabatlari doirasidagi barcha yo‘nalishlarda sifat jihatidan yangi va o‘zaro manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yishni belgilab bergen asosiy hujjat bu ikki mamlakat o‘rtasida 2002-yil martda imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to‘g‘risidagi Deklaratsiya hisoblanadi.

Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda oliv va yuqori darajadagi doimiy muloqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu muloqot doirasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning davlat kotibi J.Kerri boshchiligidagi AQSH delegatsiyasi bilan Samarqand shahrida 2015-yilning 1-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan muzokaralarini alohida ta’kidlash mumkin.

Har yilgi siyosiy maslahatlashuvlarning o‘tkazilishi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Navbatdagi maslahatlashuvlar 2016-yil yanvarda Vashington shahrida bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham faolligi bilan ajralib turadi. Parlamentlar delegatsiyalarining so‘nggi yillar davomidagi o‘zaro tashriflari bu yo‘nalishda hamkorlikning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlар muntazam tarzda rivojlanmoqda. AQSH davlat kotibi H.Klintonning 2010-yil dekabr oyidagi respublikamizga tashrifi davomida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida ilm-fan va texnologiya sohasida hamkorlik bo‘yicha Kelishuv imzolanishi ilmiy-texnikaviy yo‘nalishdagi aloqalarning yanada yuqori bosqichga chiqqanligining belgisidir.

So‘nggi yillarda madaniy aloqalarni kengaytirish borasida AQSH bilan sermahsul hamkorlik munosabatlari rivojlanmoqda. Quyidagi tadbirlar bu haqida dalolat bermoqda:

- 2015-yil avgust oyida Toshkent shahrida amerikalik raqs guruhi “Native Pride Dancers” “Ilhom” teatri va “NEXT” ko‘ngilochar-savdo markazidagi tomoshalari;
- 2015-yil sentabr oyida Vashington shahrida Jorj Washington universitetining Elliot nomidagi Xalqaro munosabatlар maktabi bilan birgalikda o‘zbek rejissorlari ishtirokida “O‘zbek kinosi haftaligi” o‘tkazilishi;
- 2016-yil aprel oyida amerikalik “The Exchange” vocal ansamblining O‘zbekistonga tashrifи va O‘zbekiston Davlat Konservatoriysi va Respublika estrada-sirk kollejida masterklass o‘tkazish bilan birgalikdagi Turkiston san’at saroyidagi konserti.

“Boeing” kompaniyasi “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy avia-kompaniyasini zamonaviy avialaynerlar bilan ta’minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.

O‘zbekiston bozorida “Case New Holland”, “UzBAT”, “Honeywell” va ko‘plab boshqa kompaniyalar ish olib bormoqdalar. Shuningdek, “Hyatt” va boshqa kompaniyalar bilan bir qator loyihalar

ishga tushirildi. Mazkur yo‘nalishda Amerika-O‘zbekiston savdo palatasi faoliyatini alohida ta’kidlash zarur.

2017-yil 18–20-senyatbr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev AQSHga BMT Bosh Assambleyasida ishtirok etish uchun tashrif buyurdi. Tashrif davomida AQSH prezidenti D.Tramp bilan uchrashdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashrifi doirasida 20-sentabr kuni Nyu-Yorkda O‘zbekiston–AQSH biznes forumi bo‘lib o‘tdi. Unda Amerika Qo‘shma Shtatlarining 100 dan ortiq yetakchi kompaniyasi rahbarlari ishtirok etdi.

**O‘zbekiston-Buyuk Britaniya** munosabatlарining asosi 1993-yil noyabr oyida Ozbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu mamlakatga buyurgan tashrifi chog‘ida yaratilgan.

Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Mamlakatlar o‘rtasida muntazam ravishda turli darajadagi tashriflar amalga oshirilmoqda. Oxirgi bir necha yil davomida O‘zbekistonga Britaniyaning 40 dan ziyod delegatsiyalari tashrif buyurgan. Tomonlar tashqi siyosiy idoralar o‘rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg‘oniston bo‘yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov rahbarligidagi delegatsiyaning 2013-yil 19–22-noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan tashrifi davlatlararo aloqalarni faollashtirishdagi muhim voqeя bo‘ldi.

2014-yil yakunlariga ko‘ra O‘zbekiston bilan Buyuk Britaniya o‘rtasidagi savdo aylanmasi 106,1 million AQSH dollarini tashkil etib, shundan eksport 26,7 million AQSH dollari, import 79,4 million dollarga teng bo‘ldi. 2015-yil yanvar-aprel oylarida o‘zaro savdo hajmi 29,3 million AQSH dollarini tashkil etib, eksport 8,5 million AQSH dollariga, import 20,8 million AQSH dollariga teng bo‘ldi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda, jumladan ta’lim sohasida. Toshkentda 2002-yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar o‘quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

**Germaniya** bilan ikki tomonlama aloqalar an'anaviy keng ko'lamli xarakterga ega bo'lib, turli jabhalarini qamrab olgan. Hamkorlikning salmoqli shartnoma-huquqiy bazasi yaratilgan.

Ikki mamlakat o'rtasida turli, jumladan oliy darajadagi siyosiy muloqot yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Germaniyaga rasmiy tashriflari (1993-, 1995-va 2001-yillar), GFR Prezidenti R.Gerzogning O'zbekistonga davlat tashrifi (1995yil) va Kanzleri G.Shryoderning rasmiy tashrifi (2002-yil) amalga oshirilgan. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 12 ta doirasi o'tkazilgan. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, huquq va xavfsizlik sohalarida hamda mudofaa vazirliklari yo'nalishida hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2014-yil yakunlariga ko'ra, o'zbek-german savdo aylanmasi hajmi 683,8 million AQSH dollarini tashkil etdi. 2015-yilning birinchi choragida o'zaro tovar ayirboshlash 126,2 million AQSH dollariga yetdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi moliyaviy va texnika-viyy hamkorlikning umumiy hajmi 313,9 million yevrodan oshgan.

2017-yil 14–17-noyabr kunlari O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi hukumat delegatsiyasi Germaniya Federativ Respublikasiga tashrif buyurdi va mamlakatlari o'rtasida hamkorlik masalalari keng muhokama etildi.

**Fransiya** O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda 2013-yil mart oyida amalga oshirilgan Fransiya Tashqi ishlar vaziri L.Fabiusning O'zbekistonga tashrifi hamda 2014-yil noyabrda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilovning Fransiyaga tashrifi muhim ahamiyat kasb etdi. Fransiya O'zbekistonning Yevropadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2014-yil yakunlari bo'yicha ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 287,5 mln. AQSH doll. tashkil etdi.

**Yaponiya** O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 28-dekabrida tan oldi. 1992-yil 26-yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Bungungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov Yaponiyaga 3 marotaba tashrif buyurgan (1994-, 2002-va 2011-yillarda). 2006-yilning avgustida Yaponiya sobiq Bosh vaziri Junichiro Koidzumi O'zbekistonga keldi.

O'zbekistonda yapon sarmoyasi ishtirokidagi 10 ta qo'shma korxona mavjud bo'lib, shundan bittasi 100 foiz yapon sarmoyasi ishtirokida tuzilgan. 11 ta yapon kompaniyalarining vakolatxonalari akkreditatsiyaga ega.

O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi tovar aylanmasi rivojlanib bormoqda. 2014-yil natijasiga ko'ra, o'zaro tovar aylanmasi 189,5 million AQSH dollariga teng bo'ldi.

**Xitoy Xalq Respublikasi** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil 2-yanvarda diplomatik munosabatlar o'matilgan.

Ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olgan bo'lib, do'stona va o'zaro manfaatdorlik ruhida olib borilmoqda. Ikki davlat rahbarlari o'rtasida o'matilgan o'zaro ishonchli aloqalar hamkorlikning asosini tashkil etadi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni olib borishda tomonlarning terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol savdosи va xavfsizlikning boshqa tahdidlari bo'yicha qarashlarning mushtarakligi va yaqingligi muhim o'rinnegallaydi.

Doimiy tarzda ikki davlat rahbarlarining tashriflari va uchrashuvlari o'tkazilib kelinmoqda. 1992-, 1994-, 1999-, 2005-, 2011-, 2012- va 2014-yillari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Xitoyga tashrif qilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2001- va 2006-yillarda Shanxay shahriga hamda 2012-yil Pekin shahriga ShHT sammitlarida ishtirok etish uchun, shuningdek, 2008-yil Pekin shaharlariga 29-yozgi Olimpiya o'yinlari ochilish mafrosimida ishtirok etish uchun tashrif buyurgan.

2014-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha Kengashning Shanxay shahrida o'tkazilgan IV sammiti yig'ilishidagi ishtiroki davomida Xitoy Xalq Respublikasi raisi Si Szinpin bilan ikki tomonlama uchrashuv o'tkazdi.

Javob tashriflari sifatida Xitoy Xalq Respublikasi raislaridan Szyan Szemin (1996-yil), Xu Szintao (2004-yil, 2010-yil), Si Szinpin (2013, 2016-yil). O'zbekistonga tashrif buyurishgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yil yakunlariga bo'yicha ikki tomonlama tovar ayirboshlash \$4,75 mlrd. yetgan bo'lsa, shundan \$2,36 mlrd. eksportni va \$2,39 mlrd.ni import tashkil etgan.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 11–13-may kunlari davlat tashrifi bilan Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi.

Ikki davlat rahbarlari iliq va do'stona muhitda muzokaralar o'tkazdilar, diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan so'ng o'tgan 25-yil mobaynida O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi (keyingi o'tinlarda—«Tomonlar») o'rtasida hamkorlikda erishilgan muhim yutuqlarga yuqori baho berdilar, ikki tomonlama munosabatlar hamda bir-birlarini qiziqtirgan xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha atroflicha fikr almashdilar, ular yuzasidan keng konsensusga erishdilar.

Tomonlar O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida 2013-yil 9-sentabrda imzolangan Sharhnomalar va O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida 2016-yil 22-iyunda imzolangan Qo'shma bayonetga, shuningdek, boshqa ikki tomonlama sharhnomalar va bitimlarga, siyosiy ishonch va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga, umumi tarraqqiyot, yuksalish va milliy tiklanishga erishish uchun birgalikda izchil sa'y-harakat qilishga yana bir bor o'zaro sodiqliklarini e'tirof etdilar.

Xitoy tomoni O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan 26 yil mobaynida rivojlanishdagi ulkan muvafaqiyatlarini yuqori baholaydi, O'zbekistonning o'z ichki shart-sharoitlariga binoan mustaqil tanlagan tarraqqiyot yo'lini qat'iy qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, O'zbekiston hukumati tomonidan ichki barqarorlikni ta'minlash va turg'un ijtimoiy-iqtisodiy tarraqqiyotni

ilgari surish uchun olib borilayotgan barcha sa'y-harakatlarni qat'iy qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston tomoni «yagona Xitoy» siyosati olib borilishini qat'iy qo'llab-quvvatlaydi, Xitoy Xalq Respublikasi hukumati butun Xitoyni ifodalovchi yagona qonuniy hukumatligini, Tayvan va Tibet esa Xitoy hududining ajralmas qismi ekanligini yana bir bor bayon qiladi. O'zbekiston tomoni har qanday shakldagi «Tayvan mustaqilligi»ga qarshi chiqadi, Tayvan bo'g'ozi ikki tomoni o'rtasidagi munosabatlarning tinch rivojlanishi hamda mamlakatni tinch yo'l bilan birlashtirish maqsadida Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan barcha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

**Koreya Respublikasi** O'zbekiston mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan olgan, 1992-yil 29-yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatdi.

Ushbu davr mobaynida Respublika rahbariyati tomonidan o'n to'rt marotaba (1992-, 1994-, 1995-, 1999-, 2005-, 2006-, 2-marta 2008-yilda, 2009-, 2010-, 2011-, 2012-, 2014- va 2015-yillarda) Koreya Respublikasi rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

2006-yilda Strategik sheriklik to'g'risida qo'shma deklaratsiyasi imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asosan, 2014-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 2016,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi, ulardan eksport 143,7 mln. AQSH doll., import—1872,7 mlrd. AQSH doll. tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Prezident Mun Chje Inning taklifiga binoan 2017-yil 22–25-noyabr kuni davlat tashrifi bilan Koreya Respublikasiga bordi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In Strategik sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Koreya Respublikasi Inson resurslarini boshqarish vazirligi o'rtasida Hamkorlik memorandumi, ikki mamlakat adliya vazirliklari o'rtasida Hamkorlik memorandumi, O'zbekiston Tashqi savdo vazirligi hamda Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika

vazirliklari o'rtasida O'zbekistonda Milliy elektron savdo platformasini joriy qilish bo'yicha hamkorlik bitimi, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo memorandum, ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2018–2020-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan Koreya Strategiya va moliya vazirligi o'rtasida Bilimlar almashinuv dasturi bo'yicha Anglashuv memorandumi, 2018–2020-yillarda Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik jamg'armasi kreditlari bo'yicha hukumatlararo hadli kelishuv hamda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondi bilan Koreya eksport-import banki o'rtasida moliyaviy hamkorlik to'g'risida kelishuv kabi oltmishdan ortiq muhim hujjat imzolandi.

**O'zbekiston-Qozog'iston** munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Qozog'iston O'zbekistonning muhim savdo sherkalaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning sezilarli qismi uning hissasiga to'g'ri keladi. O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2014-yil yakunlari bo'yicha qariyb 3 547,0 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Shunga qaramasdan, ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ishga solinmagan ko'pgina imkoniyatlar mavjud.

Qozog'iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, min-taqada barqarorlikni ta'minlash va dolzarb masalalarni birqalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Qozog'istonga 8 marotaba tashrifi amalga oshirilgan va Qozog'iston Prezidenti O'zbekistonga 8 marotaba tashrif buyurgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan 2017-yil 22–23-mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolandi: O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida strategik sherklikni yanada

chuqurlashtirish va ahil qo'shnichilikni mustahkamlash to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya, Parlamentarizm, soliq, transport, mудо-  
faa, savdo-sanoat va boshqa sohalardagi hamkorlikka oid hujjatlar,  
O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rta  
2017–2019-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi  
hamda O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi  
o'rtaida hududlararo hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

**O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari** ikki tomonlama hamkorlik doirasida erishilgan kelishuvlarning o'zaro tenglik va manfaatdorlik tamoyillari asosida izchil amalga oshirilishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtaida munosabatlar o'zaro anglashuv va hurmatga asoslangan barqaror aloqalarga tayanadi. Bu munosabatlar ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladi.

1991-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Qirg'izistonga 2 marotaba (1994-yil 16-yanvar va 2000-yil 26–27-sentabr), Qirg'iziston Prezidenti esa O'zbekistonga 4 marotaba (1992-yil sentabr, 1996-yil dekabr, 1998-yil noyabr va 2006-yil oktabr) tashrif buyurgan.

1996-yildan buyon Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Qirg'iziston hukumatlararo komissiyasi faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunga qadar ushbu komissiyaning 7 ta majlisi bo'lib o'tgan. Oxirgi yettinchi qo'shma majlis 2009-yil 28-dekabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2014-yil yakunlari bo'yicha qariyb 101,7 million AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 5–6-sentabrda Qirg'iziston Respublikasiga davlat tashrifini amalga oshiridi. Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtaida Qo'shma bayonot va O'zbekiston – Qirg'iziston davlat chegarasi to'g'risida shartnomani imzolandi. Andijon va O'sh, Toshkent va Bishkek shaharlari o'rtaida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik to'g'risida, ikki davlat Savdo-sanoat palatalari o'rtaida hamkorlik to'g'risida, Soliq qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo'yicha hamkorlik va o'zaro

yordam to‘g‘risida, Mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, Oliy ta’lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar, Chegaradosh mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha 2017–2019-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma tadbirlar rejasi, Parlamentlararo hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum va boshqa muhim hujjatlar imzolandi.

**O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasidagi** yaqin qo‘shnichilik va do‘stona aloqalar qaror topgan bo‘lib, davlatlararo munosabatlarining barcha jahbalarida hamkorlik darajasi yuksalmoqda.

O‘zbekiston-Turkmaniston munosabatlari yuqori darajadagi ikkitomonlama hamkorlik bilan izohlanadi. Oliy darajada qabul qilningan bitimlar, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va gumanitar hamkorlikka oid hujjatlar turli sohalarda ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

1991-yildan hozirgi paytg‘a qadar ikki mamlakat rahbarlarining 16 marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O‘zbekiston Prezidenti 8 marotaba Turkmanistonga tashrif buyurgan bo‘lsa, Turkmaniston Prezidenti O‘zbekistonga 8 marta kelgan.

O‘zaro tovar aylanmasi hajmi izchil o‘sib bormoqda va 2014-yil yakunlari bo‘yicha qariyb 413 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedovning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 6–7-mart kunlari davlat tashrifi bilan Turkmanistonda bo‘ldi.

Prezidentlar muqaddam erishilgan kelishuvlar va imzolangan ikki tomonlama hujjatlarning bajarib borilishini muhokama qilib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalar rivojining yuqori sur’atini qayd etdilar. O‘zbek-turkman munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga intilgan holda, Davlat rahbarlari qardosh Prezidentlar muqaddam erishilgan kelishuvlar va imzolangan ikki tomonlama hujjatlarning bajarib borilishini muhokama qilib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalar rivojining yuqori sur’atini qayd etdilar. O‘zbek-turkman mu-

nosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga intilgan holda, Davlat rahbarlari qardosh xalqlar o'rtasidagi tarixan shakllangan an'anaviy do'stona va ahil qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkam-lashga xizmat qiluvchi O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomani imzoladilar.

**O'zbekiston bilan Tojikiston** o'rtasidagi konspektiv va ochiq muloqot mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda hamda mintaqaning barqaror rivojlanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi.

2000-yil iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Tojikistonga davlat tashrifi amalga oshirildi. 1998-yil yanvarda va 2001-yil dekabr oyida esa Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif uyuشتirdi.

O'zaro tovar aylanmasi hajmi 2014-yil yakunlari bo'yicha 160,0 million AQSH dollarini tashkil etdi.

**Rossiya Federatsiyasi** O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini 1992-yil 20-mart kuni tan olgan. Shu kunning o'zida ikki mamlakat o'rtasida rasmiy diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Mamlakatlariimiz o'rtasidagi keng ko'lami hamkorlik 2004-yil imzolangan Strategik hamkorlik va 2005-yil imzolangan Ittifoqdoshlik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalar asosida rivojlanmoqda.

2013-yilning 14–15-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Tashrif doirasida 2013–2017-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy • hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo Dastur qabul qilindi. 2016-yil yakunlariiga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash 4,2 mlrd. AQSH dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 2017-yil 4–5-aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif asnosida erishilgan kelishuvlar, imzolangan 16 milliard dollarlik 50 dan ortiq hujjat O'zbekiston va Rossiya taraqqiyotiga, ikki mamlakat xalqlarining farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi qayd etildi.

**Hindiston Respublikasi** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinchilar qatorida 1991-yil 26-dekabrda tan oldi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 18-martda o'rnatilgan. 2006-yil 25–26-aprelda Hindiston Bosh vaziri M.Singxning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida Hindiston sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 70 ta korxona faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 12 tasi 100% Hindiston sarmoyasi asosida tashkil etilgan.

**Eron Islom Respublikasi** 1991-yilning 25-dekabrida O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi. 1992-yil 10-mayda O'zbekiston va Eron o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi.

Eron Islom Respublikasining Toshkentdag'i elchixonasi 1992-yil noyabr oyida va O'zbekiston Respublikasining Tehrondagi elchixonasi 1995-yil may oyida ochilgan.

2014-yil natijalariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari \$374.9 mln, shu jumladan eksport-\$317.8 mln, import-\$57.0 mln. tashklil etdi.

**Saudiya Arabistonni** Podshohligi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 1991-yil 30-dekabrda tan oldi. 1992-yil fevralda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1992-yil aprel oyida Saudiya Arabistoniga tashrif buyurdi.

1992-yil noyabrda Jiddada O'zbekistonning Bosh konsulxonasi, 1995-yil mayda O'zbekistonning Ar-Riyoddagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi. 1997-yil martdan Toshkentda Saudiya Arabistonining elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Tashqi siyosiy mahkamaklar yo'nalishi bo'yicha ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik faol rivojlanib bormoqda. O'zbekiston va Saudiya Arabistonni Tashqi ishlar vazirlari o'rinbosari darajasida o'zaro delegatsiyalar almashuvi bo'lib o'tmoqda. Shuningdek, Ar-Riyod shahrida ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasi bo'lib o'tdi.

2012-yil aprel oyida Saudiya Arabistonni Sho'ro kengashi (parlament) raisi Abdulla Ol ash-Sheyx boshchiligidagi delegatsiya

O'zbekistonga tashrif buyurdi. 2012-yil iyul oyida Saudiya Arabiston Tashqi ishlari bo'yicha davlat vaziri Nizor bin Ubeid Madaniy boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida ikki davlat tashqi siyosat mamkamalari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasi o'tkazildi.

2014-yilning 28-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Saudiya Arabiston Podshohligi Tashqi ishlar vaziri Yusuf bin Tarad al-Sa'dunni qabul qildi.

Uchrashuv chog'ida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya va boshqa sohalardagi ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlan-tirishning mazkur holati va keyingi istiqbollari, shuningdek xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Suhbat davomida ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivoj-lantirishning joriy holati va muhim yo'naliishlari muhokama qilindi.

2013-yil fevral oyida Jidda shahri Savdo-sanoat palatasi biznes delegatsiyasi O'zbekistonga tashrifi chog'ida o'zbek-saudiya biznes-forumi tashkil etildi.

2013-yil mayida Saudiya Arabiston Moliya vaziri, Saudiya taraqqiyot jamg'armasi boshqaruva kengashi raisi Ibrohim al-Assof boshchiligidagi gelegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi.

2014-yilning 26–29-oktabr kunlari Saudiya taraqqiyot jamg'armasi delegatsiyasi Arab muvofiqlashtirish guruhi a'zolarining "davra suh-bati" yig'ilishida ishtiroy etish uchun Toshkentga tashrif buyurdi. Shuningdek, delegatsiya a'zolari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirining birinchi o'rinnbosari bilan uchrashdi.

2015-yilning 14–18-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining birinchi o'rinnbosari boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Saudiya taraqqiyot jamg'armasi vakillari bilan "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi" loyihasi bo'yicha muzokaralar olib borish maqsadida Ar-Riyod shahriga tashrif buyurdi

O'zbekiston va Saudiya Arabiston o'rtasida madaniyat sohasidagi hamkorlik yanada rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2011–2013-yillarda:

- Ar-Riyod shahrida tashkil etilgan Xalqaro kitob yarmarkasida O‘zbekiston nashriyot birlashmalaridan iborat delegatsiya ishtirok etdi;
- Ar-Riyod va Jidda shaharlarida O‘zbekiston madaniyat kunlari o‘tkazildi;
- Madina islom universiteti rektori doktor Muhammad bin Ali Farroj at-Tamimi boschchiligidagi Saudiya gelegatsiyasi O‘zbekistonga tashrif buyurdi;
- O‘zbekiston vakillari “2013-yil - Madina shahri islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishi” munosabati bilan tashkil etilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etdilar;
- Saudiya Arabistonni milliy cholg‘u-asboblari vakillari “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida ishtirok etdilar;
- 11 mingdan ortiq o‘zbekistonliklar haj va umra ziyoratlarini ado etish uchun Saudiya Arabistonini ziyorat qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistonni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan 2017-yil 21-may kuni Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammitida ishtirok etdi. Tashrif davomida O‘zbekiston rahbari Saudiya Arabistonni bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish bo‘bida bir necha o‘n yilliklarga arziyidigan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston o‘zining tinchliksevar, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egalladi, uning mavqeい yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

### *Nazorat savol va topshiriqlari*

1. Tashqi siyosat deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari nimadan iborat?

3. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar munosabatlari borasida qanday fikr bildira olasiz?

4. Tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini sanab bering.

5. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarini izohlang.

6. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini qanday tushuntira olasiz?

7. Davlatlar o‘rtasida raqobat deganda nimani tushunasiz?

8. Tashqi siyosatning o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘ting.

9. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar aloqalarini tushuntirib bering.

10. Tashqi siyosiy qaror qabul qilish jarayoni borasida nimalarni bilasiz?

### ***Mustaqil ish topshiriqlari***

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevni xorij safarlari va ular ahamiyati bo‘yicha doklad tayyorlash.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

#### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Идиров У.Ю. Политология: ўкув қўлланма. –Т.: ТошДШИ, 2013.

2. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик: олий ўкув юрт таъбалари учун ўкув қўлланма. –Т.: Янги аср авлоди, 2013.

3. Aliyev B., Ergashev I., Hoshimov T., YuIdashev O. Politologiya. (Darislik), -T.: TDIU, 2010.

4. Идиров У.Ю. Политология. Мавзуларини интерфаол ўрганиши: ўкув-услубий қўлланма. –Т.: ТошДШИ, 2010.

5. Одилқориев Х.Т., Раззоков Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 2008.

6. Фарманов Р.Ф., Тўлаганова Н.Ў., Турдиев М.Т., Жўраев К.А., Муҳаммадиев У.Н. Замонавий сиёсатшунослик: назария ва амалиёт. Ўкув қўлланма. –Т., 2006.

7. Отамуродов С., Эргашев И., Акромов Ш., Қодиров А. Политология: ўқув қўлланма. – Т., 2002.
8. Муаллифлар гурухи. Политология. Ўқув қўлланма. Т.А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт. “ЎАЖБНТ” маркази, 2002.
9. Фофуров С.М., Хайдаров А.А., Тўлаганова Н.Ў. Сиёсатшунослик асослари: ўқув қўлланма –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий қутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
10. Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар, -Т.: Академия, 2007.
11. Политология: Ўқув қўлланма / муаллифлар гурухи. проф. И.Эргашев таҳрири остида. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
12. Турсунов А.С. Ўзбекистон Республикаси Конститу-цияси ва ташқи сиёsat. –Т.: ТДЮИ, 2005.

## **2. Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Мирзиёв Ш.М. Таңқидий таҳдил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишлиланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016, 56 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Конунустуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 48 б.
5. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2017 йил 7 февралда тасдикланган “Ўзбекистон Рсепубликасини янада

ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 сонли Фармони //<http://www.lex.uz>

6. Ўзбекистон Республикаси Ш.М.Мирзиёевнинг “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови” Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллиги муносабати билан ўтказилган тадбирдаги маърузаси. // <http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarini-taminlash-yurt-tara-07-12-2016> - 07.12.2016.

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. –Т.: Ma’naviyat, 2008, 176 b.

8. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2001. –Б.111-112.

9. Oblomuradov N., Kuchimov N. Siyosatshunoslik. O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O’quv qo’llanma -Т.: Soliq akademiyasi, 2008.

10. Бобоев Ҳ.Faфуров З. Ўзбекистонда сиёсий ва маърифий-маънавий таълимотлар тараққиёти. Т., 2001.

11. Гаджиев К.С. Политология. М., 2003.

12. Желтов В. В. Политология. Ростов-на-Дону, 2004.

13. Ильин В.В. Политология. Учебник для вузов. М., 2000.

14. Адилходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. Т.: ТГЮИ, 2007.

15. Жумаев Р.З. ва бошқ. Сиёсий ислоҳотлар стратегияси. –Т.: Академия, 2010.

16. Алексеева Т.А. Современные политические теории. –М.,2000.

17. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавф-сизлик). –Т.:Академия, 2006. – Б. 91.

18. Гаджиев К.С. Введение в geopolitiku. – М.: Логос, 1998

19. Aliano R.A. The crime of world power: Politics without government in international system.–New York: Putnam, 1978.

20. Spykman N. America’s Straregy in World Politics. –Hamden, 1942.

21. Гаджиев К.С. Введение в политическую науку. –М.: Логос, 1999.
22. Мирқосимов С., Рахимова М. Дипломатик ва консуллик хизмати: саволлар ва жавоблар. – Т.: Академия, 2009.
23. Фельтхем Р.Дж. Настольная Книга Дипломата. –London, 1998.
24. Ланцова С.А., Ачкасов В.А. Мировая политика и международные отношения. –СПБ:Питер, 2007.

**Internet saytlari:**

1. [www.gov.uz/](http://www.gov.uz/)
2. [www.mfa.uz](http://www.mfa.uz)
3. [www.press-service.uz/](http://www.press-service.uz/)
4. [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
5. [www.xs.uz/](http://www.xs.uz/)
6. [www.elections.uz/](http://www.elections.uz/)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)

## UMUMIY GLOSSARIY

<i>O'zbek tilida</i>	<i>Rus tilida</i>	<i>Ingliz tilida</i>	<i>Ta'rif</i>
<b>akseologik (baholash) funksiya</b>	<b>функция оценки</b>	<b>assessment function</b>	siyosatshunoslik siyosiy institutlar, tuzum, siyosiy jarayonlar va hodisalarga baho berishga imkon tug'diradi.
<b>Aktor</b>	<b>актор</b>	<b>actor</b>	siyosiy hayotda to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosat subyekti
<b>an'anaviy liderlik</b>	<b>традиционное лидерство</b>	<b>traditional leadership</b>	liderlikning bu turlari an'analar, marosimlar, odat kuchi kabi mexanizmlarga tayanadi. Itoat qilish odati an'analarning muqaddasligiga va hokimiyatning meros tariqasida o'tishiga asoslangan
<b>aralash respublika shakli</b>	<b>смешанная форма республики</b>	<b>mixed form of republic</b>	bu shakl ikki xil modelga ega. Birinchi tipga boshqaruvning shunday shakli kiradiki, unda parlament modeliga ko'ra prezident sezilarli darajada muhim rol o'yaydi
<b>avtoritar rejim</b>	<b>авторитарный режим</b>	<b>authoritarian regime</b>	bir kishi yoki bir guruh . kishilarning qattiqqo'llik bilan hokimiyatni boshqarishi demakdir
<b>beqaror siyosiy jarayon-lar</b>	<b>нестабильность и политические процессы</b>	<b>instability political processes</b>	siyosiy tizimdagagi yoki siyosiy hokimiyatdagagi inqirozli vaziyatlarda paydo bo'ladi va rivojlanadi

<b>bir partiyaviy tizimlar</b>	<b>однопартийная система</b>	<b>one party system</b>	davlatning barcha partiylarini unga tarafdar bo‘lgan bitta partiyaga qo‘sib yuborish hamda butun siyosiy hokimiyatni monopoliya qilishga intilishi natijasida paydo bo‘ladi
<b>buddaviylik dini</b>	<b>буддизм</b>	<b>bud-dhism</b>	dunyodagi eng ko‘p tarqalgan dinlardan bo‘lib, mil. avv. VI–V asrlarda Hindistonda paydo bo‘ldi
<b>cheklangan monarxiya (yoki konstitutsiyaviy monarxiya)</b>	<b>ограниченная монархия</b>	<b>restrict-ed monar-chy</b>	boshqaruvning shunday shakliki, unda monarxning hokimiysi vakillik organlari tomonidan sezilarli darajada cheklanadi
<b>Davlat</b>	<b>государство</b>	<b>State</b>	butun xalqqa, kishilarning barcha ijtimoiy birliklari, partiyalar va harakatlar, ko‘ngilli uyushma va ittifoqlarga xizmat qilishi majburiy bo‘lgan organ
<b>davlat hokimiysi</b>	<b>государственная власть</b>	<b>state government</b>	hokimiyatning ko‘proq sinfiy tabiatga ega bo‘lgan, maxsus majburlash apparatiga suyanadigan va hamma uchun majburiy qonunlar chiqarishda hamda boshqa normativ hujjatlarni tasdiqlashda monopoliyaga ega bo‘lgan shakli
<b>davlat shakli</b>	<b>форма государства</b>	<b>form of state</b>	murakkab ijtimoiy hodisa, u o‘zaro bog‘langan uch unsurni o‘z ichiga oladi: boshqaruv shakli, davlat qurilishi shakli va davlat rejim shakli

davlatlar o'rtaсидаги рақобат	<b>соперничество между государствами</b>	rivalry between states	bu obyektiv hodisa bo'lib, u suveren davlatlarning barchasi uchun xarakterlidir. U munosabatlar va manfaatlar yig'indisi sifatida muayyan vositalar orqali yuzaga keladi.
demografik resurslar	демографические ресурсы	demo-graphic resources	hokimiyatning maxsus resurslaridir. Bu resurs boshqa resurslarni ishlab chiqaruvchi universal, ko'p funksiyali resursdir
demokratik rejim	демократический режим	democratic regime	inson huquqlari va erkinliklari ta'minlangan, siyosiy erkinliklardan bemalol foydalana oladigan rejimdir
demokratiya	демократия	democracy	xalq hokimiyati. Bu xalq tomonidan idora etish bo'lib, oliy hokimiyat xalq qo'liga topshiriladi va xalq uni yo bevosita, yo erkin saylovlar yordamida o'zi saylagan vakillari (vakillik demokratiyasi) orqali amalga oshiradi.
demokratiyaning bevosita (to'g'ri) shakli	прямая форма демократии	direct form of democracy	qarorlarni qabul qilish, muhokama etish va tayyorlashda fuqarolarning o'zлari ishtirok etishlarini taqozo qiladi
demokratiyaning liberal shakli	либеральная форма демократии	liberal form of democracy	prezident, hukumat, partiya yoki tashabbuskor guruh tomonidan tayyorlangan qonun loyihalari yoki boshqa qarorlarni ma'qullash yoki rad etish uchun umumxalq ovoz berishida ifodalanadi

dualistik monarxiya	дуалисти-ческая мо-нархия	dual mon-archy	ikkiyoqlama xarakter kasb etadi; yuridik jihatdan hokimiyat haqiqatda monarx tomonidan shakllantirilgan hukumat va parlament o'rtasida bo'linadi; hukumat parlamentdagi partiya tarkibiga bog'liq bo'limgan holda shakllantiriladi va uning oldida hisob bermaydi
dunyoqa-rash hosil qilish funk-siyasi	прогно-стическая функция	predictive function	siyosiy vogelik to'g'risida aniq tasavvurlarning shakllanishiga ko'maklashadi.
Ekzogen	экзоген-ный	exogenous	tashqi sabab, turtki natijasida vujudga kelgan ta'sirlar
Elat	нация	nation	iqtisodiy aloqalarga, til, hudud, madaniyat mushtarakligiga, o'z-o'zini anglashga, mushtarak psixologiyaga ega bo'lgan va mazkur belgilar millat bilan qiyoslaganda kamroq rivojlangan, barqaror, kamsonli birlik
Elita	элита	elite	fransuzcha «elite» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u eng yaxshi, tanlangan degan ma'noni bildiradi
Endogen	эндоген-ный	endog-enous	ichki sabablar natijasida vujudga, kelgan ta'sirlar
etnik guruh	этниче-ская групп-па	ethnic group	bir necha yuz yoki ming kishidan iborat bo'lgan, bir-biri bilan zaif bog'langan birlik, birlashuv asosida etnik belgilar yotadi
etnografik guruh	этногра-фическая групп-па	ethno-graphic group	millat yoki elatning alohida ajralib qolgan, til, madaniyat, turmushda o'ziga xosliklarni saqlagan qismi

<b>evolutsiya</b>	<b>эволюция</b>	<b>evolution</b>	siyosiy jarayonlarni astasekin, bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat bo‘lib, siyosiy jarayonlarning eng assosiya va nisbatan keng tarqalgan shakli hisoblanadi.
<b>federativ davlat</b>	<b>федеративное государство</b>	<b>federative state</b>	davlat tuzilishining yuridik jihatdan belgilab qo‘ylgan siyosiy mustaqillikka ega bo‘lgan davlat birlashmalaridan tuzilgan, murakkab (ittifoq) davlatdan iborat shakli
<b>harbiy va politsiya elitasi</b>	<b>военной и полицейской элиты</b>	<b>military and police elite</b>	tarkibiga davlatning oliv harbiy rahbarlari, generalitet, ichki ishlar vazirligi, davlat xavfsizligi, maxsus xizmatlar va h.k. boshliqlari kirishadi
<b>hokimiyat</b>	<b>власть</b>	<b>Power</b>	odamlarning ehtiroslarini jilovlashga va ularda fuqarolik fazilatlarini tarbiyalashga qodir bo‘lgan kuch
<b>huquqiy davlat</b>	<b>правового государства</b>	<b>judicial state</b>	siyosiy hokimiyatning o‘ziga xos belgilarini, funksiyalari va rivojlanish tamoyillarini kuzatib borishga, ularning salbiy oqibatlari va qirralarini bartaraf etishga majbur
<b>ijtimoiy mobillik</b>	<b>социальная мобилизация</b>	<b>social mobilization</b>	shaxs, guruh yoki qatlam mavqeining o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonlar
<b>ijtimoiy qatlam-lashuv</b>	<b>социальная стратификация</b>	<b>social stratification</b>	o‘zaro bog‘liq va pog‘onalashuv asosida tashkil topgan, qatamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi

<b>ikki partiyaviy tizimlar</b>	<b>двуихпартийная система</b>	<b>two-party system</b>	bir-biri bilan raqobat qilishga qodir bo‘lgan ikkita kuchli siyosiy partiyaning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Ularning har biri mustaqil ravishda parlamentda ko‘pchilik ovoz olishga, o‘z hukumatini tuzishga va, shu tariqa, hukmron partiyaga aylanishga qodirdir, boshqasi esa, bu davrda muxolifatdagi partiya bo‘lib qoladi
<b>inson huquqlari</b>	<b>права человека</b>	<b>human rights</b>	shaxsga o‘z ixtiyoriga ko‘ra faoliyat ko‘rsatish (erkinliklar) yoki muayyan imtiyozlarga ega bo‘lish (huquqlari) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o‘rtasidagi munosabatlar tamoyillari, me’yorlaridir
<b>inson jamoasi</b>	<b>человеческое сообщество</b>	<b>human community</b>	odamlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan talablar natijasida vujudga kelgan
<b>institutlar</b>	<b>институты</b>	<b>institutes</b>	siyosiy faoliyat subyektlarining siyosiy faoliyat mexanizmlari bilan aloqadorlikda amalga oshuvchi tadbirlarni qo‘llab-quvvatlovchi, turtki beruvchi, nazorat
<b>institutional-lashuv</b>	<b>институционализация</b>	<b>institution-alization</b>	rasmiylashgan, barcha e’tirof etgan qoidalar, qonunlar, an’ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na’munalarning shakllanishi

<b>iqtisodiy elita</b>	<b>экономи-ческая элита</b>	<b>economic elite</b>	bu boshqaruv tizimida o‘z faoliyatini xususiy mulk asosida olib boruvchi, boshqarayotgan elitaning bir qismidir
<b>jamiyat-ning siyo-siy tashki-loti</b>	<b>политиче-ская орга-низа-ция сообще-ства</b>	<b>political organiza-tion of community</b>	moddiy asosni vujudga keltiradigan muayyan tashkilotlar va muassasalar majmui, siyosiy tizim butun binosining poydevori, uning muayyan vazifalarini amalgalashiradigan ma’muriy-boshqaruv tuzilmasi
<b>kadrlar partiyalari</b>	<b>партии персона-лий</b>	<b>parties of personnels</b>	XIX asr o‘rtasida evolutsiya jarayonida elektoral qo‘mitalar va parlament guruhlaridan paydo bo‘lgan. Ular nisbatan kam sonli ekanliklari, a’zolikning erkinligi bilan ajralib turadi va, eng avvalo, professional siyosatchilarga hamda partiyani moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan moliya elitasiga suyanadi
<b>kategoriya</b>	<b>категория</b>	<b>category</b>	narsa va hodisalarining eng muhim xususiyatlari va aloqalarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar
<b>ko‘ppar-tiyaviy tizim</b>	<b>Многопар-тийность</b>	<b>multi-party system</b>	xos jihat shundan iboratki, unda ikkidan ortiq partiyalar davlat hokimiyatini egallash uchun real imkoniyatga ega bo‘ladilar. Bunday tizimda, odatda, parlament a’zolarining katta qismiga tayanuvchi koalisjon hukumat tuziladi

<b>konfederatsiya</b>	<b>конфедерация</b>	<b>konfederation</b>	bu to‘la mustaqil davatlarning ko‘ngilli ittifoqidir, davlatlar ittifoqining shakli bo‘lib, unda a’zo davlatlar o‘z suverenitetini to‘liq saqlab qoladi
<b>konflikt</b>	<b>конфликт</b>	<b>conflict</b>	u yoki bu obyektning bir vaqtning o‘zida kamida ikki va undan ortiq subyektlarning maqsad va manfaatlarini to‘la qondirmasligi natijasida vujudga keladigan ijtimoiy vaziyatga aytildi
<b>konflikt qatnashchilari</b>	<b>участники конфликтов</b>	<b>participants of conflicts</b>	biz ularni qisqacha tarzda tomonlar deymiz
<b>konflikt subyektlari</b>	<b>субъекты конфликтов</b>	<b>subject of conflicts</b>	tomonlar tashkilotlar, partiyalar va hokazo shunga o‘xhash siyosiy tuzilmalardan iborat bo‘lishi mumkin
<b>konflikt-larning obyekti</b>	<b>объекты конфликтов</b>	<b>object of conflicts</b>	mavjud qadriyatlar, moddiy dunyo, hudud va hokazolardan iboratdir
<b>konservativizm</b>	<b>консерватизм</b>	<b>conservatism</b>	davlat va jamiyat hayotining tarixan vujudga kelgan shakllarini, uning oila, millat, din, mulkchilikda namoyon bo‘luvchi qadriyatlarini saqlab qolishga qaratilgan g‘oyaviy-siyosiy ta’limot va harakat
<b>kontrelita</b>	<b>контрэлита</b>	<b>contra elite</b>	hukmron bo‘limgan elita
<b>kuch ish-latuvchi resurslar</b>	<b>ресурсы принуждения</b>	<b>resources of forcing</b>	bu qurol-yarog‘, jismoniy majburlovchi muassasalar va buning uchun maxsus tayyorlangan kishilardir

<b>latent bosqichi</b>	<b>фаза латентного</b>	<b>phase of latent</b>	konfliktlar yashirin holatda bo‘lgan bosqich
<b>legal</b>	<b>легаль-ный</b>	<b>legal</b>	Qonuniy
<b>liberal-demokratik tizimlar</b>	<b>системы либерально-демократия</b>	<b>liberal-democracy systems</b>	siyosiy qarorlar qabul qilishda individualizm va erkinlik qadriyatlariga asoslanadilar.
<b>liberalizm</b>	<b>либерализм</b>	<b>liberalism</b>	shaxs erkinligi va boshqa fuqarolik va siyosiy huquqlarini e’tirof etuvchi va davlat faoliyati sohalarini cheklovchi ta’limot va ijtimoiy - siyosiy harakat.
<b>lider</b>	<b>лидер</b>	<b>leader</b>	yo‘l ko‘rsatish xususiyatga ega inson boshqalarga ta’sir eta olish, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikda faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega
<b>liderlik</b>	<b>лидерство</b>	<b>leadership</b>	bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy pozitsiyadir
<b>lokal (mahalliy) siyosiy jarayonlar</b>	<b>местный политических процессы</b>	<b>local political processes</b>	lokal (mahalliy) siyosiy jarayonlar nisbatan tor doirada bo‘lib, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish, shakllantirish va siyosiy partiyalar hamda harakatlarning rivojlantirilishi bilan bog‘liq

<b>ma'muriy elita</b>	<b>административная элита</b>	<b>administrative elite</b>	bu boshqaruvning texnik-tashkiliy vositalarini o'z qo'lida monopollashtirgan, boshqarayotgan elitaning bir qismidir
<b>madaniy-axborot resurslari</b>	<b>культурно-информационные ресурсы</b>	<b>cultural-information resources</b>	bilim va axborot hamda ularni olish va tarqatish vositalari: fan va ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tashkil etadi
<b>majburlov-chi hokimiyat</b>	<b>обязательный правительство</b>	<b>compulsory government</b>	majburlovchi resurslarga tayanadigan va majburiy kuch ishlatalishni qo'llash yoki kuch ishlatalish bilan tahdid qilish yordamida kishilar ustidan nazorat qilishdir
<b>majburlov-chi resurslar</b>	<b>обязательные ресурсы</b>	<b>compulsory resources</b>	bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan, odatda, utilitar resurs ish bermay qolganda foydalilanidi
<b>majoritar saylov tizimi</b>	<b>мажоритарной избирательной системы</b>	<b>majority election system</b>	nomzod yoki partiya g'alaba qozonishi uchun saylovchilar ko'pchiligining ovoz olishi lozim bo'lgan turi
<b>manu qonunlari</b>	<b>законы Ману</b>	<b>Manu's laws</b>	insonning to'g'ri, imonli hayot kechirishini belgilab beruvchi diniy-falsafiy, siyosiy, axloqiy va huquqiy qoidalarning yig'indisidan iborat bo'lgan manba

<b>marginal guruh</b>	<b>маргинальная группа</b>	<b>marginal group</b>	bir - birini istisno qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar ta'siridagi, turli ijtimoiy guruhlar, tizimlar, madaniyatlar chegarasidagi odamlar guruhi
<b>Mazdak ta'limoti</b>	<b>учение Маздака</b>	<b>mazdak's doctrine</b>	barcha odamlarning teng huquqliligi to'g'risidagi ta'limot.
<b>me'yoriy resurslar</b>	<b>нормативные ресурсы</b>	<b>regulatory resources</b>	insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar
<b>metodologik funksiya</b>	<b>методологическая функция</b>	<b>methodological function</b>	siyosatshunoslikning asosiy xulosalari alohida olingan ijtimoiy hodisalarini o'rganuvchi xususiy siyosiy nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.
<b>millat</b>	<b>нация</b>	<b>nation</b>	hudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z-o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra ajralib turuvchi ijtimoiy guruh
<b>Millatchilik</b>	<b>национализм</b>	<b>nationalism</b>	mafcura va siyosat bo'lib, uning asosida milliy mustaqillik va ustunlik g'oyasi, boshqa xalqlar vakillariga bepisandlik bilan qarash yotadi
<b>milliy guruh</b>	<b>национальная группа</b>	<b>national group</b>	mazkur mamlakat (mintaqa) da tub aholi bo'limgan millat, xalq-elatning bir qismi
<b>milliy munosabatlar</b>	<b>национальные отношения</b>	<b>national relationship</b>	milliy etnik rivojlanish subyektlari; millatlar- elatlari, etnik guruhlar va ularning davlat birlashmalari o'rtasidagi munosabatlardir

<b>mo‘tadil demokratiyani (politiya)</b>	<b>мягкая демократия</b>	<b>mild democracy</b>	ko‘pchilikning uyushgan hokimiyati
<b>Monarxiya</b>	<b>монархия</b>	<b>monarchy</b>	bu shunday boshqaruv shakliki, unda oliv hokimiyat yakka bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi va, odatda, meros bo‘lib o‘tadi
<b>Monoteistik</b>	<b>монотеистик</b>	<b>monotheistic</b>	yakka xudolikka asoslangan diniy qarash
<b>mutlaq monarxiya</b>	<b>абсолютная монархия</b>	<b>absolute monarchy</b>	boshqaruvning shunday shakliki, unda oliv davlat hokimiyati qonun bo‘yicha to‘laligicha bitta shaxsga bo‘ysunadi
<b>nazariy bilish funksiyasi</b>	<b>функция теоретических знаний</b>	<b>theoretical knowledge function</b>	siyosatshunoslik siyosat to‘g‘risida, uning jamiyatdagi roli to‘g‘risida bilimlar hosil qiladi.
<b>neokonser-vativizm</b>	<b>неоконсерватизм</b>	<b>neoconservatism</b>	mumtoz konservativizm va liberalizm g‘oyalarini uyg‘unlashtiruvchi mafkura.
<b>nomzod-larni ilgari surish, ularni olish bosqichi</b>	<b>фаза номинации</b>	<b>nomination phase</b>	turli tashkiliy, siyosiy axborot-tashviquy tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi bosqich
<b>obyekt</b>	<b>обект</b>	<b>object</b>	subyektning bilish va boshqa faoliyati nimaga qaratilgan bo‘lsa, ana shuni anglatadi.

<b>ochiq siyosiy tizim</b>	<b>открытая политическая система</b>	<b>open political system</b>	tashqi dunyo bilan faol ravishda resurslarni ayirboshlaydi, boshqa tizimlarning ilg‘or qadriyatlarini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtiradi, ular harakatchan va jo‘shqin xususiyatga ega bo‘ladi
<b>oligarxiya (ozchilik hokimiyati)</b>	<b>олигархия</b>	<b>oligarchy (government of minority)</b>	bu hokimiyat tepasida boylar turadigan tuzum, u mulk senziga, ya’ni mulkiy cheklashga asoslangan.
<b>olomon hokimiyati (oxlokratiya)</b>	<b>охлократия</b>	<b>ochlocracy</b>	ko‘pchilikning uyushmagan nomo‘tadil hokimiyati
<b>ovozi berish va saylov natijalarini e’lon qilish bosqichi</b>	<b>этап окончательного голосования</b>	<b>phase of final vote</b>	bu saylovning kulminatsion nuqtasi sanalib, bu bosqichda fuqarolarning irodasi to‘liq namoyon bo‘ladi, hokimiyat organlari tarkibi ma’lum bo‘ldi
<b>parlament</b>	<b>парламент</b>	<b>parliament</b>	qonun chiqaruvchi organ. O‘zbekiston parlamenti ikki palata: Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat
<b>parlamentar respublika</b>	<b>парламентская республика</b>	<b>parliamentary republic</b>	parlamentning roli katta. U prezidentni, ya’ni davlat boshlig‘ini saylaydi. Hukumat parlament tomonidan tuziladi va uning oldida javob beradi

<b>partiya</b>	<b>партия</b>	<b>party</b>	lotincha «partio» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «ish», «qism» degan ma’nolarni anglatadi. Kooperatsiyalashuvi tizimi deb ataluvchi tizim faoliyat ko‘rsatadi. Uning mohiyati shundan iboratki, partiyanlar o‘rtasidagi raqobat kurashi faqat saylov larga tayyorgarlik ko‘rish va ularni o‘tkazish davrida olib boriladi, keyin esa u partiyanlar hamkorligi bilan almashinadi. Dominatsiya tizimi deb ataluvchi tizim ham mavjud. Bu tizimga davlatning siyosiy hayotida alohida o‘rin tutuvchi partiyaning uzluksiz, uzoq muddat davomida hokimiyatni amalga oshirishi xosdir
<b>partiyaviy tizim</b>	<b>партийная система</b>	<b>party system</b>	mamlakatda mavjud bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatayotgan barcha siyosiy partiyanlar majmui.
<b>partologiya</b>	<b>партология</b>	<b>partology</b>	partiyalar haqidagi fan
<b>politeistik</b>	<b>политейистик</b>	<b>polytheistic</b>	ko‘p xudolikka asoslangan diniy qarash
<b>populistik siyosiy tizimlar</b>	<b>популистические политические системы</b>	<b>populist political systems</b>	Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘pchilikni tashkil qiladi
<b>pragmatizm</b>	<b> pragматизм</b>	<b>pragmatism</b>	(yun. ish, faoliyat), faqat amaliy foydali natijalarni beruvchi bilimnigina haqiqiy, deb bilishga asoslangan yo‘nalish
<b>prezidentlik respublikasi</b>	<b>президентская Республика</b>	<b>presidential republic</b>	prezident parlament yo‘li bilan emas, balki maxsus tartib, ya’ni xalq tomonidan saylanadi

<b>propor-sional (vako-latli) saylov tizimi</b>	<b>пропорциональный выборы система</b>	<b>propor-sional election system</b>	dastlab partiyalar nomzodlarning umumiyligi yoki hududiy ro'yxatini tuzib, har biri o'z partiyalari foydasiga ovoz beruvchi, so'ngra nomzodlar mazkur partiyalarga berilgan ovozlarning umumiy soniga proporsional ravishda saylanuvchi saylov tizimidir
<b>qadriyat</b>	<b>значение</b>	<b>value</b>	borliqdagi narsa, hodisalarining jamiyat, guruh, shaxs ehtiyojlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligi nuqtayi nazaridan ahamiyati.
<b>qonun</b>	<b>закон</b>	<b>law</b>	empirik va nazariy jihatdan asoslangan juda umumiyligi yoki universal qaydlar
<b>quyi darajadagi elita</b>	<b>низко степень политической элиты</b>	<b>low degree political elite</b>	mahalliy doirada faoliyat olib boruvchi siyosatchilar tashkil qiladi (rahbarlar va mahalliy boshqaruv organlari deputatlari, regional doiradagi partiya a'zolari)
<b>ratsional-oshkora liderlik</b>	<b>рациональное прозрачное лидерство</b>	<b>rational-transparent leadership</b>	liderlikni saylashning tartibi, unga muayyan hokimlik vakolatlarining oqilligi, qonuniyligi to'g'risidagi tasavvurlarga asoslanadi
<b>reformatorlar</b>	<b>реформаторы</b>	<b>reformers</b>	hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohotlar vositasida tubdan o'zgartirishga intiladilar
<b>regulyativ funksiya</b>	<b>функция регулирования</b>	<b>regulatory function</b>	siyosiy bilimlarni egallash kishining siyosiy xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

<b>revolutsiya</b>	<b>революция</b>	<b>revolution</b>	jamiyat hayotini tubdan va keskin o'zgartiradi va u davlat to'ntarilishi sodir bo'lishi bilan bog'liq
<b>saylanuvchi (nomzod)</b>	<b>кандидат</b>	<b>candidate</b>	rasmiy mansabni egallashda o'z nomzodini qo'ygan individ
<b>saylov</b>	<b>выборы</b>	<b>election</b>	aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlash jarayonidir
<b>saylov tizimi</b>	<b>избирательная система</b>	<b>election system</b>	saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi huquqiy normalarning majmui
<b>saylovchi</b>	<b>избирател</b>	<b>voter</b>	nomzodni tanlash uchun saylov jarayonida ovoz beruvchi individ
<b>saylovlarning maxfiyliги</b>	<b>тайна выборов</b>	<b>the mystery of elections</b>	saylovchilarining muayyan qarori boshqa biror kishiga oshkor qilinmasligini bildiradi
<b>shaxslar</b>	<b>индивидуд</b>	<b>individuals</b>	siyosiy faoliyat subyektlari
<b>shovinizm</b>	<b>шовинизм</b>	<b>chauvinism</b>	o'ta urishqoq millatchilik bo'lib, bir millatning boshqasiga, odatda, kichik millatning katta millatga bo'ysunishini bildiradi

<b>siyosat</b>	<b>политика</b>	<b>politics</b>	an'anaviy ravishda davlat va jamoat ishlarini, odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq faoliyat sohasi. Sinflar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hokimiyat va jamiyatni boshqarishga oid munosabatlar, faoliyat, xattiharakat va kommunikatsion aloqalarning ko'p qirrali olami
<b>siyosat subyekti</b>	<b>субъект политики</b>	<b>subject of politics</b>	siyosat obyektiga yo'naltirilgan predmet, amaliy siyosiy faoliyat sohibidir
<b>siyosatshunoslik</b>	<b>политология</b>	<b>political science</b>	siyosat, hukumat munosabatlari bilan bog'liq insonlar hayotiy faoliyati, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tashkil etilishi, siyosiy institutlar, tamoyillar, tartibotlar, shaxslararo, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi fan
<b>siyosat-shunoslik obyekti</b>	<b>объект политологии</b>	<b>object of political science</b>	<i>siyosat, jamiyat hayotining siyosiy sohasi</i>
<b>siyosiy elita</b>	<b>политическая элита</b>	<b>political elite</b>	bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o'rirlarni egallagan odamlar to'dasi emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo'ladigan, mukammal tashkil etilgan hamkorlik asosidagi ijtimoiy guruhlardir

<b>siyosiy yetakchilik</b>	<b>политическое руководство</b>	<b>political leadership</b>	insoniyatga xos bo‘lgan eng qadimgi universal institutlardan biri va u davlat hamda jamiyat miqyosida hokimiyat funksiyalarini bajaruvchi subyektlardan biridir
<b>siyosiy faoliyat</b>	<b>политическая деятельность</b>	<b>political activity</b>	biror bir partiya faoliyati yoki siyosiy rahbarning nutqi yoki siyosat subyektlarining siyosiy jarayonlarda yoki boshqaruvda qatnashishi
<b>siyosiy hokimiyat</b>	<b>политическая власть</b>	<b>political government</b>	u yoki bu vosita: obro‘, huquq, zo‘rlik yordamida xalq irodasini amalga oshirish kishilarning faoliyati, xulq-atvoriga belgilovchi ta’sir ko‘rsatish qobiliyati va imkoniyatidir
<b>siyosiy inqiroz</b>	<b>политический кризис</b>	<b>political crisis</b>	qarama-qarshilik, kelishmovchilik, to‘qnashuv va ziddiyatlar natijasida hokimiyat strukturasini nazorat qilishning yo‘qolishidir
<b>siyosiy ishtirok</b>	<b>политические участие</b>	<b>political participation</b>	jamiyat a’zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini bildiradi
<b>siyosiy jarayon subyektlari</b>	<b>субъекты политического процесса</b>	<b>subjects of political process</b>	siyosiy jarayon ishtirokchilaridir. Ularga shaxslar, ijtimoiy qatlamlar, etnoslar, diniy va demografik guruhlar, ijtimoiy va siyosiy institutlar kiradi

<b>siyosiy jarayonlar</b>	<b>политические процессы</b>	<b>political processes</b>	jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqeahodisalarning ro'y berib turishi, ularning obyektiv qonuniyatlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytildi. Jarayonlar – jamiyatning siyosiy faoliyatidir
<b>siyosiy konflikt</b>	<b>политический конфликт</b>	<b>political conflict</b>	davlat, ijtimoiy va etnik guruhlar, siyosiy partiyalar va harakatlar, ma'lum shaxslarning siyosiy manfaatlari, maqsadlari va qarashlarining to'qnashuvidan iboratdir
<b>siyosiy liderlik</b>	<b>политический лидерство</b>	<b>political leadership</b>	bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir
<b>siyosiy madaniyat</b>	<b>политическая культура</b>	<b>political culture</b>	jamiyatda mavjud siyosiy tizimning tayanchi bo'lib xizmat qiladi, aholining barcha qatlamlarini birlashtirish (yoki ajratish) imkonini yaratadi
<b>siyosiy millat</b>	<b>политическая нация</b>	<b>political nation</b>	siyosiy tizimning rivojlanishi, ustuvor qadriyatlar, me'yorlariga doir yakdil bo'lgan fuqarolar birligi
<b>siyosiy muloqot</b>	<b>политический контакт</b>	<b>political communication</b>	tegishli axborotning tarqalishini o'z ichiga oladi

<b>siyosiy munosabatlar</b>	<b>политические отношения</b>	<b>political relationships</b>	siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va amalga oshirish bilan bog'liq holda jamiyatda qaror topadigan munosabatlar
<b>siyosiy omil</b>	<b>политический фактор</b>	<b>political factory</b>	fuqarolar siyosiy madaniyatining yuqori darajasi
<b>siyosiy ong</b>	<b>политическое сознание</b>	<b>political consciousness</b>	qonunlar va siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini bilish imkonini beradi, insonning atrof-muhitga va siyosiy hayotga munosabatini shakllantiradi, davlat siyosatining maqsad va mazmunini tushunishga yordamlashadi, siyosiy tizimning qolgan barcha tizimlarini mo'tadillashtiruvchi tushuncha
<b>siyosiy partiya</b>	<b>политическая партия</b>	<b>political party</b>	fuqarolarning eng faol, mafkuraviy mushtaraklik bilan bog'langan, davlatda hokimiyatni qo'lga olishga intiluvchi qismi, ixtiyoriy ittifoqi

<b>siyosiy re-jim</b>	<b>полити-ческий режим</b>	<b>political regime</b>	davlatning alohida shakli uchun xos bo‘lgan siyosiy munosabatlari, hokimiyat organlari tomonidan qo‘llanadigan usul va vositalar, davlat hokimiysi va jamiyatning qaror topgan munosabatlari, mafkuraning hukmron shakllari, ijtimoiy va sinifiy o‘zaro munosabatlari, siyosiy madaniyat va tafakkur turlarining majmui diktatura shakllaridan
<b>siyosiy tamoyil-lar va me’yorlar</b>	<b>политиче-ские тен-денции и меры</b>	<b>political trenden-ciesand measures</b>	siyosiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi va amalda siyosiy tizim doirasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi munosabatlar
<b>siyosiy tashkilot</b>	<b>политиче-ская орга-низация</b>	<b>political organiza-tion</b>	davlat, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari, ommaviy axborot vositalari va cherkov
<b>siyosiy tizim</b>	<b>полити-ческая система</b>	<b>political system</b>	siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi vositalari bo‘lgan davlat, davlat tashkilotlari va munosabatlarning yig‘indisidir
<b>siyosiy-huquqiy resurslar</b>	<b>политико-правовые ресурсы</b>	<b>political-legal re-sources</b>	bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinch-osoyishtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta’minlovchi vositalardir

<b>sotsial resurslar</b>	<b>социаль- ные ресур- сы</b>	<b>social re- sources</b>	sotsial stratifikatsiyadagi sotsial maqom yoki rang, o'rinning amalga oshirilishi yoki pasayishi qobiliyatidir
<b>sotsial-de- mokratiya</b>	<b>социал де- мократия</b>	<b>social de- mocracy</b>	har qanday siyosiy yoki ijtimoiy tizimning o'z oldiga ijtimoiy va iqtisodiy farqlarni eng kam darajaga keltirishdan iborat maqsadni qo'yishga imkon beruvchi boshqaruv shakli
<b>tashqi siyosat</b>	<b>внешняя политика</b>	<b>foreign policy</b>	siyosatning davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi turi tushuniladi.
<b>teokratik monarxiya- lar</b>	<b>теократи- ческого монархия</b>	<b>theocratic monarchy</b>	yakka hukmdor va kollegial davlat rahbariyatining mavjudligi; davlat rahbari va boshqa davlat hokimiysi oliy organlarining muayyan muddatga saylab qo'yilishi; davlat hokimiyatining o'z irodasiga ko'ra emas, balki xalq xohishi bo'yicha amalga oshirilishi; qonun bilan ko'zda tutilgan hollarda davlat rahbarining yuridik javobgarlikka tortilishi
<b>teokratiya</b>	<b>теократия</b>	<b>theocracy</b>	ilohiy g'oyaning va cherkov g'oyasining individ va davlatdan ustun turishidir
<b>tiraniya</b>	<b>тирания</b>	<b>tyranny</b>	eng buyuk va eng shavfqatsiz qullikka asoslangan hokimiyat
<b>tizim</b>	<b>система</b>	<b>system</b>	tizim ma'lum aloqa tufayli birlashgan elementlar yig'indisi

<b>to‘g‘ridan-to‘gri (be-vosiga ovoz berish)</b>	<b>прямое голосование</b>	<b>straight voting</b>	saylovchi aniq bir nomzod uchun bevosita ovoz berishi lozimligini anglatuvchi tamoyil
<b>totalitar rejim</b>	<b>тоталистарный режим</b>	<b>totalitarian regime</b>	siyosiy terror va qo‘rquvdan nafaqat haqiqiy yoki tasavvur qilingan dushmanlarni qo‘rqitish va mahv etish, balki ommani boshqarishning kundalik odatiy vositasi sifatida foydalaniladi
<b>umumxalq saylovlari</b>	<b>всенародные выборы</b>	<b>public elections</b>	barcha fuqarolarning, ularning jinsi, irqi, millati, sinfiy yoki kasbiy mansubligi, tili daromad miqdori, boyligi, ma’lumoti, diniy yoki siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar, savlovlardacha saylovchi yoxud nomzod sifatida ishtirok etuvchi saylov tizimi
<b>unitar davlat</b>	<b>унитарийского государства</b>	<b>unitarian state</b>	bu ma’muriy-hududiy, qismrlarga bo‘lingan yaxlit, bir butun markazlashgan davlat shaklidir
<b>utilitar resurslar</b>	<b>утилитарные ресурсы</b>	<b>- utilitarian resources</b>	bu kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir

<b>vakolatli (reprezentativ) demokratiya</b>	<b>представительная демократия</b>	<b>representative democracy</b>	fugorolarning qarorlar qabul qilishda o‘z siyosiy vakolatlarini ular tomonidan saylangan, ularning manfaatlarini ifodalaydigan hamda ana shu manfaatlarga mos ravishda qonunlar qabul qilishi, farmoyishlar berishi lozim bo‘lgan deputatlarga o‘tkazib berish orqali bilvosita ishtirok etishidan iborat
<b>veda bittiklari</b>	<b>надпись веды</b>	<b>inscription of veda</b>	Hindistonda siyosiy g‘oyalarning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan manba.
<b>xarizmatik liderlik</b>	<b>харизматическое лидерство</b>	<b>charismatic leadership</b>	hukmdor– liderning qudratiga xalqning cheksiz ishonchiga asoslanadi
<b>xristianlik</b>	<b>христианство</b>	<b>christianity</b>	milodning boshlarida Iso payg‘ambar tomonidan asos solingan bo‘lib, unga ko‘ra, xudo yagonadir, ammo u muqaddas uchlik (troitsa)da namoyon bo‘ladi.
<b>xususiy siyosiy jayayonlar</b>	<b>частные политические процессы</b>	<b>private political processes</b>	jamiyatda muammo va qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi va ularning o‘z yechimlarini talab qilishlari natijasida paydo bo‘ladi
<b>yopiq siyosiy tizimlar</b>	<b>закрытые политические системы</b>	<b>closed political systems</b>	tashqi muhit bilan cheklangan darajada aloqaga kirishadi, boshqa tizimlarga xos qadriyatlarga uquvsiz bo‘ladi, rivojlanish imkoniyatlarini tizim ichidan qidiradi

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 - mavzu. Siyosatshunoslikka kirish. Siyosat va siyosatshunoslik.....	6
2 - mavzu. Siyosiy nazariyalar va qarashlar .....	29
3 - mavzu. Siyosiy jarayonlar va siyosiy ishtirok .....	66
4 - mavzu. Siyosiy tizim .....	85
5 - mavzu. Siyosiy hokimiyat .....	103
6 - mavzu. Davlat - siyosiy institut sifatida .....	120
7 - mavzu. Siyosiy partiyalar va manfaatdor guruhlar.....	141
8 - mavzu. Siyosiy elita va lider.....	161
9 - mavzu. Siyosiy mafkura .....	180
10- mavzu. Demokratiya va uning rivojlanishi.....	201
11- mavzu. Siyosiy madaniyat .....	236
12- mavzu. Gender muammosining kelib chiqishi va hal etili-shi.....	257
13- mavzu. Tashqi siyosat. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi .....	279
Umumiy glossariy .....	319

**O‘. B. Biturayev**

# **Siyosatshunoslikka kirish**

**O‘quv qo‘llanma**

Toshkent– «Barkamol fayz media»— 2017

*Muharrir: M.Hayitova*

*Tex.muharrir: F.Tishaboyev*

*Musahhih: N.Xasanova*

*Kompyuterda*

*sahifalovchi A.Kuchkarov*

**E-mail: Barkamolfayz@mail.ru**

**Nashr.lits. AIN № 284, 12.02.16. Boslshga ruxsat etildi 20.12.2017.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida**

**bosildi. Shartli bosma tabog‘i 21,5 Nashriyot bosma tabog‘i 21,5**

**Tiraji 300. Buyurtma № 13**

**«Grafpoligrafprint» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Qatortol ko‘chasi, 44-a uy.**

ISBN 978-9943-5142-1-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-5142-1-8.

9 789943 514218